




Chingiz
AYTMATOV

YUZMA-YUZ





„Jahon adabiyoti oltin fondi“

CHINGIZ AYTMATOV

QISSALAR

Yuzma-yuz



Jamila



Sarviqomat dilbarim

„QALDIRG‘OCH NASHRIYOTI“
TOSHKENT – 2019

UO'K: 821.512.154-31
KBK: 84(5Kup)
A 38

Aytmatov, Chingiz
Qissalar / Muallif Aytmatov Chingiz. – T.: „Qaldirg‘och
nashriyoti“, 2019. – 280 b.

Mas'ul muharrir
ASHURALI JO'RAYEV

UO'K: 821.512.154-31
KBK: 84(5Kup)

ISBN 978-9943-5946-0-9

© Ch. Aytmatov
© „Qaldirg‘och nashriyoti“, 2019.

YUZMA-YUZ

Shamol uchirib kelgan yaproqlar kichkinagina stansiyaning kechasi miltillab ko'ringan yolg'iz fonusiga urilib, parvonadek aylanardi-da, qorong'ida ko'zdan g'oyib bo'lishardi.

Shu kecha teraklarning yaproqlari tinmay to'kilib turdi. Shamdek terilgan qalin teraklar shamolning zo'ridan uch-uchlaridan to ildizigacha zarb yeb, dam-badam tebranishardi. Terak shoxlari yuqorida dengiz singari chayqalib shuvullasharkan, o'z boshlariga tushgan allaqanday og'ir musibat to'g'risida bir-birlari bilan hasratlashayotgandek tuyulardi. Dara bo'ylab esgan muzdek shamol ularni bugun tunda bir yo'la ship-shiydam qilmoqchiga o'xshardi.

Qorayib ko'ringan Qoratog' darasida qorong'i tun. Daraning eng pastki etagida joylashgan stansiya atrofi yanada qorong'iroq. U ko'zga g'ira-shira ko'rinib turardi. Qattiq uyquga cho'mgan tun faqat stansiyadan poyezdlar nariberi o'tgandagina yorug'dan ko'zi qamashgandek seskanib ketardi-da, yana o'sha zahotiyoq atrofni zulmat qoplardi. Poyezdlar o'tib ketgandan keyin, ancha vaqtgacha stansiyada qimirlagan jon yo'qdek, tevarak-atrofn chuqur sukunat chulg'ab olardi.

Bu yil kuzda eshelonlarning keti uzilmay g'arb tomonga qatnab turdi. Mana hozir ham olisdan changga botib, horib-charchab kelgandek, uzun sostavli eshelon bir-biriga taq-tuq urilib, stansiyaga kelib to'xtadi. Poyezddan biron kimsa tushmadi. „Bu qaysi stansiya?“ deb hech kim qichqirib so'ramadi ham: horib kelgan butun eshelon shirin uyquda. Etigini do'qillatib, fonusini ola yugurgan stansiya navbatchisi parovozni ko'zdan kechirib borayotganda, oxirgi vagonlarning biridan muhiti naybarchi boshini chiqarib qaradi. Tashqarida, tanish darada, odatdagidek, tungi shamol esib, stansiyaning pastqam, yolg'izoyok ko'chasining narigi tomonida shovullab oqayotgan suv yer ostidan qaynab chiqayotgandek ko'niklanib turardi.

Teraklarning shatir-shutur to'kilayotgan yaproqlari kishi qalbiga hazin ma'yuslik baxsh etardi. Haligi odam qorong'ida bironing sharpasini eshitgandek bo'lib, teraklarning shuvullashlarini ancha vaqtgacha tinglab turdi. Shu mahal muzdek bir yaproq uchib kelib uning yuzini yalab o'tganda, eti jimirlab, seskanib ketdi-da, chirog'i xiragina yonib turgan vagon ichiga, keyin tashqariga yana nazar tashladi. Atrof zim-ziyo, hech kim ko'rinmaydi.

Birozdan so'ng vagondan pinhona ajralgan bir kishi yurganicha ariq bo'yidagi butalar orasiga engashib borib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Hayal o'tmasdan „Chur-r-r“ etgan qattiq hushtak ovozi eshitildi. Miltiqli kishi o'rnidan tura solib yugurdi-yu, yana shu zahotiyoq o'zini yerga tashladi-da, jim qoldi. U o'zicha: navbatchi hushtak chalib, eshelonni jo'natayotgan bo'lsa kerak, deb o'yladi. Jim turgan vagonlar, go'yo bir-birlarini uyg'otgandek tebranishib, poyezd o'rnidan qo'zg'aldi.

Eshelon ko'prikdan taq-tuq o'tib, tunnelga yaqinlashdi. Orqadagi, yalt-yult etib turgan qizil chiroqlar ko'zdan g'oyib bo'lganda, parovoz yana damini rostlab, biroz tinchigan kichkina stansiya bilan xayrlashayotgandek bor kuchi bilan devdek bo'kirdi. Uning uzoqlarga yangrab ketgan ovozi tog' qoyalarigacha yetib bordi-da, hamma yoqni larzaga keltirib, teraklarda tunagan zog'chalarni ham uyqusidan cho'chitib yubordi. Ovozlar bosilib, bezovtalangan zog'chalar tinchigandan so'ng, poyezddan tushib butalar orasiga yashirinib yotgan kishi suv ostidan chiqqandek entikib-entikib nafas ola boshladi. Eshelon tobora uzoqlashgan sari g'ildiraklarning temiryo'lga taq-tuq etib urilgan ovozlari ham yiroqlashib borardi.

Shu kecha teraklarning yaprog'i to'kilib chiqdi. Qora-tog' darasida qorong'i tun...

Ko'zi yorigandan beri Saidaning uyquasi qush uyqusidek sergak bo'lib qoldi. U hozir ham go'dakni qayta yo'rgaklab, lipillab yonib turgan pilta chiroq yorug'ida beshikka bag'rini berib, bolasini emizib o'tiribdi. To'rda ko'rpa ustidan chopon-moponlarini qalin yopinib qaynonasi yotardi. Kampir keksayib qolgan, kasal qo'y singari xirillab yo'talar,

Xudoga sig'inishdan bo'lak narsani bilmasdi. Hatto tushida ham nuqul „ey, Parvardigor, o'zing bilasan...“ deb qo'yardi. Shunday bo'lsa-da, Saida kolxozga ishga ketganida, kampir eplab-seplab bolasiga qaraydi – bekor o'tirmaydi. Sho'rlik nima ham qilsin! Bolani ayollar ishlagan joyga ko'tarib borarkan, labi-lunji ko'karib, entikib tursa ham, o'z ishidan nolimaydi. Yolg'iz kelinining ko'z ochib ko'rgani – nabirasiga u qaramay kim qarasin!

Tun allaqachon yarim kechadan og'ib ketgan, biroq ko'zga hech uyqu kelmaydi. Zamona shunday bo'lgandan keyin uxlab bo'ladi deysizmi?! Urush, dahshatli urush ketyapti, „German“, „fashist“, „chaqiriq qog'ozi“ degan g'alati so'zlar chiqib qoldi. Ovulda kuniga qiy-chuv, kuniga bo'yinlariga xalta-to'rvalarini osib olgan yigitlar... „Xo'sh! Xayr endi, yig'lab-siqtab yurmanglar!“ deb telpaklarini bostirib kiyib olgan erkaklar to'p-to'p bo'lib askarga jo'nar edilar. Ularning orqasidan yig'lab qolgan xotin-xalajlar izillashib, aravalar olis ketguncha tepalikdan kuzatib turishar, so'ngra shumshayib uylariga xomush qaytar edilar. Zamona endi nima bo'ladi? Endi ularning holi nima kechadi? Askarga ketganlar qaytib kelarmikin?

O'tgan yozda cho'pon qizi Saida o'sha ovulga kelin bo'lib tushganida, ularning uyi hali qurilib bitmagan edi. To'rt devori tiklanib, usti yopilgani demasa, hali ishning eng og'iri – somon suvog'i, qum suvog'i turgan edi. Ular ahyon-ahyonda kolxoz ishidan bo'shagan paytlaridagina bunday ishlarga qo'l urardilar, xolos. Balki Saidaning baxti ham o'sha paytlarda ochilib ketgandir... U qallig'i bilan tom orqasida loy qorib yurgan kezlardagi quvnoq kunlarni qo'msar edi. Ular ariqdan shildirab oqib kelayotgan iliq suvni burib qo'yib pochalarini sonlarigacha shimarib olib, tuproq bilan somonni aralashtirib loy qorishib yurganlarida qallig'i Saidaning baquvvat qo'lini siqib ushlab, sekingina bildirmasdan loy ostidan uning oyog'ini bosib tegisharkan, u shunchaki achchiqlanib qo'yardi:

– Qo'ysangiz-chi, sizga nima bo'ldi. Onam ko'rib qolsa, uyat bo'ladi! – derdi-yu, o'zi bo'lsa shu zahotiyuq erkalanib uning bo'yniga osilib qiqir-qiqir kulardi:

– Qo‘ysangiz-chi, e-e, yuzingizning loyiga bir qarang-a!

– O‘zing-chi, oldin o‘zing bir tomosha qil-a! – Shunda Saida yerda yotgan kamzulchasining cho‘ntagidan kichkinagina toshoynachasini olib qallig‘iga ko‘rsatmay, teskari burilib o‘ziga qarardi-da, loy sachrab qizarib ketgan yuzlarini ko‘rib, o‘zi ham shuni istagandek yosh bolalar singari yayrab kulardi. Betga sachragan loy ham gapmi? Mayli, sachray bersin, undan kishining go‘zalligi ketib qolmaydi-ku!

Saida kechqurun ariqda cho‘milib, o‘rik tagidagi to‘shakka kirar ekan, uning muzdek suvdan rohatlangan badanidan oqar suvning yoqimli tafti chiqib turganini va bundan o‘zi ham allanechuk xushro‘y bo‘lib ketganini sezib yotardi... Ular tashqarida yotib yurgan o‘sha turlarning gashti ham o‘zgacha edi. Osmonning bir chekkasidagi bulutlar bilan chirmashgan qorli tog‘ qoyalari ustida charaqlab yongan bir to‘da yulduzlar oq sadafdek tovlanib ko‘rinardi. Tog‘dan esgan salqin shamol ko‘rpaning past tomonidan sizilib kelib, kishining yuzini silab ketgandek bo‘lardi. Bir bedana ariqning narigi tarafidan, o‘rta o‘rimga kelgan beda orasidan shildirab oqqan suvga jo‘r bo‘lib „pitpildi, pitpildi“ deb sayrardi. Ariq bo‘yidagi yalpiz ham atrofga xushbo‘y hid taratib turardi...

Saida yana yotgan joyida erining pinjiga kirib, yumshoq qo‘llari bilan uning bo‘ynidan erkanib quchar edi... Ular tuni bilan shirin-shirin xayol nash‘asini surishar: uy-joyni qurib bitkazsak, mol-hol qilsak, ro‘zg‘or qursak, so‘ngra Saidaning ota-onalarini chorlab, ularning xizmatida bo‘lsak, deb orzu qilar edilar.

Saida turmushning huzur-halovatini endigina bila boshlagan edi. Ikkalasi ham tengqur, bilaklari ayni kuchga to‘lgan, bir-birlariga chunon g‘amxo‘r va mehribon edilar. O‘z peshana terlari bilan imorat solib, el qatori chiroq yoqib, songa qo‘shilgan edilar. Ular tong otib, kech bo‘lganini ham bilmasdilar.

Imorat somon suvog‘idan chiqar-chiqmas urush boshlanib qoldi. Shu-shu, oradan ko‘p o‘tmay yigitlar askarga jo‘nay boshlashdi. Shirin-shakar kunlar tushda ko‘rgandek o‘tdi-ketdi.

Yurakni o'rtab xayrlashgan o'sha kun xuddi kechagina bo'lib o'tgandek. Askarga ketayotganlarni ovul che-tiga kuzatib chiqqanlarida, ko'pchilikdan iymangan Saida eri bilan ko'ngildagidek quchoqlashib xo'shlasha olmadi. Ular bir-biriga qo'l berishibgina ajralishdi. Qa-chonki, yigitlar ko'zdan uzoqlashganlaridan keyin Saida uyatini bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, erini so'nggi marta quchoqlab, o'pisha olmay qolgani va „bo'yimda bo'lganga o'xshaydi“ degan xushxabarni bir og'iz ayta olmaganidan qattiq kuyundi. O'sha o'kinchli armon, ushalmagan orzu, tarqalmagan xumor o'shandan beri uning qalbini tirnab, iztirobga solardi.

Chiroqning piligi lip-lip etib, arang yonmoqda. Go'dak ko'krakni og'zidan chiqargisi kelmay, uyqu aralash bir-ikki tamshanib qo'yardi-da, onasining ko'kragini iydirardi. Beshikka enkaygan Saida esa o'tgan kunlarni xotirlab, xayolga cho'mardi.

Tashqarida derazani birov chertgandek bo'ldi. Ko'zi endigina ilingan Saida boshini birdan ko'tardi-da, quloq solib turdi. Deraza yana ehtiyotkorlik bilan sekin chertildi. Saida darhol bolasini ko'krakdan ajratib, beshikka yotqizdi-yu, yoqasining tugmalarini solib, asta qadam tashlab, derazaga yaqin keldi. Eshik zimiston qorong'i, pastakkina derazadan tashqarida hech narsa ko'rinmaydi. Saida ijirg'anib, titrab ketishi bilan oq sochbog'i shildirab, yelkasiga ilgan cho-poni yerga chuvalib tushdi.

– Kim u? – seskanib so'radi Saida.

– Men... Eshikni och, Saida! – deb bosiq ovoz bilan sabrsizlanib javob berdi tashqaridagi odam.

– Sen kimsan? – shubhalanib yana so'radi Saida va de-razadan o'zini chetga olib, lol bo'lib angrayib qoldi.

– Hoy, bu menman, Saida, och eshikni!

Saida derazaga yana qadalib qaradi-da, birdan boshi-ni ushlab, eshikka yugurdi. U qaltiragan qo'llari bilan qorong'ida eshik ilgagini topolmay paypaslanib, so'ngra uni shartta ochib yubordi-da, ovoz chiqarmay ro'parasida turgan kishini quchoqlagancha yiqildi.

– Enamning bolasi! Enamning bolasi! – deyardi u shi-

virlab, so'ng toqati toq bo'lib: „Ismoil!“ deb uning o'z otini aytib, quvonchdan ho'ngrab yig'lab yubordi. Xudo uni qayerdan yetkazdi: uning askarga ketgan umr yo'ldoshi omon-eson qaytib kelibdi! Ana u, og'zidan maxorka hidi kelib turibdi. Kulrang shinelining yoqasi tayoqdek qattiq ekan.

Ismoil nimadandir seskangandek, vujudi qaltirab, qo'li bilan Saidaning bo'yni va boshini shoshilinch ravishda tez-tez silardi.

– Qani, ichkari kiraylik! – dedi u, Saidani quchoqlab ostonadan uy ichiga olib kirarkan.

– Ana xalos! – dedi Saida hushiga kelgandek. – Iya, voy sho'rim, onamdami suyunchi olayin!..

– Jim! – Ismoil uning qo'lidan ushlab oldi. – Shoshma, uyda kim bor?

– O'zimiz, o'g'lingiz beshikda!

– Qo'ya tur, o'pkamni bosib olayin!

– Onam xafa bo'ladi.

– Sabr qil, Saida!

Saida hali ham ko'zlariga ishonmagandek quchoq ochib, Ismoilning bo'ynidan qattiq quchib oldi. Qorong'ida ular bir-birlarining yuzini ko'rgan emas, biroq ko'rgan-ko'rmaganda nima – kigizdek qalin shinel ostidan Ismoilning yuragi dukullab urayotganini Saida busiz ham yaxshi sezib turardi. Uning issiq va sovuqdan qotib to'rlab ketgan lablarini u hozir tushida emas, balki o'ngida o'payotgan edi.

– Qachon qaytdingiz? Butunlay bo'shab keldingizmi? – deb so'radi o'ziga kelgan Saida. Entikib turgan Ismoil ovozi titrab, shoshib-pishib gapirdi:

– Stansiyadan tushganimga biroz bo'ldi... Tura tur, men hozir...

U shoshilib eshikka chiqdi-da, saroyga yashirincha kirib, darrov qaytib keldi. Ismoil qo'liga ushlab olgan miltig'ini tashqari uydagi shoxlarning ostiga tiqib yubordi.

– Bu nima? – dedi Saida. – Uyga olib kiravermaysizmi?

– Nafasingni chiqarma, sekin!

– Bu nima qilganingiz?

Ismoil javob bermay Saidaning qo'lidan ushlab:

– Yur, o'g'limni ko'rsat! – dedi.

* * *

Har kun oqshom yulg'un aralash ko'm-ko'm chiy va qamishzorlar bilan qoplanib yotgan keng daladan Saida yakka o'zi o'tin ko'tarib kelardi. U soyma-soy, qirmaqir, o'nqir-cho'nqirlardan yurib o'tib, ovulning ustiga yetganda, tepalikka o'tirib olib, so'nggi bor dam olardi. Ko'kraklari aralash tang'ib olingan arqon halqasini bo'shatib, yuzidagi terini sidirib tashlardi-da, gavdasini yozib, orqasidagi o'tin g'aramiga suyanganicha bir zum qo'zg'almay o'tirardi. Atrof tuman, ovul ko'chalarida ketayotgan aravalarning taraq-turug'i va nari-beri o'tib turgan yo'lovchilarning gangir-gungur ovozlari eshitilib turardi. G'ir-g'ir esayotgan mayin shabada qovurilgan jo'xori hidini ahyon-ahyonda dimog'ga keltirib urardi.

Saida bu safar dam olishga ulgurganicha yo'q edi, pastlikdan parovozning qichqirgan ovozi yangrab, katta kuch bilan dara tomonga birin-ketin chuvalashib o'tib borayotgan poyezd vagonlari elas-elas ko'zga chalinib qoldi. Saida parovoz qichqirig'ini eshitishi bilanoq o'zining tepalikda o'tirganini payqab, atrofga alanglab qaradi-da, shoshilinch ravishda arqonni yana qayta tortib bog'ladi. Parovozning qichqirig'i Ismoilning tunov kungi eshelondan tushib qolib, tunda qochib kelganini eslatib, uning ko'nglini g'ash qilgan edi.

Saida ko'chaga yaqinlashib borarkan, yo'lda biron kimsa yo'liqib qolishidan xavotirlanar va: „oydin kechalar tezroq o'tib ketsa-chi!“ deb o'zicha ko'nglidan o'tkazardi. Shundagina har qanday shubhalardan qutular, Ismoilga ovqat hozirlash uchun kuniga o'tinga qatnashdan ozod bo'lardi. Xotin-xalajlar o'tin bor yerga bizni ham olib borasan deganlarida, Saida ularga lom-mim demasdi. Hammani qo'yib, ularni g'orga ergashtirib borib bo'larmidi! Ismoil o'sha yerda emasmi, Xudo asrasin, agar ular biron narsadan xabar topib, shubhalanib qolsalarmi! Ismoil kunduz kunlari g'orda yotib, oysiz qorong'i tunlarda yashirincha uyga qaytardi. U uyga kelgan paytlarda ham derazalarini mahkamlab, eshik ilgagini ichidan ilib o'tirishardi. Har ehtimolga qarshi Saida so'rining ostidan o'ra qazib, uning ustini chiy va kigiz bilan berkitib, tayyorlab qo'ygan edi.

Ular shu zaylda hayot kechirar edilar. Chala-chulpa eshitgan quloqlari ovda bo'lib, kampir onasi bo'lar-bo'lmasga atrofga alanglab, jiyagi qizil, xiralashib qolgan ko'zlari bilan o'g'liga achingandek g'amgin termilib: „Eh, bolam, sho'rlik bolam!“ degandek xo'rsinib yig'lamsirar edi.

Ismoil ovulda nima gaplar ketayotganligini so'rab qo'yar, yoki bo'lmasa ko'pincha charchagan kishidek, boshini quyi solib, o'ylash nima ekanligidan hali yiroq bo'lgan uch oylik bolasini qo'yniga olib, qarshisidagi qozonga qachon qaynar ekan, degandek termilib, qovoq osib o'tirardi. Yorug' tushmasdan o'z o'rniga yetib olishi uchun uning ovqatini ertaroq berib jo'natish zarur edi. Saida o'choq boshida o'ralishib yurarkan, eri tomonga lutfan qarab olib, o'zicha turli xayollarga berilardi. U Ismoilga achinar, undan ayrilib, yetim-yesir bo'lib qolmasak edi, deb qo'rqardi. Yorug'likka chiqmay g'orda yotaverganidan Ismoilning rang-ro'yi siniqib shishib ketgan, iyaklaridagi o'sib ketgan soqollari ham tikandek dikkayib turardi. Uning ko'zlari goh aybdor kishidek alanglab, goh qorachig'idagi qora nuqtalar o'tdek yonib, yeb qo'ygudek o'qrayib qarardi. Uning vajo-hatini ko'rib kishi beixtiyor hang-u mang bo'lib qolardi.

Ismoil ilgarilari ham shunday edimi? Quyoshdan qorayib ketgan kuchli muskullari terdan yiltirab, ertadan kechgacha charchash nimaligini bilmay ishlardi. O'shanda Saida ikkalalari imorat qurdilar. O'shanda turmush kechirish qanday bo'lib, qanday qo'yishi hech kimning esiga ham kelmagan edi. Ular ham boshqalar qatori kolxozda ishlab, baxtli hayot qurish, bola-chaqali bo'lib, ularni voyaga yetkazish orzusi bilan yashar edilar.

„Imoratni bitkazsak, chorbog'ni begona ko'zlardan devor bilan o'rab olsak, ayni muddao bo'lardi!“ deb yurardi Ismoil. Endi-chi... Endi bo'lsa u qochqin. Hatto o'z uyiga ham ochiq kela olmaydi, kechasilab o'g'ridek yashirinib keladi. Kelganda ham o'z uyi unga o'lan to'shak bo'la olmaydi, balki boshqa biror begona yerda o'tirgandek hadik-sirab, qattiqroq so'zlashdan cho'chib, shivirlab gapirishardi. Saida bularning hammasini ko'rib-bilib o'tirgan bo'lsa ham, ko'ngliga olmaslikka harakat qilardi.

Eri o'g'lini olib, o'z yoniga kelib o'tirgan o'sha tunlarda Saidada bir soat bo'lsa ham hamma narsani unutib, baxtiyor hayot kechirishni jon-dilidan orzu qilardi.

„Mayli, qochqinchi bo'lsa qochqinchi deyaversinlar, menga oltin boshi omon bo'lsa bo'lgani!“ – deb, xamir yoya turib o'zini o'zi yupatardi. Erkak kishi nima qilsa o'zi biladi. „Har kimga o'z joni aziz, bu urushda o'zini ehtiyot qilgan kishigina tirik qoladi!“ – deb Ismoilning o'zi aytmabmidi. Demak, unga aql o'rgatish mening vazifam emas, hammani qo'yib, suyakni etdan ajratib, uni yomonotliqqa chiqarishga yo'l qo'yarmidim. „Tushimga kirmagan, ota-bobom ko'rmagan allaqayerlarga, yerning ostidagi frontga borib jang qilishni menga kim qo'yibdi. Bir kunlik umrim bo'lsa ham shu yerda o'tkazaman!“ – deb to'g'ri aytadi u.

Haqiqatan ham faqat Ismoil bilangina ish bitarmidi? Hech kimga zarracha ziyoni tegmagan bo'lsa, qochsa o'z boshini saqlab qochib yurgandir. Bundan hukumatning xazinasi kamayib qolarmidi! „Xudo xohlasa, bir amallab qishdan chiqib olsak, bahor kelib dovon ochilishi bilanoq Chotqolga ketamiz“, derdi eri. U yerda – „Cho'ng jilanda Ismoilning tug'ishgan, ishonchli kishilari bor. U yerda sen kelding-qo'yding deb hech kimning ishi bo'lmas emish. Ha, Chotqolgina emas, undan nariga bo'lsa ham mayli. Ismoil yonimda bo'lsa bas, bariga ko'naveraman. Qani endi qishdan omon-eson chiqib olsak. Uyda jo'xori ham oz qolgan, qishning yarmigacha arang yetishi mumkin... Xalqning turmushi ilgarigidek emas, tanqislik, ularning ham bahorga yetar-yetmas donlari qolgan...“

* * *

Erta bilan ariq bo'yidagi shuvoqlarning uchlari oqarihib, quvraylarning qirov bosgan urug'lari yerga to'kilib, laylakqor bir yog'ib, bir tinib, erib yotgan edi. Ovul orasidagi ekinzor yerlarda yoyilib yurgan qo'y-qo'zilarning namli junlaridan qo'ng'ir bug' ko'tarilib, ularning orqasidan qolishmay shaqshaqlashib ergashib yurgan zag'iz-

g'onlar qizil et izlashib, bir qo'yning ustidan ikkinchisiga uchib qo'nishardi. Tog' orasiga tumanli qish ham kirib keldi. Urush bo'lsa kundan kunga kuchayib, yaqin orada to'xtamaydiganga o'xshardi. Frontga esa tobora ko'proq odam jo'natilmoqda edi.

Bu gal soqol-mo'ylovi endigina sabza urib kelayotgan o'n sakkiz-o'n to'qqiz yoshlardagi o'spirin yigitlar ham yoppasiga jo'natilayotgan edi.

– Bo'talarim, kechagina yalangoyoq chopqillab yurgan bolalar bugun hademay kap-katta bo'lib, yoshlikning gashtini surmay, dunyoning huzur-halovatini tatimay jo'nab ketishayotir! Eh, yer yutkur german, ajaling yetmadi, biz qutulmadik! – deyishib, chol-kampirlar hassa-tayoqlarini sudrashib, bukchayganlaricha bo'za ichilayotgan uy yonidagi chetanli aravalar atrofiga to'planishayotgan edi. Bo'zaching uyidan bolalarning qiz-kelinlar bilan so'nggi marta to'planishib kayf ustida kishi qalbini iztirobga solib, hayajonlantirib, qandaydir xonish bilan kuylayotgan ovozlari eshitilardi.

– A-a, sadag'ang ketaylar, ovozlaringni eshitadigan kunlar yana kelarmikin! – deyishib kampirlar ko'z yoshi to'kardi. Saida ham ularning orasida o'tirgan edi. Hali uning yaqin qaynisi Jumaboy ham shirakayf bo'lib keldi:

– Yuring, yanga, bo'za buyurib keldik, o'sha yerdan xayrlashib jo'namoqchi bo'ldik.

– Yuring...

Saida Ismoilga oborish uchun yorg'ichoqda tolqon tuyib o'tirgan edi. U bolaning ko'nglini o'ksitgisi kelmay, nima deyishini ham bilmay qoldi:

– Sizlarni ko'chadan kuzata qolayin, aylanay, mening u yoqqa borishim uyat-ku...

– Nimasi uyat, hech bo'lmasa Ismoil akam uchun kuzatarsiz-ku, hozir u urushda o't kechib yurgandir... Nasib qilib uchrashib qolsak, yangam kuzatib qo'ydi, deb ayta-man. Dushmanni yengib g'alaba bilan kelsin, desangiz,

yuring, o'z ko'zingiz bilan jo'nating. Mening boshqalardan qayerim kam. Hammani ota-onasi, aka-ukalari jo'natishayotir, meni-chi?..

Saida uning bu so'zlaridan dovdirab, nima deb javob qaytarishini bilmay qoldi. Uning qizarib ketganini Jumaboy ham payqadi:

– Ii, yanga, qiziq ekansiz, shunga ham uyaldingizmi! Qani bo'lmasa yuring, orqada qolmasdan yuring!

Hozir ham Saida unga tik qaray olmay, o'zini odamlar orasida yotsirab, aybli sezgandek, ro'moli bilan og'zini berkitib jimgina o'tirardi. Mana, erta-indin ajal bilan olishadigan bu o'spirin yigitlarning sir boy bermay o'zaro chug'urlashib, xirgoyi qilib o'tirishlari ularni ko'zga ayniqsa olovdek ko'rsatib, tug'ishgan og'a-inilarni eslatardi. Darhaqiqat, insonning qadr-qimmatini ham ko'pincha shunday ayriliq kunlarda bilinmaydimi? Ularning faqat o'zlari haqida, o'z taqdirleri to'g'risidagina emas, balki bunda qolayotgan el-yurtining taqdiri haqida o'ylayotganlarini o'ylasang, yurak-bag'ring ezilib, uzilib ketgandek tuyulardi.

Ana, bo'zadan yuzlari qizarib, lola rang bo'lib ketgan Jumaboy quvonchga to'lib, beso'naqay gavdasini eplay olmay, qo'lida kosa ushlagan tepalikda gansiraklab turibdi. Uning tug'ishgan akasi – ovul baxshisi Mirzaqul chap qo'lidan ajrab, yaqinda frontdan qaytgan. U hozir ovulda rais bo'lib ishlaydi. Mirzaqulning ashulalarini hatto ko'chada o'ynab yurgan mayda bolalar ham aytib yurishadi. Ularni eshitsang bormi, eting jimirlashib, ko'zingdan yum-yum yosh oqadi. Jumaboy ham hozir akasining sevimli ashulalaridan birini cho'ziq ovoz bilan kuylay boshladi:

*„...Ey-i-i!..
Oltmish vagonni tirkab,
O'qdek uchgan parovoz.
Ovulimdan jo'nayapman,
Qadrdonlar, xayr-xo'sh!*

*Yetmish vagonni tirkab,
Yelib uchgan parovoz,
Yurtimdan ketayapman,
Yangalarim, xayr-xo'sh!..“*

– Oq yo'l, yigit! – deb o'tirganlar bir ovozdan ma'qullashdi. – Seni yangalaringdan judo qilgan dushmanni yengib omon kel!

Jumaboy boshini yuqori siltarkan, kuchga to'lib, hech kutilmaganda ulg'ayib qolgandek bo'ldi-da, yuzida harbiylarga xos jiddiylik aks etdi. U derazadan ko'rinib turgan tog' cho'qqilaridan ko'zini uzmay, o'zining kindik qoni tomgan yer, unib-o'sgan ovulidan yana bir soatdan so'ng butunlay yiroqlashib ketishini ko'z oldiga keltirgandek kuylashda davom etdi:

*„Ey-i-i!..
Aris sari ketarmiz
Olatog'dan ko'z uzmay.
Qorli cho'qqilar ham jilar
Bizdan ayrilib qolmay!..“*

O'ygacha cho'mib o'tirgan Saida hozir hamma narsani unutgan edi. Uning nazarida tunneldan ancha nariga cho'zilib ketgan qozoq dashtlaridan tutunini burqsitib yeldek uchib borayotgay poyezd vagonlari eshiklariga to'planishib olgan yigitlar tobora o'zlaridan uzoqlashib, sekin-asta ko'zdan g'oyib bo'lib borayotgan Olatog'ga qarab ashula aytib, qo'llarini siltab xayrlashayotgandek tuyuldi. Shunda Saida o'zini ham poyezd bilan birga, xuddi yonmayon yugurib borayotgandek, keyin unga yeta olmay orqada qolib, gandaraklab, simyog'ochlarga suyanib qolgandek his etdi. U emas, balki simyog'ochlarning temir qo'biz singari „bo'taday“ bo'zlab yotgani quloqqa chalinardi.

Jumaboyning ashulasini butun vujudi bilan berilib tinglagan Saida sekin boshini ko'tarib, atrofda o'tirgan-turganlarga bir sidra nazar tashlab chiqdi. Go'yo ovul atrofiga ajdah kelib qolgan-u, o'sha yerga to'planishayotgan yosh-

lar yutib yuborgudek na'ra tortib bo'kirayotgan afsonaviy ajdaho bilan olishuvga shaylanayotgandek, xalq bilan birga yig'lagani yig'lab, kulgani kulib, biroq boshga tushganni ko'z ko'rar, deganlaridek, seniki-meniki demay, hamkorlik va hamjihatlik bilan oxirida o'ynab-kulib bir-birlariga yaxshilik tilayotganliklari Saidaga cheksiz quvonch bag'ishlab, uning qalbini hayajonlantirib yubordi.

Qani endi, qo'lidan kelsa-yu, Saida ularni o'z panohiga olib, o'ziyoq dushmani tor-mor etib tashlasa. Xayolida u hozir o'rnidan tura solib: „Eh, sadag'alarining ketay sizdek bolalarni. Endigina guldek ochilgan chog'laringda el-yurtdan ajrab, bo'zlagancha bosh olib ketsalaring! Ruxsat beringlar, sizlar uchun men borayin!“ – deb hammaga oshkora aytishni xayolidan o'tkazardi. Biroq shu zahoti, Ismoilga tolqon tuyib yetkazish zarurligi esiga tushib qoldi. Uning xayoli goh Ismoilida, goh uyida, goh harbiy xizmatga jo'nayotgan kishilarda yashin tezligida uchib yurardi.

Yigitlar tashqariga chiqqanlarida, aravalar atrofiga to'planishib turgan xaloyiq ham asta-sekin chayqalib qo'zg'ala boshladi.

Burul soqol, chanoq suyaklari chiqqan, qizil yuzli yilqichi Parpi yig'in chekkasida otini gijinglatib:

– Omin! Ota-bobolarining arvohi qo'llasin, g'alaba yor bo'lsin sizlarga! – dedi. Keyin yana nimadir aytmoqchi bo'ldi-yu, biroq chamasi kelmay ot yoliga enkayib, turtib chiqqan yelkalarini irg'ab-irg'ab, ovuldan tashqariga yo'rtib ketdi. Aftidan, u nomusi kuchlilik qilib, ko'pchilik ichida ko'z yoshini ko'rsatmaslikka harakat qildi shekilli.

Qiy-chuv aralash aravalar uzoqlashib, tuman ichida ko'rinmay qoldi. Biroq muzlab qolgan yo'ldan ketib borayotgan arava g'ildiraklarining taqir-tuqur ovozi ancha vaqtgacha eshitilib turdi. Aravalar tekis yo'lga chiqib olganlaridan keyin, jimib qolgan bolalarning:

„...Yurtimdan ketayapman,

Yangalarim, xayr-xo'sh!.. “ – degan ovozlari yana aks sado bergandek quloqlar ostida jaranglab, xotinlarning ko'nglini o'ksitib, chuqur iztirobga solgan edi. Barchaning ko'nglida: „Bularning qaysisi kelib, qaysi biri qolarkin?“ –

degan xayol hukmron edi. Saida alam ichida ma'yusgina termilib turgan xalqni ko'rib:

„Erim uyga yo'lay olmay qochib yuribdi, deb noshukurchilik qilmasam ham bo'ladi, ishqilib, bir amallab o'z jonini omon saqlab yursa bo'lgani“, deb Xudoga sig'inib, o'zicha tavba-tazarru qilayotgan edi.

Ovozlar tinib, ovul tinchlangandan so'ng, Saida xal-tadagi tolqon bilan bir-ikkita nonni qo'yniga tiqib, o'roq va arqonlarini oldi-da, tezgina o'tinga chiqib ketdi. Butun adirlarni tuman qoplab olgan, ko'm-ko'k tog' bag'irlari tun kabi jimjit, „qag“ degan qarg'a, „kuk“ degan quzg'unning ovozi eshitilmaydi. Faqat shamolning sekin vishillab kelayotgan ilon singari unda-bunda to'p-to'p bo'lib o'sib turgan qamishlarni siypalab o'tgan ovoziga eshitalardi. Tuman ichida bir ayol, qo'rquv aralash atrofga nazar tashlab, o'zining eng yaqin, eng mehribon kishisi huzuriga shoshib borayotgan edi.

* * *

Keyingi paytlarda pochalyon Qurmon og'a ko'cha etagidagi ikkala xonadonga yo'lamay, shoshilgan bo'yicha chetlab o'tadigan bo'lib qolgan. Unga ko'zi tushgan To'tioy, eridan xat kelmasligiga ko'zi yetgan bo'lsa ham, o'g'irda tuyayotgan mashog'ini qoldirib, qoqsuyak bo'lib ketgan chayir qo'llarini siltab, bo'g'iq, titroq ovoz bilan qichqirdi:

– Hoy, pochachi amaki, bizga xat bormi?!

Shu mahal kun qizig'ida tosh o'ynab o'tirgan To'tioyning uchala bolasi bundan xabar topib, shovqin solishib, qiyqirishib, biridan biri o'zib, g'izillaganча yugurib qolishdi:

– Ana, ana Qurmon amakim! Ko'ryapsanmi!

– Otamning xati!

– Otamdan xat keldi!

Pochalyon chol dovdirab, ularga javob qaytaraman deguncha bolalar yetib kelishib, ot tizginidan, uzangi bog'laridan tortqilashib, ovulni boshlariga ko'tarib qiyqirishardi.

- Qani, otamning xati?

- Men olaman!

- Yo'q, men, men olaman, Qurmon amaki, menga bering!

- Voy tirranchalar-ey, bu xat emas, deyapman-ku! U, qo'quy, ooy, - deyardi shoshib qolgan Qurmon. - Bilmasdan baqiraverasizlarmi?

Bolalar arazlashgandek, nafaslarini ichlariga yutib jim qolishdi. Ularning ketishlarini ham, qolishlarini ham bilmay, biron narsa kutayotgandek ishonchsiz termilib turishlarini ko'rib, Qurmon og'aning ham jahli chiqardi, ham ichi achirdi.

- Siz, qarog'larim, balki xatni yashirib qo'ydi, deb o'ylayotgandirsizlar, ishonmayotgan bo'lsalaring, mana, o'zlaring ham ko'ringlar, - degandek qo'lini qo'yniga solib ko'rsatadi. - Mana, yo'q! Agar mening ixtiyorimda bo'lsa edi, sizlarni bunda intizor qilib qo'ymasdan, ularga kuniga uch martadan xat yozdirib turgan bo'lardim-ku! Iloji yo'q-da! Bugun kelmasa, ertaga kelar, ertaga bo'lmasa, indin kelar... Jimgina o'ynab yuraveringlar, Xudo xohlasa, kelasi bozorga olib kelaman... Bu tushimga ham kirib chiqdi, nazarimda, xat kelib qolayotgandek. Qani endi o'ynanglar... Saida yangalaringga ham shunday deb aytib qo'yinglar, unga ham bozor kuni xat olib kelaman.


Chol otini burib, yo'lga tusharkan, o'zicha o'ylab bordi.

„Ishqilib, qarigan chog'imda bola-chaqaning ko'ziga shumshuk ko'rinib qolmasam bo'lgani-da... Bundan ko'ra, ketmon ishiga qo'rganlari ham ma'qul edi!..“

Qurmon og'a xayol aralash, odatdagidek otining tanish xonadonlarga burilib ketayotganini payqab qolib, tezda tizginini burib oldi-da, qoqilib ketgan otning bo'yniga qamchi bilan savalay boshladi:

- Ana, ana bo'lmasa! He, harom o'lgur! Xosiyatsiz mol shunday bo'ladi!.. Xat kelsa o'zimoq chopib bormasmidim!

Saida to'qaydan o'tin ko'tarib kelganda, domining oldiga To'tioyning o'rtancha o'g'ini o'tasining tulaykasini shalviratib kiyib olgan va old tishlarini irjaytirib yuradigan Hasantoy chiqib turardi. Uning hech qanday bora kelur...



lan ishi yo'q bo'lib, shumlikni ham bilmas, kishilarni ham yoqtirmasdi.

- Saida yanga, Ismoil akamdan xat yo'q, bizga ham kelmabdi! Qurmakem kelasi bozorga olib kelaman dedi! U tush ko'ribdi, - deyardi u ajabtovur katta odamlardek. Soddadillik bilan aytilgan bu so'zlar Saida uchun qanchalik og'ir tuyulishini Hasantoy bilsa edi!.. Saidaning uzoq yo'l bosib, ne azoblar bilan ko'tarib kelgan o'tini shu choq yana zildek salmoqlanib, eshik oldiga besh-olti qadam qolganda u holdan toyib, devorni ushlab, gandiraklaganicha o'tinni yerga tashlab yubordi-da:

- E, Xudoyim, hech bo'lmasa o'sha yetimlarning otasidan biror yaxshi xabar kelsa-chi! - deb o'ziga o'zi gapirayotgandek, bo'yinlariga yopishib qolgan soch tolalarini tartibga solishga ham holi kelmay, shalpayganicha devorga suyanib qoldi. Saida To'tioyning bolalariga xat kelsa, nima uchundir o'zini ham tasalli topayotgandek his qilib yurdi. Ba'zan kechalari Hasantoyning o'sha aytgan so'zlarini eslab, Saida qo'rquvga tushardi: Hasantoy ko'pdan beri „Ismoildan xat olib keldingizmi?“ - deb Qurmondan so'rab turadi. Ismoil bo'lsa Qurmonni ko'rsang, yo'lda-cho'lda, har zamonda xat-xabar so'rab turgin, deb Saida-ga uqtirardi.

Saida ham, Qurmonni ko'rsam albatta so'rayman, deb ko'nglidan o'tkazib qo'yardi-yu, biroq har safar ham bunga yuragi dovlamay, o'zini o'zi aldardi.

To'tioy ham Saidalarning shunday yonginasida yashardi. El oyog'i bosilib, ovulga jimlik cho'kkanda, Saida Ismoilning kiyimlarini yuvishga kirishdi va tong otguncha mijja qoqmay ularni o'tga toblab quritib, erta azonda har kungidek suvga chiqdi. U ostonadan hatlab chiqishi bilananoq qor qalin tushganini ko'rib, uning bir tusda oppoq oqarib yotganidan ko'zlari jimirlashib, ko'ngli behuzur bo'layotgandek tuyuldi. „Voy, ko'zim tinyapti, nahotki bo'yimda bo'lib qolgan bo'lsa?“ - degan o'yga borib, cho'chiganidan qo'lidagi paqirini yerga tushirib yubordi. „Xudoyim, o'zing saqla, el-yurt ko'rsa nima deydi. Yo'q, unday bo'lishi mumkin emas, bu - tuni bilan uxlamaganlik

alomati!“ – deb yana o‘ziga o‘zi tasalli berdi va bu haqda qaytib o‘ylamaslikka, uni yoddan chiqarishga harakat qildi. „Undan ko‘ra Ismoil haqida o‘ylayin, uning holi nimalar kechdiykin?..“ Saida Ismoilni eslaganda ko‘ngli g‘ash tortib, bezovtalanardi. Mana, qahraton qish ham keldi, yog‘in-sochin, izg‘irin-bo‘ron, oy dalada g‘orda yotish osonmi?

Darvoqe, qish birato‘la qilichini qayrab kelyapti. Kuni kecha qorayib, quyosh nurini shimirib yotgan dalalar bugun qor bilan bir tekis qoplanib, qo‘ng‘ir tusli tuman tog‘ yonbag‘irlari bo‘ylab erinchoqlik bilan suzib yurardi. Muzlagan ariq bo‘yidagi yosh tolchalar egilishib, butoqlari u yoq-bu yoqqa tebranib turardi. Havoda bir maromda uchib yurgan qontalash, qora-qizg‘ish bulutlar tobora qalinalashib, osmon gumbazi pasayib, olam torayib, kichrayib qo‘layotgandek sezilardi. Tuni bilan yog‘ib chiqqan qor hozir mayda-mayda uchqunlab, vaqt-vaqti bilan esgan shamoldan cho‘chigandek havoda kapalak singari uchib yurardi. Ovul suv sepgandek jimjit, sovuqdan hech kimning turgisi yo‘q edi.

Saida uydagi katta ola kigizni bir amallab Ismoilga eltib berish haqida o‘ylab paqirlarini ko‘targanicha qor kechib borardi. Shu zahoti birdan qor ustidagi soy tomonga qarab ketgan izni ko‘rib qolib, bu kim bo‘lsa ekan, deyishga ulgurganicha ham yo‘q edi, ro‘paradan suv ko‘tarib kelayotgan To‘tioy chiqib qoldi. Uning oyog‘ida halpirlagan katta etik, o‘zi bo‘lsa ingichka, ozg‘in, chophonini arqon bilan erkakchasiga siqib bog‘lab olgan edi. To‘tioy Saidani ko‘rishi bilanoq paqirlarini yerga qo‘ydi-da, sovuqdan uvushib, ko‘karib ketgan qo‘llarini uqalaganicha turib qoldi.

– Sen kechasi bilan uxlamay chiqding shekilli, ranglaring siniqib, ko‘zlaring kirtayib qolganday.

– Shunday, biroz boshim og‘rib turibdi, – dedi Saida sekingina va yana shoshilinch ravishda qo‘shimcha qildi: – Uxladim, shunday uzoq kechada uxlamay nima ham qilardim? – Saida bu so‘zlarni aytishga aytdi-yu, o‘zidan xavfsirab qoldi: „Balki, To‘tioy kechasi tashqariga chiqqan

bo'lsa, tuni bilan kir yuvib chiqqanimdan xabar topgandir. Hozir so'rab qolsa, nima deyman?" – Haqiqatan ham tuni bilan uxlay olmadim, bolam kechasi bilan tinmay yig'lab chiqdi, qiynalganimcha bor, – dedi yana Saida sir boy bermay.

Shundayku-ya, degandek To'tioy boshini chayqab qo'ydi:

– Sen ham menga o'xshab yolg'iz boshsan! Kampiring uydan chiqmaydi. Haliyam eplab-seplab bolangni boqib turganiga shukur qilish kerak, o'z ota-onalaring bo'lsa sendan yiroqda, yilqi bilan ovora.

To'tioy churq etmay, xomush bo'lib turgan Saidaga qarab o'ychanlik bilan xo'rsinib qo'ydi. Uning bunday ma'noli qarashlaridan xotinlarga xos yumshoq ko'ngilliligi va ich-ichidan achinayotganligi sezilib turardi. Uch bolani boqaman deb erta-yu kech urinib yurgan To'tioyning ko'zlari kishiga doim o'qrayib qarardi, hozir esa uning yumshab, ochiq chehra, samimiy iltifot bilan muloyim termilishlari Saida qalbiga iliqlik baxsh etgan edi. „Chamasi, qiz kezlarida To'tioy juda go'zal bo'lgan ko'rinadi. Hasan-toyning javdiragan yoqimtoy ko'zlari ham xuddi oyisinikini eslatardi. Biroq buni hanuzgacha payqamay yurgan ekanman!“, derdi u ichida.

To'tioy Saidaga qarab afsuslangandek:

– Xat kelmadi deb qayg'urasan, ko'rgiligimiz bor ekan, peshanada yozilgani shu bo'lsa, qo'limizdan nima ham keldi! Men uch yetimcha bilan o'tirsam, sen bo'lsang turmushga chiqqaningga yarim yil bo'lmay, dunyoning achchiq-chuchugini birga totmading... Yangi farzand dunyoga kelsa-yu, otasi uni ko'rmasa... Ey, nimasini aytasan... Hammasi ham mayli-ya, ikki enlik xat kelmayotgani yomon!.. Buni o'ylasam hafsalam pir bo'ladi-yu, qo'lim ishga bormay qoladi... Mana, qish ham kirib keldi, bolalarimning bo'lsa kiyim-kechagi yo'q – yalang'och, bor ishonganimiz ikki qop jo'xori qoldi, xolos, bu nima bo'lardi! – To'tioy tirqirab chiqqan ko'z yoshlarini achchiqlangandek sidirib tashlab, paqirlarini ko'targanicha odimlab ketdi.

To'tioyning hech narsadan xabari yo'qligidan bir xur-

sand bo'lib, bir qo'rqib, Saida nima deyishini bilmay, uning orqasidan hang-u mang bo'lib qarab qoldi. Odamgarchiligi tog' kabi yuksak bo'lgan bu mushtdek, ozg'in ayolning insonga bo'lgan mehr-u muhabbati, shijoati va xushfe'lligi Saidani g'oyat ruhlantirib yubordi, yana bir chekkasi „sening taqdiring ham menikiga o'xshaydi“ deb rahmdillik qilayotgani uni qandaydir aybdan oqlayotgandek bo'ldi. Saida qalbini hayajonga solayotgan nozik his-tuyg'ularni bayon etishdan o'zini ojiz sezib: „Men nima ham qilardim, har kim peshanasiga yozilganini ko'radi. Nasib qilsa bolalarning baxtiga otalari qaytib kelar...“ deyish bilan cheklandi.

To'tioyning eri Boydali kolxoz tuzilganidan beri dalada suvchilik qilgan. Saida kechqurunlari ishdan qaytib kelayotganda ham qo'shnisi Boydalining suv tarab, ekin sug'orib yurgani ustidan chiqardi. U, pochalarini tizzasidan yuqorigacha shimarib olib, baquvvat gavdalari bilan u yer-bu yerdan hatlab o'tib, suv tarab yurarkan, botib borayotgan quyoshning zarrin nurlari tebranib turgan ekinlarning uch-uchlarini quchar, Boydalining qo'lidagi katta ketmon esa har qulochkashlab urgan sari kechki havoda yashin kabi yaraqlab ketardi. Ovuldagilar: „Dehqon bobom, mirishkor suvchi, qo'li gul!“ – deyishardi u haqida gap ketganda. O'rkachlanib oqayotgan suvdan xotin-xalajlar etaklarini lippalariga qistirishib, qo'l ushlab o'tayotganlarida, narida suv bog'lab yurgan Boydali o'zicha xaxolab zavqlanib kulardi.

– Hoy, qaqillagan qalamqoshlar, alvastini ko'rgandek cho'chiysizlar-a! Qo'rqmasdan o'taveringlar! Birontalaring oqib ketsalaring, oxiri qo'limga kelib tushasizlar, erkalatib qo'yaman.

Shunda tengqur dugonalar:

– Ha, erkalatmay qurib ket, suving toshib ketgur! Anchayinda erkalatmagan, oqib borganda erkalatarmiding? – deb xandon otib kulishardi.

Boydali ham ularga qo'shilib dalani yangratib zavq bilan xaxolab kulardi.

Bir qarasang g'ira-shira ichida keng dala bo'ylab Boy-

dalining ketib borayotgani ko'rinardi. Ketmonini yelkasiga tashlaganicha safarda yurgan sayyoh bahodirlardek Boydali u yer-bu yerdagi ekilmay ola-bula bo'lib qolgan yerlarini nazardan o'tkazib, asta-sekin olislab, ko'zdan g'oyib bo'lardi. Boydalining tabiati ham shaldirab oqqan sho'x ariq suvini eslatardi. Saida bir kuni qo'shnilarinikiga kirib qolganda, yupqa lablarini qisib, kapgir bilan qozon tubini teshib yuborgudek qaldiratib kovlayotgan To'tioyning nimadandir xafalangandek o'z bolalarini urishayotgani va narigi yoqda bolalariga o'yinchoq yasab berib o'tirgan erining:

- Ey, xotin, ularni nega behudaga urishaverasan, uchalla shunqorni ham o'zing tug'gansan, men uchun bundan ham ortiq davlat bormi? Boshqalardan yomon yashayotganimiz yo'q, shukur, uylari bo'lsa bor, el qatori yeyarga noni, kiyarga kiyimini topib tursam, yana nimaga kuyinaverasan? - deb turgani ustidan chiqdi.

Boydali armiyaga ketgandan keyin ketma-ket xat kelib turdi, biroq keyinchalik Ismoilidan ham, Boydalidan ham xat uzilib, Qurmonning ularnikiga kirmay chetlab yurganining boisi ham shundan. Bechora chol xuddi bo'ynidan qarzini uza olmay qochib yurgandek, noshud otining biqinlariga niqtab, yo'rtib o'tadigan bo'lgan kundan boshlab, qishloq raisi Mirzaqul ikkala xonadondan ham tez-tez xabar oladigan bo'lib qoldi. Shuning o'ziyoq Saidaning ko'ngliga g'ulg'ula solib, dilini g'ash qilib qo'ygan edi. Balki Mirzaqul Ismoilning qochib yurganini sezib qolganidir. Unday desa, Mirzaqulning ko'rinishidan hech narsa sezilmasdi. Shu kunga qadar Ismoilning askardan qochib, yashirinib yurganini ovulda biron kimsa sezmagani edi.

Ismoil juda ehtiyotkorlik bilan ish ko'rardi.

- Saida, zamon boshqacha, yana og'zi bo'shlik qilib birovga gapirib qo'yma. Boshqalar tugul, hatto otam tirilib kelsa ham, nafasingni chiqarma. Tushundingmi? - deb doim uqtirib turar edi.

Mirzaqul nari o'tib, beri qaytganda, go'yo ish bilan kelgandek, bu ikkala xonadonga yo'l-yo'lakay kirib o'tardi. U avvalo To'tioylarnikiga kirib:

– Hoy, To‘tiyoy! Bormisizlar? – deb qo‘yardi ot ustida turib.

Askarga ketayotganda Mirzaqul tulki telpagini bostirib kiyib olgan, qora mo‘ylovli, xushbichim, quvnoq yigitcha edi. U bilimdonligi va o‘tkir ovozi bilan butun ovuldagilarni o‘ziga rom qilib olgandi. Biroq frontga borib, bir qo‘lidan ajrab, yarador bo‘lib qaytgandan beri u burungidek emasdi. So‘zlarni kesib so‘zlab, sal narsadan jahli qo‘zg‘ardi. U bo‘ronda qo‘porilib, shox-butoqlari qayrilib, sinib yotgan daraxtdek, bir yelkasi biroz quyiga osilib, ich-ichiga kirib ketgan yuzlari sarg‘ayib, chayir bo‘yinlari temirdek qotib ketgandek ko‘rinardi. Ilgari qo‘biz chertib, kuylab yurgan Mirzaqul endi bo‘sh qolgan yengini cho‘ntagiga qistirib olib, sog‘ qo‘li bilan qo‘biz torlarini chertayotgandek qizishib ketganini o‘zi ham sezmas, qo‘lini havoda harakatlantirarkan, xirillagan ovozi goh o‘yga cho‘mdirib, goh g‘azabga to‘lganday kuchayib, frontda boshidan kechirganlarini kuylardi.

Mirzaqul To‘tiyoyning hovlisiga kelganda oraliqdagi baland devorlardan bo‘y cho‘zib, oyoqlarini uzangiga tiraganicha, eshik oldida kishi bilmas qandaydir ish bilan g‘ivirlab yurgan Saidaga qarab qichqirib qo‘yardi:

– Saida, jiyancha katta bo‘lib qoldimi? Saqlab qo‘ygan tamakingdan menga ham bitta o‘rab kel-chi!.. Ishingni keyin bitirarsan, qani bu yoqqa kel...

Mirzaqul: „Ulardan xat olyapsizlarmi?“ deb bir og‘iz so‘ramadi ham. Ovulda kimga xat kelib, kimga kelmayotganini u hammadan burun bilardi. Shu bilan birga, ovulga kelgan xatlarni avvalo uning o‘zi ko‘zdan kechirardi. Saida bundan xabardor bo‘lsa ham, Mirzaqulning ovozi- ni eshitgan sari yurak oldirib qo‘ygandek, besaranjom bo‘laverardi. Mirzaqulning Ismoilidan xat bormi-yo‘qmi, deb ko‘ngil uchun bir og‘iz so‘ramagani Saidani qattiq shubhaga solib qo‘ygandi. Demak, Mirzaqul nimadandir hadiksirayapti... Haytovur, u bir gapni biladi...

Saida, quritib olib qo‘ygan tamaki yaproqlaridan uqalab papiros o‘radi-da, uni o‘tga tutantirib, sir boy bermaslik uchun o‘zini o‘zi dadillantirib ko‘rsatgandek To‘ti-

oylarnikiga olib chiqdi. Mirzaqul uni ko'rish bilan oq otdan tushib, chekishga xumori tutgandek, papirosni burqsitib tortib, esiga kelgan gaplarni shoshmasdan so'zlayverdi.

– Sen tamakining miqtisini g'amlab qo'yan ekansan, Saida! – deb maqtab qo'ydi u yo'l-yo'lakay. – Ismoilga ham undan posilka qilib yubor. Bir chekib, Tolosni eslab qo'ysin...

– Yuboraman-ku, – dedi Saida, so'zi bo'g'ziga tiqilgandek. U yana nimanidir aytmoqchi bo'ldi-yu, lekin gapirishga biror durustroq so'z topolmay, lablarini tishladi va Mirzaqul hamma gapni biladi, degan xayolda yuragi „shig“ etib, yuzlari laxcha cho'g' bo'lib yondi. Nihoyat u sabri chidamay, tutundan nafasi qaytgandek ayyorlik qilib yo'talmoqchi bo'ldi: – Fu-ay, shuncha ham achchiq bo'ladimi, erkaklar uning nimasini yaxshi ko'rishadi...

Saida buni aytishga aytdi-yu, lekin tuni bilan qiynalib uxlayolmay chiqdi: „O'rinli so'zladimmi yoki sezdirib qo'ydimmi? Ey Xudo, o'z panohingda saqla! Ovozimni o'zgartmaslikka, yuzimni qizartirmaslikka qanchalik harakat qilmay, baribir, uni ko'rganda dovdirab, tilim kalimaga kelmay qoladi... Nahotki u sezgan bo'lsa! Ayb o'zimdanda o'tdi... Yurak yo'q menda, chumchuqchalik ham yurak yo'q! – deb o'zini o'zi koyiy boshladi. – Yana posilka qil degani nimasi? Rostdan aytdimikin yoki sinamoq uchunmi?..“

Mirzaqul boshqa bir kun kelganida ariq bo'yidagi tollarni ko'zdan kechirdi. To'tioydan o'pkaladi:

– Boydali tollarni har yili butab turardi. Bu yil ularga hech kim qaramabdi, tanalari yo'g'onlashib, tuppa-tuzuk ishga yaraydigan bo'lib qolibdi. Butab olish kerak, shoxlari o'tin bo'ladi, aks holda ular o'smay qolishi mumkin...

Mirzaqulning so'zlari To'tioyga yoqmadi shekilli, u Mirzaqulga taajjublangandek qarab, og'ir bir uh tortib qo'ydi:

– Ey, qurib ketmaydimi, bo'yi o'sganda o'shaning kimga keragi bor? O'zi bo'lmagandan keyin, tol tugul boshqa narsa ham ko'zga ko'rinarmidi! Kolxozning ishini ham bitir, mashoq terib bolalarni ham boq! O'likmi, tirikmi ik-

kala uy egalaridan ham darak yo'q, ko'zimiz to'rt bo'lib, bir amallab kun kechirib o'tiribmiz. – U labini tishlab, teskari qaradi. – Siz bo'lsangiz tolni gapirasiz...

Shu paytda Saidaning ranglari o'chib, badanlari jimirlashib, yerga kirib ketayozgandek bo'ldi, go'yo Mirzaqul uning betga chopib: „Sen, To'tioy, o'zingni Saida bilan tenglashtirma, uning eri allaqachon askardan qochib kelib, g'orda yashirib yuribdi!“ – deb butun sir-u asrorini ochib tashlayotgandek ko'rindi. Saida: „Mirzaqul hozir shu haqda gapiradi“, – deb yuragi terakning yaprog'idek dirillab, kutib turardi, biroq Mirzaqul yana yumshab:

– Unday dema, – dedi To'tioyga bafurja so'zlab. – Agar bilsang, inson uchun tolning o'zigina emas, hatto uning ko'lankasi ham kerak. – Mirzaqul bu so'zlarni aytishga aytdi-yu, xayol surib, negadir jahli chiqqandek chayir bo'yinlari qizarib ketdi. Nihoyat u, ko'pdan beri aytmoqchi bo'lib yurgan so'zlarini endi yuragiga sig'dira olmagandek qizishib, o'shqira boshladi. – Biroz xat kechikib kelsa, bas, ayollikka borib, har narsani o'ylayverar ekan-sizlar-da! Undan ko'ra, tom tepasidagi jo'xori poyalarini yig'ishtirib olinglar, bo'lmasa yozga yetmay chirib qoladi! Bolalarning nasibasini qiymoqchimisanlar? Qani, bittang ularni sut-qatqsiz qoldirib ko'r-chi, boshlaringni uzib olaman, bilib qo'yinglar buni? Yakka emassanlar, bir ishni eplay olmadinglarmi, qo'shninglarni chaqiringlar. Ikkala xotin bir erkakcha yo'qmisanlar? Rus kelinlari qo'llariga miltiq ushlab, okopda yotib, dushmanga qarshi o'q uzishyapti, senlar bo'lsang uyda o'tirib, xat yo'q deb zorlanasanlar!..

To'tioy bo'zarganicha jim o'tirardi. Saida esa tilga kirgandek kutilmaganda:

– Biz bu ishlarni bitiramiz, jo'xori poyalarini ham tashib olamiz, tollarni ham butab qo'yamiz, – deb yuborganini o'zi ham sezmay qoldi.

Balki Saida hozir iltifot bilan xizmatga tayyor ekanligini bildirmoqchi bo'lgandir yoki Mirzaquldan shubhalanganidan yengiltaklik qilib gapirib qo'ygandir, har qalay, u bu so'zlarni chin ko'ngildan chiqarib aytgan edi. Yana bir

tomon: u Mirzaqulni boshqa gapga alahsitmoqchi bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, go'yo bu bilan o'zini ham, To'tioyni ham xijolatdan qutqarmoqchi edi. Mirzaqul esa boshqa hech narsa demadi-yu, ranglari o'chib, g'azabga to'lib, Saidaga negadir taajjub bilan tikilib qaradi. Aftidan, Saidaning fikriga qo'shildi shekilli. So'ngra otiga minib yo'lga tushdi.

O'sha kuni Saida To'tioylarning xo'jalik ishlariga ko'maklashar ekan, bu bilan allaqanday gunohdan yuvilib, ko'pdan beri orzu qilib kutib yurgan ezgu niyatiga erishgandek, o'zini g'oyat baxtiyor his etdi. Uning turmushida ko'pdan beri bunday quvonchli damlar sodir bo'lmagan edi. Shu topda Saida o'zini kuchiga kuch qo'shilayotgandek sezib, hamma ishni hash-pash deguncha bitirib qo'ygisi kelardi. U yordamidan ko'ra ziyoni ko'proq tegayotgan To'tioyning bolalariga ham yomon gapirmas, aksincha, tengqur kishilardek ularga ochiq ko'ngil bilan qarab, hayhaylashib, birga o'ynab, birga kulgisi kelardi. Ammo Mirzaqulning haligi sirli qarashlari yodiga tushganda Saidaning qo'li ishga bormay, peshanasidan sovuq ter chiqayotgandek bo'lardi.

„Mirzaqul menga nega bu taxlitda qaradi? Bir narsani fahmladimi yoki menga shunday tuyulyaptimi?“

Shu-shu Saida Mirzaqulni ko'rdi deguncha vahimaga tushib, bezovtalanaverardi. „Ismoil qayerda? Uni qayerga yashirib qo'yibsani?“ – deb so'rab qolishini kutib yurgandek, yuragi dukullab urardi. Saida Mirzaqulning yuziga tikka qarashga botina olmay, ko'zlarini undan olib qochib, yana nima der ekan, nimalar haqida gapirarkin, deb sabrsizlanib kutib turardi.

Qo'rquvdan yuragi qinidan chiqib ketayotgandek, tili qurib, entikib nafas olayotgan Saida, Mirzaqul ketishi bilananoq uyiga yugurib kirib, tishlari bir-biriga tegmay dir-dir titrayotganiga qaramay, bir cho'mich muzdek suvni simirib yuborgandan keyingina biroz tinchlangandek bo'ldi: „Yo'q, u sezmagani ko'rinadi, to'g'ri, sezgani yo'q“, deb dalda izlab, besaranjom bo'lardi. „Ismoilning qochib yurganidan xabar topib, sinash uchun kelib, kuzatib yuribdimi? –

deb o'ylardi u. – Yoki u-bu kishilardan surishtirib yurganmikin? Yo'q, u Ismoilning qayerda ekanligini bilmaydi, bir emas, yuz marta, ming marta izlab kelsin, baribir uni sezdirmaslikka harakat qilaman! Boshqalar o'z farzandlarining sog'-salomat qaytib kelishlarini tilab, zor qaqshab Xudoga iltijo qilib yotganlarida, men ko'z ochib ko'rgan erimni tashlab qo'yarmidim!.. Xudo ohimni eshitdi, Ismoilni o'z ixtiyoriga yubordi...”

* * *

Qishning eng ayozli kunlari, chilla kirib qoldi. Bir hafta surunkasiga guvullab esgan shamol qorni quyundek uchirib, o'nqir-cho'nqirlarga to'plagan; sovuqdan tarashadek qotib muzlab qolgan so'qmoq yo'llar esa kishi yurganda oyoq ostida chirsillab, oyna singandek ovoz chiqarardi. Sovuq bilan birga qo'shilgandek turmush ham kundan kunga og'irlashib borardi.

Saidaning tashqaridagi uyiga qamalib olgan besh-oltita tovug'i burchakda hurpayib, bir-birlarining pinjiga tiqilib, eshikka chiqishga erinishar va sovuqdan azob chekayotgandek ko'zlarining oqini ko'rsatib, bir oyoqlab kishiga g'amgin termilishardi. Ularning yashashi uchun ham don kerak, biroq iloj qancha! Pechkaning orqasida turgan kichkina qopdagi jo'xori ana-mana deguncha yerga cho'kib, kundan kunga kamayib borayotganligidan, Saida uni tishiga tishlab, yana tejash maqsadida kuzdan beri tegirmonga borishini ham kanda qilgan edi. Tegirmonda tortib barakasini uchirgandan ko'ra, uyda yorg'ichoqda tortib olgan ma'qul emasmi? Kolxozga ishga chiqqan kunlari Saida bir daqiqa ham tinchimas, tuni bilan qo'l tegirmonida g'alla tortib chiqardi. Qadoq bosgan qo'llari lovullab achishib, ikki bukilib, cho'nqayganicha piltta chiroq yorug'ida ko'zlari tinib, qorong'ilashib ketayotganiga qaramay, tegirmon oldidan nari jilmasdi. Nima bo'lsa ham Ismoilga ovqat tayyorlashi kerak. U tortilgan jo'xorini elakdan o'tkazib, bir siqimini bolasining ovqatiga olib qo'yar, qolgan undan Ismoilga non pishirar, yirigini kampir ikkalalari go'ja

qilib ichishardi. Ular shu zaylda kundagisini kunda tejab-tergab sarflab, bahorga chiqib olish tashvishi bilan yashar edilar. Shunday bo'lgandan keyin tovuqqa don qayda deysiz! Saida ularni, bahorga chiqib bolamning og'ziga tuxumi tegar, deb boqib yurgan edi, biroq yozgacha ulardan biron-tasi ham qolmaydiganga o'xshardi. Go'sht bo'lmasa, Ismoil kechalari uyga kelganda Saida ularni birin-ketin so'yib beraverdi. Qani endi iloji bo'lsa-yu, undan kattaroqlarini so'yib, Ismoilni bovlab tursa! Ismoildan jonini ham aya-masdi-ku! Topgan-tutganini tishiga tishlab: „Ismoil ichsin, Ismoil yesin, o'zimiz bo'lsak, har holda, uydemiz, suv ichsak ham kunimiz o'tar!“ deb o'ylardi u. Shunday bo'lsa ham Saida Ismoilni ko'rdi deguncha tomog'idan ovqat o'tmay, yurak-bag'ri ezilib ketardi.

Ismoil shinelining ustidan moyga bo'kib ketgan to'nini guppiday kiyib olib, og'zi-yu boshini bog'lab, tentiragan musofirdek kir bosib, bit bosib, tutun hidini anqitib kelardi. Kirini yuvib, yirtiq-yamoqlarini yamab o'tirgan Saida, Ismoildan mo'ltillagan ko'zlarini olmay, rahmi kelgandek: „Eh, bechoraginam, qahraton qishda, kimsasiz oy dalada tirik jon ko'rmay, g'orda yotaverib oxiri nima bo'lar ekan-san? Uyda bo'lganingda ustingga gard ham yuqtirmas edim!“ deb xayoldan o'tkazib, umidsizlikka berilardi. Ismoilning sovuqdan qorayib ketgan yuzlari kigizdek qotib, qovog'i soliq edi. Nima qilsin, qo'li qisqa, butun dunyoga o't qo'yib bo'lsa ham o'zining erkin yurishi uchun o'ch olgan bo'lardi. Saida uning ko'nglini ko'tarib, xafachiligini yozmoqchi bo'lgandek, atrofida parvona bo'lar va uni-buni gapirib, Ismoilning pinjiga tiqilardi. „Er-xotin yaxshi kunlarda ham, og'ir kunlarda ham birga bo'lishi kerak! – deganlar deb o'ylardi Saida. – Boshga tushganni ko'z ko'rar, hammasiga bardosh beraman! Ismoilim omon yursa bo'lgani. Boshqa narsa kerak emas, Xudo saqlasin, ko'zim tirik ekan, yot kishilarga sir boy berib, yomon xotin degan nom chiqarmayman. Mana, To'tioy! Bir o'zi mushtdek-mushtdek uch bolasi bilan erining o'lik-tirigidan xabarsiz, jo'xori atalani qoshiqlab ulashib, u ham qanoat qilib, sir saqlab o'tiribdi...“

O'tgan kuni Saida tamaki saroyidan ishdan qaytib ke-
layotganda, orqasidan Mirzaqul ham yetib keldi:

– Hoy, Saida, tura tur! – dedi u. Garchi Mirzaqulning ovozidan biron shubha anglashilmagan bo'lsa ham, xavotirlanib, yuragini hovuchlab yurgan Saida turli o'y-xayollarga borib, titragan lablarini yashirib, og'zini ro'mol bilan berkitib oldi. Shu mahal Mirzaqul qandaydir zarur gapi bordek Saidaning yoniga yaqinroq kelib, egilgani-cha uning ko'zlariga tikilib qaradi. „O, Xudo, u hoynahoy bilib qolganga o'xshaydi!“ degan mudhish xayol Saidani cho'chitib yubordi. „Qani, ayt endi, nega angrayib turibsan? Ayt!“ deb qichqirib yuborishiga oz qoldi. Mirzaqul jiddiy tusda, achchig'langandek salmoq bilan gapira boshladi.

– Saida, senga tug'ishgan yaqin kishimiz bo'lganing uchun aytib qo'yadigan gapim bor, – dedi u.

– Nima gap edi? – deb so'radi Saida. Lekin u o'z ovozini o'zi eshitmagan edi. U bu so'zlarni ovoz chiqarib aytganini ham yoki ichida o'ylab turganini ham sezmay qoldi.

– Hoy, senga nima bo'ldi, Saida, – Mirzaqul cho'chib ketdi. U, Saida qolib bemavrid gapirib qo'rganidan o'zi xijolat bo'lib qoldi. Mirzaqul Saidani qo'rqitib yuborgan edi.

– Hoy, Saida, sen ko'nglingga olib, xafa bo'lib yurma, hech narsa bo'lgani yo'q... Faqat senga shuni aytib qo'y-moqchimanki, ertaga ombordan jangchilarning bola-chaqalariga ozroq g'alla ajratib bermoqchimiz... Lekin hammani ham ro'yxatga kiritishning iloji bo'lmadi... Sen ham ro'yxatda yo'qsan, hammasiga o'zing tushunasanku, yana arazlab yurma... To'tioyga o'xshagan ko'p bolali onalarga bir evini qilib besh-o'n kilodan ulashdik. Mo'lroq bo'lganda boshqalarga ham bersak qani edi... Ertaga yana gap-so'z qilib, janjallashib yurmanglar... Senga shuni aytib qo'yay degan edim.

Buni eshitib, Saidaning ko'ngli joyiga tushdi.

– Nega arazlardim! – deb aksincha o'zining g'alla olmay qolganidan negadir mamnun bo'lib ketdi. „Menga zarur emas, yaxshisi o'sha To'tioyga o'xshagan ko'p bolali onalarga beringlar, men esa bir amallab kunimni ko'-

rarman!“ – demoqchi bo‘ldi-yu, biroq dovdirab qolib gapirishga jur‘at etolmadi.

– Yana mendan ranjib, ko‘nglingga yomon fikrlar kelib yurmasin, Saida... Menga qara! Kelgusi safar ilojini topsak, albatta senga ham beramiz... Kampirga ham shunday deb aytib qo‘y. Mirzaqul qishloq raisi bo‘lib nima foydasi tegdi, deb orqavorotdan gapirib yurmasin... O‘z urug‘larimizga yon bosishni men ham bilaman. Buni ovulda o‘zing ham ko‘rib yuribsanku...

Mirzaqul bir zum o‘ylanib qolib, ovulning qor bosgan tomlariga bir sidra qarab olib, otini yeldirib ketayotgan yerida yana jilovini tortib to‘xtatdi. U hozir Saidaga nimanidir aytmoqchi bo‘lib og‘iz juftladi-yu, yana o‘z fikridan qaytdi. Mirzaqulning hozirgi ko‘z qarashlari xuddi To‘ttoyning hovlisida bo‘lgandek Saidaning tinchini buzib, tang qoldirdi. Endi hamma narsa Saidaga ravshan edi. Mirzaqulning jozibali ko‘z qarashlari Saidani erkalab: „Aytmasam ham tushunishingni bilardim. Men senga ishonaman... Bundan keyin ham ishonaman... Sen g‘oyatda go‘zalsan, oliyjanobsan... Bilsang, men seni yaxshi ko‘raman... Ko‘pdan beri sevaman seni...“ deyayotgandek tuyulardi.

Nogahon bunday sirning ochilishi qo‘rquvdan rangi o‘chib oqarib ketgan Saidani hang-u mang qilib qo‘ydi. Ko‘zlarini baqraytirib, boshini yuqori ko‘tarib olgan Saida shu topda yanada go‘zal, yanada nazokatli ko‘rinardi.

– Men ketdim! – dedi u cho‘ziq ohangda qat‘iy qilib.

– Tura tur! – dedi Mirzaqul va so‘zining kalavasini topolmay qiynaldi. U ketmoqchi bo‘lib ot jilovini qo‘liga oldida, yana uni bo‘sh qo‘ydi: – To‘xta, Saida! – deb takrorladi u. – Agar bolangning ovqatidan qiynalib qolsang, esingda bo‘lsin, tortinib o‘tirmasdan aytaver. Ustimdagi shinelimni sotsam ham, o‘g‘lingning ovqatini topib beraman!

Boshini quyi solib jimgina turgan Saida, goh uning so‘zlarini chin qalbdan ma‘qullayotgandek, goh bir tomoni undan cho‘chiyotgandek yalt etib qarab: „Men sendan qo‘rqaman! Menga tega ko‘rma. Bu taxlitda qarama ham, men sendan qo‘rqaman!“ deyayotgani uning yuzlaridan sezilib turardi.

Mirzaqul buni tushundi shekilli, chaqnagan ko'zlari go'yo suzilgandek qovoqlarini solib oldi. Ammo u tez orada yana avvalgi holiga kelib, o'rtalarida biron gap o'tmagandek, vazminlik bilan ohistagina so'zladi:

– Bor endi, bolang yig'lab qolgandir...

Saida xuddi birov quvlayotgandek, tezda jo'nab qoldi. Agar u uyalmaganda, ko'chaning o'zidanoq yugurib ketgan bo'lardi. Saida biroz yurgandan so'ng orqasiga qayta-qayta burilib qaradi. Mirzaqul boshini quyi solib, suv yoqalab otini o'z ixtiyoriga qo'yib shoshilmay borardi. U shinelining yoqasini ko'tarib olganidanmi, orqasidan qaraganda bukchayib qolgani, mayib qo'lining kurak suyagi hurpayib chiqib turgani, ayniqsa hozir ko'zga yaqqol tashlanardi... „O'zi ne ahvolda-yu, yana shunday sovuqda ustimdagi shinelimni sotaman deydi...“ – deb shivirladi Saida. Shunda uning qalbi to'satdan eng noyob his-tuyg'ularga to'lib, butun vujudini qizg'in hayajon qoplab oldi. Hozir u Mirzaqulning orqasidan yugurib borib, undan kechirim so'rab, iliq so'zlar bilan uni erkalatgisi keldi... „Sen uchun yurak-bag'rimni yuz pora qilayin, suqsurdek qizlar ovulda to'lib yotganda, sen mening nimamga qiziqding? O'z erim yonimda yurganidan xabarsizmiding?..“ – demoqchidek bo'ldi.

Ko'zlariga yosh to'lgan Saida fikr-xayollari ayqash-uyqash bo'lib nima qilishni bilmay dovdirab qoldi. U qahraton sovuqdan dir-dir qaltirab, to uyiga yetguncha dambadam orqasiga qayrilib qarab, titragan lablarini ro'moli bilan yashirib bordi.

* * *

Kecha ovulga xunuk xabar tarqaldi. Tamaki saroyida ishlayotgan xotinlar o'zaro nimanidir gapirishib, allaqanday ko'ngilsiz voqeadan qutlari o'chib, katta-katta tamaki toylarini ko'tarishib kelayotgan To'tioyni ko'rganlarida qayg'urib, sukut saqlashardi. To'tioy o'tib ketishi bilanoq xotinlar uning orqasidan yana termilishib:

– A-a, bechora, bechoragina! – deb xo'rsinishib, yuz-

larini yenglari bilan berkitganча, ovoz chiqarmay yig'lashardi. Ular orasidagi qora ro'molli xotin o'pkasi to'lib, o'zini tutolmay, piqillab yig'lab yubordi:

– Baxtsiz yetimlar, uvollaring germanning boshiga yet-sin!..

Qishloqqa To'tioyning eri Boydali Stalingrad yaqinidagi janglarda halok bo'lganligi haqida xabar keldi.

Keyingi kunlarda ovulning dam u yerida, dam bu yerida erkaklarning: „Bovrim-oy! Bovrim-oy“, degan yig'i aralash ovozlari tez-tez eshitilib turardi. Qontalash yuzlarini yulib, ostonaga teskari o'tirib olgan xotinlar:

*„...Kumushdan edi yu-ganing a-a-a,
Arslondek edi yu-raging-a-a-a.
Yuganing qoldi taqilma-a-ya,
Qoroni tutdim boshim-ga-a,
Mardlaring qasos olmoqda-a-a-a,
O-o-o-o-xa-a! E-e-ey“ –*

deyishib, ovozlari bitib qolguncha, yarim kechaga qadar fig'on chekib yig'lashardi. Saida bularning har birini qalbdan chuqur his etgan sari vahimaga tushib, uvvos solib yig'lashayotgan odamlarning ko'ziga ko'ringisi kelmay, qo'rqa-pisa xotinlar orqasiga yashirinardi. U temiryo'lning narigi tomonidagi yaydoq yerlarga qochib ketib, bo'tadek bo'zlayotgan simyog'ochlarni quchoqlab, hech kimga ko'rinmay, o'zi yolg'iz nola tortib yig'lagisi kelardi.

Mana, endi To'tioyning ham uyini qiy-chuv ovozi bosisib, u ham yuzlarini tirnab-yulib, dod solib yig'laydi, uning bolalari esa katta kishilardek bellarini bog'lab, saf tortib, tashqarida tayoqqa suyanishib: „Voy, otam-ey, sho'rlik otam-ey!“, deyishib chirqillab yig'lashadi. Bechora To'tioy boshiga qora kun tushganidan shu paytgacha xabarsiz edi. Boydalidan kelgan „qoraxat“ hali Mirzaqulning yonida edi. „Qoraxat“ bilan birga kolxoz boshqarmasi nomiga polk komandiridan ham xat kelgan edi.

Bizning qo'shinlarimiz shiddatli hujumga o'tib, dushmanning mina o'rnatib, to'sib qo'ygan sim to'siqlaridan

o'ta olmay, Volga qirg'og'iga yaqin yerda qamalib qoladi. Shu payt mina o'rnatilgan sim to'siqlari tomon yaqinlashib borishga hech kim botina olmay, askarlar yomg'irdek yog'ilib turgan o'q ichida qirilishiga oz qolganda, Boydali yugurib borib, o'zini o'sha sim to'siqlari ustiga tashlaydi. Minalar portlaganda, askarlar hujumga o'tib, dushmanni quvishga boshlaydi...

Bu shum xabarni eshitib, Mirzaqulning uyiga to'planishgan ovul oqsoqollari Boydalinig azasini tutgandek ma'yus holda jimgina o'tirishardi. Nihoyat pochtachi Qurmon telpagini ko'ziga tushirib, hasrat bilan shunday deb esga oldi:

– Ii-eh, bechora, bechora yigit! Bilmay yurgan ekanmiz. Yuragida o'ti bor azamat. Suv uchun tug'ilgan dehqon bolasi, uning qo'li tekkan ekinlar guldek yashnardi... Nari o'tib, beri qaytganimda bolalari etagimga yopishib, xat bormi, deb so'raganlarida, kelasi bozorga olib kelaman, deb ovutib qo'yardim. Endi bilsak, mudhish xabar. Bu ham bo'lsa Xudoning loyiq ko'rgani... Endi iloj qancha, botirning halokati – elning kulfati.

Mirzaqul qariyalardan besh-oltitasini to'plab olib, Boydalinig o'limi haqidagi xabarni uning bola-chaqalariga qanday yetkazish kerakligini so'rab, maslahat qildi. „O'ldi“, deb xat kelgandan keyin nima ham qilish mumkin. Ammo shunday og'ir yillarda ayoli To'tioy bel bog'lab, bolalarini ko'z qorachig'idek ardoqlab, och qoldirmay, eplab boqib turganda, Boydali halok bo'libdi, deb qanday ayta olamiz. O'zi arang yashab turganda, bu xabarni aytsak, oxirgi umid-ishonchidan ham mahrum etgan bo'lmaymizmi? To'tioyning ruhi tushib ketsa, bolalariga kim qaraydi. Qo'y, Mirzaqul, buni hozir aytolmaymiz, jur'atimiz yetmaydi. Pishiqchilik kelsin, el-yurt to'yinsin, so'ngra kuzga borib hammamiz birgalikda xudoyisini o'tkazib, ovulimizdan chiqqan bahodir halok bo'ldi, deb xotirasini hurmat bilan eslab o'tamiz...“

Keksalarning bu maslahati ovuldagi ko'pchilikka ma'qul tushdi. Hali tamaki saroyida ayollarning hech narsadan xabari bo'lmagan To'tioyga achinib, yig'layotganlarining boisi ham shunda edi.

Tunda Ismoil uyiga odatdagicha qaytib, Saida unga qo'shnisi Boydalining qismati haqida gapirib berganda, u miyig'ida allanarsalar deb to'ng'illab, egnini qoqib qo'ydi.

Uning bunday beso'naqay va harakatsiz turishidan: „Iya, o'lgan ekanmi?“ degandek, yoki bo'lmasa: „O'lsa o'lgandir. O'qqa boshingni tutganingdan keyin nima bo'lardi. Men boshimni olib bekorga qochib yurganim yo'q! Ahmoq bo'lmasa, minaga o'zini tashlarmidi? Undan nima foyda ko'rdi? Ajali yetdi xolos!“ – degan kabi ma'noni uqib olish mumkin edi. Haytovur, u xo'mrayib badxohlik qilgandek, yonida turgan katta kosadagi go'jani olib, qulqullatib simirib yubordi-da, to'ymagandek qovog'ini solib:

– Yana bormi? – dedi.

Saida Ismoilni bunday holatda ko'rib hayratda qolgan va: „Qahraton qishda birda och, birda to'q yurib, o'z jonini saqlash bilan ovora bo'lgandir...“, deb ichida ayagan edi.

Ismoilni kuzatib yuborgandan keyin Saida allama-halgacha uxlayolmay yotdi. Eshikda shamol uvullab, qor uchqunlarini uchirib, derazalarni chertardi. Sovuqda to'ng'igan it ovul chekkasida bir-ikki angillab, g'ingshib qo'ydi-da, so'ngra „sov-u-u-u-uq, sov-u-u-uq“ degandek ulidi. Saidaning a'zoyi badani qaltirab, o'sha qor bosgan oy dalada bo'ron aralash esgan shamoldan chiyillashib hush-tak chalayotgan qalin qamishzorlar orasidan g'orga ketib borayotgan Ismoilni ko'z o'ngidan o'tkazib, qo'rqqanidan o'rnidan turib ketdi. Shu payt Saidaning bolasi yig'lab qolib, uni emizib bo'lgandan keyin, yana xayol surib, uyquga ketdi. Biroq uyqusida ham Ismoil yodidan chiqmadi... Tushida Saida ilgarigidek yangidan kelin bo'lib kelgan-u, Ismoil ikkalasi imorat qurayotgan emish. Ismoil beligacha yechinib olgan bo'lib, quyoshdan qorayib ketgan badanlari terdan yiltirardi. U Saidani quchoqlab olib, bag'riga bosadi. Bundoq qarasa, ustida soldatcha kiyimi: Ismoil hozirgina askardan kelib turgan ekan. Saida o'zida yo'q quvonib ketadi. Bu manzara unga go'yo o'ngidagidek bo'lib ko'rinadi. Ismoil sog'inib, yurak-bag'ri o'rtangandek, iliq lablari bilan Saidaning yuzlaridan qayta-qayta o'pib olib, lipillab yonib turgan pilikni „uf“ deb, bir puflashdayoq

o'chiradi... Saida joni orom olayotgandek badanlari jimirlab: „Sog'indim sizni, behad sog'indim!“ – deb uning qulog'iga shivirlaydi... Kutilmaganda shuvullab quyun ko'tariladi-da, Ismoil ko'zdan g'oyib bo'ladi. Saida uning orqasidan qichqirganicha yugurardi. Bir mahal qarasa, hamma yoq qor, o'zi esa g'orda o'tirgan emish, Ismoil tovuq go'shtini uzib-yulqib suyaklari bilan birga chaynab, Saidadan qizg'angandek, o'qrayib-o'qrayib qaraydi. Saïda Ismoilga yaqinroq kelib, gapirishga og'iz juftlaydi-yu, yana gapira olmay, ko'nglidan o'tkazadi. „Muncha ochko'zlik qilmasang. Boriga qanoat qilsang-chi, toshni yutib yuboray deysan-a, Ismoil!“ Shu mahal atrofdan qandaydir qichqirgan ovozlar eshitilib, bir gala askarlar ichidan miltig'ini o'qtalib, qiyqirib kelayotgan Boydali o'zini tikanli sim to'siqlari ustiga tashlaydi. Yer-ko'k larzaga kelib, havoni chang-to'zon qoplab oladi. Haligi askarlar esa Boydalinig jasadini qo'lda ko'tarishib, olg'a tomon yugurishadi. Saida qo'rquv aralash g'orning og'zini berkitmoqchi bo'lgandek, dik etib irg'ib turib ketadi...

Ertasi erta bilan Saidanikiga pochalyon Qurmon og'a chopib keldi. Uning etaklari ikki yoqqa tarvaqaylab ketgan, qiyofasidan qandaydir tashvish alomatlarini fahmlab olish mumkin edi. Qurmon og'a ot ustidan engashib, eshikni qamchi dastasi bilan ura boshladi!..

– Saida, rayondan NKVDning odamlari kelib, tezda sening idoraga yetib borishingni so'rashyapti. Qani, tezroq bo'la qol!..

Saida eshikka yugurib chiqar ekan, ularning nega chaqirayotganlarini so'ramadi ham. U, Qurmonni ko'rishi bilanoq yuragi taka-puka bo'lib, masalaga darhol tushungan edi. Saida garchi o'ngida faryod ko'tarib yig'lamayotgan bo'lsa ham, ko'nglida „Aylanay Ismoil, endi nima qilamiz?“ deb fig'on chekayotgan edi. Narigi yoqdan sevinib chopib kelgan Hasantoy, Qurmon og'a xat keltirdi, deb o'yladimi:

– Ismoildan xat keldi. Saida yanga! Suyunchi! – deb qichqirdi-yu, rangi bo'zdek oqarib ketgan Saidani ko'rishi bilanoq ovozi bo'g'zida qoldi va yelkasini qisib, biron ayb

qilib qo'yg'an kishidek, chetga borib xomush bo'lib turib qoldi.

– E, sho'rlik bolam-a! – dedi Qurmon og'a. Uning bu so'zi bolagami yoki Saidaga qarata aytildimi, kim biladi deysiz. Qurmon og'a otiga qamchi bosib choptirib ketdi.

Saida qishloq idorasiga qanday yetib kelganini sezmay qoldi. Qo'rquvdan badanlari muzlab, qaltiragan qo'llari bilan arang eshikni ochib kirgan edi. Qurmon og'a aytgandek, stol yonida to'pponcha taqqan, shinelli kishi o'tirganini ko'rdi. Saida o'tirgan kishining yuziga qarashga botina olmay, undan ko'zini olib, boshini xam qilgancha yaqinlashib boraverdi. „Ismoildan endi ayrilar ekanman!“ degan birgina xayol uni band etgan edi. Biroq oradan hech qancha vaqt o'tmay uning tasavvurida: „Ismoilni bermayman! Hech kimga bermayman!“ degan ikkinchi bir kuchli xayol hukmronlik qilardi.

Saida qishloq idorasiga kirib kelganda ham o'sha xayol ustunlik qilib: „Ismoilni bermayman! Hech kimga bermayman!“ deb, ont ichgandek qaqshab ichida qayta-qayta takrorlayotgan edi.

– O'tiring! – dedi NKVD vakili Saidaga. Lekin Saida buni eshitmay qoldi.

– O'tiring! – deb ikkinchi marta aytilganda, Saida ko'r kishidek kursining chetini siypalab arang o'tirdi.

NKVD xizmatchisi u-bu gaplarni bamaylixotir so'rab, ularni qog'ozga yozib olarkan, bir lahza o'zicha o'ylanib o'tirgandan keyin, Ismoilning frontga ketib borayotganda beshotar miltig'i bilan eshelondan tushib qolib, qochib ketganini aytdi.

– Eringiz hozir qayerda?

– Bilmayman, mening hech narsadan xabarim yo'q, – deb javob berdi Saida.

– Siz, rahm qilib, aytmaslikka ont ichgan bo'lsangiz ham, u baribir hech yerga qochib qutula olmaydi, oxiri qo'lga tushadi. Undan ko'ra eringizga, o'zingizga yaxshilikni ravo ko'rsangiz, ochig'ini ayting. Eringiz o'z ixtiyori bilan ozodlikka chiqsin... Siz bu ishda bizga yordam bering.

– Bilmayman, mening hech narsadan xabarim yo‘q! Askarga olib ketgan o‘zlaring, keyin nima bo‘ldi, u yog‘i menga qorong‘i.

Vakil qanchalik ko‘p surishtirmasin, Saida bilmayman, deb, ichida esa, „Xudo loyiq ko‘rgan yorimni o‘limga itarib, o‘zimga o‘zim dushmanlik qilarmidim! Boshimni kesib tashlanglar, o‘limdan qo‘rqmayman, biroq hech narsani aytmayman!“ deb o‘zini bilmaslikka solib, o‘jarlik qilib o‘tiraverdi. So‘roq tugab, Saida qo‘rquvdan darmonsizlanib qolgan edi. U yiqilayozgandek arang eshikdan chiqib borayotganida, narigi yoqqa otini bog‘lab kelayotgan Mirzaqulga ko‘zi tushdi. Mirzaqul qo‘lidagi papiros qoldig‘ini sipqorib tortib, shoshganicha kelayotgan edi. U bugun ham qandaydir boshqacha ko‘rinardi, soqoli o‘sib, jag‘lari yanada ich-ichiga kirib ketgan, eti qochib, qotib qolgan yelkasi biroz pastga osilib, eskirib ketgan shineli ostidan turtib chiqib turardi. Telpak chetidan qoshi aralash tikilib turgan ko‘zlari esa jon azobida qiynalayotgandek, kishiga o‘ychanlik bilan termilardi. Mirzaqul Saidani ko‘rishi bilanoq to‘xtab, oyog‘iga tikan kirgandek unga qadalib qaradi.

– Aytdingmi? – dedi u qo‘li bilan eshik tomonni imlab ko‘rsatib.

– Nimani aytishim kerak edi? Men hech narsani bilmayman! – dedi Saida unga.

– Xo‘-o‘sh, aytmayman degin! – Mirzaqul jahli chiqqandek jim qoldi, so‘ngra papirosini oyoq ostiga olib tepkilab, boshini chayqab oldi.

– Odamning yaxshi-yomonligi mana shunday paytlarda sezilar ekan! Aytmay uni qayoqqa olib bormoqchisan? Nomus bormi senda? Vatanim degan erkak – hammamiz qolmasdan jo‘nadik, yaxshilikkami, yomonlikkami, el-u yurtdan ajralmasdan. Buni sen tushunasanmi? Gapir, hali ham kech emas, Ismoilni top, el qayerda bo‘lsa, u ham shu yerda bo‘lsin.

Yuragi zardobga to‘lib, jon talvasasida turgan Saida hech hayiqmay Mirzaqulni yulqilay boshladi.

– Tushunganda nima? Qochsa qochib ketgandir. Men

uni qayerdan bilay! Har kimga o'z joni aziz, o'z boshini o'zi saqlab yurgandir, senga nima, muncha chiranmasang, yo'lingni kesib o'tgani yo'q-ku. Yoki hammani ham o'zingga o'xshab mayib-majruh bo'lib kelsin demoqchimisani?..

Saidaning bu so'zlari Mirzaqulning izzat-nafsiga qattiq tekkandek, ko'zlari olayib, cho'ltoq qo'li dirk etib silkinib tushganda, kissasidagi bo'sh yengi surilib chiqay dedi.

- De-demak, seningcha, men Ismoilidan... yo-yomonligim uchun... shunday ahvolga tushib qaytib ke-ke-kelgan ekanman-da! - dedi u har bir so'zini salmoqlab, tutilib. So'ngra turgan yerida orqasiga xiyol tisarilib, qo'lidagi o'rilgan qamchi bilan Saidaning bo'yin va boshi aralash savalay ketdi. Saida ham parvo qilmay turaverdi.

U qulog'i ostidan ship-ship o'tayotgan qamchini payqamayotgandek, go'yo sehrlab qo'yilgan quyon kabi Mirzaqulning sog' qo'li aralash yengi ichidagi dirkillab, qaltirab turgan cho'ltoq qo'lidan ko'zini uzmay, mo'ltayib turaverdi. Ikkinchi bir qaraganda Mirzaqul qo'lidagi qamchini tizzasiga urib sindirmoqchi bo'ldi-yu, biroq cho'ltoq qo'li yeng ichida yana dirk-dirk qimirlab, bu harakatdan hech narsa chiqmagandan keyin, qamchini tomning tepasiga uloqtirib yubordi. O'zi esa o'q tekkan kishi singari shinelining bo'sh yengini changallaganicha ko'ksiga bosib, ariqni ariq demay, qor uyumlaridan sakrab, yugurganicha tashqariga chiqib ketdi. Uning yelkasi yaqindan to'q qizil bo'lib ko'rinib, frontdan olib kelgan orqasidagi eski sumkasi yonboshiga shalop-shalop urilardi.

Mirzaqul olg'a tomon chopib ketganda, orqada mulzam bo'lib qarab qolgan Saida qamchi urilgan bo'ynining lovullab achishayotganini endigina seza boshlagan edi. Qora tutun bosib kelgandek iztirob ichida qolgan Saida faryod solib yig'lagisi kelardi.

U ko'cha bo'ylab borarkan, oldidan urayotgan izg'irin qor bo'ronini ham, yon-veridan tez-tez o'tib ketayotgan yo'lovchilarni ham payqamay, o'zini keng dalada gangib borayotgandek his qildi. Qavarib, shilinib ketgan bo'yni lovullab achishib, labini tishlaganicha atrofga hech qara-

may, xo'mrayib borar, bir-biridan achchiq, bir-biridan iz-tirobli o'y-xayollarga cho'mib, yetti nomusi yerga kirgudek bo'lardi.

„U meni urdi, savaladi, sharmanda qildi! Men buni Ismoilga aytaman, undan o'ch olsin!“ deyardi va darhol yana o'z hukmidan qaytib: „Yo'q, aytmayman, zotan, buni aytib ham bo'lmaydi. Ismoil tutilib qolishi mumkin, yaxshisi damingni chiqarma-yu, yuragingga tugib qo'y, u bilan gapirishib olishning ham mavridi kelar! Tug'ishgan dushman deganlari shu-da, o'z tug'ishganini ko'rarga ko'zi yo'q. Ismoil omon bo'lsa, qishni chiqarib, dovon ochilishi bilanoq Chotqolga jo'naymiz. U yerda hech kimdan yashirinmay, el-u yurt qatori erkin yashaymiz. Mirzaqulning yuziga ikkinchi marta qaramaganim bo'lsin!..“

Saida uyga qaytib keldi-da, beshik tebratib o'tirgan qaynanasini quchoqlab, yerga yiqildi. U jimgina o'tirgan mushtipar onaning oriqlik tizzalariga boshini qo'yib, nomusdan iztirobga to'lgan ko'ngliga erk berib, xo'rsinib-xo'rsinib yig'ladi:

– Ona, Mirzaqul meni urdi! Aylanay onajon, Mirzaqul meni urdi!

Yuzlaridan yum-yum oqib tushayotgan yosh tomchilari tomog'iga to'lib, uzoq vaqt nola tortib yig'ladi. Shunda uning qulog'iga qaynanasining yig'i aralash ayanchli ovozi uzoqdan eshitildi.

– Onang aylansin sendan, arzanda bolam, jonim qurbon bo'lsin senga... Umidimiz, ishonchimiz sensan! Ko'zimizning oq-u qorasi, kuch-quvvatimiz ham sensan... Sen bor ekansan, ko'nglim tog'dek bo'lib, ovunib o'tiribman. U dunyo-yu bu dunyo sendan roziman... Bunday ko'rgiliklarga chidash bermay iloj qancha... Mirzaqul ota-bobolarini unutib, o'z urug'laridan yuz o'g'irgan bo'lsa, Xudo bordir, arvoh bordir...

Saida Ismoilning kelar paytini bilib, yarim kechada o'rnidan turdi-da, uni ovulning chekkasida kutib oldi. Ismoil bu safar ovulga kirmasdan, o'z qarorgohiga qaytib ketdi.

* * *

Ilk bahor, qishloqdagilarning ko'pchiligida oziq-ovqat tugab qolgan payt. „Ovulda endi sigirlar tug'ib, sut-qatiqqa og'zimiz tegsa, keyin dumbul, arpa, so'ngra pishiqchilikka ham yetib olar edik“, deb gapirishar edilar. Ammo aytishga oson, ungacha ozmuncha vaqt bormi...

Saida uchun turmushning eng og'ir, eng mashaqqatli kunlari keldi. U Mirzaqul bilan urishib qolgandan keyin, Ismoil yanada sergak bo'lib, g'ordan chiqmay, uyiga kelishni ham bas qilib qo'ydi. Saida topgan-tutganini qo'yniga tiqib, paytini topsa, kunduzi o'tinga borganda, bo'lmasa kechalab Ismoilning oldiga o'zi qatnardi. Bu ham mayli-ku, lekin Ismoilning mechkay bo'lib shishib ketgani uni vahimaga solib, qattiq tashvishlantirib qo'ygan edi. Ismoil qancha ichib-yemasin, to'ygan-to'ymaganini bilmay, birdek bo'zrayib o'tiraverar edi.

– Don-dundan uyda qoldimi hech, yoki g'orda yotaverib, oxiri ochimdan o'lib ketmayin tag'in, yashirma, rostini ayt! – dedi u.

– U nima deganingiz! Tan-joningiz sog' bo'lsa, bir burda non topilar...

Saida ertasi barvaqt turib, bulturgi xirmon joylariga qarab yo'l olardi. U o'zi bilan birga olib kelgan to'rvasini yerga yozib qo'yardi-da, ertalabdan oqshomgacha somon shopirardi. Xirmon tagida qolgan somon orasidan bittayarimta burishqoq mayda bug'doy donalari tushardi. Kun bo'yi bir kosa bug'doy to'plasa, uni kechasi bilan qo'l tegirmonida tortib, Ismoilga non pishirardi. Shu taxlitda yana necha kun tirikchilik o'tkazishlarini kim bilsin. Saidaning ishongani – qo'lidagi yolg'iz g'unajini. U tug'ib bersa, Ismoilga sut-qatiq, moy bo'lardi!

Ismoil! Ismoil!.. Qachon bo'lmasin ingrab, butun dunyo ko'ziga yomon ko'ringandek, biron og'iz iliq so'z aytmas, maqsadsiz, orzu-havassiz, biqinib yashardi. Uning nimalar haqida o'ylayotganini, ezgu niyatini bilish qiyin edi. Gapirganda ham o'sha dovonning ochilishiga qancha vaqt qolganini so'rab, kun sanardi-yu, yana ovqat haqida o'ylardi, xolos. Et deganda og'zining suvi kelardi. U turib-turib,

sovug'im oshib ketdi, jirim qurib ketdi, deb nolir edi. Ismoil bu so'zlarni aytganda, bir lahza bo'lsa ham fikr-yodidan allaqanday mudhish xayollar ko'tarilgandek, o'qraygan ko'zlaridan o't chaqnab, ancha vaqtgacha qovoq solib, jim qolardi. Ajab, shunday paytlarda u nimalar haqida o'ylar ekan-a?..

Shu ahvolda g'orda yotaverib jinni-pinni bo'lib qoldimi, deb Saida qo'rqib ketdi. „Endi nima qilaman?“ – deyardi u achinib. Balki o'g'lini sog'inib qolgandir, degan xayol bilan Saida kunlardan bir kuni bolasini cho'miltirib, uning ko'ylak va yo'rgaklarini yuvib, ovuldagilarga: „Bobosinikiga o'ynagani ketyapmiz“ deb bolani g'orga ko'tarib bordi.

U birga o'tirishgan ota-boladan ko'zini olmay, zavqlanib qarar va shu choq o'zini ham g'oyat baxtiyor his etardi. Saida oradan bir kunni o'tkazib, yana ovulga qaytib keldi.

Yoz erta kirayotgandek bugun quyosh ertalabdanoq charaqlab chiqib, qizdira boshladi. Qirmoch bog'lab bosilib yotgan qor beti chet-chetidan ola-bula bo'lib erib, yaxlab qolgan shudgor yerlardan bug' chiqib turar edi. Vodiy bo'ylab mayin shamol esib, go'yo havo iligandek, cho'kindi qorlar ostini o'yib, shildirab suv oqardi.

Atrofda churq etgan tirik jon yo'q. Huv anovi xirmondan dimiqqan iliq hid kelardi, kimdir birov to'pon ag'darib shopirib yotganga o'xshardi. Bu Saida edi: to'ponni qoplab, ochiqroq yerga olib borardi-da, „shamol otasi“ni chaqirib, uni havoga sochib shopirardi va qum ichidan oltin zarrachalarini izlagandek yana uni titib ko'rardi. Biroq, bu xilda ishlash qanchalik mayda, qanchalik zerikarli bo'lmasin, Saida undan bosh tortmasdi. Nima bo'lsa ham Ismoilni ko'klamgacha boqib chiqishi kerak, so'ngra Xudo o'sha kunlarga yetkazsa, dovon ochilib, yo'lga tushib qolar...

Yoqimli bahor quyoshi tanlarni yayratib, kishiga o'zgacha rohat baxsh etardi. Shu topda Saida bir zumgina to'xtab, o'zicha totli xayollarga cho'mar, hatto ochlikdan ko'ngli ozib borayotganini ham unutib, a'zoyi badani qaltirab-titrayotgandek sezilardi.

U kelajak haqida orzu qilardi. Huv ana, olisda – man-gu qor bosib oqarib ko‘ringan tepaliklar orqasida Chotqol cho‘zilib yotibdi. Saida Chotqolni eslaganida, negadir xuddi afsonalarda tasvirlanganidek, ko‘z o‘ngida ajoyib manzara gavdalanardi. Yozin-qishin ko‘m-ko‘k bo‘lib chayqalib yotgan yashil o‘tloqlar, suv bo‘ylariga qator-qator tizilgan oq o‘tovlar, osmonga tutun tarqatib, biqirlab qaynayotgan ichi to‘la qozonlar... Ular mana shu ajoyib o‘lkaga – Chotqolga ketishadi. U yerda Ismoilning tog‘alari bor. Chotqolda Ismoilning askardan qochib kelganini hech kim bilmas va so‘ramas ham emish. U yerda Mirzaqulga o‘xshagan yomon kishilar ham yo‘q emish. Chotqolga borganlaridan keyin Ismoil kolxozga cho‘pon bo‘lib ishga kiradi, Saida esa unga ko‘maklashadi. Mana shunga o‘xshash tuganmas o‘y-xayollar...

Qani endi tezroq ko‘klam kela qolsa-yu, iliq kunlarga ham tezroq yetib olish nasib qilsa...

Odamzod bahorni ana shunday intiqlik bilan kutadi: qahraton qishdan so‘ng iliqlikni qo‘msaydi, zero, jo‘shqinlikka tashna bo‘ladi. Chunki bu faslda qishda hayoti so‘ngan butun mavjudot uyg‘onadi. Ko‘ngillar yayrab, zavq-shavqqa to‘ladi kishi... Biroq Saidaning dard-u xayoli tamomila bo‘lakcha edi. Boshqa paytlarda sira yo‘lab bo‘lmaydigan qor dovonining ochilishi – Chotqolga yo‘l ochilishi – uning uchun eri va butun oilasini qutqarib qolish yo‘li edi. Bu esa ular uchun birdan bir imkon, yagona najot yo‘li ekanini Saida yaxshi anglardi...

Shu bois u bu haqda kecha-yu kunduz qattiq qayg‘urib, qo‘rqinch umidvorlik bilan xayol surardi.

„O‘lmagan jondan – umid“ deganlaridek, Saidaning orzu-umidlari so‘nmagan edi. Shu haqda o‘ylar ekan, qaynansi qachondir aytgan so‘zlarni minnatdorlik bilan eslardi: o‘g‘lining qismatidan ruhan ezilgan, aziyat chekkan aynan shu mushtipar Beksaat onagina yosh kelin-kuyovga Chotqoldan panoh topish haqida ilk bor fikr bildirgan edi.

* * *

Saida ot o'g'risi haqidagi ko'hna qo'shiqni burun ham ovullarda ko'p eshitgandi:

*Uyurdan ot obqocharman,
Gulxandan o't olganday,
Chotqol sari ucharman,
Muz-u qorlar kechganday...*

Saida shu choqqacha bu qo'shiqning mazmuniga hech qanday ahamiyat bermagan va Chotqol, vaqti kelib, uning uchun olamdagi eng aziz va tabarruk qarorgoh bo'lib qolishini xayoliga ham keltirmagan edi...

O'zini o'zi bandi qilib qo'yganidan gangib, odamovi bo'lib qolgan Ismoil uchun ham, o'sha ot o'g'risi qo'shig'ida kuylanganidek, umid yog'dusi so'nmagandi: u butun qalbi bilan muz va qorlar osha Chotqolga oshiqardi, uning fikr-xayoli faqat shu haqda edi.

Ismoilning onasi – beozor, kasalmand Beksaat kampir – o'sha qishni bamisoli bir uyum tuproq tagidagi inida onda-sondagina atrofqa qarab qo'yib, tahlikali kun kechiruvchi ko'rsichqondek o'tkazdi. Qochqinchi o'g'lini odamlar nigohidan yashirish zarurati tug'ilgan kezlarda ona bechora butun farosatini ishga solib, hovlisidan hech qayoqqa chiqmaslikka, hech qayerda ko'rinmaslikka, hamqishloqlari bilan ortiqcha uchrashuv va muloqotlardan yiroq yurishga undadi. Bundan o'zgacha tarzda yashashning sira iloji yo'q edi. Sho'rlik kun bo'yi uyida nabiraginasiga qarab o'tirardi, boshqa hech nima talab ham qilinmas edi undan. Eng muhimi: kampirning shunday hayot tarzi o'g'lini ham, kelinini ham to'la qanoatlantirardi. Ular unga to'la ishonishar va suyanishar edi. Shu kampir bo'lmaganida ahvollari qanday kechardi?! Saida o'tin yig'ishga, shuningdek, erining tog' etagidagi boshpanasiga borib kelishi uchun go'dagini kimga va qayerga qoldirib ketgan bo'lardi?!

Saida Mirzaqul uni qamchilab savalaguniga qadar ham qaynanasini bot-bot ogohlikka chaqirib turardi: mabodo birov undan o'g'li to'g'risida bir narsa so'rab qolsa, o'zini

dadil tutib, uning taqdiriga achinayotganini bildirishi joizligi, hozirgi zamonda yuz berayotgan voqealarni bir notavon, savodsiz kampir qayoqdan ham bilishligini aytishi darkorligini uqtirar edi. Bugina emas... Ismoilni askarlikka olib, urushga jo'natishganidan beri undan hech qanday dom-darak yo'q. Kim biladi deysiz: xatlar yo'lda qayerlardadir yo'qolib ketar, balki. Ishqilib yakka-yu yagona, yolg'izgina o'g'limni Xudoyim o'z panohida asrasinda. Tirik bo'lsa, bir kuni albatta qaytib keladi. Shu kunlar menga nasib qilish-qilmasligi esa yolg'iz Egamning o'zigagina ayon, deganga o'xshash ogohlantirishlar...

Shunday vaziyatlarda keksa Beksaat hammasini to'lig'icha tushunib yetganini bosh irg'ab ma'qullab turardi. Uning serajin yonoqlari sezilar-sezilmas oqqan ko'z yoshi tomchilaridan namiqib ketgan, u shu qadar munkayib, ozib-to'zib, bir tutam bo'lib keksayib qolgan ediki, Saida unga achinishni ham, biror maslahat berishni ham bilmasdi:

– Ey, enaginam, nega behudaga hadeb ko'z yosh to'kaverasiz! Xudoning g'azabini keltirmang, – deya gina qila boshladi kelini. – Nima bo'lgandayam Yaratganga shukur qilsangiz-chi: o'g'lingiz garchi qochqinchi bo'lsa ham, tirik yuribdi-ku, axir. Yarim kechada, oz fursatga bo'lsa-da, uyimizga kelib turibdi-ku! Ayoqli kechalarda yurish qanchalik og'ir bo'lmasin, baribir, bu yerlardagi ahvol urushdagidan afzalroq-ku, u yoqlarda qanchadan qancha odamlar qirilib ketmoqda... O'g'lingizning o'zi ham aytgan edi-ku: begona yurtlarda jon fido qilishimning nima hojati bor. Tushimga ham kirmagan, ota-bobolarim ham ko'rmagan allaqayerlarga borib jang qilishni menga kim qo'yibdi! Urushni kim boshlagan bo'lsa, uning o'zi urishaversin. Men esa „Bolta tushguncha kunda dam olar“ maqoliga amal qilib, toqat bilan kutib yotaveraman, deb.

Saida bu so'zlarni har gal suhbatga ehtiyoj sezilib turgan kezlarda, ayniqsa, tunda ovulda muzlagan derazalarda chiroqlar birin-ketin o'chib, sovuq o'tib o'z xonasidan panoh topgan itlarning akillashi tingan, har ro'zg'or, har oila cho'g'i so'ngan o'choqxonasi atrofida g'ujlashib,

to saharbardongacha – xo‘rozlar qichqirib, sigirlar ma’-
rashgunga qadar – tashqi olamdan uzilgan paytlarda o‘z
hikoyasini takrorlashdan erinmas edi... Qaynana-kelin
go‘dakni uxlatishib, beixtiyor o‘z mushkulotlari yuzasidan
so‘z ochishgan kezlarda Beksaat kampir, odatda, keli-
ning gaplarini jimgina tinglab o‘tirar edi. Shunday lah-
zalarda qaynanasi javob ma’nosida og‘ir xo‘rsinib qo‘yar,
boshini ojizona qimirlatar edi; har gal suhbat nihoyasiga
yetganda esa, boshga solganini ko‘raveramiz-da, degan
iborani tilga olardi. Endi esa o‘z vahimasini sira yashira
olmadi. Noiloj boshini changalladi, qonsiz lablari arang
pichirlardi.

– Saidajon, bovrinim, juda ham qo‘rqib ketyapman, bu-
larning hammasi oxiri nima bilan tugar ekan-a!

Saida ko‘nglidagi umidsizlikni qaynanasiga sez-
dirmaslikka, irodasizlik qilmaslikka majbur edi.

– Enajon, tinchlaning. Nega endi eldan burun yig‘lab-
siqtaysiz. Mana ko‘rasiz, hademay havolar ilib, qorlar
eriy boshlaydi, yerdan nam ko‘tariladi, o‘g‘lingizga ham,
o‘zimizga ham yaxshi bo‘ladi, – deb qaynanasini yupata
boshladi.

– Keyin esa yana biror nima o‘ylab qalovini ham topar-
miz, axir biz tirik insonlarmiz-ku. Faqat ovuldoshlarning
birontasi ham o‘g‘lingizdan boxabar bo‘lishiga sira yo‘l
qo‘ymang, surishtirib qolishsa, siz hech nima bilmayman
deb turavering, vassalom...

Bexosdan qaynana-kelin jimib qolishdi, o‘shanda
ham ularning har biri mazkur jumboq yuzasidan o‘zicha
xayolga cho‘mishgani holda uning yechimini topol-
may oxiri nima bo‘lishini bilolmas edilar. Biroq Ismoilni
kutib olish – ovqatlantirish, ko‘nglini topib, unga meh-
ribonlik ko‘rsatish va erta tongda ovulni tark etishi kabi
yumushlarda jonbozlik ko‘rsatar edilar: u, odatda, tun-
ning qoq yarmida paydo bo‘lardi. Saida erining kelishi
oldidan po‘stinga o‘ralib hovliga chiqar va uning uyga
bexatar kirishi uchun omborxonaning nariyog‘idan ku-
zatardi. Saida Ismoilning paydo bo‘lishini tevarak-
atrofqa nazar tashlab, har qanday ovozga quloq tutib

xavotirlangan cha kutib turar edi. Ayni chog'da uzoqda qor bilan qoplanib yotgan tog' qoyalari ustidan miltillab ko'rinayotgan yulduzlar va oymomaga qalban murojaat etardi. Uning majruh qalbidagi dard-u hasratlarini faqat yulduzlar-u oymomagagina to'kib solishi, ulargagina iltijo qilishi mumkin edi, xolos. Zora ular uning oh-u zorlarini eshitib, qandaydir bir mo'jiza bilan yerdagi voqealarga ta'sir o'tkazishsa: erini, chaqalog'ini, qaynanasini hamda o'zini balo-qazolardan avaylab-asrashsa. Xususan, Ismoilning qochoqligidan xabar topishi bilanoq ularning hammalarining qo'l-oyoqlarini bog'lab Sibirga badarg'a qilish va yo'qotib yuborish payida yurgan kimsalardan qutqara qolishsa. „Mening iltijolarimni eshitgizlar, ularni faqat Sizlargagina izhor qilmoqdaman, – uning o'zi to'qigan munojotlari shu so'zlar bilan boshlandi. – Sizlar samoda o'z o'ringizdasiz, shu vajdan hech nima sizlarga tahdid sololmaydi, hech kim hech kimni ta'qib ham qilmaydi va u yerda hech qanday o'zaro urushlar ham bo'lmaydi. Bizlar esa bu yerda dahshatli urushning dastidan o'zimizni qayoqqa urishni ham bilmaymiz. Urushda esa son-sanoqsiz xaloyiq qirilib yotibdi. Ovulimizda erkak zoti qolmadi hisob: hammasi urushga ketgan. Dushman bilan urushish, jang qilish kerak, deyilishi bilanoq hamma birday frontga jo'nadi. Aslida esa biron kishi ham o'lishni ko'nglidan xohlamaydi, shunga qaramay, hamma o'zini o'limga urayotibdi. Nega shunday-a? Erimning aytishicha u eshelondan qochgan ekan, o'z xohishi bilan shu qarorga kelgan, har kim o'z aql-hushi bilan ish tutadi, bandalikni qayerda bajo keltirishning hech ahamiyati yo'q. Shundaylikka shunday-ku, ammo bularning hammasi oxir-oqibat qanday yakun toparkina? Shu bois Sizlardan yolvorib iltijo qilyapman, yulduzlar va oymoma! Sizlardan o'zga hech kimimiz yo'q bizlarning. Munglig' qaynanam ikkovimiz faqat shu haqda bosh qotiramiz. Go'dakchamiz hali juda yosh bo'lsa, undan nimani ham so'rashimiz mumkin! Uning murg'ak taqdiri qanday kecharkin? Shu haqda erim bilan kengashgan chog'larimda u o'z bilganidan qolmaydi: mening qismatim nima bo'lsa,

sizlarniki ham shunday bo'ladi. Turmush qurganimizda nima bo'lgan edi? O'shanda har birimiz yomon kunda ham, yaxshi kunda ham doim birga bo'lish to'g'risida qasamyod qilgan edik. Men-ku shunga hamisha shayman. Biroq bundan keyin shu zaylda qanday yashay olar ekanmiz? Hammani urushga chorlayotgan o'lkalardagi bu dahshatli urush yana qancha davom etarkin? Bizning hammadan yashirinib, tahlikada kun kechirish tarzimiz qachongacha davom etarkin, qo'qqisdan sirimiz ochilib qolsa-chi?.. Erim bechoraga ham rahmim keladi, qachondan beri to'dasidan ayrilgan bo'ridek, odamlardan qochib-bezib yuribdi sho'rlik. Ahvoli og'ir uning. Qattiq yo'taladi, shamollagan boyoqish. Uyda ham hamma narsamiz tamom bo'lay deb qoldi. O'rada urug' uchun asrayotgan kartoshkamizdan ozgina qoldi, u ham nish chiqarib o'smoqda. Un haqida esa gapirmasa ham bo'ladi: u umuman tugayapti. Vaholanki uning har bir siqimini ham nihoyatda tejabtergab ishlatyapmiz, nonni esa qallig'im uchungina pishiramiz, o'zimizning kunimiz esa faqat jo'xori bo'tqasiga qolgan... Jamoa xo'jaligidagi ko'pgina xonadonlarda haqiqiy ocharchilik boshlanmoqda deyish mumkin. Odamlar arang, zo'rg'a-zo'rg'a tirikchilik o'tkazishyapti, shu sababli hamma ko'klam boshlanib, sigirlari tug'ib, sut-qatiqqa yolchiydigan kunlar kelishini orziqib kutmoqda. Nahotki o'tmishda ham odamlar shunchalik qashshoqlikda kun kechirishgan bo'lishsa-ya? Aytishlaricha, qadimda ham ocharchilik va qahatchiliklar bo'lib turgan, lekin bunaqa urushlar bo'lmagan. Odamlardan qochib, yashirinib kun kechirishdan ko'ra, kambag'al-qashshoqlikda yashash ming bor afzaldir..."

Mabodo Ismoil nimagadir kechikib qolguday bo'lsa – ba'zida unga tun qorong'isida tasodifan biron kishiga duch kelib qolmaslik uchun ovuldagi hamma xonadon derazalarida chiroq o'chirishini uzoq vaqt kutib turishga to'g'ri kelardi. Saida o'shanday kezlarda ham omborxonada orqasida turib o'z jufti halolining yo'liga sabr-toqat va sodiqlik bilan ko'z tikib turaverar va o'y-xayollarga berilgan holda samoviy yulduzlarga qalbdan iltijo izhor etar edi. Uning

shunday o'y-xayol va mushohadalari faqat qop-qorong'i kechada uzoqdan Ismoilning qorasi ko'zga ilingan lahzalardagina bo'linar edi. Saida hamma narsani, hattoki hozirgina ko'nglida kechib turgan barcha o'y-fikrlarini ham unutib, qahraton ayozdan titrab-qaltiragan holda erining yoniga borar va uni uyga boshlab ketar edi... Har qalay, qisqa muddatga bo'lsa-da, birga bo'lishar... Tong otishi bilan esa yana g'oyib bo'lardi.

Saida uchun erining kiyim-kechaklarini yuvishning hech ham qiyin joyi yo'q, lekin uni hovlida yoyib quritishga yuragi dov bermasdi. Tasodifan biron kimsa hovliga ko'z tashlab, erkak kishi kiyimlarini payqab, so'rab-surishtirib qolsa nima deydi? Shuning uchun keksa Beksaat yuvilgan kiyimlarni tunda o'choq boshida uzoq vaqt sabr-toqat bilan qo'lda tutgan holda olovda quritib chiqardi.

Shunday kunlarning birida quritilgan kiyimlarni nimjon qo'llarida tuta turib, keliniga yig'lamsirab murojaat qila boshladi:

– Saida, endi bor gapni senga ochiqchasiga aytmasam bo'lmaydi: ichimda qandaydir bir yomon dard paydo bo'lganga o'xshaydi, biqinim mudom tosh tiqilgandek og'riydi. Yotsam ham, tursam ham qattiq sanchadi. Kun sayin tinka-madorim qurib boryapti.

– Unda Siz nega shu paytgacha indamay yuribsiz? Og'riq qachondan beri bezovta qiladi sizni? – Saida endigina qaynanasining madori qurib ko'zlari qanchalik xiralashib qolganiga ishonch hosil qildi. Ayni chog'da kampirning ichdan azob berib kelayotgan dardni hech kimga bildirmay, indamay yurgani shunday oqibatga olib kelganini ham anglab yetdi. Saidaning avzoyi buzila boshladi. – Men bo'lsam buni hecham payqamay yurgan ekanman, – dedi Saida gunohkorona. – Hamonki shunday dardga yo'liqqan ekansiz, buning biror chorasini topishimiz darkor!

– Biz nima ham qila olardik? Sen faqat Ismoilga hech narsa dema. Negaligini o'zing yaxshi tushunasan. Mensiz ham uning g'am-tashvishi yetarli. Mening dardimga darmon izlashning esa hojati yo'q. Shuning uchun ham shu chog'gacha jim yurgan edim-da. Ha, qizim, men boshqa

narsa haqida o'ylayapman. O'zim bilan birga olib keta olmaydigan boshqa dard bor. Tanamdagi og'riq o'zim bilan birga ketadi. Ammo sizlarning holingiz ne kechishi, u ham, sen ham el orasida bosh ko'tarib yurolmaslikka qachongacha chiday olishingizni o'ylasam... – deb o'g'lining hali qurib ulgurmagan ko'ylagini yanada qattiqroq g'ijimladi va hiqillagancha turtib chiqqan oriqlik yelkalarini titratib, yig'lamsiragan ovozda davom etdi: – Axir inson odamlarsiz yashay olmaydi-ku. Odam odam bilan tirik! Yakka-yu yagona jigarbandimga rahmim keladi, uning ayanchli ahvoliga achinaman; agar ayol ilon tug'sa, o'sha ilonni ham vujudining bir qismidek avaylaydi, jigarni yulib bo'lmaganidek, uni ham tanadan ajratib bo'lmaydi. Men bu dunyoda faqat farzandim uchun yashadim. Nimasini aytay, o'zing ham onasan-ku axir. Sen bir gapni bilishing kerak, faqat eringga bu haqda og'iz ochma ko'rma. Ha, undan oldin yana bir gapni eslatib qo'yay. Sen men uchun, Saida, bu dunyoda hammadan ham yaqin kishimsan, o'layotganimda ham Ollohdan faqatgina sening baxtingni so'rayman va Ollohga hammasidan rozi ekanimni aytaman. Va narigi dunyoda ham faqat bir narsani – sening baxtingni so'rashimni aytaman. Gohida o'ylab qolaman, bu jazo bizga qaysi yoziqlarimiz uchun? O'zing bilasan, asli bu yerlik emasmiz, garchi bu yerdagilar uchun anchadan beri tug'ishgandek bo'lib qolsak ham. Bu yerlarga ko'chib kelganimizning sababi bolalarim turmadi. Xo'jayinim biroz xasta edi, bu yoqqa kelganimizdan so'ng sog'lig'i butunlay yomonlashdi. Xullas, bu manzilga kelib, biron ro'shnolik ko'rganimizni bilmayman. Ungacha esa uchta go'dagimni dafn etdik. Keyin Ismoil bo'yimda bo'ldi, u to'rtinchi farzandim. Erim dediki, bu yerda ishimiz yurishmayapti, bolalarimiz turmayapti, kel, qo'shni ovulga ko'chib o'taylik, u yerda ham uzoq qarindoshlar bor, shekilli. Men esa bunisi ham o'lib qolsa-chi, deb qo'rqardim... Dunyoning narigi chekkasiga borishga ham tayyor edim. Bu yerlarga shu tariqa kelib qolganmiz. O'g'lim tug'ilib, hayotimiz go'yo iziga tushib ketgandek tuyulsa-da, erimning sog'lig'i kundan kunga yomonlashib borardi. U qattiq yo'talar, o'pka xastaligidan

ozor chekardi. Oradan besh yil o'tib u dunyodan ko'z yumdi. Men esa besh yashar o'g'ilcham bilan yolg'iz qoldim. O'shanda ma'rakadan so'ng sen hech qachon ko'rmagan, tanimagan akalarim kelishgan edi.

– Eshitganman, bilaman. Bir paytlar o'zingiz aytgandingiz. Chotqolga ketishgan, degan edingiz, – deb eslatib qo'ydi Saida.

– To'g'ri, to'g'ri, bu haqda hech kimga aytma, deb o'zim ogohlantirib qo'ygan edim-ku. Akalarim baquvvat, mehnatkash odamlar edi. Kelishgach, yur, seni o'zimizga yaqinroq joyga ko'chirib olib ketamiz, bu yerda o'g'ling bilan bevalikda kun kechirib nima qilasan? Hali yoshsan, balki boshqa er ham topilib qolar. Hayotda nimalar bo'lmaydi deysan. Bu yerda esa yolg'izsan, akalaring qanotida bo'lsang, sovchilarning yo'qlashi ham osonlashadi. Biz bilan yur, senga yordam beramiz, qolgani taqdiridan... Men esa ularga: „Rahmat, akajonlarim. Sizlar kattasizlar, men esa yoshman. Gaplaringizga kiraman, faqat muhlat beringlar. Marhumning yilini lozim bo'lganidek, shu yerda, u dafn etilgan joyda o'tkazay, u yog'i bir gap bo'lar. „Kel“ deyishlaringiz hamonoq o'g'lim bilan sizlarga yaqinroq joyga boramiz“, – dedim. Ha, Saida, kelinjonim, Husanqul va O'rinqul akalarim bilan shunday suhbat bo'lgan edi. Bir yil o'tib, ma'rakadan so'ng men o'ylab, o'yimga yetguncha, xalqni quloq qilishga tushishdi. Endi har ikki akam, Husanqul ham, O'rinqul ham otlarini vaqtida egarlab, dovon oshgancha Chotqolga bosh olib ketishdi. Oilalari ham ularga qo'shilib ketdi. O'sha yerda qo'noq topishdi. Chotqol tog'larida faqat yozda bir oygina dovon ochiladi, o'shanda otda yoki piyoda o'tish mumkin bo'ladi, boshqa paytlari esa u yerdan faqat qushlarga uchib o'ta oladi, basharti tog'-tizmalar osha uchayotgan vaqtda qanotlari muzlab qolmasa. Ana o'sha joylarga ketgan akalarim. O'zim-ku u yerlarda hech qachon bo'lmaganman, lekin odamlar shunday deyishadi...

Beksaat kampir bir zum o'yga cho'mib, jim bo'lib qoldi, o'choqdagi tezak cho'g'ini kuyib ketgan kosov bilan to'g'rilab, cho'g' ustida yana o'g'lining ko'ylagini quritish-

ga tutindi. Uning ko'z yoshlari tingan, demak, ko'nglini bo'shatib olgan. „Ey Tangrim, o'lib qolmasa bo'ldi, – qo'rquv ichida o'yladi Saida, kampirning quti o'chgan, behol yuziga qararkan. Qaynanasining sog'lig'i ancha og'irlashgan edi, xuddi kuzgi so'qmoq yo'lda muzlab qolgan chigirtkaday. – Yashab tursa bo'ldi. Usiz holim ne kechadi?“

Shu payt kutilmaganda xayoliga allaqanday bir fikr keldi, biroq u shu qadar noaniq ediki, oxirigacha o'ylab ham o'tirmay, kampirdan shunchaki so'rab qo'ya qoldi:

– Nima deytgan edingiz, ena, Chotqol haqida gapirayotgan edingiz-a?

– Gap shundaki, – javob berdi u, – akalarim oilalari bilan xuddi o'sha Chotqolga ketishgan. Bir nimani sezishgan-da. U olis o'lkalarda birov birovning ustidan hukmron emas. U yerda faqat tog'lar hukmron: qo'lingdan kel-sa, chorva boqsang, tirik qolasan, qo'lingdan kelmadimi, o'zingdan ko'r, tog' oshib, o'zbeklarning huzuriga borasan. Akalarim tavakkal qilib ketdi, yo hayot, yo mamot, deganlari shu bo'lsa kerak. Uylariga esa qo'shnilari o't qo'yib, kulini ko'kka sovurishdi. Lekin bundan foyda chiqmasligini bilishar edi. Keyin esa ocharchilik boshlandi. Ungacha ozmi-ko'pmi mulki bor odamlarni quloqqa chiqarishdi. Hamma ovullarni g'alvirdan o'tkazishdi. Qanchadan qancha odamlar Sibirga badarg'a qilindi. Akalarim esa tirik qolishdi. O'shandan keyin biz ular bilan boshqa ko'rishmadik. Aytishlaricha, o'sha yerda palak yozib, yaxshi yashab ketishibdi. Urushdan oldin, yozda, esingdami, qizim, bozorga temiryo'l bekatiga borganimizda, oldimga bir odam keldi, qora yuzli, aslida shu yerlik bo'lib, u ham quloqqa chiqarilgandi. Ering bilan sen o'zingga ro'mol tanlayotgan paytda biz u kishi bilan qisqa suhbatlashgandik. U akalarim Husanqul, O'rinqul tirik va sog'-salomat ekanini, bizga salom yo'llashganini aytgan edi. To'g'ri, ancha keksayib qolishganmish. Endi ular u yerda – Chotqol oqsoqollari, turmushlari ham yomon emas ekan. Men ularga salomimni yetkazishni so'radim. Yana o'g'limni uylantirganimni, kelin, ya'ni sen biznikida ekaningni ham aytdim.

– Keyin-chi? Nima demoqchisiz, ena?

– Nima demoqchiman? O‘z taqdirim va sizlarning hayotingiz haqida o‘ylayapman. Akalarim Chotqolga ketganda, men yolg‘iz qolgan edim. Qanchalik og‘ir bo‘lmasin, boshimga tushgan barcha ko‘rgiliklarni yengib o‘tdim. Jamoa xo‘jaligida ishladim. O‘g‘il o‘stirdim. U traktorchi bo‘ldi. Yaxshigina pul topar edi. Kunlarning birida sen, nuri diydam, gul bo‘lib xonadonimizga kirding. Hayotimiz iziga tushgandek edi-yu, birdaniga urush boshlanib ketdi! Keyin nima bo‘lganidan xabaring bor. Endi o‘ylasam, qanchadan-qancha azob-uqubatlar chekmadik, bir umr taqdir bizga soya soldi. Bolalarim o‘ldi, erim o‘ldi, akalarimni quloq qilishdi, jamoa xo‘jaligida tongdan tonggacha ishlab, keksayib kasalmand bo‘lib qoldim. Ammo hammasidan ham dahshatlisi urush bo‘ldi, baxti qaro o‘g‘lim esa qochqinda, uni la‘natlay olmayman: axir urushni u chiqargani yo‘q-ku, to‘g‘ri-da, uning ham qurbon bo‘lgisi kelmaydi, buning azobini endi sen tortyapsan, xuddi qush bolasiday uxlab yotgan farzanding – nevaraginamning holi ne kechadi? Buni hech kim bilmasligi kerak, sir tutmoq lozim...

– Hamma gapingiz to‘g‘ri, – og‘ir tin oldi Saida moychiroq yorug‘ida bir piyola bug‘doy donalarini tozalar ekan. – Nachora, siz bilan mening peshanamizga shunday baxtsizlik yozilgan bo‘lsa. Biz-ku, uyda, issiq joyda o‘tiribmiz. U-chi, g‘orda nima qilayotgan ekan? Olov yoqib bo‘lmasa, ayniqsa tunda, odamlar sezib qolishi mumkin. O‘zingiz bilasiz, u kamgap, erkaklarning hammasi shunaqa, fikrlarini ichda saqlashadi. Yaqinda menga aytishicha, – bu gapni Sizga aytmagan edim, – u dalada ketayotib, aynan shu joyda birinchi marta yer haydagani yodiga tushibdi. O‘shanda traktordan tushgim kelmagan, deydi, ish qaynagan va u umr bo‘yi g‘alla ekish uchun yer haydashni orzu qilgan ekan. Endi esa shu daladan xuddi osmondan changal tashlovchi kalxatdan yoki biror yirtqich hamlasidan cho‘chigandek o‘tayotibdi. Ha, u shular haqida so‘zlardi.

– Ha, men ham shuni aytmoqchi edim, – qo‘shib qo‘ydi Beksaat kampir, ko‘z yoshlaridan o‘zi yuz o‘g‘irgandek, ularni qo‘lidagi mato bilan artarkan. – Qaysi gunohlarimiz

uchun peshanamizga bunday taqdir bitildi? Nimamiz bilan yoqmadik Tangriga? O'z o'g'limni qarg'ay olmayman, lekin ikkalangizga yordam berish ham qo'limdan kelmaydi, ahvolim juda og'ir, biqinimni tosh ezg'ilayapti, avvalgidek, o'g'limni ko'krak sutim bilan boqqan paytlardagidek yosh-yalang va sog'-salomat bo'lganimda-ku, uyda o'choq boshida o'tirarmidim? Men uni qo'llarimda ko'tarib, dovon ortiga olib ketardim, abadiy qorlardan o'tib, hamma o'z hayotini o'zi quradigan Chotqol tog'lariga borardim. Qo'lingdan kelsa, yaxshi, kelmasa, o'zingdan ko'r. Ana, biznikilar quloqlashtirish paytida ketib, jonlarini saqlab qolishdi. Endi siz ham, agar yozgacha amal-taqal qilib yetib borsak, Chotqolga yo'l olsangiz, deb o'ylab turibman. Jigargo'shalaringni olib ketinglar, u yerda akalarim yoki ularning farzandlarini topasizlar, men esa shu yerda ajalimni kutaman...

– To'xtang, ena, to'xtang! – gapini bo'ldi Saida. – Chotqolga deysizmi? – quvonib ketdi u: chunki uning o'zi ham shu haqda o'ylayotgan edi-da. – Faqat, keling, hammasini puxta o'ylab, rejalashtiraylik, – deya taklif kiritdi Saida va oraga beixtiyor sukunat cho'kdi. Qaynana cho'g' ustida kirlarni quritishga kirishib ketdi, kelin esa bor diqqatini jamlab, bug'doy donlari orasidan xas-cho'plarni terib olardi. Keyin ular yana suhbatni davom ettirishdi.

O'sha tunning o'zidayoq Ismoil uyga kelganda, Saida unga Chotqol safari rejasi haqida so'z ochdi. Bu chindan ham buyuk voqeaga aylandi. Bu taklif go'yo Ismoilning ko'z o'ngida kutilmaganda kimsasiz qal'a devorida eshik ochilganday taassurot qoldirgan edi. U onasi va xotini uyda birdan bir to'g'ri yo'l o'ylab topishganidan hayron edi, negaki uning uchun o'zini o'zi tutqun qilgan vaziyatdan qutulish yo'li topildi.

– Qoyil! Qanday o'ylab topdingizlar buni? – deya hayratlanish va tasanno aytishdan to'xtamasdi Ismoil. – Demak, bundan chiqdi, Chotqolda mening tug'ishgan tog'alarim yashar ekan-da. Axir buni Xudoning o'zi g'oyibdan sizlarning dillaringizga solgan, Egamning o'zi buyurgan: o'ylab o'tirishga hojat yo'q. Endi asosiysi,

yoʻzgacha sabr qilish, keyin dovon ochilsa, bir kunni ham, bir soatni ham zoye ketkazmasdan yoʻlga tushish kerak... Eh, nega oʻzim bu haqda oʻylamabman-a? Axir, anigʻini bilmasdim-da. Bu voqealar qachon boʻlganini hatto eslay olmayman ham. Albatta, sen aytmagansan, qoʻrqqansan, sir tutgansan: ular quloq qilingan. Yaxshiyamki, ular quloq qilinishgan. Endi ular Chotqolda, ularni izlab topish kerak. Quloqlar! Ular kim uchundir quloq, kim uchundir unday emas! Chotqolga yetib borsak, biror odamdan Husanqul va Oʻrinqul togʻalarim qayerdaligini soʻrab olamiz! Shundaymi, ena? He-ey, Xudoga shukurki, shunday akalaringiz bor ekan...

Ismoilning quvonchi cheksiz edi. Hayratidan dili yori-shib ketgandi. Biroq hali biron ish qilingani yoʻq, ayozli qish qilichini qayrab turibdi, oldinda shilt-shilt loy-u yomgʻirli bahor, hali yoz uzoq, hali togʻ etaklari-yu qiradirlardan qor ketgani yoʻq, hali Ulugʻ togʻdagi asovli toshqinlar quturganicha yoʻq, hali togʻlardagi dahshatli oʻpirilishlar-u koʻchkilar yoʻllarni toʻsib qoʻyganicha yoʻq, hali bunday ogʻir safarga hech qanday tayyorgarlik koʻrilmagan, hammasi hali oldinda edi. Ismoil boʻlsa oʻzini qayerga qoʻyishini bilmasdi. U goh oʻrnidan turib, deraza yoniga borar, sabrsizlik bilan osmonga, yarim tunda koʻkimtir choʻqqilari tepasida yulduzlar porlab turgan Chotqol tomonga tikilib qarar va oshib boʻlmas togʻlar bilan qurshab olingan Chotqol vodiysi qanday boʻlishi kerakligini xayolan oʻzicha tasavvur qilar; soʻng oʻchoqdagi soʻvib qolgan taomi tomon qaytar; boshqa kunlari uni ovqat solingan kosadan tashqari hech nima qiziqitirmay, motam-saro oʻtirardi, endi boʻlsa ovozlari qoʻngʻiroqday jaranglab, koʻz qarashlari avvalgidek oʻzgarib yana oʻz holiga kelgan edi. Mayli bu oʻzgarish unda shu paytga, qisqa fursatga toʻgʻri kelgan boʻlsa-da, oradan bir-ikki kun oʻtib u yana dilida qaynab toshgan umidsizlik gʻazabi bilan qishni, togʻlarni, ayozli kunlarni, qoʻyingki, butun olamni laʼnatlab, taqdirdan nolib tupurar, qush boʻlib dovonlardan Chotqol sari uchib oʻtolmaganidan jiddiy afsuslanardi. Buni chuqur his etgan xotini va onasi unga toʻla hamdard

bo'lishar, chunki ular qochoqlik hayotining har bir daqiqasi qanchalik qimmatga tushishini bilar edilar, negaki o'z boshini qutqarayotib, uning holiga tushgan odamning tanlagan yo'li mohiyat-e'tibori bilan xuddi urushdagidek halokatli edi. Urushda uni dushmanlar, bu yerda esa o'zimznikilar o'ldirishi mumkin edi...

Bu ikki ayol esa – onasi va xotini – o'z burchi va sadoqatining qurboni bo'lib, uning musibat-u baxtsizliklarini birga baham ko'rishardi, ochlik va sovuqdan ham dahshatliroq jinoyat-u xo'rliklardan saqlab qolishni o'z zimmalariga olganlar ham o'shalar edi. Taqdirning eng og'ir zarbalarini – odamlar o'rtasidagi mish-mish gaplar-u qonun shafqatsizliklarini, qo'shnilarning shivir-kichir qilishib, aybsiz aybdor g'ariblarni ayab, yuziga aytmayotganlarini ham ular bilishardi. Urush qatnashchisi, bir qo'li yo'q Mirzaqul ham uzoq qarindoshlari bo'lishiga qaramay, qishloq Kengashining raisi bo'lib yurganda Saidaga qo'l ko'tarib, g'azabidan uni qamchilashgacha bordi, ezilib musibat chekkan xotini bilan onasi esa Ismoilni deb ayollarga xos sabr-bardosh bilan buni ham ichga yutdilar. Endi esa Ismoilning qutulishiga, andak bo'lsa-da, umid uchqunlari tug'ilgach, ular o'zlarini erkin va baxtiyor his etar va shu voqeaga daxldor bo'lganlaridan quvonar edilar.

Ismoil esa, xuddi yangi kun kelishi bilanoq bu ro'y berishi mumkindek, Chotqol dovonidan oshish rejalarini tuzar edi. Va ular – onasi bilan xotini jon-dillari bilan bunga quvonishardi, chunki hayotning mo'jazgina bir chekkasi yorishib, hammalarini maftun etib, qutqaruvchi g'oyaga – Chotqolga ketishga chorlardi. Ammo, shu bilan birga, onasi ham, xotini ham o'ylangan ishni amalga oshirish unchalik yengil kechmasligini yurakdan his etishardi – buni faqat gapirish oson, ammo qorli dovonni zabt etishda yo'lovchini qanday xatarlar kutishi, u yerlarda odamlar dam-badam qor ko'chkilari ostida halok bo'lishi, balandlik va ayozdan nafaslari qaytib o'lishi haqida ular so'z yuritmaslikka intilishardi. Chotqolga yetishganida ham hammasi qanday bo'lishini faqat Ollohning o'zi biladi. Ammo o'sha damda ular, o'zaro kelishib olgandek, Ismoilning re-

jasini qoniqish bilan ma'qullab, uni rag'batlantirishardi. Ayniqsa onasi uning ruhini ko'tarishga ko'proq intilardi. Keksa Beksaat o'zini qo'lga olishga tirishib, nafasi siqilishini, biqinidagi sanchiq azobini o'g'liga sezdirmaslik uchun o'zini dadil tutishga urinar edi, chunki bu uchrashuvga ko'lanka solishni, yoshlarni o'z dard-u hasratlari bilan chalg'itishni xohlamas edi, garchi ichida Ollohga yolborib, tonggacha – o'g'li o'z kulbasi tomon ketguniga qadar sabr berishni tilab turgan bo'lsa-da, o'shandan so'nggina bemalol yig'lashi, o'kirishi mumkin bo'ladi va Ollohga bor ovozi bilan zorlanib iltijo qiladi; dahshatli qiynoqlarga duchor etmaslikni Xudodan iltijo qilardi, chunki hozir kasal bo'lishning mavridi emas, ayniqsa tabib va duoxonlarga murojaat qilish payti emaski, uyga qiziqsinuvchi begona kimsalarning e'tiborini qaratmaslik kerak, axir o'g'lining taqdiri qil ustida-ku. Ona o'z munojoti davomida basharti uning ajali yetgan bo'lsa, to o'g'li Chotqol dovonidan eson-omon o'tib olguniga qadar ozroq muhlat berishini Ollohdan yolvorib so'ragan bo'lar edi. Agar vaqt-soati yetgan bo'lsa, nima ham qila olardik, mayli unda o'sha qudratli Egam uni mahv eta qolsin. Ammo hozircha uning jonini olmay tursa durust bo'lardi. U bu muhlatni aslo o'zi uchun emas, balki faqat o'g'li va olamda uning uchun aziz bo'lgan kelini uchun so'rayotgan edi. Agar gap hayotning mohiyati, odamning bu dunyoda nima uchun yashashi, umri davomida hayotda qanday ro'shnolik ko'rgani haqida ketsa, o'shanda baxtsiz, o'g'li davlat qochqini bo'lgan kekxa Beksaat, taqdir unga shunday insonni – uning Saidasini tuhfa etganidan behad shod va mamnun ekanligini aytgan bo'larmidi. Va agar uning keliniga baxt darig' etilgan bo'lsa, u ham shunday sho'rpehana bo'lsa, unda baxt kimga, nimaga xizmat qiladi, u qanday ayol zotiga tuhfa etilgan?.. U nega odamlarni yo'ldan ozdiradi? Axir usiz bu yorug' dunyoda yashash amri mahol-ku...

Bunday o'y-xayollar kampirni holdan toydirardi. O'ylamaslikka ham uning iloji yo'q edi, biqinidagi og'riq qadalib, tinchlik bermas edi. Dard dardmand bilan hamisha boshqalarga eshittirmay suhbatlashadi. Keksa Beksaat

dilida nimalar kechayotganligini oshkor etmaslikka astoydil harakat qilardi. Ismoil o'shanda yoz boshlanishi bilan qay yo'sinda Chotqolga yo'lga chiqishlarini orzu qilib va ma'lum bir qarorga kelib: „Chotqolga butun oilamiz bilan birga jo'nab ketamiz. Shunga tayyorgarlik ko'rish kerak, hammasini atroflicha o'ylab ko'rmoq darkor“, – deyar ekan, onasi:

– O'g'lim, endi men qarib qoldim, o'zlaring boraversizlar, men esa bu yerda qolib, sizlarni duo qilib o'tiraman.

Ismoil bunga astoydil va ochiqko'ngillik bilan e'tiroz bildirdi:

– Yo'g'-e, siz nima deyapsiz, shu so'zni aytishga qanday tilingiz bordi? Biz sizni nega qoldirib ketar ekanmiz? Bu bo'lmagan gap. Sizsiz bir qadam ham siljimasiz. Yo'q-yo'q, men sizni zinhor tashlab keta olmayman. Bunaqasi ketmaydi. O'zim sizni opichlab boraman, ena.

– Oh, o'rgilay sendan, bolajonim, so'zlaringni Ollohim eshitsin. Quvvatim yetganda o'zim ham emaklab bo'lsa-da borgan bo'lardim, xastalig-u qarilik qursin, – deya qo'shib qo'ydi jur'atsizlik bilan o'g'lini ranjitmaslik uchun. – Sizlar bilan birga bo'lish men uchun, albatta, yaxshi bo'lar ediku, ammo bu yog'i hali nima bo'larkin?

– Eh, mening jonsarak enajonim! Men seni yaxshi tushunaman, ena, ammo bu haqda gapirishga hali erta. – Saida qaynanasini quvvatlab, jilmaydi. – Xudo xohlasa, ungacha yaxshi bo'lib ketasan. Ana aytdi deyarsan. O'shanda bir qarorga kelamiz-da jo'nab ketamiz. Va seni Chotqoldagi akalaringga: „Mana, biz keldik, qabul qilinglar! Singlingizni ham olib keldik, u bilan birga o'zimiz ham qo'noq bo'lamiz...“ – deymiz.

Uning so'zlaridan beixtiyor hammalari qo'shilishib kullib yuborishdi. Qaynana esa kelini gapni uning kasali haqida borayotganidan chalg'itishga intilayotganini tushundi. Ha, u to'g'ri qilgan edi.

O'zaro umidbaxsh va ko'ngil ochuvchi bu suhbat bilan kecha o'tib borardi. Ayniqsa Ismoil ko'tarinki ruhda edi. Ikki marta uxlab yotgan Omonto'rani quchoqlab o'pib, unga pichirladi: „Mana, sen bilan Chotqolga,

tog'alarimiznikiga jo'naymiz. U yerda hamma odamlardek yashaymiz. Senga kichkina toychoqni o'rgatib beraman, sen uni minib, tog'larda choptirib yurasan. Ana o'shanda buni ko'rgan momong bilan onang quvonchdan cho'chib ketishsa kerak-a?"

U endi Chotqolga jo'nash uchun nima qilish kerakligini batafsil tavsiflab berishga kirishdi.

„Avvalambor yozni, yo'lning ochilishini kutmoq kerak. Hozircha esa biron kimsa shubhalanib qolmasin uchun sir saqlab yashirib turishga, so'ngra esa vaqtni boy bermay, darhol yo'lga tushishga to'g'ri keladi. Buning uchun esa hammasini oldindan mo'ljallab, tayyorlab qo'ymoq kerak. Dovonda qish ariganicha yo'q. Hali bo'ronlar ko'tarilishi mumkin deyishadi. Demak, issiq kiyimlar, ayniqsa poyabzal hozirlab qo'ymoq darkor. Tog'-toshlardan, so'qmoqlardan, qor uyumlaridan chidamli poyabzalsiz piyoda o'tib bo'lmaydi. So'ng bir haftaga yetarli ovqat g'amlab olishimiz kerak. Ko'proq tolqon hamda qaynatib pishirilgan va xom go'sht, qozoncha, tuzi, o'tini bilan. Dovonda qor va shamoldan boshqa hech narsani topolmaysan. Men bu xususda ko'plab hikoyalar eshitganman. Go'sht yog'li bo'lishi kerak, deb to'g'ri aytardi enam. Cho'ponlar faqat shu bilan tirikchilik qilishadi-ku. Ular dovonlarga qanday borishni yaxshi bilishadi. Hamma ko'ch-ko'ronlarni, kiyim-kechaklarni hamda bolalarga mo'ljallangan ba'zi bir ko'rpa-to'shaklarni xurjunlarga joylashtirib olishardi. Xurjunlarni esa eshaklariga yuklar edilar. Eshaklarni qayoqdan olamiz? Ikkita eshak kerak. Biriga yuklarni ortamiz, ikkinchisida esa qo'lida nabirasi Omonto'ra bilan enam ketishadi. O'zimiz esa piyoda boramiz. Shoshmay tur, Saida, hozir eshaklar xususida aytaman. Xo'sh, Ollohning o'zi bizlarni yorlaqadi. Bir paytlar Qo'ytosh soyligida oltin qazuvchilar tashlab ketgan yettitacha yag'ir eshak kezib yurganini senga aytgan edim, ehtimol, yodingdan ko'tarilgan bo'lsa kerak. Kim bilsin, bu kelgindilar qazishgani oltinmidi yoki boshqa bir narsami, har qalay o'z ishlarini tugallaganlaridan so'ng eshaklarni tashlab ketishgan, o'zlari esa, ehtimol, poyezdda jo'nab

ketishgandir. Bu egasiz eshaklar kuzdan beri o'sha yerda, yaylovda o'tlab, istagancha g'aram chekkalarini g'ajib, bulturgi poxol uyumlarini titib kun kechirardi. Balki ularni kimdir ko'rgandir, ammo ular kimga, nimaga ham kerak deysiz, ovulning o'z eshaklari yetarli. Bu bilan nima demoqchiman? Bir juftini ko'z ostimga olib, asta-sekin boqib parvarish qilaman. Vaqt-soati kelib, tunda haydab kelaman. Yuklarni ortib, yarim tunda Chotqol sari ravona bo'lamiz, chunki erta tongda ovuldan qanchalik uzoqlashsak, shuncha yaxshi bo'ladi..."

Oradan ko'p o'tmay avval olisdagi, so'ng qo'ni-qo'shnilarining xo'rozlari qichqirisha boshladi. Ismoilning jo'nash payti ham keldi. U taraddudlanar ekan, ketish oldidan kichkintoyi tepasiga kelib egildi, so'ng xayrlashish oldidan onasiga ayrim so'zlarni tayinladi. O'shanda tong yorisha boshlab, hali butun ovul uyquda edi. Qor yog'adiganga o'xshardi – osmonni butunlay bulutlar oqimi qoplab olgan edi. Saida uni hovliga kuzatib chiqar ekan:

– Ismoil, quloq sol, agar ertaga seni shu joyda kutib turgan bo'lmasam, sen uyga kirmagin, shu zahotiyuq ortingga qaytib ketaver, – dedi.

– A nega, nima bo'ldi? – Ismoil xavotirlana boshladi.

– Enamning kasali og'irga o'xshaydi. U seni xafa bo'lmasin deb bildirmaslikka harakat qildi. Ammo uni davolash zarur. Uni tabibga ko'rsatish kerak. Axir boshqa yo'li yo'q-ku.

– Ha, hali gap bu yoqda ekan-da, – dedi Ismoil gapni cho'zib. – Og'ir kasal degin-a. Mayli, gapingni inobatga olaman. Davolagin. Balki biror giyoh yordam berar.

Shu bilan ular xayrlashdilar. Saida yana anchagacha undan nigohini uzmay kuzatib turdi. U tomorqalar bo'ylab o'ziga tanish so'qmoqlardan ketib borardi, mana chekkadagi qo'shnilar – Sotimqul va To'tioy xolaning hovlisidan o'tib, katta ariqqa burildi va ko'zdan g'oyib bo'ldi. U biron zot ko'rinmaydigan joylar orqali, chiyzorlar orasida yashirinib, o'zining tog' etagidagi g'origa qanday qilib yetib olishini va zilday po'stinga burkanib, uxlagani yotishini Saida o'zicha tasavvur qilardi. Lekin bu safar uning dili

xiyol ravshan edi, chunki Chotqolga ketib yashash niyati amalga oshayotgandek edi.

Saida uyga qaytib, ostona hatlab kirishi bilanoq, xuddi uni kutib turganday, falokat yopirilgan edi – qaynanasi hushidan ketib, sekin ingrab yotardi. Saida u tomon otilib, tiz cho'kkancha kampirni quchoqlab oldi. Kampirning ahvoli og'ir edi. Bag'riga bosarkan, uning qanchalik nimjonlashib, cho'pdek ozib-to'zib ketganligini sezdi. Agar ro'moli ostidan chiqib turgan oppoq soch tolalarini aytmaganda, uni o'spirin yigit deb o'ylash mumkin edi: arang nafas olardi. Saida qaynanasining so'nib borayotgan ko'zlariga qarashga cho'chidi.

– Ena, enajon, tinchlan. Hozir yengil tortasan, o'zingni qo'lga ol. Hozir senga yordam beraman! – sarosimaga tushib gapirardi Saida. – Qayering og'riyotganini menga ko'rsat. Mana shu yermi? Nima qilish kerak endi? Hozircha issiq kigizni, so'ngra esa qizdirilgan donni bosaman. Qaynoq choyni ham... Sen faqat chidab tursang bo'lgani.

Uyning u yog'idan bu yog'iga yelib-yugurib, tovada makkajo'xori donlarini qizdirib, keyin ularni tugunchalarga solib kasal qaynanasiga bosish uchun olov yoqayotib, Saida sarosimaga tushgan holda endi nima qilishini o'ylardi. Bunday paytlarda, odatda, kechiktirmay kasalni biladigan odamlarga ko'rsatib, maslahatlashib olish, keyin esa – bu eng muhimi – shu atrofdagi bironta taniqli tabibni taklif qilish zarur bo'ladi. Ammo yashirinib yurgan Ismoil uchun buning hammasi nogahoniy qo'rqinch tug'dirar edi. Erini yashirish esa Saida uchun, har qanday holatda ham, muhimligicha qolaverardi.

Boyqoqish Saidaning eri va qaynanasi orasidagi o'yfikrlari qorishib ketgan edi. Keyin esa kampirni to'shakka yotqizgach, u biroz isib olib, ingrash-u oh-vohlari andak tinchigandan so'ng, Saida bir qarorga keldi.

Tong otib qolgan edi. Saida bolasini tezgina emizgandan so'ng uni qo'shnisi To'tioynikiga, o'z bolalari bilan birga, bir-ikki soatga qarab turish uchun eltib berdi. O'zi esa bir yil avvalgi doya momosi oldiga, nima qilish kerakligi haqida maslahatlashgani jo'nadi. Doya momo

o'zi bilan tanish bo'lgan kinnachi ayolni ham birga olib borishga va'da berdi. Nihoyat, ular peshinga yaqin, Saidaning sabr kosasi to'lib-toshgan kezda yetib kelishdi. Ammo ularning tashrifi hamdardlik ko'rinishidagina bo'ldi. O'tirishdi, so'rab-surishtirishdi, choy ichishib, kek-sa Beksaatga yaxshi niyatlar bildirib, uni tinchlantirishdi va daryo ortidagi Archa ovulchasida istiqomat qiluvchi mashhur kek-sa tabib – Musa emchini chaqirish lozimligini tavsiya qilishdi. Yana Saidaning qo'shnisi To'tioydan qaynanasi oldida o'tirib turishni iltimos qilishiga to'g'ri keldi va yaxshiyam qo'shni kasalga va bira to'la bolaga qarashga rozi bo'lib, o'zining bolalarini ham olib keldi.

Saidaning o'zi esa ba'zan yo'l bilan, ba'zan so'qmoq orqali daryo ortidagi Archa ovuliga, tabib Musa emchining oldiga yugurib ketdi. Uni uyida uchratganidan behad quvondi. Tabib kechga yaqin yetib borishini aytdi. Saida yana uyiga shoshildi, yana qishda sayozlangan daryoni kechib o'tganida tizzadan oshgan muzdek suv zahri suyak-suyagidan o'tib ketdi. Tezda poyabzalini kiyib, tog' yonbag'irlari bo'ylab jadal yurib o'ziga keldi, so'ng esa hatto qizib ham ketdi.

Borishda ham, kelishda ham, butun yo'l bo'yi, uning miyasida faqat birgina fikr – bu olamda nimaiki sodir bo'lar ekan, Yaratganning irodasisiz bo'lmas, ilohim, uning O'zi qaynanasini panohida asrasin, chunki uning ahvoli soat sayin og'irlashib bormoqda... Biroq uning qalbini tirnayotgan narsa faqat shugina emas edi. Bu yog'i endi nima bo'larkin, qaynanasi kasal bo'lsa, o'ylashicha, bu uzoq davom etsa, bolasi nima bo'ladi, unga kim qarab turadi, erining ahvoli ne kechadi, endi u uyga bosh tiqa olmasligi, o'zi ham uning tog'dagi yashiringan joyiga yugurib borolmasligi haqida o'ylayverib garangsib qolgan edi.

U qaynanasiga shifo berib, avvalgidek g'imirlab, uyda biron yumush bilan mashg'ul bo'lishini, eng muhimi – hadiksiz, emin-erkin yashash orzu qilingan o'sha ajoyib kunlar kelishi bilan butun bir oila bo'lib Chotqolga yo'l olganlarida onaizorning egarlangan eshakda keta olishiga madad so'rab iltijo qilardi. Axir qanchalab odamlar kasallana-

di-yu yana sog'ayib ketishadi, nahotki uning taqdirida bu yozilmagan bo'lsa? O'ylardi u. Agar qaynanasi kasalligicha qolsa, unda Chotqolga borishi nima bo'ladi – yolg'iz o'zini tashlab ketib bo'lmaydi-ku? Agar kasalning yonida qolsa, unda Ismoilga nima bo'ladi? Unda bu kun bo'lmasa ertangi kun uni ko'rib qolishlari turgan gap-ku: ko'ribsizki erta-indin dalalarda turli-tuman bahorgi ishlar boshlanib, mollarni yaylovga haydashadi, boradigan joyi qolmaydi, unisi bo'lmasa bunisi uni ko'rib qolishi mumkin, shu bilan hammasi tamom vassalom...

Saida muzlab qolgan o'nqir-cho'nqir yerlardan yelib borar ekan, bu mushkul ahvoldan qutulish yo'llarini izlab, xayol girdobida suzardi.

Endi uning butun umidlari shifokor Musa emchida edi. Hurmatli qariyaning dong'i tevarak-atrofga ketgan bo'lib, odamlarni giyohlar va sut bilan davolardi. Endi Saida Musa emchini davolashning shunday sir-asrorlarini qo'llashda Oллоhning O'zi madadkor bo'lishini so'rardi. Beksaat bir necha kun ichida kasaldan forig' bo'lib yana uy yumushlari bilan shug'ullanib yurishi, yana tunlari Ismoilni kutib, hozirlik ko'rishlari va o'sha kunlar nasib etib, hammalari ikkala eshakda yuklari bilan Chotqolga jo'nashlari haqida suhbatlashar edilar...

O'zi va'da berganidek, Musa emchi kechgacha yaqin yetib keldi. Bundan biroz ilgari Saida qariya uylarini adashmasdan topib kelsin uchun uni tepalik yonida kutib turgan edi.

Uning tulki telpakda, kulrang eshakchada kelayotgan qiyofasiga ko'zi tushgach, biqinidagi og'riq kun bo'yi, erta tongdan to oqshomgacha halovat bermagan, emchining kelishini eshitib biroz tetiklangan kasal uchun hammasi ilohim yaxshilikka bo'lsin, deya yana Oллоhga iltijo qilardi.

Musa emchi – jussador, norg'ul, qorachadan kelgan, qirg'iy burunli, oppoq soqolli va ko'rinishidan o'ta salobatli, sinchkov bir qariya edi. Ana shu qarashlari-yu so'zlashish ohangida uning butun borlig'i namoyon etilgan edi.

– Qizim, bu yerda sovqotib qolasan-ku, o'zim Beksaatning uyi qayerda deb so'roqlab topib kelardim-ku, – dedi u yo'g'on ovozda, Saida kutib turgan joyga yaqinlashar ekan.

– Zarari yo‘q, bezovta bo‘lmang, sovqotganim yo‘q, – javob berdi Saida, – Sizdek emchi otamizni kutib olmasak, kimni kutib olardik! – dedi u cholga jilmayib.

– Yo‘g‘-e, rostdanmi, – davom etdi otaxon, – qani boshla, u qayerda, bechora Beksaat, unga nima bo‘ldi? Ofatni qarang-a, o‘g‘il urushda, o‘zi betob, tevarak-atrofdan sovuq va ocharchilik hukmron...

Qariya eshakdan tushdi, ikkalalari uy tomon yo‘nalishdi.

– Eringdan xabar bormi? – qiziqdi Musa emchi.

– Yo‘q, ko‘pdan beri undan biron xabar yo‘q, – bu savoldan u allanechuk bo‘lib ketdi. Qariya sukut saqladi-da yana qo‘shib qo‘ydi. – Nima ham derdik, urush urush-da. Ammo hammaning peshanasida o‘z yozig‘i bor.

„Bu bilan u nima demoqchi bo‘ldi?“ – o‘yladi Saida va chol hozir kutilmaganda: „Sening Ismoilning qochib yurgani rostmi?“, – deb so‘rab qolishini kutdi.

Ammo chol hech nima demadi, shu payt ular hovliga kirib kelishgan edi. Saida qariyaga ko‘maklashib, uyga boshladi, ostonaga yaqinlashgach, Musa emchi to‘xtalib:

– Qizim, senga qanchalik og‘ir ekanligini tushunaman, – dedi u pand-nasihati qilganday, yuziga osoyishtalik bilan qarab. – Hammasi yaxshilik bilan tugaydi deb umid qilamiz. Bemorni ko‘zdan kechirib, uni qanday davolash zarurligini nazarda tutgan holda giyohlarni o‘zim bilan birga olib keldim. Mana ularni eslab qolgin – men o‘zim aytganimdan tashqari hech nimani so‘rab-surishtirib o‘tirmagin. Tushundingmi, meni?

– Ha, Emchi ota, sizni tushundim.

Musa emchi ostonadan hatlab o‘tgach, avvalo, oppoq oqargan mo‘ylovlari ostidan jilmayib, burchakda yotgan kasalga:

– Bu nimasi, Beksaat, bemavrid kasal bo‘libsan, sabr qilib tursang bo‘lardi.

Qaynanasi tabibga shu ohangda javob qaytarishga kuch topmadi.

– Koni azobga qoldim, Musa emchi, – zo‘riqib, iztirob ichida ingrab gapirardi kampir. – Balki biron dori-darmon toparsan.

– Qani-qani, hozir bir yo‘lini o‘ylab toparmiz.

Saida xalal bermaslik uchun bir burchakda jimgina turardi. Musa emchi bemor qarshisida o‘z ishi bilan mashg‘ul bo‘lib turganda, Saida bunaqa kechada yolg‘iz o‘zi qolmasligi uchun ovuldagi bironta kampir yoki qo‘shnisini chaqirib kelish zarurligini o‘ylab, endi bu yerga yo‘lay olmaydigan Ismoil uchun juda qayg‘urardi. Eri uchun ham va ovulning shundoqqina biqinida yashab turib, piyoda yarim soatlik yo‘l yurib yolg‘iz o‘g‘lini ko‘rish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan qaynanasi uchun bunday alamli achinish-u iztirobli kechinmalar uning qalbini tirnardi.

Shu payt Musa emchi diqqat bilan, xuddi boshqalarga noma‘lum bo‘lgan tovushlarni ilg‘ayotgandek, qovog‘ini uyib, bemorning tomir urishini paypaslab ko‘rar ekan uning oriqlab ketgan qoqsuyak qo‘llari xuddi yosh bolalarning qo‘lchalarini eslatardi. So‘ngra tabib, odatdagidek, dam kafti bilan bemorning qorni-yu biqinlarini silab, dam barmoqlari bilan sekin bosib, uning qarshisida o‘tirganicha faqat o‘ziga ma‘lum bo‘lgan narsa xususida jiddiy o‘ylar ekan, uning nigohida umidsizlik alomatlari shunchalik bo‘rtib ko‘rinardi. Saida buni sezmasdan qolmadi. U pechka ortidagi burchakda tabibning yuz-ko‘zlarida ifodalayotgan ma‘noni uqib olayotgandek yuragi orqaga tortib ketdi. Qariya Musa emchining uzoq sukut saqlashi esa borgan sari uni tashvishga solardi. Saida shu topda kasalning o‘zi boshidan nimalarni kechirayotganini anglab, uni oldinda yana nimalar kutayotganini bilishga harakat qilardi. Shu topda uning holi ne kechdi ekan, onasidan xavotirsirayotganmikin, ammo iloji qancha, bu xususda unga biron nima deyishga haqi yo‘q. Hammasi uchun qayg‘uradi, hammasi uchun xavotirsiraydi, hammasidan hadiksirab yashab, hamma balo-qazolar-u azob-uqubatlarni o‘z gardaniga olishga tayyor edi, ammo tobora holdan toyib, o‘lim sari yuz tutayotgan qaynanasi oldida u o‘jiz-u notavon edi. Ko‘z yoshi quyilib kelar, lekin ko‘zini bemordan olib qochar, ammo o‘zini bosib olish uchun esa katta sabr-toqat kerak edi.

Qariya Musa emchi eshagiga o‘tirib darhol jo‘nab ket-

madi, qorong'i tushib qolgan edi, u hovlida Saida bilan xayr-ma'zurlasharkan: uyda endi bir o'zing yolg'iz o'tirma. Meni boshqa kutmanglar, – dedi.

Gap nima haqda ketayotganini Saida yarim og'iz so'zdan tushundi.

Derazadan yelgan sovuq shabada ortidan uyga ham ko'zga ko'rinmas sovuq nafas kirib kelganidek, keksa tabib eshagida qorong'ilik qa'riga sho'ng'ib g'oyib bo'lib ketgandan so'ng u butun vujudini cheksiz yolg'izlik qamrab olganini his etdi. Saida ham rutubatli kunlar yaqinlashib kelayotganiga qaramasdan o'z kelinlik burchini ado etishga tayyor edi. Hammasini o'z yelkasiga olish endi uning zimmasiga tushardi. O'zi uchun ham, qariyaning o'g'li va quloqlarga qarshi kurash dastidan Chotqolga qochgan akakalari Husanqul va O'rinquullarning qarindosh-urug'lari uchun ham so'nggi nafasigacha qaynanasining boshida bo'lishni u ko'ngliga tugib qo'ydi. Hayotdan ko'z yumayotgan qaynanasi oldida hamma uchun va hamma narsa uchun tiriklar zimmasiga tushgan yukni endi Saidaning bir o'zi ko'tarishga tayyor edi. Uyga bosh suqar ekan, u „o'lim barhaq, u odamlarni inoqlashtirishi kerak, undan boshqasi bekor“ degan ahd-u paymonni o'z diliga tuggan edi.

Shu ondan boshlab Saida jon talvasasida yotgan qaynanasi yonidan bir qadam ham jilmay qo'ydi. Qiynalib, azob chekkan keksa ayolning hayot shami so'nib borardi. Tobora tildan qolayotgan esa-da, bor kuchini yig'ib, og'ir nafas olgan holda, g'am-anduhli va ayanchli bir qiyofada kelinining yuziga boqar ekan, ayol unga so'nggi vido so'zini aytmoqqa chog'langan ko'rinardi. Bu dil tubidagi va oldin ham emas, keyin ham emas, balki umri-ning eng oxirgi daqiqalarida aytilishi mumkin bo'lgan vidolashuv so'zi bo'lsa ajab emas, biroq uni ifoda etishga ayolning majoli yetmasdi. Bu paytda undan bundan qariya Beksaatning joni uzilayotganini eshitib, hovlida odamlar to'planib qolishdi. Ular jimgina kelishardi. Odamlarning bir qismi achinish va iztirob chekkan holda, o'z munosabatlarini og'ir xo'rsinish bilan ifodalab kelib-ketishar, ayrimlari esa, ortiqcha shov-shuvsiz, bunday paytlarda oldin-

dan uyda ko'riladigan tayyorgarlik payidan bo'lishardi: bir-lari o'tin tashigan, kimdir tovoqchada un, kuydirilgan moy keltirardi. Yana birovlari qo'ni-qo'shnilardan idish-tovoq yig'ishar, hovlida esa oyoq ostiga somon sochib chiqishar-di.

Tun yarimlab qoldi. Qoshiqchada og'ziga suv tomizib qo'yar ekan, Saida qaynanasining so'nggi soat va daqiqala-rini yengillashtirishga urinardi. Jon taslim qilayotgan Bek-saat kuni bitganini sezib yotar, shuning uchun ham jon talvasasida nimadir demoqchi bo'lar, lekin buning uddasi-dan chiqolmasdi, shundan keyin u dil rozini ko'zlari bilan imo-ishora qilishga o'tdi. Rostdan ham, qaynana va kelini-ning vidolashuv chog'idagi oh-u fig'onlarini – jo'rlashib ho'ngrashlari-yu mungli marsiyalarini kim ham tinglaydi deysiz: bu termalarda esa ularning ko'nglidagi orzu-niyat-lari umrbod amalga oshmaydigan armon bo'lib qolgani, butun xonadon ahli – o'g'li ham, kelini ham, jon-dildan xohlagan Chotqol safari ham, quloq sifatida Chotqolga badarg'a qilingan el-urug'-u yor-u birodarlar bilan ke-linni tanishtirish haqidagi o'y-xayollari ham sarobga aylangani, endilikda esa buning mutlaqo iloji qolmagani borasidagi hasratlari o'ta ta'sirli ifodalangandi. Saida uchun hammadan ham o'kinchlisi shunda ediki, endi u keksa qayna-nasini eshagiga o'tqizib qo'ymaydi, yo'rgakdagi nabirachasini uning qo'lga tutqazmaydi va ular tun qorong'isida birga-likda yo'lga ravona bo'lishmaydi. Nachora, endi u kunlar boshqa qaytib kelmaydi. Bundan keyin ularning Chotqol dovonidan omon-eson o'tib olishlari oldidan tog' qoyasi va qor uyumlari oralig'idagi bir go'shada kichik gulxan tafti-da isinib, sabr-toqat bilan kuch to'plashlariga ham hojat qolmaydi; endi ular gulxan tepasida parvoz qilib yuruvchi farishta-yu maloyikalardan o'zlariga rahm-shafqat qilish-larini va bilib-bilmay qilgan barcha gunohlarini afv etish-larini va tog' yo'lidagi balo-qazolarni daf etishlarini yol-vorib so'ramaydilar ham; negaki ular, chindan ham, hech kimga yomonlikni ravo ko'rishmaydi: dovonga esa qonun va jazodan qochib, o'zini o'zi quvg'in qilgan qochoq askar Ismoildan xabar olish ilinjida chiqib turishadi. Shularning

hammasi uchun ona va kelinning cheksiz ranj-alam va iz-tirob chekishayotgani va bunga sabr-bardosh qilib kelayotgani – bu bir qismat edi, xolos...

Shu zaylda jafokash ona qissasi o'z intihosiga yetdi: o'lim butun kelajakdan mahrum qilgani bois endi barcha o'y-xayollar – safar tashvishlari ham, yo'l azobi ham, Chotqolga ketgan boshqa qavm-qarindoshlar daragini surishtirish ham, ularga bu yoqqa kim bilan birga va qay tariqa yetib kelganlarini hikoya qilib berish rejasi ham barham topdi.

Qaynanasi o'lim to'shagida yotgan o'sha qayg'uli tun ana shunday yakun topdi.

Saidaning boshini qotirayotgan ko'pdan ko'p o'y-xayollar ichida ayniqsa erining xatarli qismati unga sira tinchlik bermasdi. Uning boyoqish Ismoili u yoqda qanday yuribdi ekan-a? Onasi jon taslim qilayotgan shu kezlarda boshidan nimalar kechayotganiykin? Zero, u shunday dardi bedavolarga muhtalo bo'lganki, uning bu yerlarga kelishi ham, qorasini ko'rsatishi ham mutlaqo mumkin emas... Nega shunday bo'ldiykin-a? Shuning uchunki, u o'zi bilganicha yashashni xush ko'rdi; qonun, insoniy aqidatamoyillar esa o'zgacha kun kechirishni taqozo etadi. Kuch – qonun va ko'pchilik tarafida, u bo'lsa qonundan qochib yuribdi. Shuning uchun ham, hech kim bila va surishtira olmaydigan Chotqol tomonlarga jilmoqchi edik-da.

* * *

O'sha mash'um kechasi Ismoil, har galdagidek, o'zi yaxshi bilgan o'sha tog' etagidagi pastqam qiyaliklar, chiyzorlarni oralab o'tib, uning adog'idagi jarlikka chiqib oldi, oydin kechada bu yerdan ovulning tomlari, mo'rilari, yorug' derazalari ko'rinib turardi. Ismoil esa ayni shu yerdan o'ta ehtiyotkorlik bilan o'tib, odamlarning polizlari oralab o'z hovlisi tomon yo'l oldi.

U bu safar ham yo'lning so'nggi qismini g'oyat ehtiyotkorlik bilan ko'zdan kechirdi, biroq, negadir, uyga yaqinlashgan sari uning ko'nglini g'ashlik va xavotir bosdi. Qan-

daydir shubhali harakatlar, allaqanday eshitilar-eshitilmas, uzuq-yuluq ovozlari Ismoilni sergaklantirar va u vaziyatni aniqlab olish maqsadida To'tioy xolaning polizidagi terak tagida taqqa to'xtadi. Undan bir qadam ham nariga jilmadi. Yo'ldagi zo'riqish-u hansirashlarini bosib, nafasini rostlashga harakat qildi. Biroq yurak urishi maromiga tushmadi va qalbdan qandaydir falokat yuz berishini his etdi. Demak, Saida haq gapni aytgan – chindan ham onasi mushkul ahvolda.

Ismoil ayanchli, g'ulg'ulali o'y-xayollar otashida qovurilib, o'zini boshqara olmaydigan ruhiy holatga tushdi. U daraxt tanasiga mahkam suyangancha bo'g'iq ingradi. Ayni chog'da diqqat bilan quloq solib, haqiqatan ham hovlida odamlar borligiga hamda ular u yoq-bu yoqqa yurib, g'o'ng'irlashib turishganiga to'la ishonch hosil qildi. Binobarin, ishning pachavasi chiqqan. U yuragi ezilib, g'azabi qaynab ketgan o'sha damda qalban hamma narsaga: vajohat bilan uyga bostirib kirishga, to'plangan odamlarni zarb bilan itarib, o'ziga yo'l ochishga, jirkanch va qo'rqinchli qiyofada qo'qqisdan ularni dahshatga solishga, shu onda, ehtimol, jon taslim qilayotgan enajoni bag'riga o'zini otib, uning sovib qolgan qo'llarini o'pa-o'pa zor-zor yig'lashga, uning qarshisida tiz cho'kib, enasini boshqa hech bir ona chekmagan azob-uqubatlarga duchor etgani uchun kechirim so'rashga, koinotdagi butun mavjudotlarni yemirib, yo'qotib yuborishga, olamdagi barcha balolarni, jumladan, yer yuzi va mamlakatni o'z domiga tortgan dahshatli urushni ham va o'sha jang maydonidan qochishga jazm qilib, endilikda uning jabrini tortayotgan – qattiq tahlika, nochorlik va tubanlikda yashayotgan o'zini ham tamomila nest-nobud etib tashlashga qudrati yetadigan darajada dod-faryod solib yig'lashga tayyor edi. Ha, ha, ha, es-hushini yo'qotib qo'yguncha o'kirib yig'layverishi joiz: bu hol sadoqatli umr yo'ldoshi Saida uni ko'z yoshlari to'kilgan shu chirkini yerdan turg'izib, ko'z yoshlarini artib, uni biron yoqqa – uning o'zi ham, nomi ham butunlay unutib yuboriladigan va hech bir kimsa uning qo'lidan tutib, „Nega

sen frontda emassan-a“, – deb aslo surishtirmaydigan bir go‘shaga yetaklab ketmaguniga qadar davom etishi shart.

Biroq uning aql-idroki ushbu bir lahzalik g‘azab-u ehtiroslar alangasini pasaytirdi. Shu tufayli u turgan joyidan bir qadam ham nariga siljimadi: garchi u vijdon azobida qiynalib, o‘zini o‘zi la‘natlasa-da, onasining joni uzilayotgan pallada ham shunday telbavor qiyofada odamlarga ko‘rinishni o‘ziga ep ko‘rmadi. Buning uchun onajoni uni ma‘zur tutadi, deya o‘ziga o‘zi taskin-tasalli berdi; zero, enasi uning o‘zini ehtiyotlab yurishini, biror pana joyga ketishi zarurligini va har qanday vaziyatda ham ko‘zga ko‘rinmasligi darkorligini Parvardigorga topinib iltijo qilgani rost edi. Shuning uchun ham u fursatni g‘animat bilib, o‘z vaqtida manziliga qaytishi kerakligini ko‘nglidan o‘tkazdi, lekin bunga aslo jur‘ati yetishmasdi. Aksincha, o‘sha onda qandaydir bir zo‘r, og‘ir kuch uni jilovlaganday bo‘lib, qadam-baqadam uy tomon yaqinlashib borishga majburlar edi. Shu zaylda u omborxonalari orqasiga kelib to‘xtadi va shu joyda turib odamlarning dupur-dupuri-yu gangir-gungur ovozlari aniq eshitdi. Otning dukur-dukuri quloqqa chalinib, kimdir nimanidir so‘rayotgani quloqqa chalindi:

– Ha, ahvoli og‘irmi?

– Ha, umid yo‘q hisobi...

So‘ngra ot uzangisi qandaydir bir temirga urilib jaranglab ketdi va dukur-dukur tovush hovlidan yiroqlashdi.

Ismoil o‘sha kishi uning uzoq qarindoshi Mirzaqul ekanini fahmladi; uni ko‘pdan beri ko‘rmagan edi; o‘sha vaqtlarda uning ikkala qo‘li ham butun edi, endi esa frontda bir qo‘lidan ajragani bois odamlar uni „Mirzaqul mo‘loq“ yoki „mo‘loq Mirzaqul“ deb chaqirishadi. Shunday bo‘lsa-da, u – qishloq sho‘rosi raisi. Xo‘sh, nima bo‘pti? Bir tasavvur qilib ko‘ring-a, bir qo‘lsiz qanday yashash mumkin! Ismoil esa qo‘lidan, ayniqsa, boshidan ajralib qolishni xohlamadi. Mana endi shuning jazosini tortmoqda: vijdon azobida qovurilib va ayni chog‘da biqinib-pisib yuribdi...

Aslida uning hovliga yaqin borib, u yerda nimalar bo‘layotganiga quloq tutmagani yaxshi edi. Endi uning

ta'bi o'ta xiralashib, ruhan ezilib ketdi. Shu vajdan Ismoil uchun bu yerdan asta-sekin ortga qaytishdan o'zga chora qolmagandi. U quyida qolgan ovuliga so'nggi bor qayrilib nigoh tashlagan mahalda esa tun yarmidan og'gan bo'lib, hamma yoqni zulmat qoplab olgan edi, faqatgina bir joyda yonma-yon ikki deraza chiroqlari miltillab yonib turardi. Bu uning uyi bo'lib, uy ichida esa enajoni jon taslim etardi.

Ismoil erta tongda ko'zga ilg'anmas joylarni panalab, yana ovul sari yo'l oldi. Uning bezovtalangan yuragi hamon sira tinchimas, ovuli, o'z uyi tomon ildam odimlashga undardi; bu harakat nima bilan tugab, qanday natija berishini Ismoilning o'zi ham bilmas edi. Shunga qaramay, u yo'lda davom etardi.

Havoning avzoyidan kun sovuq bo'ladigan ko'rinadi. Tog'dan uvlab esgan shamol tobora zabtiga olardi. Shu bois u boshini po'stini yoqasiga burkab, telpagini qan-sharigacha bostirib kiyib, katta kirza etikda, qo'llarini kissalariga tiqib olib, yakka-yolg'iz, og'ir g'am-alam og'ushida jilib borardi.

U odatdagidek, ovul manzarasi ko'zga tashlanib turadigan o'sha jarlik yoqasiga kelib to'xtadi, tez-tez nafas olib, butazor ostida pisib yotgan holda ovulda nimalar bo'layotganini ko'zi ilg'agan qadar kuzata boshladi. Ammo arziydigan biron narsaga ko'zi tushmadi. Uy tomlaridan tutunlar yuqori ko'tarilib borar, maktab yonidagi bolalarning ovozlari, shuningdek, otlarning kishnashi, itlarning vovullashi xiyol eshitilib turar edi... Biroq Ismoilni, birinchi navbatda, uyida, o'z kulbasida nimalar sodir bo'layotgani qiziqtirardi, afsuski, tag'in ham biror-bir narsani aniqroq ko'rish yoki farqlab olishning iloji bo'lmadi. Shunday bo'lsa-da, u yerdagi qandaydir g'imir-g'imir harakatlardan nimalarnidir payqab olish mumkin edi. Biroq u yerda aynan qanday voqea yuz berganini aniq bilish mushkul edi. Balki u yaqinroq borsa, ehtimol, manzara birmuncha oydinlasharmidi, ammo u bunday tavakkalchilikka jur'at qilmadi. U tushgacha shu zaylda butazorda yashirinib, qattiq sovqotgan holda behudaga quloq tutib, ko'z tikib juda qiynalib ketdi. So'ngra o'zini pana joyga – boshpanasiga

oldi, kechga yaqin esa chor tarafga sergak nazar tashlaganicha yana avvalgi joyiga qaytib keldi. Endi u bu safar o'z fahm-farosati bilan onasi aniq qazo qilganini sezdi: hovlidagi g'imir-g'imir-u ho'ngrashlar onasining o'limi u oziq-ovqati va quroli saqlanayotgan pana joyga borgan kezlarda sodir bo'lganidan dalolat berardi.

Endi hech qanday shak-shubhaga o'rin qolmagan edi. Onasi olamdan o'tgan. Shu sababdan u o'zini favqulodda og'ir yuk ostida qolganday his etdi. U butazor tagida o'ldirilgan qo'rqinchli yirtqich qiyofasida cho'zilib yotar edi.

Ismoil kech kirib, oqshom oxirlab qolganda o'nqir-cho'nqirliklar bo'ylab yurib qishki poliz ekinlari yoniga kelib to'xtadi va biroz muddatdan so'ng o'tgan kechasi termilib turgani – o'sha terak tomon yurdi va shu yerda qoqqan qoziqdek turib qoldi. Endi esa onasining bu yorug' olamni tark etganiga sira shak-shubha qolmagan edi. Hovlida o'choqda olov yonib turardi: aftidan, doshqozonda suv isitishayotgan bo'lishsa kerak. Turfa tovushlar quloqqa chalinardi. U tag'in o'sha bir qo'lli Mirzaqulning tanish ovozi eshitdi. U bu yerda maslahatlar berib, kayvonilik qilib turardi. Odamlar unga qandaydir javoblar qaytarib xayrixohlik qilishardi. Otliq kishilar ham kelib-ketib turishibdi. Demak, enasini ertaga dafn etishadi. Ertalabdan tayyorgarlik ishlari boshlanadi, yig'i-sig'i qilishadi; janoza o'qiladi, peshin paytida esa jasadni ovulning yuqori qismida joylashgan qiyatepadagi qabristonga olib borishadi. O'shandagina Ismoilning xayoliga, axir oldin go'r qazish kerak-ku, degan fikr kelib qoldi. Bu ishni kim bajarar ekan? Go'r qazildimikin yoki bu ishni ertalabga qoldirishdimi? U qaytishda qabristonni borib ko'rishga va qabr qazilgan yoki qazilmagani haqida ishonch hosil qilishga qaror qildi. U shu tariqa o'ta garangsigan, dili vayron bo'lgan, parishonxotir holatda terak ostida turardi.

So'ngra u ovulning chekkasi bo'ylab qiyatepadagi katta qabriston tomon ohista odimlab ketdi. U tun qorong'isida tasmollab qadam tashlar, alamli qayg'udan ezilib, tinmay yig'layverganidan ko'zlari xiralashib qolgani uchun goh

yo'ldagi o'nqir-cho'nqirlarga yiqilib tushar, goh allaqanday to'siqlarga to'qnashib ketar edi. Shunda u hattoki: – Men kimman o'zi, qayoqqa ketyapman, jin urganmi meni, bu olamda nima uchun yashayapman-a? – deb o'ylab ham qolar edi.

Qiyatepadagi ko'hna qabristonga ancha yillardan beri qadam bosmagani bois u bu yerga oxirgi marta qachon kelganini ham aniq eslolmasdi. Nihoyat asta-sekin urushdan birmuncha ilgari, traktorhilar kursini bitirishgandan so'ng, dastlab uni shu qabriston yonidagi pichanzorda otga qo'shiladigan pichan o'rish mashinasiga o'tqazishganini, o'shanda u qoq peshinda – jazirama paytida otlarni aravadan chiqarib qo'yib, bir gala o'spirin yigitchalar bilan birga bedana ovlashga kirishib ketishganlarini xotirladi. Bedanalar bo'lsa qabristondagi ovloq va qalin chakalakzorlarda donlanishni yoqtirishar edi: sababi qabrlar orasidagi pichanlarni o'rib olishni hech kim ham o'ziga ep ko'rmasdi. U hozir shularni eslar ekan, o'sha sokin yoz kunlarini, o'to'lanlarning xushbo'y hidini, osmonda ham, yerda ham mast bo'lib tinimsiz xonish qilayotgan qushlarni, chirildoq chigirtkalarni, beaded charaqlab turgan saxiy quyoshni, orombaxsh so'lim havoni qo'msadi. O'sha paytlarda u oradan yillar o'tib, o'zining qahraton qishning zim-zulmatli kechasida qiyatepa qabristonida uni shu ko'ylarga solgan jamiki narsaga nafrati to'lib-toshgan, yo qayg'u-alam o'tida qovurilgan holda ta'qibga uchragan yirtqichdek tentirab yurishini hech xayoliga keltirganmidi? Ismoil bu o'sha joy ekanligiga sira ishongisi kelmasdi. Oyning xira nurida qabrlarning qori erigan joylari qorayib ko'rinardi. Hamma yoq jim-jit, bo'm-bo'sh, sovuq. Go'rkovlar onasiga qabr qazib qo'yishgan ekan, u ochiq turibdi. Buni yaqindagina o'yilgan chuqurcha yonidagi loy uyumlaridan ham payqab olish qiyin emasdi.

Demak, yaxshi odamlar jon kuydirishgan, demak, dafn erta choshgohda.

Ismoil onasiga qazilgan qabr boshida to'xtadi, boshini egib qorong'i chuqur o'raga jonsiz nigohini qadab tik qotdi. Agar u bir iloj qilib o'zini o'ldirganida edi, shu qabr

tubida yotardi, u hozir, shu yerdayoq o'lishga rozi, qaniydi uni odamlar ertaga onasi bilan birga qo'shib dafn etishsa... Lekin o'z joniga qasd qilish odamlar qoshiga bo'yin egib borishday mushkul edi...

Yanagi tong Ismoil yana ovul tomon sudraldi. Makon tutgan g'orida sovuq qotgan oyoqlarini sudrab bosar, junjikib va yo'talgan holda og'zini kafti bilan to'sardi. Bu safar u qabriston tomon yo'l oldi, volidasini dafn etishga qatnasha olmasa-da, hech bo'lmasa boshqalar onasini qanday dafn etishini uzoqdan bo'lsa-da, kuzatmoqchi edi. Yurar ekan, o'zi uchun qulay pastqam jarlikni mo'ljallab o'tdi, jar tubi bo'ylab yurib, birovga sezdirmay marosimni kuzatmoqchi, ham ko'zga tashlanmay qabristonga xiyol yaqin bormoqchi edi.

So'ng u shu yaqin o'rtadagi ulkan xarsangtoshlar orasiga berkinib, kuzata boshladi.

Vaqt imillab o'tardi. Endi u ancha tinchlanib va bo'lib o'tgan ishlarga ko'nikib, onasi, xotini va o'g'ilchasi bilan oxirgi marta ko'rishgan so'nggi kunni xotirladi. O'shandan beri ikki kun-u ikki kecha o'tgan, ammo juda uzoq vaqt kechganga o'xshardi. Chotqolga ketish fikri tuyqus zarbaga uchraganidan Ismoil qattiq afsus chekar, endi u hamma o'ylaganlarini qayta ko'rib chiqishi va bordi-yu, ayoli va o'g'ilchasi bilan Chotqolga omon-eson yetib olganida ham tog'alariga onasi o'lgani, uni qanday dafn qilganini ne so'z bilan aytadi, ular jiyanini tushunarmikanlar...

Ismoil ko'mish marosimini ancha olisdan ilg'adi. Ko'pchilik odamlar to'planishib turibdi. Ularning aksariyati ot va eshak minib olishgan. Ismoil kutganidek, ular yondosh yo'ldan kelishar edi. Qiyalikka ko'tarilishda to'da qadami sekinlashdi; ikkita ot egari ustiga o'rnatilgan tobutda namatga tig'iz o'ralgan mayyit jasadi joylangandi. Bori shu. Onaxon Beksaatni so'nggi yo'lga ovuldoshlari kuzatishardi. Ular hozir nimalar haqida gapirishayotgani Ismoilga qorong'u. Marosim u bekingan joyga qadam-baqadam yaqinlashib kelardi. Kuzatuvchilar orasida xotin-xalaj yo'q va bo'lishi ham mumkin emasdi, chunki bu yerlarda ayollar dafn payti qabristonga borishmas, uyda qolib, mayyit-

ni ko'mib qaytgan erkaklarni motamsaro yig'i bilan kutib olishadi. Taomil bo'yicha Ismoil qabristondan qaytayotgan otliq qarindoshlarga bosh bo'lishi, dafndan keyingi mayyitning uyida bo'ladigan ilk yig'inni boshlab berishi, baland ovoz bilan uv tortishi va o'kirib egar qoshiga bosh qo'yishi, Saida esa unga javoban yo'qlov jirlarni uvvos tortib kuylashi lozim edi... Lekin ular qonun va qochoqlik o'rtasidagi tegirmon toshi orasida qolganlar, bundan benasib edilar...

Bu orada to'planganlar qabristonda kecha qazilgan go'r yonida to'xtashdi. Ismoil o'zi berkingan qo'shni tepalik ortidan marosim qanday kechayotganini ko'rdi. Barcha yo'l-yo'riqlariga ko'ra dafnga Mirzaqul boshchilik qilardi. U chetroqda qo'shoq qilib bog'langan otlar oldidan dafn joyiga yaqinlashdi, hamma joy bo'shatib, unga yo'l berishdi.

Namatga o'ralgan mayyitni tobutdan olishib, chetga qo'yishdi va hamma katta aylana hosil qilib, mullaning uzoq davom etgan qiroatini tinglashdi, mullaga jo'r bo'lishib ayrim oyatlarni takrorlashar, vaziyat xuddi asalari uyasini eslatardi. So'ng to'da yana harakatga kelib qoldi – endi mayyitni qabr ichiga tushirdilar-da, shosha-pisha go'rga tuproq tortdilar.

Bularning barini u chetdan kuzatar va indamay lablarini qon chiqquday tishlardi.

Odamlar qabristonni tark etib, biror tirik jon qolmadi, lekin hali olisdan tovushlar eshitilib turardi, Ismoil onasi qabriga jildi. Qaltiroq qo'llariga tayanib, es-hushini yo'qotgan holda emaklab bordi-da, yangi paydo bo'lgan uyum tuproqni quechoqlaganicha, bo'g'iq-hirqiroq tovush bilan o'kirib yubordi va qayg'u-alam-u qahr-u-g'azabdan nafasi bo'g'ziga tiqildi, xuddi aqldan ozib, yetim qolgan bo'ri singari nima deb qichqirgani, kimni va nimani la'natlayotganini fahmlash qiyin edi. So'ng esa u xuddi mast odamday bor ovozi bilan qichqira boshladi: „Onajon, onajon, kechir! Meni kechir! Meni la'natla! Narigi dunyoda la'natla! Urushni la'natla! La'natla! Urushni la'natla!“

So'ng u bir zum jimib qoldi, xuddi nimanidir o'ylab qolganday yana g'azab bilan dahshatli bo'kira boshladi. „Nafratlanaman! Qasos olaman, qasos, hammangdan qasos olaman! Hech kimni ayab o'tirmayman!..“

„Yozning kelishiga ham oz qoldi! Ko'piga chidagan, oziga ham chidash beradi! – deb o'yladi Saida, to'pondan ajratib olgan bir siqim bug'doyni u kaftidan bu kaftiga olib o'ylanib. – Xudo Ismoilni o'z panohida saqlab, tilagiga yetkazsa, g'unajinni sotamiz-da, uni yo'l ozig'iga xarjlab, kechasilab jo'nab ketamiz. Ha, ketamiz, bu yerdan albatta ketamiz!“

Kechqurun Saida tolqon tuyib o'tirar ekan, uyga o't olgani Hasantoy kirib qoldi. Keyingi vaqtlarda uning bo'yi cho'zilib katta bo'lib qolgandek, ustidan otasining eski faykasi sira tushmasdi. To'tioyning bolalari ichida Saida ana shu o'rtanchasini hammasidan yaxshi ko'rardi. O'zi juda yoqimtoy, ochiqko'ngil edi.

– Saida yanga, oyim o'tga yubordi! – dedi u, supradagi uyilib turgan tolqonga bir qarab olib. Bola-da! Bolaning mo'ltillagan ko'z qarashlariga kim chidasin. Saida uning qorni ochib turganini sezib, ikkala kafti to'lguncha tolqon solib berdi. Bola tolqonni og'ziga solib, yamlab-yamlab yutdi-da, sevinganidan minnatdorchilik bildiray degandek, tolqonga belashgan lablarini cho'chchaytirib, iljayib qo'ydi:

– Sigirimiz tug'ganda oyim bizlarga og'iz suti pishirib beradi. Sut ichamiz. Chaqaloqjonga ham undan olib kelib beraman! U sut ichadimi?

– Tilingdan yangang o'rgilsin sening, – deb mehri tovlanib ketgan Saida uning ko'zlaridan, manglayidan o'pib oldi. – Sigirlaring tug'sin, aylanib ketay, so'ngra og'iz suti ichamiz. Chaqaloqjonga ham beramiz, uning ham tishi chiqib qolibdi!

Oyisi ham, bolalari ham otasining o'lganidan xabarsiz xat kutib yurganlarini eslab, Saida bolaga rahmi kelib, uni alahsitgandek bo'ldi:

– Oying turib yuradimi, endi yaxshi bo'lib qolgandir! – deb ish orasida so'rab qo'yardi.

– Bugun yana boshim deb yotibdi. Men maktabga bormay qo'ya qolay desam, oyim, ikkinchi sinfga ko'cholmay qolasan, otang kelganda urishadi, deb ruxsat bermadi.

– Urishmasmidi, yomon o'qisang, albatta urishadi-da...

Hasantoy jim qoldi-da, ko'ziga yosh olib, katta kishilardek chuqur xo'rsinib qo'ydi.

- Qo'y, ko'p xo'rsinma! - deb xitob qildi cho'chib ketgan Saida... - Nasib qilsa, otang kelib qolar... Lekin sen hadeb xo'rsinaverma....

Bola o't olib ketganidan keyin, Saida madori qurigandek darhol o'tirib qoldi. Mushtdek bolaning bunday uh tortib xo'rsinishi negadir unga juda og'ir tuyuldi.

„Bola bo'lsa ham, yetim qolganini yuragi sezib turibdi, - deb o'ylardi u.

- To'tioy ham buni o'zicha dilidan o'tkazayotgandir, biroq u sir bildirmasdi. Bechora nima ham qilsin? Qo'lida birdaniga uch yetim bola yolg'iz qolgan. Uyda ovqatlari yo'q. Kolxoz bergan ozroq don-dun bilangina bir amallab kun kechiradilar. Yaqinda ombordan yarim qop suli olib keldilar. Yo'qdan ko'ra shu ham bir madad. Qarab o'tirgan bilan birov osmondan tashlamasa. O'ldim-bo'ldim, deb yotib olsa, bolalari och qoladi. Birgina ishonganlari - yolg'iz sigir. „Yer yutkur, aksiga olib, bu yil ham kech tug'adiganga o'xshaydi! Uning tug'ishini kutaverib bolalarining ko'zlari to'rt bo'ldi!“ deb gapirib yurardi. O'zi ham anchadan beri mazasi yo'q, kasal. Qanday qilishar ekan bechoralar? Yana buning ustiga, sho'rlik Boydalining o'zini o'zi mina ustiga tashlaganini aytmay-sanmi? Bunga ham o'zining o'ta ko'ngilchanligi sabab bo'lgan! Rahmatli yaxshi kishi edi! To'tioy biroz serjahl bo'lgani bilan u ham yaxshi ayol... Axir, yurakka qil sig'maydigan shunday kunlarda osoyishta yashab bo'larmidi... Ey, peshanaga yozilganini ko'radi-da... Har kimning taqdiri o'z peshanasiga yozilgan. Biz bo'lsak erta-yu kech Ismoilni qutqarish bilan ovoramiz... Agar bir ilojini qilib uni qishdan omon saqlab chiqsam, Chotqolga borganimizdan keyin baxtimiz ochilib ketarmidi... U kuni To'tioy: „Ismoilning qochib yurgani rostmi?“ deb qo'qqisdan so'rab qoldi. Men unga nima deya olardim. Bilmadim, qochsa biron yoqda qochib yurgandir, balki quruq gapdir, kim bilsin, deb qo'ya qoldim. Boshqa birovlar bo'lsa, Ismoilning qozoqda qarindosh-urug'lari bor emish, u o'sha tomonlarda qochib yurgan bo'lishi

mumkin, deb gapirishar emish. Mayli, nima deyishsa deya-verishsin... Mirzaqulning ko'ziga ko'rinmasak bo'lgani, u dushman, ayashni bilmaydi... Ilgari uni yaxshi ko'rar edim, hali ham tasavvurimda o'sha ushalmagan qora niyat... E, Tangrim, bandam desang Mirzaquldan o'zing asra..."

Bolaning haligi uh tortishi, uning mo'ltillab ayanchli qarashi Saidaning ko'z oldidan sira ketmasdi. Turli xil mudhish xayollar uning ko'nglini cho'ktirib, allaqanday xunuk xabar kelishini kutayotgandek boshi g'ovlar, ruhi tushib, bezovta bo'la boshlardi. Saida shu paytda nima qilishini bilmay eshikka chiqdi, havoning avzoyi buzuv, shamol turib, ufqda qora tunda bulutlar qalqishib osmonni qoplab kelayotgan edi. Tevarak-atrof jimjit, tog'-u toshlar ham ko'rinmaydi. Osmonda suzib borayotgan to'lin oy bulutlar orasida za'faron yuzlarini ko'rsatib, yana darhol yashirinib olardi.

„Qor yog'yaptimi? Ismoilning ahvoli nima bo'ldi ekan?“ – degan xayol bilan Saida yana uyga qaytib kirdi.

Erta azonda Saida odatdagicha suvga chiqdi. Yana havoning qovog'i soliq bo'lsa ham, biroz yumshab, parcha-parcha sarg'ish qor yog'ib turardi.

„Iy-y!..“ – deb qo'ydi Saida bo'yniga sirqib tushgan qor tomchilaridan ijirg'anib.

U paqirlarini ko'tarib endigina odimlayotgan edi, To'tioylar tomonidan qiy-chuv yig'i ovozi eshitilib, undan bundan ot chopib kelayotgan kishilarga ko'zi tushdi. „Yana qanday falokat yuz berdi ekan?..“ deganicha paqirini qoldirib, u ham o'sha tomonga yugurib ketdi. „Boydalining azasini kuzda o'tkazamiz deyishgan edi, birov aytib qo'ydi shekilli, muncha qiy-chuv“, deb o'yladi u. Saida darhol devordan burila qolib, hovliga yaqinlashganda, to'planishib dod solib yig'layotgan xalqni ko'rib, hang-u mang bo'lib qoldi. Shu choq' g'ala-g'ovur ichidan sochlari to'zib, ko'zlari alanglab To'tioy otilib chiqdi-da, yig'laganicha saroy tomonga yugurib bordi.

– Mana, aylanayin xaloyiq! Mana, ko'ringlar! O'g'ri qulfni sug'urib, sigirni olib ketibdi. Sho'rim qursin, Xudo meni qo'sh qo'llab urdi!..

– Oqshom uni o‘zing bog‘lab, o‘zing qulflamagan edingmi? – dedi birov g‘ala-g‘ovur ichidan.

– Ha, sadag‘ang ketaylar, o‘zim! O‘zim bog‘lamay kim bog‘lardi! Hatto yelinini ham ushlab ko‘rgan edim! Bolalarim sut deb tomoqlari taqillardi. To‘shakda yotganimga qaramay, undan o‘zim ko‘z-quloq bo‘lib turardim!..

Saida bu so‘zlarning ma‘nosini uqib, voqeadan xabardor bo‘lgandan keyin, esi og‘ib, zingrayganicha joyida turib qoldi. Kuni kecha Hasantoyning ajabtovur katta kishilardek otasining eski fufaykasini kiyib olib, junjikib o‘tirgani va allanimani Xudodan tilayotgandek og‘iz sutini eslab, uni orziqib kutib yurgani Saidaning ko‘z oldidan nari ketmadi. „Bu kim bo‘ldi, uvoldan qo‘rqmagan, qora niyatli yalmog‘iz? Shunchalikka qo‘li qanday bordi ekan?“ – degan birgina o‘y uni esankiratib qo‘ygan edi. Saida qaynoq yuzlariga urilib, bo‘yni aralash erib tushayotgan qor tomchilarini ham sezmay, turgan joyida turaverdi. Ana, To‘tiovning bolalari oyilarining etagiga chirqirashib yopishib olishgan: kichkinasi to‘shakdan endigina turgan shekilli, yalangoyoq loy kechib: „Oyi! Oyi!“ deb qichqirardi. To‘tiov bo‘lsa u bilan ishi yo‘q, o‘zi bilan o‘zi ovora edi.

– Boydali uyda bo‘lganda, o‘g‘ri kela olarmidi. Uyda erkak bo‘lmagandan keyin shu-da...

„Boladan sovuq o‘tib, ko‘karib ketdi!“ degan xayol bilan Saida chopib borib, uni darhol ko‘tarib olmoqchi bo‘lib shaylanib turgan edi, biroq to‘da ichidan pochalyon Qurmon yugurib kelib bolaga bir qarab oldi-da, uni qo‘yniga o‘rab, uyiga ko‘tarib ketdi. U Saidaning yonidan o‘tib borarkan, qo‘ynidagi bolani iliq nafasi bilan isitib, soqolidan sizib tushayotgan munchoq-munchoq suv qatrachalari tovlanib, o‘zicha nimadandir norozi bo‘lgandek to‘ng‘illab qo‘ydi:

– Sizlarni hech qachon tashlab qo‘ymaymiz, navbat bilan ko‘tarib katta qilamiz...

Deyarli butun ovul To‘tiovning hovlisiga to‘planishgan edi. Ilgari ham ovulda bunday voqealar bo‘lib turardi, lekin bunchalik odam yig‘ilishmasdi. Kim mol yo‘qotib, mol o‘g‘irlatmagan deysiz, biroq bu safar ularni molning

yo'qolishigina emas, balki g'azabga to'lgan eng nozik his-tuyg'ular, insonga bo'lgan mehr va muhabbat tuyg'ulari bu yerga haydab kelayotgan edi. Ana ular chet-chetga chiqib, qovoq solib o'tirishibdi: „Boydalining yetimlariga qo'l tegizgan kim?..“

Boyadan beri u yoqdan bu yoqqa yugurib-yelib, atrofni ko'zdan kechirib yurgan Mirzaqul, mana, yilqichi Parpi bilan ot choptirib kelib qolishdi. U otini gijinglatib, qo'lsiz yengini shalviratganicha hovliga quyundek uchib kirdi.

– Qani, xaloyiq, qo'zg'aling! Otlqlar otda, otsizlar pi-yoda soyma-soy izlanglar! Yo'qolgan mol sadqayi sar, ammo bu ishni qilgan muttaham itni topish kerak!

– To'g'ri aytasan, to'g'ri! – deyishdi ko'pchilik. – O'g'ri olislab ketgani yo'q... Agar sigirni so'yib olgan bo'lsa, go'shti topilar... Yo'qsa, uni eski qo'rg'onlarga berkitib qo'ygan chiqar!..

– To'g'ri, to'g'ri! Hali so'yib ulgurmagan bo'lishi kerak. Ko'rgan odamlardan surishtiringlar! – degan qiyqiriq eshitildi.

– Qani, jo'nanglar, kechikmasdan jo'nay qolinglar!

Mirzaqul hovli sahnidan chiqib borayotgan odamlar orasidan frontga borib kelgan besh-oltita yarador yigitlarni chaqirib olib:

– Sizlar, yigitlar – soldatlar emasmi... Otga minib, Jam-bulga boradigan katta yo'lni kuzatib chiqinglar.

– E-he, u yoqqa borishga ulov qani?

– Saroydagi otlarni olinglar! – dedi Mirzaqul.

– Otlar yer haydash uchun boyloqqa tashlangan, rais o'zini ossa osadi-yu, ularni bermaydi.

– Obbo, gapni ko'p chuvatding-da! – deb baqirib berdi Mirzaqul. Uning zahri yuziga chiqib, cho'ltoq qo'li boyagidek yana silkinib tushdi. – Qani, hozir jo'nanglar! G'ing demay, otlarni egarlab, yo'lga tushinglar.

Xalq to'lqiniga qo'shilib, Saida ham ovulning sirtiga qarab yugurdi va darhol har tomonga tarqalib, o'ng-so'lidan bo'linib ketayotgan kishilarni, enkayganicha otda chopib borayotgan Mirzaqulni va qulala singari tulki telpagini bostirib kiyib olgan yilqichi Parpini ko'rib,

o'takasi yorilgudek qo'rqib ketdi va birdan: „Ismoilni topib olishsa, nima bo'ladi?“ – degan xayolga bordi. So'ng u nima qilishini bilmay sarosimaga tushib, o'sib yotgan o'sha chiyzorga yugurib ketdi.

Havo yumshab, erib ketayotgan ho'l qor kiyimlarni salmoqlatib, yurishni og'irlashtirar edi. Bag'rini yerga berib yastanib yotgan oqish tuman o'rnidan qo'zg'ala olmay, majoli qurigan kabi ko'ngilsiz ko'rinardi.

Saida Ismoilning qarorgohidan xavotir olib, uyadagi bolalarini qo'riqlagan qush kabi zor qaqshar va biron kishi izimdan tushmaganmikin, deb atrofga alanglab nazar tashlar: „Xudoyim, o'z panohingda saqla! Endi nima qilsam, qanday qilsam ekan? Bolalarning baxtiga sigir topilib qolsa, ular ovulga qaytisharmidi? O', aylanay Parvardigor, o'sha yetimlarning ohini eshit, molini qaytarib ber! Mening ham bolam bor, mening ham ohimni tingla, u ham yetim qolmasin!..“ deb qo'lini ko'ksiga qo'yib, Xudoga sig'inar edi.

Saida ming xayolga borib, o'zini qo'yarga joy topa olmasdi. Sigir topilib qolsa, ular ovulga qaytisharmidi, degan haligi fikr uni band etib, butun umidi ham, ishonchi ham o'sha bo'lib qoldi. Demak, birdan-bir yo'l – sigirni izlab topish, iloji boricha tezroq topish kerak.

Saida o'rnidan tura solib, ko'ylak va choponlari yulib, shosha-pishganicha o'nqir-cho'nqirlarni va qamish butalari orasini qidira boshladi. Biroq moldan darak yo'q: undan nishona ham ko'rinmaydi. Huv anovi yerda tuman aralash eski qo'rg'onning buzilib yotgan vayronalari qorayib ko'rinmoqda. Sigir o'sha yerga yashirib qo'yilgan bo'lmasin? Yugur, Saida, joning boricha yugur! Oyog'ingdan suv o'tib, loyga belanganingga, ustingdagi kiyimlaring shalviraganiga qarama! Bo'la qol, tezroq yetib bor! Ana, ana, ko'ryapsanmi, devorning panasidan sigirga o'xshagan bir nima ko'rinyaptimi? Ha, sigirga o'xshaydi! Tanasi yirik, qora-oladan kelgan emasmidi, xuddi o'zi? Kutilmagan quvonchdan Saida hayajonlanib, gangib qoldi: „Hozir tepalikka chopib chiqib, suyunchi, suyunchi deb qichqirib, xalqni ovulga boshlab boraman. Sigirni esa

To'tioyning uyiga yetaklab borib, qozig'iga o'zim bog'lab beraman! Biroq o'sha ko'zimga ko'rinayotgan haqiqatan ham sigirmikin, yoki ko'zimga shunday ko'rinyaptimi? Xudo-ey!"

Qo'rg'onga bir zumda yetib borgan Saida tarvuzi qo'ltig'idan tushgandek shalpayib, turib qoldi. Haligi ko'ringan narsa sigir emas, ag'anab yotgan devor xarobalari ekan.

Bag'rini yerdan uzayotgan haligi tuman, erinchoqlik bilan suza boshladi... Sarg'ish qor bulturgi tikanaklarning uch-uchlariga o'rnashib, endigina o'sib kelayotgan nozik maysalarni savalab, ularni o'z og'irligi bilan egib, ko'mib yotgan edi...

* * *

Saida kechqurun charchab-horib, arang ovulga yetib kelganda, To'tioylarning saroy eshigi hali ham ertalab-kidek huvullab, karrakdek ochilgan bo'yicha turardi.

Uyda bo'lsa kuni bo'yi o'pkasi to'lib yig'lagan bolasi ko'zi oqiga aylanib, hiqillab yotgan edi. Xuddi aksiga olgandek, Saidaning toshdek qotib ketgan siynasi garchi to'lib turgani bilan, bolaning og'ziga solib emizsa ham, barmoqlari bilan siqsa ham ancha vaqtgacha iyimay qo'ydi. Saida o'zini ham xuddi teri sergimay egari olinib, tuni bilan eshikka bog'lab qantarib qo'yilgan ot kabi sovuq yeb, jag'lari qarishib qolgandek his qilardi. Huvullab yotgan uyning bir burchagida qo'lida bolasi bilan Saida mung'ayibgina o'tirardi. Keyinchalik Saida uyqu bosgan bolani beshikka beladi-da, yechinishga ham hafsalasi kelmay, o'tirgan yeriga mukka tushganicha yotib qoldi.

Yarim kechada deraza chertildi. Saida seskanib ketib, boshini yuqori ko'tardi va: „Sen kimsan?“ – deb qichqirib yuborishiga sal qoldi. Lekin uning Ismoil ekanligini fahmlab, battarroq cho'chib ketdi: „Azbaroyi Xudo, ovul to's-to'polon bo'lib yotganda, uni yana qanday shamol haydab keldi!“ Saida tura solib, shoshilinch ravishda eshikni ochdi-da, tez-tez shivirlay boshladi.

– Tezroq bo‘la qol, ovulda ahvol yomon!

Saida ilgakni osib qo‘yib, qorong‘ida Ismoilni ichkari uyga yetaklab kirdi. So‘ngra deraza pardalarini to‘sib, pilikni hali yoqmagan ham ediki, allanarsa gurs etib Ismoilning qo‘lidan yerga tushdi va u bilan birga Saidaning yuragi ham „jiz“ etib tushgandek bo‘ldi. Saida darhol enkayib, yerda yotgan to‘rvani siypalay boshlagan edi, qo‘liga qandaydir yumshoq narsa ilindi. Bunday qarasa, to‘rvadagi go‘sht ekan.

– Xo‘sh, bu sizmidingiz? – dedi Saida shu zahoti tomo‘g‘i qaqrab, bo‘g‘iq ovoz bilan.

– Ji-im! Nafasingni chiqarma! – Ismoilning ko‘zi qorong‘ida o‘tdek chaqnab, Saidaning yoniga keldi-da, uning yuzi aralash og‘ir nafas oldi: – Damingni chiqarma, ishing bo‘lmasin!

Saida jim turardi. Nazarida allakim uni ko‘krigidan itarib yubordi-yu, yiqilayozgandek o‘tirgan joyida yerga tayanib qoldi. Saida shu topda go‘yo o‘zini hayotdagi sevimli kishisidan ajralib qolgandek, azob-uqubatlar chekib, ko‘z qorachig‘idek ardoqlab saqlagan mehribon kishisi uning butun umid va orzularini toptab, yer bilan yakson qilgandek his etar va o‘rnidan tura solib yugurib, boshi oqqan to‘monga – qirni qir demay, soyni soy demay faryod ko‘tarib, qichqirganicha yorug‘ dunyodan bezib, allaqayoqlarga qochib ketgisi kelardi. Biroq o‘rnidan turishga qurbi yetmasdi. Allakimning uyni larzaga keltirib, cheksiz qayg‘uga cho‘mib, bo‘zlab yig‘layotgan ovozi quloqni qomatga keltirardi.

– Nega qaraysan, pilikni yoq! – dedi nihoyat Ismoil. Ammo Saida o‘z joyidan qo‘zg‘almay o‘tiraverdi. – Hoy, nega angrayasan, pilikni yoq, deb senga aytyapman! – dedi u yana va yoniga tizzalab emaklab kelayotgan Saidani ko‘rdi.

– O‘sha yetimlarning nasibasiga chovut solgandan ko‘ra, o‘zimizning g‘unajinni so‘ya qolganingiz yaxshi emasmidi? – dedi u yig‘i aralash zorlanib.

– Ming‘illayverma! – Ismoil uning yelkasidan ushlab siltab qo‘ydi. – Menga aql o‘rgatgandan ko‘ra, o‘zingni bil. Zamonang bo‘ri bo‘lsa, bo‘ri bo‘l, deganlar. Shu zamonda

har kim o'zim bo'lsam deydi! O'zgalar bilan ishing qancha, ochdan o'lib, tarrakday qotib qolganingda ham, birov sendan o'ldingmi, qo'ydingmi, deb so'ramaydi... Olgan olib, yulgan yulib qoladi... Sen bo'lsang behuda tashvish tortyapsan!..

Saida g'iq etmasdi. Ismoil Saidaning javobsiz jimgina o'tirganini ko'rib, jini qo'zidi va og'zidan o'tga toblab yegan go'sht hidini anqitib Saidaning yoqasidan bo'g'ib oldi.

– Nega nafasing chiqmaydi-a? Senga aytyapman, nega javob bermaysan? O'z g'unajinimni so'yganimda, bolaga sutni qayerdan topib berar eding yoki o'zganing bolalari o'zingnikidan ham ziyod bo'lib qoldimi? Yoki bo'lmasa Chotqolga qanday yetib olar edik, sen bularni o'ylayapsanmi? Ketishimizga oz qolganda, o'nqirda yotaverib ochdan o'lsin demoqchimisan? Yoki sen uchun boshqalar mendan ortiq bo'lib ketdimi?.. Shuncha azob tortganim ham yetar, butun qish bo'yi sovqotib, tishimning kirini so'rib chiqdim... Vaqti kelganda o'g'rilik ham qilaman, nafsimni tiymayman, ochdan o'lish uchun askardan qochganim yo'q! O'lsa boshqalar o'laversin... Biroq men bekor-dan bekor-ga o'lishni istamayman!..

Tashqarida, qo'shni ko'chada xo'roz qichqirdi, uni kutib turgandek, yana ikkinchisi qanot qoqib, un qo'shdi. Ismoilning ketar mahali bo'lib, o'rnidan turdi va:

– Hadeb vaysayvermasdan go'shtni pishirib yenglarda, suyagini ko'rsatmay ovloq yerga ko'mib tashlanglar, uqdingmi? – deb qo'lidagi papirosini qayta-qayta ichiga tortib chekdi-da, qoldig'ini oyoq ostiga tashlab o'chirib, eshikka chiqib ketdi.

Asta-sekin tong otib, uy ichi yorisha boshladi. Tong yorishgan sari, narigi yoqda pechkaning ostida beshikni quchoqlab o'tirgan oq sochli ayol derazaga qadalib qarab, bir yo'la yerga ham termilardi. Tashqarida biron narsa bormi, u nimaga buncha termiladi? Nega uning sochi bir kechadayoq oqarib ketdi? Aralashib, chuvalashib ketgan xayollar derazani sharaqlatib sindirib, tevarak-atrofni kezib, tashqarida nimalar bor-yo'qligini bilishga oshiqardi. Darvoqe, ana shu kichkinagina derazaning narigi tomonida

butun ovul, el-u xalq... Unda pochalyon Qurmon yashaydi. To'tioy bolalari bilan, Mirzaqul, Ismoil... Ha, Ismoil ham yashaydi...

„Biroq sen boshqalarga o'xshamaysan, biz uchun yot kishisan... Butun el-u yurtning jon berib, jon olib, dushman bilan urishib yotganda, sen bo'lsang qochib yursang, axir o'z eliga kim dushman bo'libdi. Seni saqlayin deb yurgan ekanman-u, biroq nafs balosidan qutqarish zarurligini o'ylab ko'rmagan ekanman...“

Saida choponini kiyib, bolasining yo'rgaklarini ro'molga tugib oldi.

U eshikka yaqinlashib borganda, nimanidir qiyolmagandek, burilganicha turib qoldi.

Ko'zlaridan marjon-marjon bo'lib oqib tushayotgan yosh qatralari bolasining betiga tomchilab, u ham yotgan yerida tamshanib, ijirg'ilanib qo'ydi. Biroq shu zahotiyiq hech narsani sezmagandek, yana uxlab qoldi. Saida yerda yotgan haligi go'shtli to'rvani yelkasiga tashlab, bolasini ko'targanicha, bo'sag'adan hatlab eshikka chiqib ketdi.

* * *

Ko'm-ko'k chiyzorlarni oralab, bolasini ko'tarib olgan Saida, uning orqasidan otda Mirzaqul va miltiqli ikki soldat kuzatib borishardi.

Bundan ikki soat ilgari tunnel qo'riqchilari komandiri qochqinni topishga yordam berish maqsadida soldatlarga qo'shni qishloqqa – qishloq Kengashi raisining ixtiyoriga borishga buyruq bergan edi. Saida bo'lsa bolasini ko'targanicha ovuldan uzoqlashib, o'z uylari tomon ketib borardi. Endi u bu ovulga boshqa qaytib kelmaydi.

Orqaroqda kelayotgan soldatlar o'zaro so'zlashayotgan edi:

- Sigirini o'g'irlatgan o'sha ayol-ku, nima deysan?
- O'sha bo'lishi kerak!
- Baraka topkur, oxiri o'g'rining izidan o'zi tushganga o'xshaydi, biroq yuk qilib, bola ko'tarib yurgani nimasi?
- Kim bilsin, o'ziyam juda nimjon ko'rinadi. Hali

qishloq Kengashining raisi kelayotib, otga minib ol, qo'lingda bolang bor, desa, churq etmay ketaverdi.

Ular mayda-mayda qamish yaproqlari deysinib yotgan boshi berk jarlikka yetganlarida, Saida burilishda bir zum to'xtab:

– Ana u yerda, qamishning orasida! – deb qo'li bilan ko'rsatdi. O'zi bo'lsa ranglari o'chib, bo'ynidagi ro'mol tunganlarini bo'shatib, o'tirib qoldi va nima qilishini bilmay, bolasini emiza boshladi.

Mirzaqulning orqasidan ergashib borayotgan soldatlar ham o'sha tomonni ko'zlab, sekin odimlab borishaverdi. Yana ozroq yurib, Mirzaqul otdan tushmoqchi bo'lgan edi, ro'paradan Ismoilning qichqirgan ovozi eshitildi..

– Hoy, Mirzaqul! Orqangga qayt! Men endi o'lgan odamman. Agar qaytmasang, seni ham sog' qo'ymayman!

Mirzaqul ot uzangilarini qoqib, ovoz chiqqan tomonga qarab qichqirdi.

– Ko'tar qo'lingni, ablah!

„Tars“ etib chiyzor orasidan beshotar miltiq otildi. O'rnidan dik etib sakrab turgan Saida, Mirzaqulning ot bo'yniga yiqilib, yolg'iz qo'li bilan ot yolini tutamlab, cho'ltoq qo'li bilan unga yordamlashmoqchi bo'lgandek mo'ltanglatib, oxirida otdan qulab tushganini ko'rdi. Shu mahal o'zlarini panaga – tosh orasiga olgan ikkala soldat chiyzor oralatib o'q uza boshladi. Ro'parasida turib otgan Ismoilning o'qlari toshga tegdi-da, „chiyillab“ chetga qaytib, quloq ostidan uchib o'tgandek tuyuldi. Suv sepgandek chuqur sukunat cho'kkan tog' oralig'i beshotar miltiqlarning ovozidan larzaga keldi. Shu choq soldatlardan biri jon talvasasida qichqirdi:

– Ey, marja¹, kuda! Nazad, nazad, ubyot!

Saida bolasini ko'targan bo'yicha to'ppa-to'g'ri Ismoilni ko'zlab boraverdi. U hech narsani sezmagandek seskanmay, ko'krak kerib ro'yirost borardi. Saidaning haykal kabi bir qolipda tumtaygan qora-to'riq yuzlaridan allaqanday ichki bir kuchni, adolat hukmini uqib olish mumkin edi. G'azabga to'lgan qahrli va qayg'uli ko'zlari esa Ismoilga:

¹ Marja – „Mariya“ so'zidan: ayollarga murojaat.

„Qani bu yoqqa chiq! Oldimga kel!“ degandek tik qarardi. Saida ilgarilab har bir qadam tashlagan sari, shoshib qolgan soldatlar nima qilishlarini bilmay:

– Ey, nazad! Vernis seychas! Vernis! – deb baqirishardi.

Biroq Saida parvo qilmay chiyyoz orasida yotgan Ismoilni koʻzlab salmoq bilan yurib boraverdi.

Nihoyat togʻ oraligʻiga jimjitlik choʻkdi. Toshlarining orasiga berkinib olgan soldatlar ham, berigi yoqda yuztuban yiqilib, yolgʻiz qoʻli bilan titrab-qaqshab, yer timdalab yotgan Mirzaqul ham, abadiy muzlik bilan qoplanib yotgan haybatli togʻ qoyalari ham, xullas, butun borliq shu chogʻ dong qotib, sukutga choʻmib, miltiq qachon otilar ekan, bola koʻtargan ayol qachon qulab tusharkin, degandek, dahshatli damni kutib turardi. Yoʻq, bunday boʻlishi mumkin emas! Ana, qamishlarni shitirlatib kelgan shamol Saidaning roʻparasidan urib: „Qayt, orqangga qayt!“ – deya-yotgandek, uning roʻmolini uchirib ketdi. Biroq Saida buni sezgani yoʻq. U hozir oʻlimni eslayotgani ham yoʻq, insonning buyuk fazilati, odilligi uchun bolasini keng bagʻriga bosib, boshini yuqori koʻtarganicha, Ismoil tomon ilgarilab borardi. Soldatlardan biri sabri chidamay, oʻrnidan turib:

– Stoy! Stoy! – deb qichqira boshladi. Chamasi u, ayolning orqasidan yugurishga oʻzini chogʻlab turgan bir paytda, qamishlar orasidan kulrang shinelli, soch-soqollari oʻsib ketgan kishi sakrab chiqib, miltigʻini qoʻsh qoʻllab yuqori koʻtarganicha, titrab-qaltirab ayolga tomon intildi. Ismoilning kir bosgan yuzlaridan ter quyilib, Saidaga yaqinlashib, yuzma-yuz kelganida, koʻzlari oʻynab, ilgarigi Saidani emas, qandaydir boshqa odamni, oʻz kuch-qudrati, afzalligi va odilligini koʻz-koʻz qilibgina qolmay, balki bolasini koʻtarib olgan, sochlari oqarib ketgan, yalangbosh, xushqomat ayolni koʻrdi. Saida uning koʻziga yuksaklikda turgandek, oʻzi boʻlsa, uning yonida ojiz va notavon bir kimsadek yelkasini qisib, nimanidir aytmoqchi boʻlib ogʻiz juftladi-yu, biroq Saidaning yoshga toʻlgan koʻzlarini koʻrib, qoʻlidagi miltigʻini yonidagi toshga urib parchalab, uloqtirib tashladi va qoʻlini koʻtarganicha, miltigʻini oʻqtalib kelayotgan soldatlar qarshisiga chiqdi.

JAMILA

Har gal safarga chiqishim oldidan kichkina yog'och ramkaga solingan surat oldida turish menga odat bo'lib qolgandi. Ertaga ovulga jo'nashim kerak. Mana, hozir ham o'sha suratga tikilib, go'yo undan oq yo'l tilayotgandek ko'zimni uzolmay, uzoq termilib qoldim.

Suratni hali biron marta ham ko'rgazmaga qo'yganim yo'q. Ovuldan qavm-qarindoshlarim kelishganida ko'rib qolishmasin, deb yashirib qo'yaman. Demak, suratda biror nojo'ya narsa tasvirlangan ekan, deb o'ylamang tag'in, uning iymanadigan, shuningdek, bu bir nodir asar, „ko'z tegadi“ deydigan hech joyi ham yo'q, shunchaki o'rgamchikka chizilgan bir surat. Unda oddiy dala manzarasining aynan tasviri berilgan, xolos.

Suratning orqa planida so'lg'in kuz osmonining chekalari oqarib ko'rinadi. Shamol parqu bulutlarni uzoq-uzoqlarga, qorayib ko'ringan tog' cho'qqilari sari haydab borardi. Suratning old qismida sarg'ish libos kiygan bepoyon dala, keng daryo tasvirlangan. Yog'in-sochindan keyin po'rsillab yotgan, chekkalaridagi qamishlar bir-biriga ayqashib ketgan yo'lda ikki yo'lovchining oyoq izlari ko'zga tashlanadi. Yo'lovchilar uzoqlashgan sayin, oyoq izlari xiralasha boradi, go'yo yana bir-ikki qadam yurishsa ramkadan chiqib ketadigandek tuyulardi. Ha, aytmoqchi, yo'lovchilardan biri... Keling, bir boshdan gapirib bera qolay.

Bu voqea bolaligimda yuz bergan edi. Ikkinchi jahon urushi uchinchi yilga qadam qo'ygan, ayniqsa, Kursk bilan Oryol ostonalarida dahshatli janglar borardi. O'shanda biz bir gala o'spirin bolalar kolxozda ekin sug'orib, arava haydab, o't o'rib yurar edik, xullas, urushga ketgan erkaklarning og'ir mehnati bizning zimmamizga tushgan edi.

Ayniqsa, hosil yig'im-terimida haftalab uy betini ko'rmasdik. Kecha-yu kunduz xirmonda bo'lardik yoki stansiyaga g'alla tashirdik.

Stansiyaga qatnab yurib, ko'pdan beri uydagilarni ko'rmaganim uchun o'roqning ayni qizigan, saraton kunlarining birida yo'l-yo'lakay uyga kirib o'tay, deb bo'sh aravamni yo'ldan burdim.

Biz azaldan ko'chaning boshidagi yonma-yon tushgan ikki uyda turardik. Ularning balandligi uch metrcha keladigan devorlari juda pishiq qurilgan bo'lib, daryo tomoni daraxtlar bilan o'ralgan hovli bizniki edi. Men katta uyning o'g'li edim. Akalarim urushga ketgan, ulardan xat-xabar yo'q edi. Ikkalasi ham balog'atga yetib, ayni uylanadigan vaqtda ketishgan. Keksa otam – duradgor usta. Tong saharda namozini o'qirdi-da, ustaxonaga jo'nardi, shu ketganicha qosh qorayganda kelardi. Kolxozdagi barcha aravalar uning qo'lidan o'tardi. Uyda onam bilan singilcham qolardi, xolos.

Berigi kichik uyda esa yaqin qarindoshlarimiz turishardi. Qarindoshimiz deyishimning boisi, oradan ikki-uch avlod o'tib ketgan bo'lsa ham ular bilan azaldan mol-jonimiz bir edi. Ota-bobolarimiz birga ko'chib, birga qo'nib, juda ahil yashagan ekan, bu odatni muqaddas bilib, biz ham oraga sovuqlik tushirmay, apoq-cha-poq bo'lib kelardik. Kolxoz tuzilganda otalarimiz bir joyda o'troqlashganlar. Bugina emas, ikki suv o'rtasidagi Orolko'chada turuvchilarning hammasi bir otaning farzandlari edi.

Keyinchalik berigi uyning egasi dunyodan o'tib, xotini ikki go'dak bolasi bilan qoldi. Eski odat bo'yicha qarindosh-urug'lar yesirning boshini bog'lab qo'yaylik, deb arvoh va Xudoni pesh qilib, uni otamga nikohlab qo'yganlar. Garchi u uyning qozon-tovog'i, mol-joni, chorbog'i bo'lak bo'lgani bilan aslida biz bir xonadon edik. Ularning ham ikki o'g'li askarga ketgan edi. Sodiq degan katta o'g'li uylanishi bilan ketgandi. Ular biz frontdamiz, deb onda-sonda xat yozib turishardi. Kichik uyda kichik oyim bilan kelini qolgan edi. Men uni doim „kichik oyi“ deb chaqirardim. Ikkalasi ham ertadan qora kechgacha kolxozda ishlashardi. Kichik oyim (uni ovuldagilar ishchan ayol, baraka topsin, bunaqasi to-

pilmaydi, deb maqtashardi) brigadir bilan adi-badi aytishib o'tirmas, buyurgan ishini qilaverar, yur deganiga yuraverar, anovi yosh kelinchaklar qatori ariq chopishga ham, ekin sug'orishga ham yo'q demasdi, qo'lidan sira ketmon tushmasdi. Xudo bilib berganmi, deyman, uning kelini Jamila ham serg'ayrat, baquvvat bo'lib, biroq fe'l-atvori sal boshqacharoq edi.

Jamila yangamni chin qalbidan yaxshi ko'rardim. Bir tomoni yangam, ikkinchi tomoni mendan biroz katta, lekin biz xuddi tengqur do'stlardek edik. Meni „kichkina bola“ deb, o'z ukasidek erkalatganini aytmaysizmi.

Xullas, ikkala xonadonning tirikchiligini, ro'zg'orini oyim bilan singilcham tebratib turardi. Singilcham juda sho'x qiz edi, lekin o'sha og'ir kunlarda ancha quyilib, oyimga jon-dili bilan yordamlashganini sira-sira unutmayman. Ikki xonadonning qo'y-echkilariga qaragan ham o'sha, tezak terib, o'tin-cho'p g'amlagan ham o'sha, dom-daraksiz ketgan bolalarini qo'msab g'amgin xayollarga cho'mgan yolg'iz oyimning ko'ngliga tasalli bergan ham o'sha edi. Endi, har ikkala oilaning boshini qovushtirib, rizq-ro'zini saqlagan ham oyim, bilarmoni ham oyim edi. U, o'lganlarning arvohini hurmatlab, seniki-meniki demay, ikki xonadonga baravar qarab turgan, ovulning ko'pni ko'rgan obro'li, dindor xotinlaridan biri edi. Bizga taalluqli har qanday ishni oyim hal qilardi. Otam bo'lsa hech kimning esiga ham kelmasdi. „Hoy, usta akangga bormay qo'ya qol, uning g'ildirakdan boshqa hech narsa bilan ishi yo'q, har ikki ro'zg'orni ham boyvuchcha xotini tebratib turibdi, o'shanga bor“, deyishardilar. Men ham yosh bo'lishimga qaramay unchamuncha ishlarga aralashib turardim. Darvoqe, akalarim armiyaga ketib qolganidan, men ikki uyning dastyor yigiti bo'lib qolgandim. Shuning uchun ham o'zimda qandaydir mas'uliyat his etardim. Bu oyimga juda yoqardi, pishiq bo'lsin, yog'ochdan boshqani bilmaydigan otasiga o'xshamay, ro'zg'or ishlariga aralashib, ko'zi pishsin, der edi. Men aravamni chorbog'ning chetiga, ko'lankaga haydab kelsam, qamchisini qanjig'asiga qistirib olgan

brigadir O'rozmat og'a bilan oyim eshik oldida negadir aytishib turgan ekan. Ularga yaqinlashganimda oyimning ovozi eshitildi:

– Bormaydi! Axir, bu insofdan emas-ku. Xudodan qo'rqishsin! Xotin kishining arava haydagani nimasi. Xudo xayringni bersin, aylanay, kelinimga tegma, o'rog'ini o'rib yuraversin, shusiz ham yolg'izlik azobini tortib, ikkala xonadonning tirikchiligidan bosh qashishga ham qo'li tegmaydi! Buning ustiga, bir haftadan beri belim sanchib, anovi jo'xorilar qarovsiz qoldi. Baxtinga, yaxshiyam o'sha mushtdek qizcha bor ekan...

Oyim odaticha ro'mol uchlarini ko'ylagining yoqasi ostiga qistirar edi.

O'rozmatning chayqala-chayqala tinkasi quridi.

– Obbo siz-ey, – dedi u, – agar to'rt muchalim sog' bo'lib, qo'limdan kelsa, o'zimoq ilgarigidek qoplarni aravaga irg'itib-irg'itib, otlarni choptirib ketmasmidim! Iloji yo'q-da, yosh kelinlarga arava haydatib bo'ladimi, desak, o'zi rozi bo'lgan kelinigizni siz yo'ldan ursangiz, bunaqada plan to'larmidi: boshliqlar frontga yuboriladigan g'allani nega to'xtatdinglar, deb stolni mushtlab, bizga do'q ursa, axir nima qilaylik, siz ham tushuning-da!

Brigadir mening qamchini sudrab kelayotganimni ko'rib, go'yo miyasiga bir yaxshi fikr kelgandek xursand bo'lib ketdi.

– Agar kelinimga yo'l-po'lda tentak aravakashlar tegajaklik qiladi, deb qo'rqsangiz, mana, qaynisi bor-ku, – dedi meni ko'rsatib. – Bu inim yangasiga birovni yaqin yo'latish u yoqda tursin, qaragani ham qo'ymas. Seit ham chakana emas, azamat yigit-ku. Sadag'asi ketay, jonimizga ora kirayotganlar mana shu bolalar-da...

Oyim meni ko'rgach, brigadirning so'zini bo'lib, yalina boshladi:

– Qayoqlarda tentirab yuribsan, bolam? Sochlaring o'sib, devonaga o'xshab ketibsan-ku. Otasi tushmagur bolasining sochini olishga ham qo'li tegmaydi... Ota emish...

– Unday bo'lsa, mayli, bugun sochini olib, chol-kampirlar yonida bir dam olsin, – dedi O'rozmat chehrasi

ochilib, – Seitjon uka, bugun uyda qolib, otlaringga biroz dam ber. Ertaga Jamilaga arava beramiz, yangangni birga olib, unga o'zing bosh bo'l. Siz esa, onasi, Seit bor ekan, ko'nglingiz to'q bo'lsin, kamlik qilsa yangi kelgan Doniyorni ham qo'shib beray: o'zingiz bilasizki, u birovga ziyoni tegmaydigan xokisor odam... O'zlaricha uch arava bir brigada bo'lib, stansiyaga qatnayverishsin, mayli, bularning yoniga boshqalarni qo'shmay... Xo'sh, Seit, sen nima deysan? Bu, oying Jamilaga arava haydataylik, desak, ko'nmayapti. Qani, o'zing bir narsa de-chi...

Bir tomoni, brigadir meni rosa ko'klarga ko'tarib maqtagani, ikkinchidan, katta kishilardek mendan aql so'ragani, buning ustiga, yangam yonimda arava haydab yursa qanday maza bo'ladi, degan bolalarcha xayol bilan ishbi-larmon odamlardek oyimga dedim:

– Haydasa haydayversin, nima, bo'ri yeb ketarmidi! – deb xuddi katta aravakashlardek chirt etkizib tupurdim-da, qamchini sudraganimcha salmoq bilan qadam tashladim.

– E, jin ursin seni, bo'ri yeb ketarmidi, deydi-ya! Qo'y, bolam, sen nimani bilarding! – dedi oyim achchiqlanib.

– Iye, nega bilmas ekan, ikki uyning azamat yigiti bo'ladi-yu, bilmaydimi! – deb yubordi O'rozmat. Oyim endigina ko'nganda yana aynib qolmasmikin, degan shubha bilan nima deyarini bilmay shoshib qoldi.

Oyim bo'lsa og'ir bir uh tortib qo'ydi.

– E, Xudoyim, shu tirnoqdek bolamizga o'zing umr ber... Devdek azamat yigitlarimiz qayerlarda yuribdi, uylarimiz ularsiz huvullab qoldi...

Shundan keyin men ularning gapini eshitmadim, bora turib uyning muyushiga bir qamchi urdim, kokillarini selkillatib, kichkina qo'lchalari bilan shipillatib devorga tappi yopayotgan, menga ochiq chehra bilan jilmayib turgan singilchamga ham nazar solmay o'tib ketdim, dahlizda turgan cho'yan qumg'onni engashtirib, shoshilmay qo'limni yuvdim-da, qo'ltig'imga artdim, keyin uyga kirib, hash-pash deguncha katta kosadagi ayronni simirib tashladim, ikkinchisini esa deraza oldiga olib borib non to'g'rab yedim. Oyim bilan O'rozmat hali ham tashqarida suhbatla-

shib turishardi. Biroq bu safar ular hasratlashayotgandek ko'radi. Oyim yenglari bilan yig'idan qizarib ketgan ko'zlarini artib, tasalli berayotgan O'rozmatning so'zlarini bosh irg'ab ma'qullar, ich-ichiga botib ketgan ko'zlari bilan dom-daraksiz ketgan bolalarini go'yo ko'rmoqchi bo'lgandek olis-olislarga tikilardi. Haytovur, ancha dardlashib ko'ngli yumshagan oyim Jamilaning arava haydashiga ko'ndi shekilli, birozdan keyin brigadir ko'ngli tinchib, yo'rg'a baytalini yo'rttirib ketdi.

O'shanda bu ishning oqibati nima bilan tugashini oyim ham, men ham bilmagan edik.

* * *

Jamilaning ikki ot qo'shilgan aravani bemalol haydab ketishiga hech ham shubha qilganim yo'q. Chunki u yoshligidan yilqichilar orasida o'sib, katta bo'lgan, tog' etagiga joylashgan Baqayir ovulidagi yilqichining qizi edi. Sodiq akam ham chavandoz bo'lgan ekan; u bir kuni yaylovdagi chorvadorlar to'yi munosabati bilan o'tkazilgan poygada Jamilaga yetolmay qolgan ekan. Shundan keyin izza bo'lib, uni olib qochib ketganligini bilardim. Ovsin-ajinlar bo'lsa hechamda, ular bir-birlarini yaxshi ko'rib topishgan, deyishardi. Har qalay, nima bo'lsa ham ular uch-to'rt oy birga turishgan, keyin Sodiq akamni armiyaga olib ketishgan edi. Bilmadim, yoshligidan otasi bilan birga dala-dashtlarda yilqi haydashib, ot chopishib, erka o'sganidanmi yoki bitta-yu bitta qiz bo'lganligi uchunmi, ishqilib, Jamilaning xatti-harakatlarida allaqanday jo'shqinlik, erkaklarga xos fazilat bor edi. Har bir ishga astoydil kirishar, boshqa kelinlardek boshim, belim og'riyapti deb sira zorlanmasdi. Biroq o'zi ham birovga haqini ketkazmaydigan, aytishgan bilan aytishib, so'kishgan bilan so'kishadigan o'jar ayollardan edi. Uning ovuldagi kelinlar bilan yumdalashgan vaqtlari ham bo'lgandi.

Yon-atrofdagi odamlar:

- E, bu qanday shaddod kelin o'zi! Tushganiga hech

qancha vaqt bo'lmay, tilidan zahar sochadi-ya! – deganlarida, oyim:

– Mayli, shunisi yaxshi! Kelinimiz ochiq-yoriq, sira bo'sh kelmaydi... Ana shunday ko'nglida kiri yo'q odam yaxshi, indamay yurgan pismiqlardan qo'rqish kerak, hamma fisq-fasod o'shalardan chiqadi, – deb javob qaytarardi.

Otam bilan haligi „ishchan“ degan oyim boshqa qaynata, qaynanalardek Jamilani turtmay, so'kmay, aksincha, o'z farzandlaridek erkalatishib: „Xudo ishqilib o'ziga insof bersin, to'g'ri yurib, to'g'ri tursa bo'lgani!“ – deyishardi. Ular voyaga yetgan to'rt o'g'illarini armiyaga jo'natishib, ikki xonadondagi yakka-yu yagona kelinini ranjittishadimi? Biroq men oyimning ba'zi ishlariga hayron qolardim. Boshqalarni qo'yib turaylik, oyim birovlarining qo'liga qaraydigan ayollardan emas edi. Har yili kuz kelishi bilan odati bo'yicha otam tayyorlagan olti qanotli qora o'tovni tikib, archa tutatardi. Bizlarni chizgan chizig'idan chiqmaydigan qilib tarbiyalab, hargiz ikki oilaning boshini qovushtirib kelardi. Oyimning aytgani aytgan, degani degan edi. Ammo Jamila oramizda ajralib turardi. To'g'ri, u kampirlardan biroz tortinar, ularning hurmatini joyiga qo'yar, biroq ovuldagi ko'pchilik kelinlardek indamay boshini quyi solib o'tirmas yoki teskari qarab po'ng'illamas, ko'nglida borini yashirib o'tirmay, shartta gapirib qo'ya qolar edi. Gaplari o'rinli bo'lsa, oyim uni ko'pincha ma'qullar, lekin o'shanda ham o'z gapini ikki qilmasdi. Nazarimda, oyim, uni birso'zligi, to'g'riligi uchun o'ziga yaqin tutar, kelajakda uni ikki xonadonning boshini qovushtirib, ro'zg'orning rizq-barakasini o'zidek saqlay oladigan ud-daburon o'rinbosar qilib qoldirish niyatida bo'lsa kerak.

– Xudoga shukur, tagli-joyli yerga tushding, bolam. Bu ham bo'lsa sening baxting, buni sira ham yodingdan chiqarma. Xotin degan Tangrining berganiga shukur qilib, ro'zg'orida birini ikki qilib yursa, shuning o'zi katta davlat. Biz chol-kampir topgan-tutganimizni o'zimiz bilan birga go'rga olib ketarmidik... O'z qadr-qimmatingni bilsang, sira kam bo'lmaysan, doim martabang baland bo'ladi, bolam, – deb eslatib turardi.

To'g'ri, chol-kampirlarning cho'chiganicha bor edi: Jamila juda sho'x, yosh bolaga o'xshardi. Bir qarasangiz o'zidan o'zi kampirlarga suykali erkalanar, yo bo'lmasa birdan qah-qah urib kular, yoki ko'chadan kirib kelayotganida xuddi yosh qizchalardek ariqdan lorsillab sakrab o'tar, yoxud o'zicha xirgoyi qilib yurardi. Kampirlar Jamilaning bu qiliqlarini o'zlaricha gap qilib: „Hali bola-da, bora-bora quyulib qoladi“, – deb qo'yishardi.

Menga bo'lsa yangamning shunaqaligi yoqardi. Ba'zida ikkovimiz olishib, kurashib, quvlashib ham ketaverardik.

Jamila sarviqomat, bejirim ayol edi. Ikki o'rim qora sochini boshiga chambarak qilib o'rib, ustidan tang'ib olgan oppoq durra uning bug'doyrang kulcha yuziga shunday yarashib tushar ediki, asti qo'yaverasiz! Jamila kulganda uning shahlo ko'zlarida navqiron yoshlik barq urar, shunda u beixtiyor qaddini rostlab, ovulning sho'x laparlarini kuylab yuborardi. Ovuldagi yigitlar, ayniqsa, frontdan qaytib kelgan yigitlarning Jamilani ko'z ostiga olishib, tegishib yurganlarini necha bor payqardim. Hangomatalab yangam ular bilan bemalol hazil-huzul qilishardi-yu, biroq haddidan oshganlarning ta'zirini berib qo'yardi. Baribir bu mening izzat-nafsimga qattiq tegar, yangamni rashk qilardim. Shuning uchun ham haligi „bezorilarga“ o'zimni ko'rsatib qo'yay deb: „Hoy, bilib qo'yinglar, bu mening yangam bo'ladi-ya, ko'p pashshaxo'rda bo'lavermanglar“, – degandek, ularning so'zini shartta bo'lib, viqor bilan xo'mrayib qarardim: „Endi nima qildik, buning yangasi ekan-ku!“ deb yigitlar masxara qilib kulishganida, qizarib-bo'zarib, azbaroyi xo'rligim kelganidan yig'lab yuboray derdim. Buni sezgan yangam xursand bo'lib, kulgidan o'zini tiyolmay jilmayib: „Ishlaring bo'lmasin, nima, yanga degan yerda qolibdimi? Yur, ketdik, qaynim!“ – deb ularning battar qitig'iga tegar, so'ngra boshini mag'rur ko'targanicha, dadil qadam tashlab ketardi. U yigitlarning ta'zirini berganidan ham xursand bo'lib, ham o'ziga xo'rligi kelib, menga qarab bir kulimsirab qo'yardi. Balki u: „E, tentak, yangamga ko'z-quloq bo'laman deysanmi? Agar buzilaman desam, ming ko'z-quloq bo'lsang ham buzilaman. Axir men chum-

chuq emasman-ku“, degan xayolga borganmikin? Men ham o‘shanday vaqtlarda aybdor kishidek g‘ing demasdim. Ammo birozdan so‘ng yangam xiyol yozilib: „Obbo kichkina bola-yey, juda g‘alatisan-da!“ – deb meni yana bag‘riga bosib, peshanamdan o‘pard.

Ha, chindan ham yangamni hech kimga ravo ko‘rmay rashk qilardim, uning quvnoqligi, o‘zini erkin tutishi bilan faxrlanardim. Biz u bilan juda apoq-chapoq, bir-biridan hech narsani yashirmaydigan sirdosh do‘stlardek edik. Nega shundayligini o‘zim ham bilmasdim. O‘sha kezlarda ovulda erkaklar juda oz edi. Shu sababli ba‘zi yigitlar ko‘krak kerib, balandparvoz gapirib, ovulda mendan boshqa yigit yo‘q, degandek, ayollarni hecham nazar-pisand qilishmasdi. Bir kuni pichan o‘rimida, yur, desam bo‘ldi, orqamdan ergashib kelaveradi, deb o‘ziga ishonganlarning biri – uzoq qarindoshimizning o‘g‘li Usmon yangamga tegajaklik qilavergan edi, u Usmonning qo‘lini siltab yubordi-da, g‘aram soyasida o‘tirgan joyidan turarkan:

– Tur yo‘qol! – deb o‘shqirdi va teskari qarab oldi. – Qo‘llaringdan modabozlik qilishdan boshqa ish kelarmidi.

G‘aram ostida taltayib yotgan Usmon qalin lablarini nafrat bilan burishtirib to‘ng‘illadi:

– Olamushukning bo‘yi shiftga osig‘liq turgan go‘shiga yetmay, puf sassiq, degan ekan... Shunga o‘xshab, ko‘p noz qilaverma. Ichingda jon-jon deb turibsan-u, yana...

Jamila unga yalt etib qaradi-da:

– Jon-jon deb tursam turgandirman. Lekin peshanamga yozilgani shu ekan, nima qilay. Ey, ahmoq, buning kuladigan joyi bormi? Jon-jon deyish u yoqda tursin, ming yil toq o‘tsam ham senga o‘xshagan shumshuklarga nazarimni solmayman. Ahmoqsan. Ilgarigidek tinch zamon bo‘lganda shunday deb bo‘psan edi! – dedi.

– Shuni aytyapman-da! Urushning kasofati bilan qamchi yemay quturib yuribsan-da, – dedi istehzo bilan Usmon ko‘zlarini o‘ynatib tamshanarkan. – Mening xotinim bo‘lganingdami, nima qilishimni o‘zim bilardim!

Jamila lablari dir-dir titrab, Usmonga yeb qo‘ygudek

bo'lib qaradi, unga bir narsa demoqchi bo'lib og'iz juftladi-yu, lekin „shu ahmoq bilan aytishib nima obro' topdim“ deb o'yladi shekilli, jirkanch bilan „tfu“ dedi-da, yerda yotgan panshaxasini yelkasiga tashlab, indamay nari ketdi. Men berigi tomonda aravaning ustidan xashak tushirayotgan edim. Jamila meni ko'rishi bilan boshqa tomonga burilib ketdi. Yangam mening qay ahvolda ekanimni sezgan edi. Nazarimda, yangamni emas, meni haqorat qilishgandek izza bo'lib, g'azabim qaynab ketdi. „Nega ularga yondashasan, nega ular bilan gaplashasan?“ – deb yangamga jonim achidi-yu, ichimda uni koyidim.

Jamila o'sha kuni kechgacha noxush yurdi, kulmadi ham, gapirmadi ham. Men shoti aravani haydab g'aram oldiga borganimda, Jamila meni gapirmasin deb ataylab ishga alahsitib, dilini o'rtayotgan o'y-fikrlarini yashirishga harakat qildi, u panshaxasini kattakon pichan g'aramiga sanchdi-da, go'yo tog'ni ag'darayotgandek uni yerdan shartta ko'tarib, yuzini yashirganicha g'ayrat bilan pichanni aravaga otaverdi. Undan uzoqlashar ekanman, qayta-qayta orqamga qayrilib qarardim: yangam panshaxa dastasiga suyanib biroz xomush turar, o'ylanib qolar, keyin yana ishga tushib ketardi.

Men aravaga oxirgi marta pichan bosar ekanman, Jamilaning botib borayotgan quyoshga uzoq tikilib turganini payqadim. Quyosh daryoning narigi yog'ida, qozoq dashtlarining allaqayerida o't yoqilgan tandirning og'zidek alanganib, holdan toyib, osmonda suzib yurgan pag'a-pag'a bulut parchalarini qizg'ish rangga bo'yab, binafsharang dashtlikka so'nggi shu'lalarini sochib, asta-sekin ufq orqasiga o'tib borardi. Jamila qo'li bilan quyoshni to'sib, o'sha tomonda ajib bir manzara bordek, ko'zlarini uzmay, kulimsirab qarab turardi. Endi uning chehrasi ochilib, ko'ngli ancha ko'tarilgan edi.

O'shanda Jamila mening aytmagan, lekin yuragimda tugilib, tilim uchida turgan: „Nega ularga yondashasan, nega ular bilan gaplashasan!“ – degan ta'namga javob berayotgandek:

– Haligi gaplarimni ko'nglingga olma, kichkina bola, – deb qo'ydi, eng yaqin sirdoshi bilan dardlashayotgandek.
– Usmon ham odammi? It ham bir, u ham bir.

Jamila botib borayotgan quyoshdan ko'zini uzmay, indamay qoldi, keyin go'yo menga emas, o'ziga gapirayotgandek yana shunday dedi:

– Bunday kishilar ko'nglingdagini bilarmidi... Buni hech kim bilmaydi. Xudo bilsin, bunday erkaklar dunyoda yo'qdir ham!

Men aravani qaytarishga ham ulgurmasdan qaragam, Jamila allaqachon narigi tomonda ishlayotgan kelinlar oldiga yugurib borib, ular bilan chaqchaqlashib, quvalashib yuribdi. Olovdek tovlanib turgan kechki shafaqqa qarab ko'ngli ochildimi yoki bugun yaxshi ishlaganidan xursand bo'ldimi, bilmadim, har qalay, kayfi chog' edi. Xashak ortilgan arava ustida o'tirar ekanman, Jamilaning qo'llarini keng yozgancha oppoq durrasini hilpiratib chopib borayotganini ko'rib, ko'nglim ancha taskin topdi: „Ha, Usmon o'zi kim-u, uning so'zi nima bo'lardi?“

– Chuh, jonivor, chuh! – deb otga qamchi urdim.

* * *

Brigadir O'rozmat og'a aytgandek, sochimni oldirib ketayin, deb otamning ustaxonadan qaytishini kutdim. Lekin u kelguncha bekor o'tirmay, deb Sodiq akamning xatiga javob yozdim.

Darvoqe, xat yozishda bizlarning o'zimizga xos bir tamolimiz bor. Armiyadagi akalarim xatni otamning nomiga yozishardi, pochalyon bo'lsa ularni onamga berardi, xatlarni o'qib berish, ularga javob yozish mening vazifam edi. Xatni o'qiy boshlashim bilanoq, unda nimalar yozilganini darrov bilib olardim. Chunki hamma xatlar egiz qo'zilardek bir-biriga o'xshardi. Sodiq akam har doim xatni „Sog'inchli salom xat“ degan so'zdan boshlardi. Keyin: „Yetib ma'lum bo'lsinki, u tomonda, ya'ni gullab yashnayotgan Tolosning salqin havosida sog'salamat, o'ynab-kulib yurgan jondan aziz, mehribon

otajonim Yo'lchiboyga“, – deb salomni otamdan boshlardi, keyin katta oyimni, so'ngra ishchan oyimni, ana undan keyin qavm-qarindoshlarimizning sog'ligini so'rab, eng oxirida: „shuningdek, xotinim Jamila ham eson-omon yuribdimi?“ – deb bir og'iz qistirib o'tardi.

Ota-onasi, qavm-qarindoshlari turganda dastlab xotini esga olish, xatni uning nomiga yozish odobdan emas, albatta. Bu narsa faqat Sodiqqa emas, balki umuman erkak zotiga to'g'ri kelmaydi. Biroq biz shu ikki enli xat olib turganimizga ham ming qatla shukur qilamiz, ovuldagilar uchun bu bir katta baxt edi. Oyim xatni menga ikki-uch marta o'qitib olgandan keyin qozon-tovoq, issiq-sovuqqa uraverib yorilib ketgan qo'llariga olib, go'yo uchirib yuborishdan qo'rqqandek uni avaylab uchburchak qilib buklab qo'yardi.

– Ee, tumordek xatlaringdan onang aylansin, – derdi u ko'ziga yosh olib, og'ir xo'rsinib. – Ota-ona, qarindoshlarning ahvolini so'raydi-ya! Axir biz uydemiz-ku, bizni jin urarmidi! Baxtimizga, ishqilib, sizlar omon bo'linglar, Xudo o'z panohida saqlasin. Ikki enli xat yozib, sog'-salomat yuribman, deb qo'ysalaring, shuning o'zi ham katta g'animat.

Oyim xatga yana biroz termilib qarab turardi-da, so'ngra uni sandiqdagi xatlar saqlanadigan xaltachaga yashirib qo'yardi.

Agar shu payt Jamila uyda bo'lib qolsa, u ham xatni bir karra ichida o'qib chiqardi. Jamila har safar xatni qo'liga olishi bilan o'z-o'zidan qizishib ketar, uni harislik bilan tez-tez o'qiy boshlardi. Lekin xatning oxiriga yaqinlashgan sayin yuzidagi quvonch alangalari so'nib, rangi o'chib, qoshlari yana chimirilib qolardi. Ba'zida xatni oxirigacha o'qib chiqishga ham sabri chidamay, hafsalasi pir bo'lardi-yu, g'ing demasdan, go'yo qarz olgan narsani qaytarib bera-yotgandek bo'shashib, xatni oyimning qo'liga tutqazardi.

Xat saqlanadigan xaltachani sandiqqa bekitarkan, ke-linining tumshayib qolganini payqagan oyim unga tasalli bergan bo'lardi:

– Xabar kelganiga quvonish o'rniga xafa bo'lganing ni-

masi, bolam. Yoki faqat sening kuyoving askarlikka ketganmi? Barchaga barobar musibat, sabr qil... Ko'z ochib ko'rgan yorini kim sog'inmaydi deysan. Sog'insang ham sir boy berma, ichingda saqla.

Jamila bo'lsa miq etmasdi. Lom-mim demasa ham parishon chehrasi go'yo: „Eh, koshki edi tushunsangiz!“ – deyayotgandek bo'lardi.

Sodiq akam bu xatini ham Saratovdan, gospitaldan yozgan edi. Xudo xohlasa, kuzning o'rtalariga borib qolarman, debdi. Ilgari ham shunday deb yozganida biz juda quvongan edik.

Otam ishdan qaytgach, tezda sochimni oldirdim-u uyda qolmay, otlarni bedazorga qo'yib yubordim-da, o'zim har kungidek xirmonda tunadim. Raisimiz mollarni bedazorga yoyishga ruxsat bermasdi, biroq men otlarim yaxshi to'ysin, deb ularni ko'zdan ovloq joydagi bedazorga tushovlab qo'yardim. Buni hech kim bilmasdi. Bu safar aravani xirmonda qoldirib borsam, pastlikda yana to'rt ot o'tlab yuribdi. Jahlim chiqib, ularni chekkaroq joyga haydab yubormoqchi bo'ldim. Biroq otlarning ikkitasi brigadir aytgan o'sha Doniyorniki ekanini tanib qoldim. Men, ertadan boshlab barimiz bir brigada bo'lib, stansiyaga birga qatnaymiz, degan o'y bilan otlarga tekkanim yo'q. So'ngra xirmonga kelsam, Doniyor ham shu yerda ekan. U endigina aravasining g'ildiraklarini moylab bo'lib, o'qning gaykalarini burayotgan ekan.

– Doniyor aka, otlar siznikimi? – deb so'radim undan.

U menga bir qarab qo'ydi-da:

– Ikkitasi meniki, – dedi.

– Qolgan ikkitasi-chi?

– Haligi, ha, oti nima edi, Jamilamidi, o'sha kelinniki.

Aytmoqchi, u sening yangang bo'ladimi?

– Ha, yangam bo'ladi.

– Bo'lmasa, bugun kechasi Seit qarab tursin, deb brigadirning o'zi tashlab ketdi.

„Yaxshiyam ularni haydab yubormagan ekanman-a!“ – deb qo'ydim ichimda.

Kech kirib, tog'dan esgan mayin shabada ham tinib,

xirmon jim-jit bo'lib qoldi. Doniyor ham men yotgan somon ustiga kelib yonboshladi. Lekin ko'p o'tmay yana o'rnidan turdi-da, soy bo'yi tomon ketdi. U tik jar yoqasiga bordi-da, boshini sal qiyshaytirib, qo'llarini orqasiga qilganicha turib qoldi. Orqasidan qaraganda uning gavdasi oy yorug'ida ko'zga aniq tashlanib turardi. Doniyor, aftidan, mudroq, sokin tun uyqusini buzib, toshlardan toshlarga urinib, sharillab oqayotgan soy suvining musiqiy ohangini yo bo'lmasa boshqa bir quloq ilg'amas tovushlarni tinglayotgandek qimir etmay turardi.

„Odaticha soy bo'yiga borib tunamoqchi shekilli“, – deb kulib qo'ydim men o'zimcha.

Doniyor ovulimizga yaqindagina kelgandi. Pichan o'rog'i endi boshlangan kezlar edi. Bir kuni bitta bola chopib keldi-da, ovulga bir yarador askar qaytdi, lekin kimligini o'zim ham bilmayman, deb qoldi. Ovulda birov askardan qaytib kelgudek bo'lsa, ko'rgani hamma yopirilib borardi. Ammo bu safar frontdan kelgan kishining nasl-nasabi nomal'um bo'lgani uchun o'roqchilar tozayam shov-shuv ko'tarishdi.

– Begona deyishadi-ku.

– Begona bo'lsa, bizning ovulga kelarmidi?

– Shuni ayt-a?

Shunday qilib, u kim ekan, o'zimizning qarindosh-urug'umizdan bitta-yarimtasining bolasi bo'lmasin tag'in, deyishib, bir to'da odam ovulga ham borib kelishdi.

Keyin bilishsa, Doniyor asli shu yerlik ekan. Aytishlaricha, u yoshligidan yetim qolib, har kimlarning eshigida yurgan, oxiri Chaqmoqdagi qozoq tog'alarinikiga ketib qolgan, shu-shu bolani izlab borgudek bironta ham jonkuyari bo'lmagan ekan. Shunday qilib, u el-urug'ning yodidan ham chiqib ketgan ekan. Ovuldan ketib qolganidan keyingi hayoti to'g'risida esa Doniyor unchalik yozilib gapirmaganmish. Biroq hozir o'ylab ko'rsam, uning tortmagan azob-uqubatlari qolmaganga o'xshardi.

Turmush bu mushtdek bolani ne ko'ylarga solmagan, tirikchilik dardida u qayerlarga bosh urmagan. Doniyor ko'p vaqt Chaqmoq dashtida qo'y boqib yurib, voya-

ga yetgach, jazirama cho'llarda kanal qazigan, yangi tuzilgan paxta sovxozlarida paxta ekib, ekin sug'orib, oxiri Toshkent yaqinidagi Ohangaron shaxtalarida ishlab, o'sha yerdan armiyaga ketgan edi.

Xullas, Doniyorning armiyadan qadrdon ovulga qaytib kelganiga ovuldagilar xursand bo'lishgandi; bechoraning tuz-nasibasi uzilmagan ekan, oxiri o'z eliga qaytib keldi! Shuncha yil chetda yursa ham tilimizni esdan chiqarmabdi-ya. Biroq tili sal-pal qozoqchaga tortib ketadi, deyishardi.

„Ot aylanib qozig'ini topadi, deganlar. Tug'ishgan yer, el-yurtni unutish osonmi? Kelganingga biz ham, ota-bobolarining arvohi ham xursand; Gironni yengib, tinchlik bo'lsa, sen ham uy-joy qilarsan, bola-chaqali bo'larsan“, – deyishardi keksalar. Ular Doniyorning yetti pushtini surishtirib, uning qaysi urug'dan ekanligini, ovuldagi ba'zi bir tug'ishganlarining kimligini ham aytib berishdi. Xullas, ovuldagilar: „Doniyor dunyoga yangi kelgandek bo'ldi“, – deyishadigan bo'lishdi.

Oradan ko'p o'tmay bir kuni brigadir O'rozmat shineli-ni yelkasiga tashlab, chap oyog'iga sal oqsoqlagan novcha, bo'yni uzun bir kishini ergashtirib keldi. Yo'rg'a baytalini gijinglatib kelayotgan pakana O'rozmatning yonida haligi novcha askar salmog'ini o'ng oyog'iga solib, orqada qolmay, tez-tez yurib kelardi.

Bizlar, pichan o'radigan mashinada ishlayotgan bolalar Doniyorni birinchi ko'rishimiz edi. Doniyor yarasini yaxshi bitib ketmaganidan oyog'ini bukolmasdi. Uni o'roqqa yaramaydigan bo'lgani uchun biz bilan birga mashinaga qo'yishdi. Rostini aytsam, biz uni avvaliga unchalik yoqtirmadik. Chunki Doniyor juda odamovi edi, gapirishganda ham uning butunlay boshqa, faqat o'zigagina ma'lum bo'lgan narsalar to'g'risida xayol surayotgani, kishiga tikilib tursa ham ko'ngli boshqa yoqda ekanligi shunday sezilib turardi. U og'ir xayolga botgandek angrayib turardi. Buni payqagan kishilar: „Bechora, frontdan keyin hali ham o'zini o'nglab ololmasa kerak“, – deb yurishdi. Lekin Doniyorning o'zini tutishiga, qo'li-qo'lga tegmay

chaqqon ishlashiga, harakatchanligiga qarab, uni ochiq-yoriq, aqlli, gapga chechan odam ekan, deb o'ylaysan kishi. Balki yetimlik azob-uqubatini ko'p tortganidan u mehnatkash, lekin kamgap, sir-asrorini hech kimga aytmaydigan bo'lib qolganmikin? Ehtimol, shundaydir. Sersavlat, bo'y-basti kelishgan Doniyorning jag'i bir-biriga yopishib ketgan, qovog'i sira ochilmas, ko'zlari bir xil g'amgin boqardi. Faqat doim uchib turadigan qoshlari uning yuziga husn berib turardi. Goho-goho u qandaydir bir sirli tovush eshitgandek hushyor tortar, qoshlari uchib, go'yo bir narsadan xursand bo'lgandek ko'zlari yaraqlab ketardi. Lekin biz buning sababini bilmasdik. Bugina emas, uning boshqa qiziq odatlari ham bor edi. Qosh qorayganda otlarni aravadan chiqarib, ovqat qachon tayyor bo'larkin, deb o'choq atrofida dam olib o'tirardik. Doniyor bo'lsa yonimizdagi Qorovultepaga chiqib, qorong'i tushgunga qadar o'sha yerda o'tirardi.

„U yerda nima bor ekan? U kimni qo'riqlaydi, u nima ni qo'riqlayapti?“ – deb kulishardik biz. Kunlardan birida men ham qiziqib, uning yoniga chiqib o'tirdim. Bu yerda aytarli hech narsa yo'q edi. Tog' etaklari bo'ylab yastanib yotgan bepoyon dashtlik chuqur dengizga cho'kib borayotgandek oqshom qo'ynida yo'qolib borardi. Doniyor mening kelganimga parvo qilmadi. U chehrasi yorishib, bir tizzasini quchoqlaganicha xayol surib o'tirardi. U men anglab yetmagan, ma'nosiga tushunmagan allaqanday sirli tovushlarni butun vujudi bilan berilib tinglayotgandek tuyulardi. Ba'zan qoshlari chimirilib, ko'zlari chaqnab, kuchi tanasiga sig'mayotgandek to'lg'anar, go'yo o'rnidan irg'ib turib, qulochini yozgancha butun borliqni ko'ksiga bosib, quchoqlamoqchi bo'layotgandek tuyulardi. Bir qarasang, qattiq charchagan odamday yana bo'shashib, g'amgin bo'lib qolardi.

Kolxozimizning pichan o'radigan mashinalari buralib-buralib oqayotgan kattakon Gurkurov soyining bo'ylarida xuddi shu Gurkurov soyidek gurkirab yurardi. Pichan o'rog'i soylarning to'lib-toshib oqayotgan davriga to'g'ri keldi. Toshidan toshga urilib, ko'piklanib, pishqirib oqqan

suv kech kirishi bilan yana ko'payardi va yarim kechaga borib sharillab oqqan ovozidan kapada yotgan yerimda uyg'onib ketardim. Qaymog'i olingan sutdek osmonda muzdek shabada g'ir-g'ir esib, ko'kdagi yulduzlar shu'la sochib mo'ralab turardi. Tun og'ushida hayqirib oqqan soy suvining to'lqini yana ham kuchliroq sezilib, go'yo ustimizga bosib kelayotgandek tuyulardi. Biz qirg'oqdan olisda bo'lsak-da, kapamizni suv oqizib ketmasmikin, degan vahima beixtiyor ko'ngilga g'ulg'uga solardi. Do'stlarim hech narsadan xabarsiz, dong qotib uxlashardi, men tashqariga chiqib ketaman.

Tunda soy bo'yi ham ko'rkam, ham vahimali bo'ladi. O'tloqning u yer-bu yerida o'tlab yurgan otlar qorayib ko'rinardi. Hamma yoq jimjit. Otlar shabnam tushgan o'tlarga to'yib, dam-badam pishqirishar va yengil mudrashardi. Sal narida Gurkurov suvi quturib, mayda tol novdalarini egib, toshlarni yumalatib, sokin tun jimligini buzib, go'yo yer qa'ridan qaynab chiqayotgandek dahshat bilan sharillab oqardi. Shunday kechalarda men doim Doniyorni eslardim. „Darvoqe, Doniyor qayerda qoldi ekan?“ – deb so'rardim o'zimdan o'zim. U doim yakka o'zi suv bo'yidagi pichan g'aramlari ustiga borib yotardi. „Nima balo, u kechasi qo'rqmaydimi, suvning sharillashidan qulog'i bitmaydimi?“ – degan fikr xayolimdan o'tardi. „U hozir ham uxlayotganmikin yoki uyg'oqmikin? Tavba, yolg'iz suv bo'yiga borib yotishning nima hojati bor ekan? Buning nima halovati bor? Qiziq, sira odamlarga qo'shilmaydi-ya. U hozir qayerda ekan?“ – deb atrofga nazar tashlab, quloq solaman, hamma yoq jimjit. Qirg'oq bo'ylab qiya tepalik cho'zilib ketgan tog' etaklariga qorong'ilik cho'kmoqda, osmonning u yer-bu yerida yulduzlar miltillab ko'rinmoqda.

Ovulga kelganiga bir necha kun bo'lsa ham o'zini chetga tortib, hech kimga qo'shilmay yurgan Doniyor oshna-og'ayni orttira olmadi. Birovga yondashmas, janjallashish, tortishish nimaligini bilmas, birovga yaxshi ham gapirmas, yomon ham gapirmas edi. Ovulga yaxshilik ham qilib, yomonlik ham qilib, yig'ilishlarda so'zlab, to'y va ma'rakalarda qariyalar bilan yonma-yon o'tirib, elning issiq-so-

vug'iga aralashib yurgan o'ktam yigitlar qadr-qimmatli bo'lib, darrov og'izga tushadigan, xotin-qizlarning nazari-ga ilinadiganlar ham shular bo'lardi.

Doniyorga o'xshab ertadan kechgacha ter to'kib ishlaydigan, lekin o'zini boshqalardan chetga olib yura-digan, o'zi bilan o'zi bo'lib, birovga zarari ham, foyda-si ham tegmaydigan kishilar to'g'risida: „Bir amallab kun ko'rib yurgan bechora-ku“, – deyishardi. Bizlarga o'xshagan o'zbilarmon, mahmadona bolalar esa haligi-dek chinakam, asl yigitlardek bo'lishni havas qilib, Doni-yorning yuz-ko'zi oldida bo'lmasa ham, orqasidan mazah qilardik. Uning ko'ylagini o'zi yuvganiga ham kular edik: u armiyadan bitta ko'ylak bilan kelganligi uchun ham uni qurir-qurimas kiyib olardi. Biroq qizig'i shundaki, Doni-yor mo'min-qobil bo'lsa ham, biz u bilan bemalol, botinib gapirisha olmasdik. Gap uning kattaligida emas edi, al-batta. Chunki u juda nari borsa, akalarim bilan teng ke-lardi. Shuning uchun ham biz u bilan sensirab gaplashar edik. Nima, o'zimizni pastga urarmidik. Garchi Doniyor ulug'sifat bir odam bo'lmasa-da, uning shunday hech kim bilan gapirishmay, vazmin yurishida qandaydir bir xo-siyat bordek, sho'x, shayton bolalar undan hayiqib turi-shardi.

Bunga qisman o'zim ham sababchi bo'ldimmi, deyman-da. Chunki men odamlardan, ayniqsa, frontga borib kel-ganlardan ko'rgan-bilganlarini ipidan ignasigacha gapirib berishni iltimos qilib, ularni hol-joniga qo'ymasdim, sa-volman deganni yog'dirib yuborardim. Shuning uchun ham men „Seit xira“ degan laqab orttirganman.

Doniyor kelgan dastlabki kunlarda, men undan urush to'g'ri-sida ko'p narsalarni so'rab, bilib olaman, deb yurdim. Bir kuni ishdan so'ng gulxan atrofida ovqat ichib dam olib o'tirganimizda Doniyordan so'rab qoldim:

– Doniyor aka, urushda ko'rgan-kechirganlaringdan bir gapirib bermaysanmi?

Doniyor hadeganda gapira qolmadi. Chamamda, me-ning bu gapim unga yoqmadi shekilli.

– Urush deysanmi? – dedi u va xuddi o'ziga javob bera-

yotgandek past ovoz bilan qo‘shib qo‘ydi: – Urushning nomi o‘chsin, uni bilmaganlaring yaxshi!

Doniyor narida yotgan xashakdan katta bir tutam olib gulxanga tashladi va olovni tez-tez puflab yondirdi-da, hech kimga qaramay qo‘llarini o‘tga toblay boshladi. U alangalanib yonayotgan olovga tikilganча uzoq jim qoldi.

Doniyorning nega bunday qilganini kim bilsin, lekin uning o‘sha ikki og‘iz gapidan ham urushni ertakdek ermak qilib gapirib bo‘lmasligi, u odamning yurak-yuragiga singib ketishi, u haqda gapirish nihoyatda og‘ir ekanligi shunday sezilib turardi. Uyalganimdan boshimni yerdan ko‘tara olmadim. Shu-shu Doniyordan urush haqida so‘ramaydigan bo‘ldim. Bolalar ham unga tegajaklik qilmaydigan bo‘lishdi.

Biroq ko‘rinishi tund, odamga aralashmaydigan Doniyor o‘zicha yakka-yolg‘iz yuravergani uchun uning armiyadan kelganligining qizig‘i ham qolmadi. Qay bir kishilar: „Shunchaki bir odam-da“ degandek qilib uni nazariga ilmas, boshqa birovlar esa undan ro‘yirost kulib, ko‘pchilik esa rahmi kelib: „Boshpanasiz, bir amallab jon saqlab yurgan bir g‘arib-da... Kolxozning dalada beradigan issiq ovqati bo‘lmasa, tentirab ketib qolarmidi... O‘ziyam, qo‘ydek yuvosh ekan...“ – deb achinib gapirishardi. Bora-bora kishilar Doniyorga ko‘nikib qolishdi shekilli, uni boshqa gap qilmaydigan bo‘lishdi. Odamlarning u bilan ishi bo‘lmay qo‘ydi.

* * *

Ertasi saharlab Doniyor ikkalamiz otlarni xirmonga olib keldik, shu payt Jamila yangam kelib qoldi. U bizni ko‘rishi bilan uzoqdan qichqirdi:

– Ey, kichkina bola, qaysisi mening otlarim, bu yoqqa haydab kel! Xomutlari qani? – deb umri bo‘yi aravakashlik qilgan odamdek, g‘ildiraklari joyidamikin degandek tepib ko‘rar, u yoq-bu yog‘ini sinchiklab ko‘zdan kechirardi. Biz Doniyor bilan otlarni yetaklab, xirmonga yaqinlashib kelganimizda, ikkalamizning aft-angorimiz

Jamilaga g'alati ko'rindi shekilli, u bir kulimsirab qo'ydi, Doniyorning uzun va oriqlik oyoqlaridan qo'nji keng soldatcha etiklari chiqib ketgudek bo'lib shalvirab turardi, men bo'lsam, qorayib, toshdek qotib ketgan oyoqlarim bilan otini niqtab kelardim.

– O'xshatmaguncha uchratmas, deganlaridek juda topishsizlar-ku. – Shu-shu go'yo bizning jilovimizni qo'liga olgandek, u buyruq qilaverdi: – Qani, tez-tez bo'linglar, urushda turish yo'q, ertaroq salqinda jo'nay qolaylik, – deb otlarini aravaga qo'sha boshladi.

Jamila, Doniyorning bori ham, yo'g'i ham bilinmaydi, degandek, uni nazariga ilmasdi. Gapirishsa ham men bilan gaplashardi. U bizdan qolishmay yelib-yugurib ishlardi. Jamiladagi bu jasorat, ayniqsa, o'zini katta olib gapirishi Doniyorga qattiq tekkandek bo'ldi. Doniyor chakkasi tirishib, uni ham yoqtirmagandek, ham hayratda qolgandek, tumshayib teskari burilib oldi. Jamila buni payqagani ham yo'q. Doniyor tarozi ustidagi qoplardan birini indamay dast ko'tarib aravasiga tashlaganda, Jamila unga yopisha ketdi.

– Bu nima qiliq, har kim o'z bilganicha ishlayveradimi? Qani, qo'lingni ber, qo'llashganni Xudo qo'llaydi! Hoy, kichkina bola, aravaga chiq, qoplarni joylashtir!

Jamila Doniyorning qo'lidan shartta ushlab, qopni ikkovlashib ko'targanida, Doniyor uyalganidan qip-qizarib ketdi. Shundan keyin ham ular qoplarni qo'llashib ko'tarib bosishdi, qo'llari bir-biriga chirmashib, qop ustidan asta sirpanib tusharkan, Doniyor o'ng'aysizlanib unga qaramaslikka harakat qilardi. Jamila bo'lsa parvovi falak, har safar tarozibon xotinning yoniga kelganida, u bilan hazil-huzul qilib, hiring-hiring kulishardi. Jo'nash oldidagina u ko'zini bir qisib qo'yib, Doniyorga:

– Hoy yigit, isming nima, Doniyormidi, ko'rinishdan erkakka o'xshaysan-ku, qani, yo'l boshla! – dedi.

Doniyor bu safar ham miq etmadi. Jamilaga cho'chigandek bir qarab qo'ydi-da, aravani haydab ketdi.

„Obbo sho'ring qurg'ur-ey, muncha uyalmasang!“ – deb achinib qo'ydim unga.

Yo'l olis, dashtdan yigirma chaqirimcha yo'l bosib,

Qoratog' darasidan o'tib, stansiyaga borish kerak. Shunisi yaxshiki, xirmondan to stansiyagacha yo'l qiyalab boradi, otlarga ham ancha yengil edi. Ulug'tog' tog'ining etagidagi ko'm-ko'k daraxtlar ichiga ko'milgan ovulimiz to daradan chiqib ketguncha xuddi kaftdagidek aniq ko'rinib turardi. Daraning etagidan esa temiryo'l kesib o'tadi.

Shunday qilib, biz har kuni stansiyaga g'alla tashib yurdik. Ovuldan ertalab chiqib, stansiyaga peshinda yetib boramiz. Taqir yo'ldagi shag'al arava g'ildiraklari ostida g'ichirlardi. Kun isigan sayin otlarning yag'rinlaridan ter quyilib oqardi...

Saratonning jazirama quyoshi hamma yoqni qovjiratib kuydiradi. Stansiyaga kelsang ot-aravaning ko'pligidan qadam bosolmaysan. Tog' etagidagi uzoq kolxozlardan eshak va ho'kizlarga g'alla ortib kelgan bolalar bilan xotinlarning kiyimlari terdan sho'ri chiqib, chang bosgan betlari qorayib kuyib, shamoldan lablari yorilib, yalangoyoq, yalangbosh horib-tolib kelardilar. Zagotzernoning hovlisi qiy-chuv bo'lib, uning darvozasiga: „Hamma g'alla front uchun!“ degan shior yozib qo'yilgandi. Paxsa bilan aylantirib olingan pastqam hovlining tashqarisida vagonlarni bir-biriga ulab yurgan parovoz qaynoq bug' chiqarib, qumursqadek tinmay harakat qilardi. Sal naridan poyezdlar quloqni kar qilgudek darajada bo'kirishib o'tishadi. Xuddi darvoza oldiga cho'ktirilgan tuyalar o'rnidan turgisi kelmay, jini qo'zib, ko'pik sochib ovozing boricha bo'kirardi.

Kattakon kapponning ichiga g'alla tog'-tog' qilib uyib tashlangan. G'alla solingan qoplarni orqalab taxta trapdan ana shu uyumlarning tepasiga olib chiqib to'kish kerak. Kapponning qizigan tunuka tomidan chiqqan bo'yoq aralash temir hidi bug'doy changi bilan birga qo'shilib dimog'ni qichitardi.

Uyqusizlikdan ko'zlari qizarib ketgan omborchi pastda qo'lini paxsa qilib so'kinardi:

– Hoy bola, ko'zingga qara, ustiga chiqarib to'ksang-chi!

U nega so'kinadi? So'kinmasa bo'lmaydimi? O'sha yerga olib chiqib to'kish kerakligini o'zimiz ham bilamiz-ku.

Biz bu yerdagina emas, balki dalaning o'zida, yerga don tashlangan kundan mehnat qilamiz. Yosh-yalang, xotin, bolalarimiz yoz bo'yi tinmay parvarish qiladi, kombaynchilarimiz har kuni yuz martalab buziladigan, parti ketib, sharti qolgan kombaynni bir nafas ham to'xtatmay, sara-tonning jazirama kunlarida ham daladan chiqishmaydi. Hozir ham dalada o'roqchilar tong sahardan qorong'i kechgacha zirqirab og'rikan bellarini yozolmay g'al-la o'rmoqdalar, bir qarich bolalar bitta ham boshqni qoldirmay terib olmoqdalar. O'sha kunlarda biz barcha topgan-tutganimizni frontga jo'natamiz, bu bizning g'alabaga qo'shgan ter bilan qonimizdir.

Hali-hali esimda, yosh bola ekanman, zabardast yigitlar ko'taradigan katta-katta qoplarni yelkamga tashlab, uning bir burchagidan mahkam tishlab trapdan yuqoriga chiqar ekanman, qovurg'alarim mayishib, ko'zlarim tinib ketardi. Qadam sayin trapning taxtalari egilib, kappon ichidan ko'tarilayotgan chang aralash g'ubor o'pkani qisardi. Necha marta holdan toyib, orqamdan sirg'alib tushib borayotgan qopni yelkamdan irg'itib, o'zim ham sakrab yuborgim kelardi. Lekin orqamdan ham qop ko'targan odamlar kelardi. U ham menga o'xshagan bir yosh boladir yo bo'lmasa, tushib-chiqib yurgan ayollarning biridir. Agarda urush bo'lmaganda bunday og'ir yukni ularga kim ko'tartirib qo'yardi? Shunday og'ir ishga ayollar chidash berayotganda nolishga haqqim bormi?

Ana, oldinda Jamila yangam boryapti. Etagini qistirib olgan, uning bug'doyrang chiroyli oyoq muskullari tarang tortilib, paylari uzilib ketgundek bo'ladi. U go'yo yukini yengillatayotgandek bukilib, egilib, og'ir qadam tashlab borardi. Goh-goh u mening holdan toyib borayotganimni sezgandek to'xtab qolardi-da:

– Bo'shshma, kichkina bola, oz qoldi! – deb qo'yardi. Biroq o'zi ham qattiq charchaganidan ovozi bo'g'ilib chiqardi.

Bug'doyni to'kib, orqaga qaytayotganimizda, doim Doniyorga duch kelardik. U odati bo'yicha hech kimga qo'shilmay, jimgina, salmoq bilan oyog'ini oqsoqlanib bo-

sardi. Biz unga yondashganimizda, og'ir tortgan bo'ynini cho'zib, qistirilgan ko'ylagining barini yozib kelayotgan Jamilaga Doniyor enkayganicha qovoq ostidan tikilib o'tardi. U Jamilani go'yo birinchi marta ko'rayotgandek hamisha ana shunday tikilib qarardi. Lekin Jamila bunga sira e'tibor bermasdi. Birga ishlaganimizdan buyon ularning biron marta ham ochilib gaplashganini ko'rganim yo'q. Jamila ba'zan shunchaki hazillashib, tegishib kulib gapirsa, ba'zida mutlaqo ishi bo'lmasdi. Bu uning kayfiyatiga bog'liq edi. Hushi kelsa, yo'lda kelayotib Jamila menga: „Qani, chuh de, kichkina bola, ketdik!“ – derdi-da, o'tirgan yeridan sapchib turib, qiyqirib, qamchinini o'ynatgancha aravani haydab ketardi. Men ham undan qolishmasdim. Hash-pash deguncha oldinda borayotgan Doniyorning quvib o'tib ketardik. Doniyor orqada chang-to'zon ichida qolardi. Aslida bu hazil bo'lsa-da, lekin bunday hazilga hamma ham chidayvermasdi. Biroq Doniyor g'ing demas, ranjimas edi. Biz chang-to'zon ko'tarib, uning yonidan tasira-tusur qilib o'tib ketsak ham u go'yo aybdor kishidek muloyimgina kulimsirab, aravada tik turganicha otlarga ustma-ust qamchi bosib borayotgan Jamilaga ajablanib, indamay qarab qolardi. Uning jahli chiqdimikin, deb orqamga qayrilib qaraganimda, chang quyuni ichida qolgan Doniyorning mamnun bo'lgandek Jamiladan ko'zini olmay tikilib turganini payqardim. Uning bu qarashida o'ta ko'ngilchanlik, oliyanoblik bilan birga, yuragini kuydirayotgan allaqanday sirli bir hasrat borligi sezilib turardi. Jamilaning bu qiliqlarini, istehzoli kulishlarini, yonidan go'yo mensimagan kishidek indamay o'tishlarini Doniyor hecham ko'ngliga og'ir olmas, bariga chidab, bir og'iz so'z qaytarmas edi. Ba'zida Doniyorga rahmim kelib:

– Qo'yday yuvosh odamning dilini og'ritganing nimasi, yanga? – desam, Jamila menga:

– Ke, qo'y, shuni gapirma! – deb qo'lini siltab, kulib qo'yardi. – E, shunchaki bekorchilikdan hazillashaman-da. Nima, biron joyi kamayib qolarmidi!

Bora-bora yangamga qo'shib men ham hazil-huzul qiladigan bo'ldim. Chunki Doniyorning Jamilaga ma'noli

tikilib qarashlari menga g'alati tuyula boshladi. Ayniqsa, Jamila qop ko'targanida Doniyor ko'zining qiri bilan unga tikilib qolardi. Har kim o'zi bilan o'zi ovora bo'lib, ko'pchilik ish bilan alahsib, buni payqamaydi, deb o'ylaydi shekilli. Aravakashlar qiyqirig'i ot-aravalarning ko'pligidan stansiyaning xuddi bozorga o'xshab ketgan to's-to'polon hovlisida Jamila qanchalik qiynalmasin, sira bo'sh kelmay yelib-yugurib ishlaganidan, qahqaha urib kulganidan u hammadan ajralib ko'zga yaqqol tashlanib turardi. Jamila arava chetiga qo'yilgan qoplarni ko'kragini kerib yelkasiga olarkan, qop-qora qo'ng'ir soch o'rimlari yerga tegay-tegay deb ketar, salmoq bilan orqasiga burilganida esa qisiq ko'zlarining qorachiqdari kipriklari orasidan yalt etib ko'rinardi. O'shanda qop ko'targan Jamila kapponning eshigiga yetgunga qadar Doniyor uni zimdan kuzatib qolardi. Men buni payqab yurardim. Hadeganda ko'nglimga og'ir olmagan bo'lsam ham, lekin keyinchalik Doniyorning yangamga bunday zimdan nazar tashlab yurishi menga yoqmadi, hatto izzat-nafsimga tekkandek bo'ldi: hech kimga ravvo ko'rmay qizg'anib yursam-u Jamilaga boshqalar qolib, Doniyorboy ko'z tiksa-ya. „Doniyorki, Jamilaga ko'z tikdimi, boshqalardan xafa bo'lmasam ham bo'larkan! Tavba!“ – derdim jahlim chiqib o'zimga o'zim.

Endi Doniyorni mo'min-qobil yigit deb ayamoq u yoqda tursin, yomon ko'ra boshladim. Shundan keyin men ham yangamga qo'shilib, uni masxara qila boshladim. Ammo bu hazilimizning tagi zil bo'ldi.

G'alla tashib yurgan qoplarimiz orasida olachadan tikilgan yetti pudli katta bir qop bor edi. Hamisha yangam ikkovimiz uni kapponga olib borib yerga to'kardik, chunki uni bir kishi ko'tarolmasdi. Bir kuni xirmonda aravalarga yuk ortayotib, yangam bilan birga haligi katta qopni Doniyorning aravasiga tashladik-da, ustidan boshqa qoplarni bostirib qo'ydik. Qani, nima qilar ekan, deb o'yladik o'zimizcha.

Xirmondan kunchiqarda jo'nab ketdik. Yo'lda rus qishlog'ida birovning bog'iga kirib, Jamila ikkovimiz olma o'g'irlab chiqdik-da, yo'l-yo'lakay qah-qahlab kulishib ketdik: Jamila bora-borguncha Doniyorga „Ilib ol!“ – deb ol-

ma otib bordi. Olma tugagandan keyin biz odatdagicha uni chang-to'zonda qoldirib, ancha uzoqlashib ketdik. Doniyor daradan chiqaverishdagina bizni quvib yetdi, temiryo'l berk ekan, uning ochilishini kutib turishga to'g'ri keldi. Bu yerdan to stansiyagacha birga keldik. Bu orada haligi yetti pudli qop yodimizdan ko'tarilib ketibdi, xayolimizda hech gap yo'q, g'allani tashib bo'lay deb qoldik. Bir mahal Jamila biqinimga turtib, Doniyorni ko'rsatib bir kulib qo'ydi. Doniyor arava ustida turgan ekan. „Buni nima qilsam ekan?“ – degandek haligi katta qopning u yoq-bu yog'iga qarab turardi. So'ngra u Jamilanig qiqir-qiqir kulayotganini payqab qolib, bizning sinamoqchi bo'lganimizni sezdi shekilli, qip-qizarib ketdi.

– Hoy, ishtoningni baland ko'tar, tushib ketmasin tag'in! – deb qichqirdi Jamila.

Doniyor unga bir o'qrayib qaradi-da, qopni nari-beri surib, aravaning chetiga keltirdi, so'ngra uni bir qo'li bilan suyab turib, yerga sakrab tushdi. Hash-pash deguncha bo'lmay, zildek qopni bir siltab yelkasiga oldi-da, kappon tomon yura boshladi. Biz, qani, nima qilar ekan, deb o'zimizni go'llikka solib, sir bermay turdik, boshqalar ham unga parvo qilishgani yo'q. Hamma ham qop ko'tarib yuribdi-da, kim bilan kimning ishi bor deysiz. Ammo Doniyor trapga yaqinlashganda Jamila uning orqasidan yugurib ketdi.

– Buni qayerga olib boryapsan, esing joyidami o'zi, shu yerga tashla, nima, hazilni tushunmaysanmi?

– Nari tur! – deb Doniyor uni jerkib soldi.

Shoxi singan Jamila o'ng'aysizlanib, trapdan chiqib ketayotgan Doniyorning orqasidan kulib qarab:

– Bu o'larmonni qaranglar, ko'tarib ketdi-ya! – deb xuddi aybli kishidek iljayib, o'zicha to'ng'illab qo'ydi.

Garchi Jamila hadeb qiqir-qiqir kulsa ham, borgan sari uning kulgisi sun'iydashib, o'zini o'zi zo'rlab kulayotgandek bo'lib tuyuldi. Doniyor qopni ko'tarib borar ekan, yarador oyog'iga zo'r kelib, oqsay boshlaganidagina, biz uni qanday azobga qo'yganimizni tushundik.

Doniyorning oyog'i yarador ekanini nega ilgariroq

o'ylamadik axir? Eh, bolaligim qursin-a, shu gap mendan chiqdi-ya!

– Orqangga qayt! – deb qichqirdi Jamila kulgi aralash. Biroq endi buning iloji yo'q edi. Chunki orqasidan ham qop ko'targan odamlar kelishayotgan edi.

Men esimdan og'ayozib, keyin nima bo'lganini bilmayman. Ko'z o'ngimda o'sha kattakon qora qopni ko'targan Doniyor. U bukilib, trapdan yerbag'irlab yuqoriga chiqib borardi. Yarador oyog'ini avaylab bosar, unga zo'r kelmasin, deb qanchalik urinmasin, baribir, har qadam tashlaganda og'riqqa chidayolmay, tishini tishiga qo'yib, boshini chayqardi. U yuqorilagan sari ustidagi og'ir qop yelkasiga minib olgan balo-qazodek uni battar bosar, u tobora ko'p chayqalardi. Yangam bilan o'ylamay qilgan bu qilmishimizga azbaroyi uyalganimdan yer yorilsa-yu, yerga kirib ketgudek bo'ldim, qo'rqqanimdan yuragim orqamga tortib ketdi. Qop ko'targan Doniyor emas-u go'yo men o'zimdek, oyoqlarim zirqirab, ko'z o'ngim qorong'ilashib ketdi.

Doniyor yana to'xtab, qopni tishladi-da, ko'zini yumdi. Mening ham boshim aylanib, yer o'pirilib ketayotgandek bo'ldi. Bir nafas hech narsani bilmay qoldim.

Kimdir bilagimni changallab, sindirib yuborgudek siqib ushladi. Bunday qaragam, Jamila ekan. Qo'rqqanidan murdadek oqarib ketgan, lablari dir-dir titrab, ko'zlarini katta ochgancha Doniyorga termilib turardi. Atrofimizni omborchi va boshqalar o'rab olishibdi. Ular ham nima gapligiga tushunmay, Doniyorga hayron bo'lib qarashardi.

Mana, Doniyor yurib borayotib sirg'alib ketayotgan qopni o'nglab olay deb bir silkidi-yu, lekin og'irlikka ortiq tob bera olmay cho'kkalay boshladi.

– Tashla! Tashla qopni! – deb qichqirib yubordi Jamila. Doniyor quloq solmadi. Orqada kelayotganlarga tegib ketmasligi uchun qopni trapning chetidan pastga tashlab yuborsa bo'lardi. Biroq u o'jarlik qilib qopni ko'targanicha turaverdi. Jamilaning ovozi eshitishi bilan yana oyoqlarini rostlab, oldinga qarab intildi. Bir-ikki qadam yurib orqaga tisarila boshlaganida, tarozibonning jon-poni chiqib ketib, ovozi boricha qichqirib yubordi:

– Tashla! Tashlasang-chi, itemgan!

– Tashla! – deb boshqalar ham qichqirishdi.

Doniyor bu safar ham o'z bilganini qilib, chayqalib-surinib ilgari bosdi..

– Yo'q, u qopni tashlaydigan emas. O'z aytganini qiladigan yigitga o'xshaydi, – dedi kimdir qo'l siltab.

Endi faqat haligi odamgina emas, balki yonimizda turgan boshqa odamlar ham, uning orqasidan qop ko'tarib borayotgan kishilar ham bunda bir sir borligini sezishib, Doniyor qop bilan birga qulab tushmaguncha uni tashlamasligiga ishonch hosil qilishdi.

Hamma bir zum jim bo'lib qoldi.

Kapponning orqasida parovoz zir yugurib vagonlarni bir-biriga ulamoqda. Doniyor yuqoriga yuk tortib chiqib ketayotgan otdek ilgarilab borardi. U chayqalib yiqiladigandek bo'lsa, shartta to'xtab, kuch to'plar, keyin yana oldinga qarab intilardi. Doniyorning orqasidan kelayotgan odamlar ham noiloj u to'xtaganda to'xtab, u yurganda yurishardi. Ularning ham tinkasi qurib, qora terga botib ketishgandi. Biroq ulardan bittasi ham Doniyor bilan senmenga bormadi. Ular toyg'oq yo'ldan go'yo bir-birlariga ko'rinmas ip bilan bog'langandek turnaqator bo'lib jim borishardi. Bordi-yu, bittasi toyib ketgudek bo'lsa, boshqalar ham xarob bo'ladigandek tuyulardi. Ularning indamay qadam tashlashlarida, bir xil chayqalishlarida kuchli g'ayrat va shijoat, hamkorlik sezilib turardi: Doniyorning orqasidan kelayotgan ayolning oyog'i chalishib, yiqilishiga sal qoldi-yu, shunda ham u o'ziga emas, Doniyorga Xudodan madad so'rayotgandek unga rahmdillik bilan termilib qaradi. Mana, oz qoldi. Doniyor yana bir zo'r bersa marraga yetadigandek ko'rinardi. Lekin Doniyor yana gandaraklab, yarador oyog'i unga itoat qilmay qo'ydi. Agar u yelkasidagi qopni tashlab yubormasa, o'zi ham qulab ketishi mumkin edi.

– Yugur! Orqasidan suyashib yubor! – deb qichqirdi Jamila menga. O'zi bo'lsa go'yo Doniyorni ushlab qolmoqchi bo'lgandek qo'llarini oldinga cho'zardi. Men trapdan yuqoriga yugurdim; qop ko'targanlar orqasidan siqi-

lib o'tib, Doniyorga yetib oldim. U qo'ltig'i ostidan men- ga bir qarab oldi. Betidan ter quyilib, manglay tomirlari bo'rtib chiqib, ko'ziga qon to'lib ketgan edi. Men unga ko'maklashmoqchi bo'lgan edim, Doniyor menga:

– Nari tur! – dedi zarda bilan, keyin qopni bir silkidi- da, bor kuchini to'plab, yana oldinga intildi.

Doniyor qavarib, qadoq bo'lib ketgan qo'llarini shalvi- ratib, oqsoqlanib trapdan tushganda, pastdagilar lom-mim deyishmasdan yo'l berishdi. Faqat tarozibongina o'zini tu- tolmay jahli chiqib, Doniyorni koyib ketdi:

– Nima, seni jin urdimi yo esingni yedingmi? Yoki me- ni odammas deb o'yladingmi, axir bir og'iz aytsang, pastga to'ktirardim-ku. Bunday og'ir qopni ko'tarsin, deb senga kim aytdi?

– Ishing bo'lmasin, o'zim bilaman, – dedi Doniyor se- kingina, so'ngra chirt etkizib tupurdi-da, aravasi tomon ketdi. Orqasidan Jamila:

– Hazilni tushunmagan tentak! – deb pichirlab qo'ydi.

Shunday dedi-yu, boshini yerdan ko'tara olmadi. Doni- yor buni uqdimi-uqmadimi, har qalay, yangam ikkovimiz uning yuziga tik qaray olmas edik.

Yo'l bo'yi ham birontamiz og'iz ochganimiz yo'q. Doni- yorning-ku, kamgapligi hammaga ma'lum, so'zga no'noq. Ayniqsa, bugungisiga tushunolmay hayron edik, u bizdan xafami, yuz ko'rishmaydigan bo'ldimi yo oqko'ngillik qilib, hamma gapni unutib yubordimi, bilmasdik. Bizning sukut saqlashimizning boisi bor edi: bir tomoni, uyalganimizdan yuziga qarayolmasak, ikkinchidan, hazilimizni ko'ngliga og'ir olib yurgani uchun undan xafa edik.

Ertalab g'alla qoplayotganda Jamila bu kasofat qopni oldi-da, uni chok-chokidan shir-shir yirtib yubordi.

– Ma, topgan matohingni boshingga ur! Brigadiringga aytib qo'y, ikkinchi marta bunday qoplarni bera ko'rmasin, – deb haligi yirtilgan qop parchalarini tarozibonning oldi- ga otib yubordi.

– Hoy, aqling joyidami, bu nima qilganing?

– Hech nima!..

* * *

Ertasiga har kungidek stansiyaga kelib, qosh qorayganda yana ovulga yo'l oldik. Doniyor oldinda ketib borar edi. Uning ko'nglidagi xijili yozildimi yo'qmi, bila olmadik, zotan, buni bilish oson emasdi. Xuddi o'rtamizda hech gap o'tmagandek, Doniyor indamay ishini qilaverdi. Shunisi borki, yarador oyog'i ko'proq lat yegan bo'lsa kerak, u qattiqroq oqsab, ayniqsa, qop ko'targanda qiynalib yurdi. Garchi u hech narsa demasa ham, uning yurish-turishi gunohkor ekanligimizni eslatib, ko'nglimizni og'ritar edi. Loaqal Doniyor sal-pal hazillashib, kulib qarasa ham mayli edi, ko'nglimiz ravshan tortardi.

Jamila otdan tushsa ham egardan tushmay, go'yo ko'nglida hech gap yo'qday hazil-huzul qilib yuraverdi. Lekin ichi-ichidan ezilib, xafa bo'lib yurganini aniq sezardim.

Mana, ovulga ketib boryapmiz. Latofatli ajoyib tun.

Sutdek oydin avgust kechalarini kim bilmaydi deysiz. Osmondagi yulduzlar uzoq-uzoqlardan mo'ralashsa ham go'yo ular shunday yaqindan har biri o'zicha nur sochayotgandek tuyulardi.

Yulduzlar charaqlagan shunday go'zal kechada biz dara bo'ylab kelardik. Otlar go'yo uyga shoshilayotgandek tobora tez yo'rg'alardi. Mayda shag'al ot tuyoqlari va arava g'ildiraklari ostida g'irchillab, atrofga uchib chiqardi. G'irg'ir esib turgan mayin shabada ermanning achchiq isi bilan g'arq pishgan g'allaning xushbo'y hidini dimog'ga keltirib urardi. Bularning hammasi otlarning terga botgan egarjabdug'idan chiqayotgan hid bilan qo'shilib boshni aylantirar edi. Yo'lning bir tomonida na'mataklar bilan qoplangan qoyalar qad ko'tarib turardi, yo'lning ikkinchi tomonida, pastlikda, tol va yovvoyi teraklar orasidan Gurkurov jo'sh urib oqardi. Orqada ko'prikdan taraqa-turuq qilib o'tayotgan poyezdlarning yangroq gudogi olis-olislardan ham eshitilib turardi.

Bunday so'lim tunda yo'l yurishning o'ziga yarasha gashti bor. Tun quchog'ida baliqdek suzib borayotgan otlarning yoqimli „chir-chiriga“ quloq solish, shamol di-

mog'ga urayotgan xushbo'y hidlarni to'yib-to'yib simirish qanday yaxshi!

Jamila oldimda ketib borardi. U tizginni bo'sh qo'yib, atrofiga suqlanib qarar, o'zicha allaqanday ashulani xirgoyi qilardi. Bizning og'zimizga tolqon solgandek jim kelayotganimizdan Jamilaning toqati toq bo'layotganini sezib turardim. Shunday kechada jim ketib bo'ladimi? Yuragida o'ti bor odam shunday go'zal tabiat manzarasini ko'rib jim tura oladimi?!

Yo'q, Jamila jim turolmadi, u ovozi barala qo'yib kuylab yubordi. Menimcha, uning yana bir boshqa niyati – Doniyorning ko'nglini ochib, xafachiligini yozmoqchi bo'lsa kerak. Zotan, odamlar bir-birlarining gunohlarini kechirmasmikin, deb ikkilanib turgan paytda qandaydir bir turtki kerak bo'ladi-ku. Ehtimol, Jamila shu fikrga borganidir, xullas, u bir silkinib qo'ydi-da, qalbidan qaynab chiqayotgan yangroq ovoz bilan kuylab yubordi:

*Shohi ro'moling bog'lab,
Yonimda yursang yayrab...*

Jamila bunday sho'x-sho'x laparlarni juda ko'p bilardi. Uning ashulasi kishiga orom bag'ishlardi. Jamila ashulasini bir zum bo'lib, oldinda borayotgan Doniyorga qichqirdi:

– Hoy, bo'shang yigit, ovozingni bir chiqarsang-chi! Yigitmisan o'zing?

Doniyor aravasini to'xtatdi-da, orqasiga qayrilib:

– Kuylayver, Jamila, qulog'im senda, – deb qo'ydi tortinib.

– Nima, boshqalarning qo'shiq eshitgisi kelmaydi, deb o'ylaysanmi? – dedi kesatib Jamila. – Aytmasang aytma, tarang qilishini qara-yu!

Shundan so'ng u „sen aytmasang, men aytaman“, degandek, Doniyorga o'chakishib yana ashulani oldi. Uning nima uchun Doniyorni ashula ayt, deb qistaganini bilolmadim. Gapga solmoqchi bo'ldimikin? Shunday bo'lsa kerak, chunki birozdan keyin Jamila yana iltimos qila boshladi:

– Hoy, Doniyor, umringda birovni sevganmisan? – dedi-yu, nima uchundir kulib yubordi.

Doniyor javob qaytarmadi, Jamila ham churq etmay qoldi. Dara ichiga bir nafas jimlik cho'kdi. Faqat g'ildiraklarning dukur-dukur ovozi, otlarning pishqirgani eshiltildi, xolos.

„Juda odamini topib so'rating-da“, deb kulib qo'ydim men.

Yo'lni kesib o'tib, sharqirab oqayotgan soyga yetganimizda, Doniyor aravani sekinroq haydab, ot taqalarining kechuvdagi kumushdek yaraqlagan toshlarga tegib shaqillashiga diqqat bilan quloq sola boshladi. So'ngra „chuh“ deb, otlarga bir qamchi urdi-da, birdan titroq ovoz bilan:

*Eh, Olatog', Olatog',
Ota-bobom o'sgan yer! –*

deb kuylab yubordi. Biroq u yana to'xtab, yo'talib qo'ydi, lekin keyingi ikki misrani yurakdan chiqarib zavq bilan aytdi:

*Ey, Olatog', Olatog',
Oq bulut qalqib ko'chgan yer!*

Doniyor nimadandir cho'chigandek yana jim bo'lib qoldi. Kishi degan uyalmasa-da, nima endi, shu ham ashula aytish bo'ldimi, bundan ko'ra aytmagani tuzuk edi. Xudo biladi, yuzi olov bo'lib yonib ketgandir. Negadir uning uchun o'zim ham mulzam bo'ldim.

Lekin Doniyorning shu bir og'iz kuylashida ham qandaydir bir joziba, nafosat borligi aniq sezilib turardi. Ha, ovozi ham yaxshi edi.

„Qoyilman!“ – deb qo'ydim ichimda hayratlanib. Jamila ham qichqirib yubordi.

– Iye, durustsan-ku, ilgari qayerda yurgan eding? Qani ayt, yaxshilab ayt!

Doniyor miq etmay kelaverdi. Oldimizda daradan vodiya chiqadigan joy oqarib ko'rinardi, o'sha tomondan shabada esardi. Doniyorning hali boshlagan kuyini yana

davom ettirishini sabrsizlik bilan kutardim. Doniyor yana kuylay boshladi, men o'zimda yo'q quvonib ketdim.

Doniyor avvaliga tortinib-tortinib sekin kuylay boshladi. Ammo bora-bora ovozini barala qo'yib, erkin ayta boshladi, uning ashulasi darada qo'ng'iroqdek yangrab, uzoq-uzoqlardagi qoyalarda aks sado berdi. Doniyorning qo'ng'iroqdek ovozigina emas, balki kuyning ohanraboligi, jo'shqin his-tuyg'ularga boyligi ham kishini maftun etardi. Buning nimaligini aqlimga sig'ira olmay lol bo'lib qoldim: bu ashulachining ovozi yo bo'lmasa, yurakdan qaynab chiqayotgan boshqa bir narsami? Kishi qalbining eng nozik torlarini chertib, unda ezgu niyatlar uyg'otayotgan bu nima o'zi? Rostini aytsam, bu savolga hozir ham javob bera olmayman.

Qani endi, qo'limdan kelsa-yu, bularning hammasini qog'ozga bitib o'tirmay, iloji bo'lsa o'sha ajoyib kuyning o'zginasini yaratib bersam.

Unda deyarli so'z yo'q, lekin bu kuy so'zsiz ham samimiy, sof niyatli qalb egasining butun quvonchi, umidorzulari va tilaklarini ifodalab berardi. Men umrim bino bo'lib bunday kuyni eshitgan emasman. U qirg'izchaga ham, qozoqchaga ham o'xshamasdi, biroq bu kuyga azaldan bir-biriga qondosh-jondosh bo'lgan qirg'iz bilan qozoq xalqining kuylaridagi eng nafis, eng dilrabo ohanglar singdirilgandek bo'lib tuyulardi. Bu kuy goh qirg'iz tog'laridek baland-balandlarga parvoz qilsa, goh poyoni yo'q qozoq dalalaridek uzoq-uzoqlarga taralardi. „Yo tavba, Doniyorning shunchalik ashulachi deb kim o'ylagan edi?“ – derdim men o'zimga o'zim.

Darani bosib o'tib keng dalaga chiqqanimizdan keyin, Doniyorning ashulasi qanot yozib, yana ham kuchliroq yangradi. Bu dilrabo kuy bir-biriga ulanib, bir-biri bilan almashinib borardi. Bugun Doniyorga nima bo'ldi, tinchlikmi o'zi, hech narsani tushuna olmasdim. Go'yo u shu kunni, shu damni ko'pdan beri orziqib kutgandek, qalbidagi butun sir-asrorini to'kib soldi. Doniyorning nima uchun merov odamday elga kulgi bo'lib yurganini, nima uchun kechqurunlari Qorovultepaga chiqib olib yolg'iz o'yinga

cho'mib o'tirganini, nima uchun kishi ilg'amas tovushlarga quloq osganida qoshlari chimirilib, ko'zlari quvonchga to'lganini endi bir qadar tushuna boshlagan edim. U qalbida yuksak insoniy muhabbat tug'yon urg'an bir inson edi! Menimcha, uning sevgisi biror kishiga ishq'i tushib, o'sha odamga ato qilingan sevgi emas, balki insonni yaratib, uni kamolga yetkazgan keng olamga, yorug' dunyoga bo'lgan cheksiz, jo'shqin sevgi edi! Ha, u bu sevgini o'z qalbida ardoqlab saqlagan, ana shu sevgi bilan yashagan edi. Agar u shunday yuksak qalb egasi bo'lmay, didi past, yuragi muz bir kishi bo'lganda edi, tabiat uni qanchalik iste'dodli qilib yaratgan bo'lmasin, baribir, u bunchalik kuylay olmas edi.

Doniyorning kuyi tungi dasht ustida yana jo'sh urib, mudroq dalani uyg'otayotgandek bo'lardi. Keng, bepoyon dala o'zi yaratib, o'zi ardoqlab o'stirgan qadrdon kuychisining ashulasiga jim quloq soladi. Bug'doyzor oy-dinda dengiz kabi chayqalar va mo'l hosildan darak berib, o'z o'roqchilarini kutardi. Yo'l chetida joylashgan eski tegirmon atrofidagi mirzateraklarning yaproqlari ham nimalarnidir shivirlashardi. Soyning narigi tomonida, uzoq-uzoqlarda xirmonchilar o't yoqishib, go'ja pishirmoqdalar. Huv ana, kimdir allaqanday ish bilan qishloqqa shoshib ketmoqda. Oldinda qishloq bog'i ko'rinar, shabada g'arq pishgan olmalarning, ayni gullagan makkajo'xorilarning yoqimli hidlarini hovlilarda yoyilgan tezaklarning hidiga aralashtirib, dimog'ga keltirib urardi.

Doniyor yana ancha vaqtgacha kuylab keldi. Avgust tuni uning ashulasiga mahliyo bo'lgandek jim quloq solardi. Hatto otlar ham go'yo maroqli kuyni buzishdan qo'rqqandek yurishini sekinlashtirgandi. Kishiga cheksiz orom baxsh etib, zavq-shavq bilan kuylab kelayotgan Doniyor ayni avjiga chiqqanida, birdan jim bo'lib, otlarni choptirib ketdi. O'zimcha, Jamila yana uning orqasidan ergashsa kerak, deb o'ylab, men ham hozirlanib turdim-u, biroq Jamila boshini quyi solganicha chuqur xayolga cho'mib, qimir etmay o'tirardi. U havoda uchib yurgan ashula sadolariga hamon quloq solayotgandek edi.

Doniyor shu bo'yi to'xtamay, birozdan so'ng ko'zdan

g'oyib bo'ldi. Biz to ovulga yetguncha og'iz ochmadik. Ba'zida kishi o'z dardini so'z bilan ifodalashga ojiz bo'lib qoladi.

Shu kundan boshlab hayotimizda qandaydir bir o'zgarish yuz bergandek bo'ldi. Endi ko'nglim allaqanday yaxshi narsalarni qo'msab, yuragim g'alati his-hayajonlarga to'lib, o'zimdanda o'zim xursand bo'lib yurdim. Ertalab xirmondan jo'nab, stansiyaga kelib, g'allani topshirib bo'lgach, Doniyorning sehrli ashulasini qachon eshitarkinmiz, deb ketishga shoshilar, o'sha damni sabrsizlik bilan kutar edik. Uning ashulasi yurak-yuragimga singib, qayerga bormay, qayerda turmay, qulog'im tagida jaranglayotgandek bo'lardi.

Tong saharda turib, yalangoyoq, yalangbosh shabnam tushgan bedazor orqali o'tloqdagi tushovlangan otlarning oldiga borayotganimda ham bu kuy menga hamroh bo'lardi. Tog' orqasidan mo'ralab ko'tarilgan quyosh xuddi mening quvonchimga sherik bo'lgandek jilmayib nur sochardi.

Oltin donalari kabi keksa xirmonchilarning panshaxalaridan sachrab tushayotgan bug'doy donalarining mayin shildirashida ham, ko'kada parvoz qilib yurgan yolg'iz kalxatning qanot qoqishida ham, xullas, ko'rib, uqib, sezib yurgan narsalarimning hammasidan Doniyorning kuyi eshitalayotgandek bo'lardi.

Kechqurun darada arava haydab borayotganimizda men o'zimni xuddi boshqa bir olamga kirib borayotgandek his qilardim. Ko'zlarimni yumib Doniyorning ashulasiga quloq solar ekanman, ona suti bilan qonimga singib, bir qarichligimdan tanish bo'lgan manzaralar ko'z o'ngimdan birma-bir o'ta boshlardi: goh ovulning zumrad osmonidan pag'apag'a bulutlar suzib o'tishar, goh o'tlab yurgan yilqilar uyuri dukurlashib, kishnashib yaylovda chopib qolishar, qulunlar kokillarini o'ynatib qop-qora ko'zlarini javdiratganlaricha onalarini qidirishib qolar, goh suruv-suruv qo'ylar tepaliklarda o'tlab yurishar, goh qoyalardan oqib tushayotgan shalola oynadek yarqirab ko'zlarni qamashtirar, dengizdek mavjlanib yotgan qamishzorlar orasiga cho'kib borayotgan

quyoshni lolarang ufq sari yoʻrtib borayotgan yolgʻiz otliq mana hozir qoʻli bilan ushlab oladigandek boʻlib tuyulardi, keyin oʻzi ham quyosh bilan birga butalar orasiga kirib gʻoyib boʻlardi.

Oʻ, jonajon bepoyon dalam! Qozoq jondoshimning yeri bilan payvand boʻlgan azamat dalam. Mana, togʻlarimizni ikki yoqqa ayirib tashlab, qamish va shuvoqlarga koʻmilib, buyuk bir dengizday chayqalib yotasan. Nimalarga qodir ekanligingni kim biladi sening! Qarogʻim, sirtingdan qarasa qimirlagan jon yoʻqdek boʻzarib yotganing yotgan. Ammo kechagina qon-qardoshlaring unib-oʻsgan bagʻringda urush boshlanib, dushmanlar oʻlkamizga chang solganda, quchogʻingdagi giyohlar yonib, dovyurak chavandozlarning dushman ustiga sherdek tashlanganda, musaffo osmoningni issiq chang qopladi, yer-u koʻk larzaga keldi. Oʻshanda qirgʻoqning narigi betidan ot oʻynatib kelgan qozoq xabarchisi:

– Otlan, qirgʻiz, otlan! Yov keldi! – deb saraton quyuni ichida yana qayoqqadir otini yeldek uchirib ketdi.

Oʻshanda keng dalam, daryolarim, togʻlarim larzaga kelib, oʻz elini otga mingizdi. Yigitlar jangga otlanganda osmon-u zamin titrab, yovni mahv etishga chorlab bong urildi. Minglab uzangilar bir-biriga tegib shaqirlashib, son-sanoqsiz chavandozlarning koʻzlaridan qahr va gʻazab oʻti chaqnab, el bilan, yurt bilan xoʻshlashdi. Ularning oldida qizil bayroqlar hilpirab, orqada otlarning tuyogʻidan chiqqan chang orasida onalar va juvonlar: „Keng dalamiz madadkor boʻlsin! Xosiyatli ona Yer madad bersin! Buyuk Manasning ruhi yor boʻlsin!“ – deb boʻzlab qolishdi.

Senga jonim fido, ey muqaddas dalam, togʻlarim! Elimga shu kuch-qudratni sen oʻzing berding.

Mana shularning barisini Doniyor kuyga solib, koʻz oʻngimda yorqin gavdalantirib, sermazmun keng olamning butun zeb-ziynatini, koʻrkini ochib koʻrsatdi. „Yopiray, bularning barini u qayerdan oʻrgandi ekan“, – deb hayron boʻlaman. Oʻzimcha, chet yerlarda koʻp yillar sarson-sargardon boʻlib, oʻz el-yurtini koʻrish ishtiyoqi bilan yashagan, shu quvonchli damni intizorlik bilan kutgan

odamgina o'z ona tuprog'iga shunchalik mehr qo'yishi, uni shu qadar seva olishi mumkin, degan fikrga keldim. Doniyorning bu kuylarini tinglar ekanman, uning boshpana izlab o'tkazgan mashaqqatli yetimlik yillarini ham, qonli jang maydonlarida bosib o'tgan yo'llarini ham ko'z oldimga keltirar edim. Ehtimol, uning ona-Vatan haqidagi jo'shqin kuylari o'shanda tug'ilgandir. Doniyorning ashulalarini tinglab o'tirib, inson bolasi o'z ona tuprog'ini shunchalik seva olganligi uchun ham tiz cho'kib, o'sha tuproqni xuddi o'z onangdek quchoqlab o'pging keladi. Ana shunda, birinchi marta yuragimda qandaydir yangi bir his uyg'onib, qalbimni o'rtaib, qani endi o'sha yerning muqaddasligini, uning ko'rkinini Doniyorchalik seza bilsam, seva bilsam, uning madhiyasini Doniyorchalik tarannum qilolsam, degan bir havas uyg'onganligini sezdim. Nimanidir orziqib kutardim, lekin nimaligini o'zim ham bilmasdim. Bunga ham xursand, ham xunob bo'lardim. O'shanda menda rassomlik san'atining ilk kurtaklari paydo bo'lganini, kelajakda hayotni bo'yoqlar, suratlar orqali tasvirlashga havas uyg'onayotganini bilmagan ekanman.

Men bolaligimdan surat solishni yaxshi ko'rardim, bolalar o'qish kitoblaridan ko'chirib solgan rasmlarimni ko'rishib: „Voy, xuddi o'zi-ya!“ – deyishardi. Muallimlarimiz ham maktab devoriy gazetasini menga topshirishar edi. Lekin keyinchalik surat solishni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yishga to'g'ri keldi. Urush boshlanib, akalarim armiyaga ketgach, men o'qishni tashlab, o'z tengqurlarim qatori kolxozda ishlay boshladim, o'sha vaqtlarda surat solmoq kimning ham esiga kelardi deysiz. Kelajakda rassom bo'lasan, degan o'yim yo'q edi, ammo Doniyorning kuylari meni hayajonlantirib, hayotning butun go'zalligini sezishga ilhomlantirdi...

Men o'ngimda emas, go'yo tushdagidek bu totli xayolga berilib, xuddi dunyoga yangi kelib, ko'zim endi ochilgandek atrofga suqlanib qarardim. Mening uchun bu juda katta turmush sabog'i edi.

Jamilaning o'zgarib ketganini aytmaysizmi! Oldingi sho'x, hazilkash, gapga chechan kelindan go'yo asar ham

qolmagandek edi. Uning o'ynoqi o'tkir ko'zlari endi go'yo bulutli kundagi quyosh singari negadir g'amgin boqardi. Yo'lda ketib borayotganimizda Jamila doimo chuqur o'nga tolar, lablarida bilinar-bilinmas tabassum o'ynab, u faqat o'zigagina ma'lum bo'lgan allaqanday latif bir narsadan huzur qilayotgandek, undan suyunayotgandek tuyulardi. Ba'zan esa aksincha, xayolini bir narsa buzgandek, qopni aravadan yelkasiga silkib olib, shu turganicha qotib qolar-di. U shu turishida, go'yo quturib oqayotgan suvga duch kelib, uni kechib o'tishini ham, o'tmasligini ham bilmay lol bo'lib turgan odamga o'xshardi. Doniyorga esa u nima uchundir yaqin yo'lamay, uning ko'ziga tushishdan qochib, chetlab yurdi. Jamila o'zini uni avvalgidek nazarga ilmayotgandek qilib ko'rsatishga qanchalik urinmasin, oxiri bir kuni sabri chidamay, xirmonda Doniyorga gap otdi.

– Ustingdan ko'ylagingni yechsang bo'lardi. Yuvi berrardim.

Ko'ylakni soyga olib borib yuvdi-da, quritish uchun yoyib qo'yib, burishgan joylarini tekislagan bo'lib uni ancha vaqtgacha mehr bilan siladi. Ko'ylakning to'zigan joylarini quyoshga tutib ma'yus tikilar, nimadandir koyingandek boshini chayqab qo'yardi.

Keyingi kunlarda Jamila biroz ochilib, qah-qah urib kuladigan, hazil-huzul qiladigan bo'ldi. Bir kuni beda o'rog'idan kelishayotgan bir to'p qiz-juvonlar bilan yigitlar xirmonga burilishdi. Oralaridagi armiyadan qaytib kelgan yigitlar:

– Hoy qizlar, bug'doy nonni o'zlaring yeyaverasizlarmi, qani, bizning ulushimizni beringlar, bo'lmasa hammangni suvga pishamiz! – deyishdi hazillashib va panshaxalarini o'qtalishdi.

– Bizlarni panshaxalar bilan qo'rqitilmaysizlar. Mana bu qiz-juvonlarni nima bilan mehmon qilishni o'zim bilan, sizlar tuyoqlaringni shiqillatib qolinglar, – dedi Jamila o'rnidan sapchib turib.

Yigitlarning hafsalasi pir bo'ldi shekilli:

– Unday bo'lsa, qiz-juvonning bilan baringni qo'shib suvga pishamiz, – deyishdi battar o'chakishib.

Shu zahotiy oq tapir-tupur olisha ketgan yoshlar shovqin-suron ko'tarishib, bir-birini suvga itara boshlashdi.

– Ushla, qo'yib yuborma! – deb qichqirardi Jamila, hech kimga bo'sh kelmay, ustalik bilan chap berib. Yigitlar ham shuncha qiz-juvonning ichida faqat Jamilani ko'zlari ko'rgandek, nima uchundir, hammasi ham unga yopishar, tortqilashar, har biri uni quchoqlab, bag'riga bosishga harakat qilardi. Mana, uch yigit birgalashib Jamilani yerga yiqitishdi-da, oyoq-qo'lidan ko'tarib, suv bo'yiga olib borishdi.

– Hozir hammamizni o'pasan, bo'lmasa suvga tashlaymiz! Qani, bo'l tez! – deyishib xaxolab kulishgan yigitlar uni enkaytira boshladilar.

– Qo'ymanglar, yigitlar, bo'sh kelmanglar!

Ichagi uzilib kulgan Jamila baliqdek sirg'anib, qo'ldan chiqib ketar, xotinlarni yordamga chaqirib qichqirar, lekin ular qiy-chuv ko'tarishib, o'zlarining suvda oqib borayotgan ro'mollarini ushlab bilan ovora edilar. Yigitlar xaxolashib Jamilani suvga otib yuborishdi, osmonga sachragan suv tomchilari xuddi kumush donalaridek tovlanar edi. Hali ham kulgidan o'zini to'xtata olmagan Jamila suvdan chiqib kelar ekan, uning to'zg'igan ho'l sochi yana ham chiroyiga chiroy qo'shib yuborgan edi. Chit ko'ylagi badaniga yopishib, siynasi olmaday dirkillab turardi. Jamila bo'lsa parvoyi falak, qiqir-qirir kular, ust-boshidan sirqib tushayotgan suvni ham payqamasdi.

– O'p, darrov o'p! – deb qistashardi yigitlar.

Jamila ularni o'par, yigitlar uni yana suvga otishar, u bo'lsa go'yo buni xush ko'rgandek, suvdan chiqib, sochini silkitib, yana qotib-qotib kulardi. Yoshlarning bu qilig'iga xirmonda kulmagan odam qolmadi. Xirmon sovurayotgan chollar ham o'zlarini yigirma besh yashar bo'z bolalardek his qilib, ajin bosgan yuzlari sevinchdan porlab: „Ha, ha, bo'sh kelma, ushla! Etagidan tort!“ – deb ko'pkarida ul oq tortishgandek zavq-shavq bilan qichqirishar, sharaqlab kulishardi. Men ham o'zimni to'xtata olmay, qotib-qotib kulardim. Bu safar yangamni qo'riqlash esimga ham kel-

mabdi. Birgina Doniyor indamay, qovog'ini solib o'tirardi. Unga ko'zim tushishi bilan men ham jim bo'ldim. U xirmonning bir chekkasida yolg'iz o'zi o'tirgan ekan. Doniyor yigitlarga yeb qo'yg'udek o'qrayib qarar, vajohatidan go'yo hozir yugurib borib Jamilani ularning qo'lidan ajratib oladigandek edi. Yuziga tik boqishga botinolmay, farishtadek pok deb bilgan Jamilani yigitlarning quchoqlab o'pishi, tortqilashib o'ynaganlari Doniyorning ko'ngliga juda qattiq botdi. Uning butun fikr-zikri, es-hushi Jamilaning husn-jamolida edi. Doniyor yigitlardan qanchalik qizg'anmasin, xandon otib kulayotgan Jamiladan ko'zini olmay, uning bu qilig'iga ham koyinib, ham maroqlanib, xo'mraygan qovoqlari ostidan muloyim boqib, tishini tishiga qo'yib o'tirdi. Yigitlar Jamilaga har tomondan yopishib, betlarini o'ptirganlarida Doniyor quti o'chib, turib ketmoqchi bo'lar, lekin oyoqlari itoat qilmayotgandek qimir etolmasdi. Bir vaqt Jamila uning qarab turganini payqadi shekilli, qanoti qayrilgandek bo'shashib, xiralik qilavergan yigitlarni siltab tashladi.

– Yetar, hazilning tagi zil bo'lmasin tag'in!

– Iye, senga nima bo'ldi, – deb kimdir xaxolab kulib, uni yana quchoqlamoqchi bo'lgan edi, Jamila uning ko'krigidan itarib yubordi:

– Nima ishing bor? Nari tur!

Keyin Doniyorga yalt etib bir qaradi-da, ko'ylagini siqqani butalar orasiga kirib ketdi.

Doniyor bilan Jamila o'rtasidagi munosabatning qanday oqibatlariga olib kelishini o'shanda men bilmagan edim. Rostini aytsam, bu haqda chuqurroq o'ylashga qo'rqib, ko'pincha o'zimni boshqa narsalarga alahsitishga harakat qilardim. Lekin Jamilaning Doniyordan chetlab yurgani va bunga o'zi yana ich-ichidan kuyungani negadir ko'nglimni g'ash qilar edi. Bundan ko'ra ilgarigidek hazillashib yuraversa bo'lasmidi? O'zim shunday deyman-u, biroq kechalari ovulga qaytayotganimizda Doniyorning ashulasini eshitarkanman, ularni o'ylab, qalbim quvonchga to'lib-toshar, haligi g'amgin o'y-fikrlar xayolimdan ko'tarilib, dunyoning butun lazzati shu ashulada deb bi-

lardim. Daradan o'tib, daryo bo'yiga chiqqanimizda Jamila aravadan tushib, piyoda yurardi. Men ham aravadan tushib yurardim, yayov yurib, miriqib kuy tinglaganga nima yet-sin! Bunday paytda yo'ldagi chang-to'zonlar orasida emas, xuddi osmonda, bulutlar qo'ynida ketib borayotgandek bo'lasan kishi! Avval yangam ikkalamiz aravalarimiz yonida boramiz, so'ngra asta-sekin beixtiyor Doniyorga yondashib qolganimizni o'zimiz ham sezmay qolamiz. Qandaydir sehrlil bir kuch bizni Doniyor sari yetaklardi. Qorong'ida uning yuz ifodasini, ko'z qarashini ko'rishni istardik, nahotki shu qadar yurak bilan kuylayotgan kishi o'sha o'zimizning kamgap, odamovi Doniyor bo'lsa! Yuragi talpinib, kuydan orom olgan Jamila har doim unga yaqinlab borganida Doniyor tomon sekin qo'l cho'zganini o'zi ham sezmay qolardi. Lekin zavq-shavq bilan kuylayotgan Doniyor buni payqamas edi. Uning o'y-xayoli qayerdadir, osmonda kezib yurgandek uzoq-uzoqlarga ko'z tikib, qo'llarini ko'ksiga qovushtirgancha, kuy ohangiga chayqalib o'tirardi. Jamilaning qo'li shilq etib tushib, arava chetiga tek-kanda xuddi hushiga kelgandek qo'lini tortib olar va yo'l o'rtasida serrayib turib qolardi. Jamila hang-u mang bo'lib, anchagacha Doniyorga mo'ltayib qarab turar, keyin yana qadam tashlardi.

Ba'zan menga yangam ikkovimizni ham bir xil, allaqanday ajib his-tuyg'u hayajonga solayotgandek bo'lib tuyulardi. Ehtimol, bu his-tuyg'ular ikkovimizning ham qalbimizda ko'pdan buyon yashirinib yotib, endi vaqt-soati kelib tug'yon urayotgandir.

Jamila ish bilan alahsirab, uncha sir boy bermaslikka harakat qilardi. Lekin xirmonda qolib, qo'li ishdan bo'shadi deguncha, Jamila o'tirgani joy topolmay kalovlanib qolardi. Bekorchilikdan nima qilarini bilmagan odamdek shu o'rtada aylanib yurar, so'ngra xirmon sovurayotganlarning yoniga borar, ularga yordamlashmoqchi bo'lib, uch-to'rt kurak g'alla tashlardi-da, keyin birdan kurakni chetga irg'itib, somon g'arami oldiga ketardi. U dam olmoqchi bo'lgandek g'aram soyasiga o'tirardi-yu, go'yo yakka-yolg'iz o'tirishdan qo'rqqandek meni chaqirardi:

– Bu yoqqa kel, kichkina bola!

Men, yangam hozir menga butun sir-asrorini ochib, yuragidagi dardini aytsa kerak, deb kutardim. Lekin u hech narsa aytmas, erkalatib boshimni o'z tizzasiga qo'yardi-da, o'zi olis-olislarga uzoq tikilganча qaltiragan issiq kaftlari bilan sochimni, yuzimni sekin-sekin silardi. Men yangamning tashvishli, g'amgin chehrasiga qarar ekanman, negadir o'zimni unga o'xshatardim. Chunki uning ham qalbini allaqanday bir hissiyot o'rtayotganini, uning ham yuragida yangi umid-orzular uyg'ona boshlaganini sezib qolgandim. Nazarimda, Jamila bu otashin hisni qalbidan chiqarib tashlashga urinayotgandek bo'lardi. Biroq o'z sevgisini tark etolmay, uning barcha zahmatlariga chidashga majbur bo'lardi. Men ham bunga o'xshab, bir ko'nglim Jamila Doniyorni sevsa yaxshi bo'lardi, desa, bir ko'nglim, sevmagani yaxshi, derdi. Axir ming qilsa ham kelinimiz-ku, akamning xotini-ku. Uni birovga qanday ravo ko'ray. Biroq bu xil fikrlarni darrov xayolimdan chiqarib tashlashga harakat qilardim. Jamilaning tizzasiga bosh qo'yib yotib, uning sal ochilgan g'uncha lablariga, yosh to'la shahlo ko'zlariga termilib qarash menga dunyo-dunyo rohat bag'ishlar edi. Jamila o'shanda naqadar go'zal, naqadar latofatli edi. Qalbining naqadar pok, beg'uborligi, o'y-xayollarining naqadar teran, yorqin ekanligi uning nur yog'ilib turgan chehrasidan ko'rinib turardi. O'sha kezlarda men shularning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rib yurgan bo'lsam ham, ammo tub mohiyatiga uncha tushunib yetmagan edim. Lekin hozir oradan qancha vaqtlar o'tib ketganidan keyin o'sha voqealarni eslab, ko'pincha o'zimga o'zim savol beraman: balki sevgi degan narsa – inson har tomonlama kamolotga yetib, aql-idroki to'lgandan keyin paydo bo'ladigan bir tuyg'umikin? Bu ham shoir yoki rassom ilhomiga o'xshab insonga kuch-qudrat bag'ishlab, yangi orzu-umidlar, istiqbol sari yetaklovchi bir kuch emasmikin? Ehtimol, oshiqlikning butun siri ham shundadir. Jamilaning yuziga qarab, ba'zi paytlarda o'zim ham his-hayajonlariga sherik bo'lgandek, qandaydir sirli bir narsa yuragimga quvonch bag'ishlagandek

bo'lar edi. O'rnimdan sapchib turib, yugurgim kelar, ovul chetidagi keng dalaga chiqib, yuragimga g'ulg'ula solayotgan tashvish bilan quvonchning siri nimadaligini yer va samodan qichqirib so'ragim kelardi. Bir kuni men bu savolimga javob topgandek bo'ldim.

Kunlardan birida biz stansiyadan ovulga qaytib kelayotgan edik. Qosh qorayib qolgandi. Ko'kda yulduz jimirlar, atrof jim-jit bu sukunatni Doniyorning vodiy bo'ylab yangragan ashulasigina buzadi. Jamila ikkovimiz uning orqasidan borardik. Doniyorning ashulasi bu safar negadir yolg'izlik dard-alamlarini ifoda qilgandek juda mungli eshilib, kishi qalbini poralar edi. Ko'zimga qaynoq yosh kelib tomog'imga bir narsa tiqilgandek bo'ldi. Jamila bu safar qo'llarini Doniyor tomon uzatib, unga yaqin bordi-da, aravaga suyanib, boshini quyi solganicha indamay ketaverdi. Doniyorning ovozi tobora kuchayib, tungi dashtda yangidan to'lqinlana boshlaganda, Jamila qaddini rostlaganicha aravaga sakrab chiqib oldi. U Doniyor bilan yonma-yon o'tirdi-da, qimirlashdan qo'rqqandek, qo'lini ko'ksiga qovushtirganicha qotib qoldi. Qani bu yog'i nima bo'larkin, degandek, men ham ulardan ko'zimni uzganim yo'q. Jamilaning chiqib o'tirganini Doniyor payqamadi shekilli, unga qaramay kuylayverdi. Birozdan so'ng Jamila qo'llarini asta-sekin Doniyorning yelkasiga tashladi-da, unga suyanib, boshini yelkasiga qo'ydi. Shunda Doniyorning tovushi bir zum titradi-yu, keyin yana ham kuchayib, qo'ng'iroqdek yangradi. U sevgi haqida kuylardi.

Tong otib, gullagan vodiy yuzidan qora parda ko'tarilganda men o'sha keng dala o'rtasida sevishgan ikki yoshni ko'rdim.

Ular menga hech nazar solmasalar ham ko'z ostidan qarab, sehrlangandek ergashib borardim. Sevishganlar men bilan ishi bo'lmay, faqat menigina emas, balki butun borliqni ham unutilib yuborgandek, jonga orom beruvchi kuy oqimida chayqalib, bir-biriga termilishib sekin borishardi. Nazarimda, Doniyor bilan Jamila butunlay boshqacha bo'lib qolgandek edi.

Bular men ilgari koʻrmagan-bilmagan qandaydir yangi, baxti kulib boqqan kishilar edi.

Ha, ularning biri koʻzi qorongʻida oʻtdek yonib, eski koʻylagining yoqasini ochib yuborib, dala-dashtga yangroq kuy taratib borayotgan Doniyor edi.

Ha, ikkinchisi, Doniyorga erkalanib jimgina oʻtirgan mening yangam Jamila edi! Uning kipriklarida sevinch yoshlari miltirar, yuzida baxt nuri porlar edi.

Chinakam baxt shu emasmi? Doniyor oʻzidagi ona-Vatanga, yorugʻ dunyoga boʻlgan otashin, yuksak mehr-muhabbatini ham, ana shu ulugʻ sevgi tugʻdirgan dilra-bo kuyni ham Jamilaga tortiq etdi. U Jamila uchun, Jamila haqida kuylardi. Axir baxt degani shu emasmi?! Ularga yuragimdan baxt-saodat tiladim. Doniyorning kuylari meni yana hayajonga soldi-da, birdan, kutilmaganda miyamga gʻalati bir fikr keldi: „Men ularning suratini chizaman!“ – dedim oʻzimcha va goʻyo nodir bir narsa topib olganday oʻzimda yoʻq suyunib ketdim. Lekin shu zahoti oʻz fikrimdan oʻzim choʻchib ketdim: „Bu ish mening qoʻlimdan kelarmikin, eplay olarmikinman?“ Lekin orzu-istak qoʻrquvdan kuchli keldi. „Ha, men ularning suratini albatta chizaman, men ularni xuddi hozirgidek baxtiyor qilib tasvirlayman!“ – derdim.

Men shunday shirin orzu-xayollar ogʻushida mast boʻlib, atrofga nazar tashlar ekanman, avgust tuni koʻzimga yana ham goʻzal koʻrinib, dala gullab yashnayotgandek boʻlib tuyulardi. Orzu-niyatimga xuddi hozir yetadigandek boʻlardim. Lekin endi bilsam, oʻshanda juda gʻoʻr, yosh bola ekanman, kelajakda qanchadan qancha qiyinchiliklarga duch kelishimni bilmagan ekanman. Men oʻzimga, ona Yerni Doniyor koʻzi bilan koʻra bilish, Doniyor qalbi bilan seva bilish kerak, derdim. Men uning ajoyib ashulalarini boʻyoqlar yordamida hikoya qilib beraman. Menda ham oʻsha togʻlar, dalalar, maysazorlar, bulutlar, daralarning jonli tasviri beriladi. Buning uchun juda katta mahorat kerakligini oʻylamay, „boʻyoqlarni qayerdan olsam ekan, maktabdan soʻrasam berishmas, axir oʻzlariga kerak-ku!“ – deb tashvishlanib yurardim. Endi bilsam,

o'shanda chuchvarani xom sanab, bolalik qilib yurgan ekanman.

Doniyorning ashulasi nima uchundir birdan uzilib qoldi. Bunday qaragam, Jamila Doniyorni mahkam quchoqlab, uni bag'riga bosib olgan ekan. Biroq shu zahotiyoq nimadandir cho'chigandek tisarilib, aravadan sakrab tushdi. Doniyor shoshib qolganidan tizginni tortib aravani to'xtatdi. Jamila teskari qaraganicha yo'lning qoq o'rtasida serrayib turib qoldi, so'ng boshini shartta burdida, yig'i aralash:

– Nega qaraysan? Menda nima ishing bor? Qarama menga, aravangni hayda, jo'na! – dedi-da, orqada qolgan aravasi tomon ketdi. Men lol bo'lib, og'zimni ochib qolgan ekanman, yangam meni ham koyib berdi:

– Xo'sh, sen-chi, sen nega angrayib turibsan, aravangga min! Boshimga bitgan balo bo'ldilaring-da!

„Qiziq, unga nima bo'ldi, chap yoni bilan turganmi“, – deb o'ylardim yo'l-yo'lakay. Albatta chuqurroq o'ylagan odam Jamilaning rostdan ham iztirob chekayotganini izohsiz ham tushunar edi: ko'z ochib ko'rgan eri Saratov hospitallaridan birida yotsa, yaqinda qaytib boraman, desa, axir bu oson gapmi? Men hech narsa to'g'risida o'ylagim kelmasdi. Men o'zimdan ham, Jamiladan ham xafa bo'ldim, agar Doniyorning bundan keyin ashula aytmasligini, uning ovozi boshqa eshitmasligimni aniq bilsam, Jamiladan butun vujudim bilan nafratlangan bo'lardim.

Hozir o'lgudek charchab, ko'nglim negadir g'ash bo'lib, tezroq xirmonga yetib, somonga cho'zilsam derdim. Arava tinmay silkinib, tinkani quritar, tizgin qo'limdan chiqib-chiqib ketardi. Xirmonga yetib kelganimizda bir amallab otlarning xomutlarini yechdim-da, ularni aravaning tagiga tashlab, keyin somon g'arami ustiga borib cho'zildim. O'sha kecha otlarni Doniyor tushovlabdi.

Lekin ertalab juda xursand bo'lib turdim, ko'nglim musaffo tong singari ravshan, quvonchga to'la edi. Ha, men Jamila bilan Doniyorning suratini chizaman. Lekin „O'xshata olarmikinman?“ – degan gumon butun miyamni chulg'ab olgan edi. Ko'zimni yumib, ularni qanday

tasvir qilmoqchi bo'lsam, ana o'shanday tasavvur etdim. O'rnimdan irg'ib turdim-da, kattakon soy bo'yiga tushib, qo'l-betimni yuvdim. Keyin o'tloqqa tushovlangan otlarni ko'zdan kechirdim. Ertalab shudring tushgan muzdek beda oyoqlarimni savalab, tizzamgacha shilta ho'l qilgandi. Lekin men buni pisand qilmay, oldinga chopib borar, tevarak-atrofdagi har bir narsani sinchiklab ko'zdan kechirar, yodimda saqlab qolishga urinar edim. Mana, quyosh tog' orqasidan ko'tarilib kelar, ariq bo'yidagi yolg'iz kungaboqar esa unga tomon bo'y cho'zardi. Uni kakralar o'rab olgan, biroq kungaboqar bo'sh kelmay ko'kka intilar, sariq gulli boshlarini mag'rur ko'tarib, quyosh nurini simirardi. Mana, ariqning arava o'tgan joyidan – g'ildiraklar izidan suv jimirlab oqmoqda. Suv o'rtasida ko'karib turgan binafsharang yalpizdan atrofga muattar hid taralardi.

„Qani endi rassom bo'lsam-u, musaffo go'zal tongni, ko'k bilan o'pishgan azamat tog'larni, shudring qo'ngan ko'm-ko'k bedazorni, ariq bo'yidagi bir tup kungaboqarni suratga solsam!“

Biroq xirmonga kelishim bilan bu shirin xayollarimdan asar ham qolmay, ko'nglim g'ash bo'ldi. Aftidan, Jamila o'tgan kechasi uxlamay chiqqan bo'lsa kerak, ko'zlari kirtayib, qovog'idan qor yog'ib turardi. Menga u hech narsa demadi, qayrilib qaramadi ham. Xirmonga brigadir O'rozmat kelib, endi otidan tushayotganida, Jamila uning yoniga bordi-da, salom-alik ham qilmay, tomdan tarasha tushgandek gapirib qoldi:

– Aravangizni oling! Qayoqqa yuborsalaring ham mayli, lekin stansiyaga g'alla tashimayman!

– Iye, senga nima bo'ldi, Jamilaxon, jin tegdimi? – dedi O'rozmat hazillashib.

– Jin tekkani yo'g'-u, lekin bormayman dedimmi, bormayman.

O'rozmatning jahli chiqdi:

– Bu gapingni qo'y, g'alla tashiysan, vassalom! – dedi u qo'ltiqtayog'ini yerga do'q etkizib urib. – Agar birov xafa qilgan bo'lsa, ayt, mana shu tayog'im bilan gardaniga bir tushiray. Bo'lmasa, ishingga jo'na. G'alla menga emas,

frontga kerak, ering ham frontda-ku.- Brigadir jahl bilan shartta burildi-da, tez-tez odimlab ketdi.

Jamila g'ing deyo olmay, qo'lidagi qamchinini o'ynatib, aybdor odamdek, qizarganicha turib qoldi. Berigi yoqda turgan Doniyorni ko'rdi-yu, sir boy bermay, og'ir xo'rsinib qo'ydi. Doniyor hamma gapni eshitdi-yu, lekin sezdirmadi. U teskari qaragancha xomut iplarini qattiq tortib bog'lay boshladi. Jamila ham xirmon o'rtasida birpas turdi-da, so'ng: „E, nima bo'lsa bo'lar“, degandek qo'l siltab aravasi tomon ketdi.

O'sha kuni biz ovulga har kungidan barvaqt qaytdik. Chunki borayotganda ham, kelayotganda ham Doniyor otlarini zovtalab haydab bordi. Jamila g'amgin, gapirmas edi. Men qaqragan biyday dalani ko'rib ko'zlarimga ishonmasdim: axir kuni kecha u xuddi afsonalarda tasvirlangandek gullab yashnab turgandi-ku... Kechagi ajoyib manzara, Doniyor bilan Jamilaning aravada yonma-yon o'tirganlari sira ko'z o'ngimdan ketmas edi. Go'yo hayotning eng go'zal bir lavhasini qo'limda ushlab turgandek bo'lardim. O'sha ajib bir lavha butun fikr-yodimni band qilgan edi. O'ylagan maqsadimga yetmagunimcha jonim tinchlik topmaydigandek edi. Xirmondagi hisobchining bir varaq qalin qog'ozini o'g'irlab olib, g'aram orqasiga yashirib, g'alla sovradigan kurak ustiga qo'yganimda yuragim chiqib ketayotgandek dukullab, bo'g'zimga tiqildi. Otam meni birinchi marta ot ustiga mingizgandagi kabi „Bismillo!“ dedim-da, qalamni qog'ozga tekkizdim. Ana-mana deguncha Doniyorning qiyofasini qog'ozga chiza boshladim. Lekin bu hali mukammal bo'lmagan, shunchaki o'rgamchikka chizilgan surat edi. Lekin Doniyorning qomati o'ziga ancha o'xshay boshlaganida boshim ko'klarga yetib, u yerdaligimni, nima ish qilayotganimni ham unutib qo'ydim. O'sha avgust tuni, yastanib yotgan bepoyon dala qog'oz betida jilolangandek, Doniyorning dilrabo kuyi hozir ham qulog'im ostida jaranglab turgandek bo'ldi. Ko'z o'ngimda soldatcha ko'ylagining yoqasi ochiq Doniyor bilan uning yelkasiga bosh qo'ygan Jamila gavdalandi. Bu mening umrimda birinchi marta chizgan mustaqil suratim edi! Mana arava,

mana yonma-yon o'tirishgan Doniyor bilan Jamila, mana, bo'sh tashlab qo'yilgan tizginlar, mana, qorong'ida sag'risi zo'rg'a ko'rinib yo'rtib borayotgan otlar, undan narida biyday dala, uzoq-uzoqlarda yulduzlar miltillaydi... Ishga shunchalik berilib ketibmanki, kimningdir tepamga kelib jahl bilan qichqirganidan hushimga keldim. Qarasam, Jamila ekan:

– Nima balo, kar bo'lib qoldingmi?

U meni izlab yurgan ekan, shoshganimdan suratimni berkitishga ham ulgurolmay qoldim.

– Bug'doyni allaqachon yuklab bo'ldik, bir soatdan beri qichqiramiz-a, ovozing chiqsa-chi!.. Qo'lingdagi nima? – deb Jamila suratni mendan tortib oldi va: „Bu nima qiliq!“ – deb avzoyi buzilib, qog'ozga termilganicha qoldi.

O'shanda xijolatdan juda mulzam bo'ldim. Jamila suratga uzoq tikilib turdi-da, keyin yoshlangan ko'zlari bilan menga ma'yus boqib:

– Shuni menga bergin-a, kichkina bola! – dedi u sekingina. – Sendan menga yodgor...

Jamila surat solingan qog'ozni ikki buklab qo'yniga solib qo'ydi.

Biz yo'lga chiqib ovuldan ancha uzoqlashib ketguncha o'zimga kela olmadim. Qalbimni shu qadar to'lqinlantirgan o'sha lavhani chindan ham qog'ozda aks ettira oldimmi yoki bu bir tush – xayolmi, deb gumonsiradim. Lekin shunday bo'lsa ham qalbimning chuqur bir joyida chizgan suratimdan faxrlanish hissi uyg'onib, yuragim sevinchdan to'lib-toshar, yaqinda bo'yoq topsam, juda ko'p suratlar chizib maktabga ilib qo'yardim, degan shirin xayollar meni mast qilardi. Endi bilsam, bu bolalikka xos bir fazilat ekan. Men o'z xayollarim bilan band bo'lib, juda tez ketayotganimizni ham payqamabman. Chunki oldinda borayotgan Doniyordan orqada qolmaylik, deb Jamila otlarga ustma-ust qamchi urardi. Keyingi paytlarda Doniyor aravasini har qachongidan ham tez haydaydigan bo'lib qolgandi.

Jamila Doniyor bilan yonma-yon borardi. U goh o'ngga, goh so'lga qarar, ba'zan esa biron ayb ish qilib qo'ygan-dek ayanchli jilmayib turardi. Buni ko'rib men ham jilma-

yardim va: „Chizgan suratim yangamga yoqdi shekilli, xafaligi tarqab, ko'ngli yozildi. Jamila Doniyorga ashula ayt desa, u albatta aytib beradi... Demak, bugun Doniyorning ashulasini maza qilib tinglar ekanman-da... Eh, tezroq ayta qolsa ekan“, – degan o'y ko'nglimdan kechardi!

Bu safar biz stansiyaga ancha barvaqt yetib keldik, lekin otlarimiz qora terga tushib ketgan edi. Tarozi ham bo'sh ekan, Doniyor aravadan tusha solib, qoplarni tashiy boshladi. Uning buncha shoshib-pishib ishlashiga, indamay tumshayib yurganiga hayron edik. Poyezdlar o'tganda, Doniyor to'xtab qolib, ularning orqasidan uzoq vaqt qarab turar, negadir chuqur o'ylanib qolardi. Jamila ham go'yo uning ko'nglidagini bilmoqchi bo'lgandek, Doniyor boqqan tomonga qaradi. Jamila aravasining yoniga borib Doniyorni chaqirdi:

– Beri kel-chi, Doniyor, qashqa otning taqasi tushay deb turibdi, shuni yulib tashlagin.

Doniyor otning tuyog'ini tizzalari orasiga qisib, taqani yulib olib, qaddini rostlayotganida Jamila sekin shivirladi:

– Nima, hech narsani tushunmaysanmi deyman? Yo mendan boshqa qiz-juvon qurib qolganmi.

Doniyor qiyo boqdi-yu, lekin hech narsa demadi.

– Nima, menga oson deb o'ylaysanmi? – dedi Jamila xo'rsinib.

Doniyor Jamilaga mehr bilan boqib, allanima dedi-yu, lekin men eshitmay qoldim, chunki yuganidan ushlab turgan otim boshini siltab pishqirib yubordi. Doniyor nimadandir mamnun bo'lgandek qo'lidagi taqani silab, o'z aravasi tomon ketdi. Men unga qarab, nahotki uning yuragi Jamilaning haligi so'zlaridan taskin topdi ekan, deb hayron bo'lardim. Axir „Menga oson deb o'ylaysanmi?“ – degan so'zining nimasiga xursand bo'ladi?

Biz qoplarni tashib bo'lib, endi ovulga qaytmoqchi bo'lib turganimizda, hovliga egniga g'ijimlangan eski shinel kiygan, yelkasiga xalta ilib olgan bir oriq yarador soldat kirib keldi. Undan sal oldin stansiyaga bir eshelon kelib to'xtagan edi. Haligi soldat chor atrofga alang-jalang qaradi-da:

– Gurkurov ovulidan kim bor?! – deb qichqirdi. Bu kim bo‘ldiykin, deb o‘yladim-da:

– Men Gurkurovdan bo‘laman, – dedim.

Soldat quvonib ketdi-da:

– Kimning bolasisan, ukajon? – deb so‘rab oldimga kelmoqchi bo‘lgan edi, birdan Jamilaga ko‘zi tushib, turgan joyida dong qotib qoldi.

– Karimmisan? – dedi Jamila shodlanib.

– Voy, Jamila, singiljonim! – deb soldat Jamilaning yoniga yugurib borib, u bilan qo‘sh qo‘llab ko‘rishga ketdi.

Bu kelgan yigit Jamilaning uzoq qarindoshi, hamqishlog‘i ekan.

– Buni qara, xuddi bilgandek shu yoqqa qayrilibman-a! – dedi u hayajon bilan, – Sodiqning yonidan chiqqanimga atigi besh kun bo‘ldi, gospitalda u bilan birga yotdik, Xudo xohlasa, u ham bir-ikki oyda kelib qoladi. Men kelayotganimda xotiningga xat yozib ber, o‘z qo‘lim bilan topshiray, deb xat yozdirib olgandim... Juda yaxshi qilgan ekan-manda, mana, omonatingni ol! – deb xursand bo‘lib, soldat shinelining ichidan uchburchak xatni olib, Jamilaga uzatdi. Jamila xatni shosha-pisha oldi-da, quvonganidanmi yo uyalganidanmi, avvaliga qizarib, so‘ngra rangi quv o‘chib, indamay Doniyorga ko‘z qirini tashladi. U boyagi xirmondagidek oyoqlarini kerib, aravasining yonida yolg‘iz turarkan, Jamilaga ma‘yus boqardi. Bu orada har tomondan yugurib kelishgan kishilar soldatni o‘rab olib, ba‘zisi qarindosh, ba‘zisi hamqishloq chiqib, hol-ahvol so‘rashib qolishdi. Jamila o‘z hamqishlog‘iga minnatdorchilik bildirishga ulgurmagan ham ediki, Doniyor uning yonidan aravasini taqir-tuqur qilib o‘tdi-da, chang-to‘zon ko‘tarib yo‘lga tushdi. Kishilar uning orqasidan:

– Nima balo, uni jin urdimi? Esi joyidami o‘zi? – deb qichqirib qolishdi.

Soldatni ham tanish-bilishlari olib ketishdi shekilli, hovlida yangam ikkalamizdan boshqa hech kim qolmabdi. Biz Doniyorning aravasi ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha, olisda ko‘tarilayotgan changga qarab turdik.

– Yur, yanga, uyga ketaylik, – dedim men.

– O‘zing ketaver! – dedi Jamila.

Ana shunday qilib, biz birinchi marta alohida-alohida ketdik.

Havoning dimligidan nafas olish qiyin edi. Yerdan ko‘tarilgan harorat lablarimni qavartirib, tomog‘imni quritib yubordi. Jazirama quyosh nuri ertalabdan kuydirib, qovjiratib yotgan yer endi sho‘rxok tuz bilan qoplanib, asta-sekin soviyotgandek bo‘lardi. Quyosh sho‘rxok yerdan ko‘tarilayotgan sarob singari parda ichida ufq sari cho‘kib borardi.

Uzoqda, ufq tepasida qizilsur bulutlar yig‘ila boshladi. Ba‘zan kuchli garmisel esib, otlarning tumshuqlariga chang aralash oqish sho‘rxoklarni keltirib urar hamda ularning chang bosgan yol va dumlarini yulqib, yo‘l bo‘yidagi ermanlarni uchirib ketardi.

„Yomg‘ir yog‘adi shekilli“, deb o‘yladim. Shunda yol-g‘izlik dardi ichimni o‘rtab, allanimadan qo‘rqqandek otlarni jadal haydab ketdim. Mengina emas, hatto uzun oyoqli tuvaloq qushlar ham bir narsadan cho‘chigandek qamishzorlar orasiga kirib yashirinishdi. Shamol jazirama issiqda qovjiragan qariqiz yaproqlarini allaqayerlardandir yo‘l ustiga uchirib kelardi. Biz tomonlarda bunday o‘simliklar o‘smaydi. Chamamda, bu yaproqlar qozoq cho‘llaridan uchib kelgan bo‘lsa kerak. Tevarak-atrofdagi qimirlagan jon yo‘q. Doniyor ham ko‘rinmaydi, orqada qolgan Jamiladan ham darak yo‘q. Quyoshning oxirgi nuri ham so‘ndi. Toliqqan dala ham mudrab uyquga ketdi.

Men xirmonga qosh qorayganda yetib keldim. U yer tinch, g‘ir etgan shabada yo‘q. Doniyorni chaqirgan edim, qorovul javob berdi.

– U soyga ketdi, nima ishing bor edi? – dedi-da, so‘ngra bir yutinib olib, o‘zicha ming‘illadi. – Havoning dimligini-chi, hamma uy-uyiga ketdi. Shamol bo‘lmasa, xirmonda ish bo‘larmidi...

Otlarni bedazorga tushovlab, soyga burildim. Doniyor odatdagidek tik tushgan jar tepasida tizzasini quchoqlab, boshini quyi solganicha jar ostida suvning shovullab oqishiga quloq solib o‘tirardi. Uning muztar bo‘lib o‘tiri-

shi yuragimni ezib yubordi. Doniyorning yoniga borib, uni mahkam quchoqlab, tasalli bermoqchi, iliq soʻzlar bilan koʻnglini koʻtarmoqchi boʻldim. Lekin nima ham deya olardim, uni qanday yupataman axir. Anchagacha ikkilanib turdim-da, soʻngra xirmonga qaytib ketdim.

Oʻshandan keyin gʻaram ustida yotib ancha vaqtgacha uxlay olmay, osmonni qoplab kelayotgan bulutlarga qarab xayol surib ketdim. „Inson hayoti nega bunchalik murakkab, sira tushunib boʻlmaydi-ya“. Jamilaning boʻlsa hamon daragi yoʻq. Nega buncha hayalladi ekan, qayerlarda yurganikin, deb aravaning gʻildirak tovushlarini eshitishga zor boʻlib quloq solib yotdim. Qattiq charchagan boʻlsam ham sira uyqum kelmadi. Togʻlar tepasidagi bulutlar orasidan yashin yalt-yult etib chaqnardi.

Doniyor kelganda hali uygʻoq edim. U nima qilarini bilmay, qayta-qayta yoʻlga qarab, xirmonda biroz aylanib yurdi-da, soʻngra yonimga kelib, oʻzini yuztuban otdi.

„Endi u ovulda qolmaydi, boshini olib ketsa kerak“, deb oʻylardim. Lekin bechora qayerga ham borardi? Boshpanasiz bir musofir kimga ham kerak? Bechoraga qiyin boʻldida, endi nima qilar ekan?

Endi koʻzim ilingan ekan, xirmon tomondan arava tovushi eshitildi. „Jamila boʻlsa kerak“, – deb oʻyladim uyqu aralash.

Qancha uxlaganimni bilmayman, bir vaqt naq qulogʻim tagida shitirlagan tovush eshilib, birov kelayotgandek boʻldi. Qanot serpigandek qandaydir bir sovuq narsa betimni silab oʻtdi. Koʻzimni ochsam Jamila ekan. Choʻmilib kelgan boʻlsa kerak, koʻylagini ham hoʻllab olibdi, shuning uchun ham yonimdan oʻtayotganida salqin shabada esgandek boʻldi. Jamila toʻxtab qoldi-da, u yoq-bu yoqqa alanglab, Doniyorning bosh tomoniga oʻtirdi.

– Doniyor, mana men oʻzim keldim! – dedi u sekin shivirlab.

Atrof jimjit, osmonni gumburlatib yashin chaqnadi.

– Xafa boʻldingmi? Qattiq xafa boʻldingmi?

Yana jimlik choʻkdi, qirgʻoqdan tuproqning suvga „shoʻlp“ etib tushgani eshitildi.

– Lekin mening aybim nima? Senda ham gunoh yo‘q.

Tog‘lar ustida yashin gumburladi. Jamila cho‘chib yalt etib qaraganida, yashin uning yuzini yoritib yubordi. Jamila atrofga bir qaradi-da, o‘zini Doniyorning ko‘ksiga tashladi, uning yelkasi Doniyorning baquvvat qo‘llari ostida dir-dir uchardi. Jamila ham g‘aramga cho‘zilib Doniyor bilan yonma-yon yotdi.

Kuchli shamol somonni ko‘kka sovurib, xirmon chetida qiyshayib turgan o‘tovni yalab o‘tdi-da, quyun bo‘lib osmonga ko‘tarildi. Chaqmoq bulutlar orasida ko‘kimtir iz qoldirib, qarag‘ay singandek qasira-qusur qilib hamma yoqni larzaga soldi. A‘zoyi badanim titrab, ham qo‘rqib, ham quvonib ketdim. Momaqaldiroq, yozning oxirgi momaqaldirog‘i yopirilib kelar, ilk nafasi dimog‘ga urilardi. Endi Jamilani hech qanday kuch to‘solmasdi. U Doniyorga sekin shivirladi:

– Chindan ham gumonsiradingmi, nahotki, men seni unga almashtirsam! U meni hech qachon sevgan emas, sevmaydi ham! Mayli, kim nima desa deyaversin, lekin men senikiman! Yolg‘izim, azizim, men seni hech kimga bermayman. Men seni ko‘pdan beri sevaman. G‘oyibona oshiq bo‘lib kelishingni intizorlik bilan ko‘zim to‘rt bo‘lib kutgandim. Kutganligimni bilgandek, mana, sen ham meni izlab kelding.

Jarlik orqasidagi soy qirg‘oqlaridan ivib, suvga qulab tushayotgan tuproq chaqmoq yorug‘ida ko‘rinib turardi. Dastlabki yirik yomg‘ir tomchilari somon ustiga shitirlab yog‘a boshladi.

– Jamilam, jonginam, sevgilim, Jamilaxon! – deb Doniyor qirg‘izcha va qozoqcha eng nafis so‘zlar bilan o‘z ma‘shuqasini erkalatardi, – men ham seni ko‘pdan beri sevib yurardim. Umrimde ko‘rmagan bo‘lsam ham okoplarda yotib seni o‘ylardim. Sevgan yorim Vatanimda ekanligini bilardim. Bu sen ekansan, Jamilam!

– Shunqorim, mard lochinim! Bu yoqqa qara-chi, ko‘zlaringga to‘yib boqay!

Yomg‘ir sharros quyib berdi. Qora uy tepasiga yopilgan namatlar xuddi qanot qoqqan qushdek shamolda uchib ketdi. Goh qiyalab, goh tik quygan jala yerni orziqib kutgandek ustma-ust o‘pard. Ketma-ket momaqaldiroq gum-

burlab, butun osmon qa'rini tilib o'tgandek bo'lardi. Uzoq-uzoqlardagi tog'lar bahor lolalaridek qizarib ko'rinardi.

Yomg'ir kuchaya bordi. Men bo'lsam, somonga ko'milib olib, yuragimning duk-duk urishini sezib yotardim. Men nihoyatda baxtiyor edim! O'zimni uzoq kasallikdan keyin birinchi marta ko'chaga chiqqan odamdek his etib, har bir narsaga suqlanib qarar, go'yo hayot lazzatini endi bila-yotgandek edim.

Yog'in ham, chaqmoqlarning yorug'i ham somon ostida yotgan joyimga yetib borardi, lekin men o'zimni juda yaxshi his etardim, uyquga ketar ekanman, o'zimcha kulimsirab qo'yardim. Qulog'imga chalingan sharpaning nimaligini bilmasdim. Bu Jamila bilan Doniyorning shivirlashimi yo bo'lmasa tinayotgan yomg'irning somonga shittirlab tushishimi?

„Mana endi yomg'ir tinmaydi, hademay kuz ham kiradi!“ – derdim o'zimga o'zim. Nam somon bilan erman hidi dimog'ga urib, kuzdan darak berardi.

Lekin bu kuzda bizni nimalar kutayotgani haqida o'ylamabman.

* * *

O'sha kuzda men ikki yillik tanaffusdan keyin yana maktabga qatnay boshladim. Darsdan bo'sh vaqtlarimda ko'pincha haligi soy bo'yidagi jar tepasiga borib o'tirardim. Xirmon huvullab bo'shab qolgan edi. Bu yerda men maktabdan olgan bo'yoqlar bilan o'zimning dastlabki etudlarimni chizdim. Chizgan suratchalarimdan o'zimning ham ko'nglim to'lmas edi. „Bo'yoqlarimning mazasi yo'q. Qani endi chinakam, asl bo'yoqlar bo'lsa!“ – deb o'ylardim ichimda. Yaxshi bo'yoqlarning qanday bo'lishini bilmasdim ham. Rassomlar ishlatadigan moybo'yoqlarni faqat keyingi vaqtlardagina ko'rishga muyassar bo'ldim.

Bo'yoq o'z yo'li bilan-u, lekin muallimlarning gapida ham jon borga o'xshardi: rassom bo'lish uchun o'qish kerak. Bu gap to'g'riligini bilib tursam ham o'qishimga sira ko'zim yetmasdi.

O'qish qayoqda deysiz, akalarim dom-daraksiz ketgan bo'lsa, men ikki uyning yolg'izgina dastyori bo'lsam, o'qishga yuborisharmidi. Shuning uchun o'qish to'g'risida og'iz ham ochmasdim. Lekin o'qishni qo'msab, borolmasligimga ich-ichimdan achinardim, buning ustiga, bu yil kuzning bu qadar ko'rkam kelishini aytmysizmi!

Qo'lingdan kelsa, o'tirsang-u chizsang, ajoyib surat chiqardi-da.

Gurkurovning suvi kamayib, qozondek-qozondek toshlar turtib chiqib, ularning usti yam-yashil, sap-sariq yo'sin bilan qoplangandi. Ertalabki izg'irindan yalang'och tollarning nozik tanalari qizarib ketgandi, biroq teraklarning sap-sariq yaproqlari hali to'kilmagan edi.

Yilqichilarning yozi bilan o't yoqilaverib tutundan qorayib ketgan o'tovlari katta soyning u yer-bu yerida ko'zga tashlanardi. O'tovdan buralib-buralib chiqayotgan ko'k tutun xuddi to'y-to'ylagan xotinlardek ovulma-ovul suzib yurishardi. Toychoqlar atrofga yoyilib ketgan onalarini qidirishib, zo'r berib kishnashardi. Endi toychoqlarning kishnagani-kishnagan. Chunki biyalarni to bahorgacha uyurda saqlash qiyin. Tog'lardan qaytgan mollar hosili yig'ib olingan dalalarda poda-poda bo'lib yurishardi. Dasht sahni tuyoq izidan ilma-teshik bo'lib ketgan edi.

Bu yil ham kuz kuzligini qildi: hamma yoqni to'zitib izg'irin shamol qo'zg'alldi va osmonning avzoyi buzilib, qor aralash yomg'ir yog'a boshladi. Bir hafta surunkasiga yoqqan yomg'ir bir kun sal tinishi bilan men Gurkurov tomonga qarab jo'nadim. Toshloqdagi bir tup tog' chetani qip-qizil cho'g'dek yonib, „Meni suratga ol“, – degandek bo'y cho'zib turardi.

Men soy bo'yidagi butalar orasida surat chizib o'tirganimda qosh qorayib qolgan edi. Bir vaqt boshimni ko'tarib qarasam, narigi sohilda ikki kishi turibdi, daryoning sayoz joyidan kechib o'tishgan bo'lsa kerak. Ularning Doniyor bilan Jamila ekanini darrov tanidim. Men ularning jiddiy va tashvishli yuzidan ko'zimni uza olmay tikilib turdim. Doniyor har galgidek dadil qadam tashlar, yurgan sayin shineling bari ohori to'kilgan soldatcha etigining

qo'njlariga shartillab tegardi. Jamila bo'lsa egniga bozorga borganda kiyadigan parcha-parcha qizil gulli ko'yagini, chiybaxmal choponini kiyib, boshiga oq jun ro'molini o'rab olgandi. Bir qo'lga tuguncha ko'tarib, ikkinchi qo'li bilan Doniyorning xaltasidan ushlab bormoqda. Ular yo'l-yo'lakay nimalar to'g'risidadir o'zaro gapirishib borishardi.

Ularning ovulimizni tashlab, qayoqqadir ketishayotganini sezib, yuragim „jiz“ etib ketdi.

Mana, ular jarlikdan o'tib, qamishzor oralab ketib borardi. Men bo'lsam, xuddi bir narsani yo'qotgan kishidek ularning orqasidan qarab, nima qilarimni bilmay qoldim. Qichqirayin desam, nafasim siqilib, ovozim chiqmasdi.

Quyosh tog'lar yoqalab suzib borayotgan bulutlarga qizg'ish nurlarini so'nggi bor sochdi, atrofni qorong'ilik qoplay boshladi.

Doniyor bilan Jamila orqa-oldilariga qaramay, temiryo'l razyezdini ko'zlab tez odimlab borishmoqda. Bora-bora ularning qoralari uzoqlashib, birozdan keyin qamishzor orasiga kirib, butunlay g'oyib bo'ldi.

Ana o'shandagina men o'zimga kelib, orqalaridan ovozimning boricha:

– Jamilaaaa! – deb qichqirdim.

Dala ustida ancha vaqtgacha „aaa“ degan aks sado eshitilib, birozdan so'ng tinar edi.

Yana bir marta jahl bilan:

– Jamilaaaa! – deb qichqirdim-da, so'ng ularning orqasidan yugurib qoldim. Suvni suv demay, oyoqyalang, boshyalang, ularning orqasidan quvib borardim, ust-boshim jiqqa ho'l bo'lgandi. Shunga qaramay, yana tezroq chopaboshladim. Birdan oyog'im nimagadir chalinib ketdi-da, yuztuban yiqildim. Boshimni ko'tarmay, ikki qo'lim orasiga olib, o'ksib-o'ksib yig'lab yubordim. Ko'z yoshlarimdan namlangan mayin tuproq qo'limni, betimni muzlatib g'irashira qorong'ilik ko'nglimga g'ulg'ula solgandek, o'pkam qisilib, achchiq-achchiq yig'ladim, qamishlar go'yo mening qayg'u-hasratimga hamdard bo'lgandek tinmay shitirlashar edi.

– Jamila! Jamila! – derdim men o'pkamni bosolmay

piq-piq yig'lab. Men eng yaqin, eng aziz odamlarim bilan xayrlashar edim. Mana, hozirgina yerda yotib, o'zim ham Jamilani sevib qolganligimni tushundim. Bu mening ilk, bolalikdagi sevgim edi.

Yuzimni ko'z yoshidan ho'l bo'lib ketgan yengimga artib, yana anchagacha yig'lab o'tirdim. Men faqat Jamilalar bilangina emas, balki o'zimning bolalik davrim bilan ham xayrlashar edim.

Qorong'ida timirskilanib uyga kelganimda hovlimizda shovqin-suron avjida edi; it egasini tanimasdi. Kimdir otga egar urardi. Bezori Usmon bo'lsa, har kungidek mast, otini gijinglatib, ovozining boricha baqirardi:

- Aytmaganmidim, mana oqibati nima bo'ldi. Yo'l-chiboy ota sharmandayi sharmisor bo'ldi. Qani ketdik, bu sayoq it, chala qozoqni ushlab bo'ynini uzmasam, otimni boshqa qo'yaman. O'n yilga kesilsam kesilaman-u, lekin har qanday yalangoyoqning xotinlarimizni olib ketishiga yo'l qo'ymayman. Qani ketdik, yigitlar. Qayerga ham borardi deysan?

Ular qaysi tomonga ketisharkin degan fikr xayolimdan o'tdi-yu, yuragim shuv etib, a'zoyi badanim muzlab ketdi. Nima qilarimni bilmay, otliqlarning orqasidan men ham ovul chekkasigacha yugurib bordim-da, ularning razyezd tomonga emas, stansiyaga olib boradigan katta yo'l tomonga qarab burilib ketganlarini ko'rib, ko'nglim o'rniga tushdi. So'ngra uyga qaytib keldim-da, yig'laganimni hech kim bilmasin deb, otamning to'niga o'ralib yotdim.

Ovulda har xil mish-mish gaplar tarqaldi. Hamma xotinlar Jamilani qoralashardi:

- Ahmoq-da! Aqli bo'lsa tuz ichgan joyiga tuplab, sanqib yurgan bir musofirga ergashib ketarmidi.

- Shunisiga kuyaman-da! Uning nimasiga qiziqdi ekan deyman-da! Eski shineli bilan teshik etigidan bo'lak hech balosi yo'q edi-ku!

- Qo'ton-qo'ton qo'yi bormidi! Uyi yo'q, joyi yo'q, nasl-nasabi betayin bir daydi-da! Mayli, uvoli o'ziga, hali attang deydi... Bu tannoiz xotinning holini o'shanda ko'rarmiz.

– Tavba, Sodiqdan ortiq erni topib bo‘pti.

– Qaynanasini aytmaysanmi, qaynanasi-chi? Bunday yuvosh qaynanani qayerdan topadi! O‘ziga o‘zi qildi juvonmarg, mayli!

Burungi yangamni, Jamilani qoralamay, uning qilmi-shini to‘g‘ri deb topgan yolg‘iz men bo‘lsam kerak. Doniyorning eski shineli bilan teshik etigidan boshqa hech narsasi bo‘lmasa ham, lekin uning ma‘naviy boy, qalbi yuksak odamligini men bilmaganda kim biladi. Jamila Doniyorning etagini ushlab ketib, o‘z baxtini toptadi, degan gaplarga ishonish u yoqda tursin, aksincha, men, u o‘z baxtini endi topdi, deb ishonardim. Faqat oyimga achinardim, xolos. Jamila bilan birga uning butun kuch-quvvati ketgandek. Oyim g‘amgin bo‘lib, o‘zini ancha oldirib, qaddi bukilib qoldi. Oh, bechora oyim! Hayot oqimi ba‘zida eskilik ildiziga shafqatsiz bolta urib, yangi baxt sari intilishini oyim tushunmasa kerak-da. Agar bo‘ron azim chinorni tag-tomiri bilan qo‘porib tashlasa, u qaytib qaddini rostlayolmaydi... Oyimning har bir xatti-harakatidan uning oldingi kuch-quvvati qolmaganligi sezilib turardi. Ilgarilari u hech kimdan ignaga ip o‘tkazib berishni iltimos qilmas, qarilik g‘ururi bunga yo‘l qo‘ymas edi. Bir kuni uyga kirib kelsam, oyim ignaning ko‘zini topolmay, qiynalib yig‘lab o‘tiribdi.

– Ma, ipni o‘tkazib ber-chi! – dedi u qaltiragan qo‘llari bilan igna va ipni menga uzatib. So‘ngra og‘ir xo‘rsindida, ko‘z yoshlarini artib, o‘zicha ming‘irladi: – Ee, sho‘rlik kelinim, ko‘ra-bila turib o‘zingni o‘tga tashlading-a. Uyimizning to‘ri seniki, yeganing oldingda, yemaganing kettingda edi... O‘zingni o‘zing juvonmarg qilding... Bizni dog‘da qoldirib ketding... Nega ketding? Uyimizda nima kamchilik ko‘rding... Sho‘rlik Jamila...

Oyimning shunday mung‘ayib o‘tirganini ko‘rib, o‘zimni tutolmay, beixtiyor: „Yo‘q, oyi, u sho‘rlik emas!“ – deb qichqirib yuborgim keldi-yu, lekin o‘zimni bosdim. Oyimni mahkam quchoqlab, Doniyorning kimligini, uni jonimdan aziz ko‘rishimni aytib, yig‘lab yuborishimga oz qoldi. Lekin bu so‘zlarni aytishga tilim borarmidi. Bu gapim bilan oyimni bir umrga xafa qilgan bo‘lardim.

Lekin baribir bu begunoh „qilmishlarim“ sir bo‘lib qolmadi.

Oradan ko‘p o‘tmay Sodiq akam armiyadan qaytib keldi. Rostini aytganda, u ko‘rinishda unchalik sir boy bermasa ham, lekin nomusdan qattiq kuyunib, jig‘i-biyron bo‘lib yurdi, Usmonlar bilan ichishib qolgudek bo‘lsa:

– Ketgan bo‘lsa sadqayi sar! Sarson-sargardon bo‘lib yurib, oxiri bir kun ochidan o‘ladi-ketadi. Xotinman deganing to‘lib yotibdi, chertib-chertib olish mumkin. Oltin boshli xotindan, baqa boshli er yaxshi! – derdi jahl bilan.

– Gaping-ku to‘g‘ri-ya, – deb javob qaytarardi Usmon. – Afsuski, o‘shanda qo‘limga tushmadi-da, unisining ichak-chavog‘ini ag‘darib, bunisining sochlaridan otga bog‘lab sudratardim! Ehtimol, ular janubda, paxta dalalarida yo bo‘lmasa qozoq yerlarida tentib yurishgandir. Sayoqlik Doniyorga kasb bo‘lib qolgan. Shunisiga dog‘manki, buni hech kim bilmay, hech kim sezmay qolgan-a, qanday bo‘lganiga kishining sira aqli yetmaydi-ya... Bu ishning hammasini o‘sha yaramasning o‘zi qilgan, isini ham chiqarmadi-ya, la’nati, bo‘lmasa men uni naq!..

Bunday gaplarni eshitganimda qonim qaynib, mushtlarimni qisardim. Kuchim yetsa, o‘sha Usmonning basharasiga tuplab: „Pichan o‘rog‘ida adabingni bergani esingdan chiqibdi-da... Eng yaramas, eng razil odam sensan-ku!“ – degan bo‘lardim.

Bir kuni uyda maktab devoriy gazetasiga surat chizib o‘tirgan edim, oyim ham pechka oldida cho‘qqayib o‘t yoqib o‘tirardi, bexosdan eshik ochilib, uyga rangi ko‘karib, g‘azabidan ko‘zlariga qon to‘lgan Sodiq akam kirib keldi. U mening ustimga yopirilib kelayotganda, yelkasiga tashlab olgan shineli yerga tushib ketdi.

– Buni sen chizdingmi? – deb so‘radi u bir varaq qog‘ozni tumshug‘umga tiqib. Qog‘ozdagi suratni ko‘rib yuragim orqamga tortib ketdi: bu o‘sha xirmonda o‘tirib qalamda chizgan Doniyor bilan Jamilaning surati edi. Suratga ko‘zim tushishi bilan go‘yo ular menga qarab turishgandek bo‘ldi. „Qiziq, Jamila buni nega tashlab ketdiy-

kin? Uni bir yerga yashirib qo'ygan-u, keyin esidan chiqarib ketgan bo'lsa kerak!" – deb o'yladim ichimda.

– Ha, men chizgan edim! – dedim.

– Bu-chi, bu kim o'zi?

– Doniyor.

– E, ablah, sotqin! – deb o'shqirdi Sodiq akam menga va suratni mayda-mayda qilib yirtidi-da, oyog'i ostiga olib toptab, keyin eshikni qattiq yopib chiqib ketdi.

Uy ichiga og'ir jimlik cho'kdi.

– Sen buni bilarmiding? – deb so'radi oyim bir mahal.

– Ha, bilardim.

Oyim pechkaga o't yoqib o'tirib, menga shunday ta'na va hayrat nazari bilan qaradiki, men nima qilishimni bilmay, bosh barmog'imni uzib olgudek bo'lib:

– Men ularning suratini yana chizaman! – dedim.

Oyim g'ing demay boshini ma'yusgina chayqab, yerga boqdi. Yerda sochilib yotgan suratga qarab, ichimni o'tdek o'rtayotgan xo'rlikka hech chiday olmadim. Mayli, men oilamiz, urug'umiz uchun „sotqin“ bo'layin, biroq men odamgarchilikka, haqiqatga, hayot haqiqatiga xiyonat qilganim yo'q, aksincha, adolat tarafdori bo'ldim. Mening ko'nglim sof, niyatim xolis ekanligini hech kim bilgan emas, buni odamlarga ham aytib bo'lmaydi, boshqalar tugul, hatto oyim ham buni tushunmas edi, albatta.

Oyim indamay o'tiraverdi. Izza bo'lganimdan ko'zlarimga yosh keldi, yirtib tashlangan surat parchalari go'yo jonliday yerda aylanib yurardi. Doniyor bilan Jamilaning yorqin qiyofasi sira ko'z o'ngimdan ketmas, Doniyorning o'sha avgust kechasi aytgan orombaxsh qo'shiqlarini yana eshitayotgandek bo'lardim. Ularning ovuldan ketganlarini eslaganimda, g'ayratga to'lib men ham ular kabi o'z istiqbolim yo'lida qiyin safarga o'tlanishga qat'iy bel bog'ladim.

– Men o'qishga ketaman! – dedim oyimga. – Rassom bo'lgim keladi, rassomlik o'qishiga boraman, otamga ham aytib qo'ying...

Men hozir oyim urushda halok bo'lgan akalarimni eslab, faryod ko'tarib yig'lasa kerak, deb o'ylagan edim. Le-

kin baxtinga oyim yig'lagani yo'g'-u faqat g'amgin, eshiti-lar-eshitilmas qilib gapirdi:

– Mayli, o'zing bilasan, borsang bora qol... Uchirma qanot bo'lganlaringdan keyin gapimizga kirarmidilaring, har qaysing o'z bilganlaringni qilasizlar. Biz nimani bilamiz, balki sizlarning bilganlaring to'g'ridir, balki juda katta odam bo'lib ketarsanlar... Hozir zamon o'zi shunaqa-ku. Mayli, boraver... Ehtimol, o'sha yoqlarga borganingdan keyin suratkashlik yaxshi kasb emasligini o'zing tushunib olarsan... Uyingni, ota-onangni unutma, nasihatim shu...

Shu kundan boshlab kichik uy o'z-o'zidan bo'linib ketdi. Hademay men ham o'qishga jo'nadim.

Rassomlik maktabini bitirib, o'z mahoratimni oshirish uchun yana Lenigrad akademiyasiga o'qishga borganimda, o'z diplom ishimni topshirdim. Bu diplom ishi – ko'pdan beri orzu qilib, yuragimda saqlab yurgan suratim edi.

Albatta, sizlar bu suratda Doniyor bilan Jamila tasvirlanganini darrov fahmlagandirsizlar. Ular daladagi yolg'izoyoq yo'ldan yonma-yon ketishar edi. Doniyorning shineli shamolda yelpinib, yuzidan sevinch balqigan Jamila uning xaltasidan ushlab olgandi.

Ularning oldida Doniyor kuylagan poyonsiz, yorug', keng dala yastanib yotardi. Hozir olamda Jamila bilan Doniyordan baxtli odam bo'lmasa kerak!

To'g'ri, suratimni har tomonlama mukammal, bekam-u ko'st ishlangan deb aytolmayman.

Axir, mahorat degan o'z-o'zidan darrov kelmaydi-ku. Bu – og'ir, mashaqqatli mehnat mevasi... Lekin baribir bu surat men uchun dunyoda eng aziz, eng qimmatli narsa edi.

Chunki o'zimdagi san'atga bo'lgan barcha mehr-muhabbatim, ixlosim, zavqimni men birinchi marta ana shu suratga bergandim.

Mana endi ancha tajribali bo'lib qolgan bo'lsam ham, ba'zan chizgan suratlarim ko'nglimdagidek bo'lib chiqmaydi, o'zimga yoqmaydi, o'shanda o'z kuchimga o'zim ishonmay gumonsirab qolaman. Shunday og'ir damlarda o'sha surat – Doniyor bilan Jamila meni o'ziga chorlaydi. Ularga uzoq tiki-lib, har gal ular bilan maslahatlashgandek bo'laman.

„Hozir qayerdasiz, qaysi yo‘ldan ketyapsiz? Hozir dlamizda yangi yo‘llar ko‘p. Qozog‘istondan tortib Oltoy va Sibirga qadar cho‘zilib ketgan! Hozir u yerlarda cho‘lni bo‘stonga aylantirish, yangi yerda yangi turmush qurish uchun ko‘plab azamatlar mardona mehnat qilmoqdalar! Balki sizlar ham o‘sha yoqqa ketgandirsizlar! Unday bo‘lsa, oq yo‘l! Safarlaring bexatar bo‘lsin! Jamila, mening Jami-lam, sen boshingni baland ko‘tarib, keng daladan mag‘rur qadam tashlab ketding... Hozir ham o‘shandaymisan, hozir ham yo‘l yurishdan toliqmaysanmi? Yo o‘z kuchingga o‘zing ishonmay, charchagan, ikkilanib qolgan kunlaring ham bo‘ladimi? Bo‘sh kelma, bardam bo‘l, Doniyordan ma-dad ol! Doniyor senga sevgi, vafo, ona Yer, hayot to‘g‘ri-sidagi jo‘shqin kuylarini kuylab bersin! O‘shanda ko‘z o‘ngingda keng dala gullab, avgust tunidagi kuchli bo‘ron guvullasin! Olis yo‘ldan qo‘rqma, Jamila, sening yo‘ling baxt yo‘lidir, sen o‘z baxtingni topding!“

Men ularga qarab Doniyorning ovozi eshitaman, de-mak, Jamila ikkisi meni safarga chorlaydi. Ha, men yo‘lga chiqishim kerak! Ha, keng dala bag‘ridan o‘tib, ovulimga boraman! Tug‘ilib o‘sgan yerim – kuch-quvvatim! Men un-dan yangi-yangi bo‘yoqlar topaman. Chizgan suratimning har bir bo‘yog‘idan, har bir lavhasidan Doniyorning kuyi eshitilib tursin! Chizgan suratimning har bir bo‘yog‘ida, har bir chizig‘ida Jamilaning yuragi urib tursin!

SARVIQOMAT DILBARIM

Ikki hikoyadan iborat qissa

MUQADDIMA O'RNIDA

Kasbim jurnalist bo'lganligi sababli Tyanshanda tez-tez bo'lib turishga to'g'ri kelardi. Bundan bir yarim yil muqaddam, bahor kunlaridan birida meni shoshilinch sur'atda tahririyatga chaqirib qolishdi. Bu vaqt men Tyanshan viloyatining markazi Norinda edim. Avtostansiyaga yetib kelsam, bundan bir necha daqiqa ilgari avtobus jo'nab ketgan ekan. Navbatdagi mashinani yana besh soatlar chamasi kutish kerak edi. Xullas, birorta yo'lovchi mashinada ketishga urinib ko'rishdan boshqa iloj qolmagan edi. Shu maqsadda shahar chekkasidagi tosh yo'lga qarab yugurdim.

Muyulishdagi yoqilg'i quyish shoxobchasi oldida bir yuk mashinasi turardi. Shofyor mashinaga endigina benzin quyib bo'lgan ekan. Sevinib ketdim. Kabina oynasiga xalqaro qatnov belgisi „SU“ deb yozib qo'yilgan edi. Demak, mashina Xitoydan Ribachedagi chet ellar bilan aloqa qiladigan transport avtobazasiga kelayotgan ekan. U yerdan istagan vaqtda Frunzega ketish mumkin edi.

– Siz hozir jo'naysizmi? Meni ham Ribachegacha olib ketsangiz! – deb iltimos qildim shofyordan.

U o'girilib, yelkasi osha menga qarab qo'ydi-da, qaddini rostlab, xotirjamgina:

– Yo'q, og'a, ilojim yo'q, – dedi.

– O'tinib so'rayman, meni zarur ish bilan Frunzega chaqirtirishibdi.

Shofyor menga yana xo'mrayib qaradi.

– Tushunyapman, ammo xafa bo'lmang, og'a. Hech kimni olmayman.

Men hayron bo'lib qoldim. Kabinasi-ku bo'sh, bir kishi-

ni olib ketsa nima qilarkin. Shoshilib turganimni, nafasim bo'g'zimga tiqilib ketayotganini ko'rib turgan bo'lsa.

– Men jurnalistman. Juda shoshilyapman. Istaganingizcha haqini to'lashim mumkin...

– Gap pulda emas, og'a! – deb so'zimni shartta bo'ldi shofyor. So'ngra jahl bilan ballonni tepib ko'rdi.– Boshqa safar bepul ham olib ketaman. Ammo hozir sira ilojim yo'q. Mendan ranjimang. Hademay boshqa mashinalarimiz ham kelib qoladi, xohlaganingizga tushib ketishingiz mumkin, lekin men olib keta olmayman...

Yo'lda kabinaga bironi olsa kerak, deb o'yladim va:

– Kuzovda-chi? – deb so'radim.

– Baribir... Kechirasiz meni, og'ajon.

Shofyor soatiga bir qaradi-yu, jo'nashga shoshildi.

Juda boshim qotib, yelkamni qisib qo'ydim-da, boyadan beri budka darchasidan bizni jimgina kuzatib turgan benzinchi kekxa rus ayoliga hayron bo'lib qaradim. U go'yo: „Tegmang, uni o'z holiga qo'ying“, – deyayotgandek bosh chayqardi. Qiziq.

Shofyor kabinaga o'tirdi va og'ziga tutatilmagan papirosni qistirib, motorni yurgizib yubordi.

U hali yosh, o'ttizlar chamasidagi, biroz bukchaygan, ammo baland bo'yli yigit edi. Uning rul chambaragini ushlab olgan salmoqdor chayir qo'llari, g'amgin, o'ychan ko'zlari va charchab-horiganidan salqib ketgan qovoqlari xotiramda saqlanib qoldi. Yo'lga tushishdan oldin u yuzini kafti bilan siladi va chuqur xo'rsinib qo'ydi, tog' oralab ketadigan yo'lga tashvishlanib nazar tashladi. Mashina yeldek uchib ketdi.

Tyanshan shofyorlari ko'rinishdan badjahl bo'lsalar ham, joy bo'lsa yo'lovchilarning iltimosini hech qachon rad etmas edilar. Bu gal esa qandaydir tushunib bo'lmaydigan qaysar bir shofyorga uchrab qoldim.

Benzinchi ayol budkadan chiqdi. Aftidan, u meni yu-patmoqchi bo'ldi shekilli:

– Xafa bo'lmang, hozir siz ham ketasiz, – dedi.

– Shoshib turmaganimda mayli edi-ya!.. – deb to'ng'illadim alamimga chiday olmay.

– Modomiki shunday ekan...

– Nima edi?

– Yo‘q, shunchaki aytdim-da! – deb ayol kimgadir achingandek qo‘l siltadi va shlangni kolonka oldiga yig‘ishtirib qo‘yar ekan, xo‘rsinib qo‘ydi: – Bu voqeaning tarixi uzoq...

Men jim turardim.

– Yigit bechoraning boshiga tashvish tushgan. Bir vaqtlar u biz bilan shu yerda, dovondagi bazada ishlardi.

Benzinchi ayolning gapini oxirigacha tinglash menga nasib bo‘lmadi. Yo‘lovchi „Pobeda“ kelib qoldi, biz yo‘lga tushdik.

Yuk mashinasiga hadeganda yetib ololmadik, faqat Do‘lan dovoni etaklaridagina yetib oldik. U hatto ko‘pni ko‘rgan Tyanshan shofyorlariga ham ruxsat etilmaydigan g‘oyat tezlik bilan uchib borardi. Mashina burilishlarda ham tezligini kamaytirmay, qoyalar ostidan g‘uvullab o‘tib borar, shiddat bilan balandliklarga uchib chiqar va birdan xuddi ag‘darilib ketgandek pastga tomon sho‘ng‘ir, yana bir zunda ustiga yopilgan brezentning chekkalari shalop-shaloplab bortga urilib, hirpiragancha oldinda paydo bo‘lar edi.

Baribir „Pobeda“ „Pobeda“ligini qildi. Biz yuk mashinasini quvib o‘ta boshladik. Men o‘girilib qaradim: bu odam muncha umidsizlikka tushgan, qayoqqa bunchalik yelib ket-yapti? Shu payt yomg‘ir aralash do‘l sharros quyib berdi. Bizda, dovonda bunday yog‘ingarchilik tez-tez bo‘lib turardi. Qiyalab, chaparastasiga urayotgan do‘l aralash yomg‘ir tomchilari orasidan ranglari oppoq oqarib ketgan, papiros tishlab olgan jiddiy tUSDagi qiyofa kabina oynasi orqasidan lip etib ko‘rinib o‘tdi. Uning qo‘llari rul chambarragida tez-tez harakat qilardi. Kabinada ham, kuzovda ham hech kim yo‘q edi.

Mana shu tasodifiy uchrashuvdan so‘ng oradan ko‘p o‘tmay meni Qirg‘izistonning janubiga, O‘sh viloyatiga xizmat safariga yuborishdi. Odatdagicha biz jurnalistlarning vaqtimiz hamma vaqt ziq bo‘ladi. Oqshom poyezd jo‘nashi oldidan vokzalga chopganча yetib keldim va va-gonga sakrab chiqib, o‘z kupemga kirdim, hadeganda de-

razadan tashqariga qarab o'tirgan passajirga e'tibor ham bermabman. Nazarimda, bu kupega ikkalamizdan boshqa hech kim chiqmaydiganga o'xshardi. Hamrohim menga qayrilib qaramadi ham. U boshini oynaga qadagancha yo shunchaki tashqariga tikilib o'tirardi, yoki bo'lmasa allani-malar haqida o'ylardi.

Poyezd tezligini oshira bordi. Radiodan musiqa ovozi yangradi: tanish kuy ijro etilayotgan edi. Bu qirg'iz klassik kuyi menga doim g'ira-shira oqshom payti dashtda ketib borayotgan yolg'iz otliqning ashulasini eslatardi. Yo'l uzoq, bepoyon dasht. Egarda o'tirib xayol surib, bironta ashulani asta xirgoyi qilinsa ham bo'ladi. Xirgoyi qilganda ham qalbdan chiqarib kuylasang. Axir ot tuyoqlarining tapir-tupur sadolari ostida yolg'iz o'zi xirgoyi qilib borayotgan yo'lovchining qalbida turli xil o'y-xayollar ozmuncha bo'ladi deysizmi?.. Ariqdagi suv mayda yaltiroq toshlar ustidan shildirab oqayotgandek, qo'biz torlaridan orombaxsh mayin kuy asta-sekin taralardi. Qo'biz adirlar orqasiga yonboshlayotgan quyosh haqida, har yoqqa salqinlik taratayotgan mayin shabada haqida, yo'l yoqalab ketgan ko'm-ko'k yovshan va sap-sariq chalovlarni sekin-sekin tebratib, gul changlarini to'kayotgani haqida kuylardi. Dasht ham chavandozning ashulasini tinglaydi va u bilan birga o'ynab, birga kuylaydi...

Ehtimol, hozir biz poyezdda yelib borayotgan bu yerdan o'sha chavandoz ham qachonlardir yurgandir... balki o'shanda, xuddi hozirgidek, dasht ufqida shafaq sekin-asta och sariq tusga kirib, so'na borgan, tog' bag'ridagi qor esa xuddi hozirgidek quyoshning so'nggi shu'lalarini emib, pushti rangga kirgan-u, yana darhol xiralashib so'nib qolgandir.

Deraza ortidan bog'-rog'lar, tokzorlar, qulf urib yotgan ko'm-ko'k makkajo'xori dalalari o'tib borardi. Yangi o'rilgan barra yo'ng'ichqa ortilgan qo'sh otli arava temir yo'l chorrahasi tomon yo'rtib borardi. U shlagbaum oldida to'xtadi. Quyoshda qoraygan, rangi unniqib ketgan yirtiq mayka kiyib, ishtonini tizzasigacha shimarib olgan aravakash bola o'rnidan turdi-da, poyezd tomon havas bilan boqib, iljayganicha kimgadir qo'l siltadi.

Radiodan taralayotgan kuy poyezdning taraqa-turuqiga jo'r bo'lib, kishini hayratga solarli darajada bir-biri bilan uyg'unlashib ketardi. Otning dukur-dukuri relslarning tutashgan joyiga urilayotgan g'ildirak tovushi bilan almashingandek edi. Qo'shnim bo'lsa qo'lini stolchaga tirab, ko'zlarini hamon tashqaridan uzmay o'tirardi. Nazarimda, u ham o'zicha o'sha tanho otliqning ashulasini unsiz kuylayotgandek edi. U xafami yoki biron narsani o'ylayaptimi, har qalay, uning qiyofasidan boshida qandaydir chuqur qayg'u, yuragida o'chmas alam borligi sezilib turardi. U o'zini shu qadar unutgan ediki, kupeda mening o'tirganimni ham payqamasdi. Men uning yuzini ko'rishga intildim. Qayerda uchratgan edim bu odamni? Hatto bug'doyrang qo'llari, uzun va baquvvat barmoqlari ham tanish ko'rinadi.

Nihoyat uni tanidim: bu meni mashinasiga olmagan o'sha shofyorning xuddi o'zginasi edi. „Biron yoqqa o'z ishi bilan ketayotgan bo'lsa kerak“, – deb o'yladim va shu bilan xotirjam bo'ldim. Chamadondan kitob oldim. O'zimni unga tanitishimning hojati bormidi? Ehtimol, u allaqachonlar unutib yuborgandir. Shofyorlarga yo'lda ozmuncha yo'lovchi duch keladi deysizmi?

Shunday qilib, biz yana ancha vaqtgacha o'zimiz bilan o'zimiz ovora bo'lib, jim ketdik. Kech kirib, qosh qoraya boshladi. Hamrohim chekmoqchi bo'lib yonidan papiros chiqardi va gugurt chaqish oldidan chuqur xo'rsinib qo'ydi. So'ngra boshini ko'tardi-yu, hayratlanib menga qaradi va shu zahotiyiq qizarib ketdi. Tanidi.

– Salom, og'a! – dedi u aybdor kishidek kulimsirab. Men ham unga qo'l cho'zdim.

– Uzoqqa ketyapsizmi? – deb so'radim.

– Ha... Uzoqqa! – dedi u papiros tutunini taratarkan va birozdan keyin qo'shib qo'ydi: – Pomirga.

– Pomirga! Demak, hamroh bo'lar ekanmiz-da. Men O'shga ketyapman.

– Men ham xuddi o'sha tomonga.

– Juda soz bo'ldi, zerikmas ekanmiz.

– Ehtimol, – deya ishonchsizlik bilan to'ng'illadi u.

– Dam olganimi? Yoki o'sha yoqqa ishga joylashmoqchimisiz?

– Ha, shunga o'xshashroq... Chekasizmi? – deb papiros uzatdi u.

Biz papirosni tutatib, biroz jimib qoldik. Dastlab boshqa hech qanday gapimiz qolmagandek tuyuldi. Hamrohim yana xayolga cho'mdi. U boshini quyi solib, poyezd harakatiga mos tebranib borardi. U, nazarimda, birinchi uchrashganimizdagiga qaraganda juda o'zgarib ketgandek ko'rindi. Ancha o'zini oldirib qo'ygan, peshanasidagi uch qator ajin yanada ichkariroq botib kirgan, chimirilgan qoshlari esa yuziga g'amgin soya solib turgandek edi. U to'satdan boshini ko'tardi-da, qiyiq qo'yko'zlarini menga tikib:

– Siz o'shanda mendan qattiq xafa bo'lgandirsiz-a, og'a? – deb so'radi ma'yus jilmayib.

– Qachon? Negadir eslolmayapman, – men uning noqulay ahvolga tushib qolishini istamas edim. Rostini aytganda, o'tgan ish xafa bo'lishga arzimadi ham. Lekin u menga shunday bir samimiyat bilan tikilib turardiki, mening tezda iqror bo'lishdan boshqa ilojim qolmagan edi. – E, ha... unga ancha bo'ldi-ku... Arzimagan gap edi, esimdandan ham chiqib ketibdi. Buning nimasi bor ekan. Yo'lda har xil hodisa sodir bo'lishi mumkin. Siz o'sha uchrashganimizni hali eslab yuribsizmi?

– Boshqa vaqtda bo'lganda, ehtimol, unutib yuborgan ham bo'lardim. Lekin o'sha kunni unutilmayman...

– Nima bo'lgan edi? Biror falokat yuz berganmidi? – deb so'radim men undan beixtiyor, uning o'sha kungi mashinani qanday boshqarayotganini eslab.

– Yo'q, nima desam bo'larkin? Falokat yuz bergan edi! – dedi u biroz durustroq so'z tanlab, so'ng kulib yubordi, to'g'rirog'i, o'zini kulishga majbur qildi. – Hozir bo'lsa, istagan tomoningizga mashinada sayr qildirib kelar edim-u, ammo ko'rib turibsiz, o'zim ham yo'lovchiman...

– Hechqisi yo'q, ot bir bosgan izidan ming marta yuradi, deydilar-ku, ehtimol, vaqt-soati kelib, yana yo'lda uchrashib qolarmiz...

– Agar nasib qilib uchrashib qolsak, albatta o‘zim zo‘r-lab kabinaga chiqarib olaman, – dedi u boshini silkib.

– Demak, kelishdikmi? – deb hazillashdim men.

– So‘z beraman, og‘a! – dedi u xursand bo‘lib.

– Shunday qilib, nega o‘shanda meni olib ketmagan edingiz?

– Nega deysizmi? – dedi-yu, shu ondayoq ma‘yus bo‘lib qoldi.

U tarvuzi qo‘ltig‘idan tushgandek jim qolib, papiros tutunini jon-jahdi bilan torta boshladi. Men o‘rinsiz savol berganimni payqab qolib, gapni boshqa yoqqa burishga intildim. Biroq vaqt o‘tgandi. U papirosini o‘chirdi-da:

– Ilojim yo‘q edi... O‘g‘limni o‘ynatib olib yurgan edim... – dedi zo‘r-bazo‘r g‘o‘ldirab.

– O‘g‘limni? – hayron bo‘ldim men. – Kattaginami u?

– Yo‘q! – deya jilmaydi u, endi uning ko‘zlari menga tabassum bilan boqardi. – Hali yosh, endi beshga qadam qo‘ydi...

– Nima, u sizni biron joyda kutib turganmidi?

– Ha, dovonda.

– Xo‘sh, keyin nima bo‘ldi? – men hali ham hech narsa tushuna olmayotgan edim. Qiziq, nega o‘g‘li u yerda bo‘ladi, umuman, bolaning bu gapga nima aloqasi bor?

– Bilasizmi... Gap bunday... Sizga qanday tushuntirsam ekan... – deb u peshanasiga sizib chiqayotgan ter qatralarini artdi, hayajonini bosish uchun chekdi, so‘ng menga jiddiy tikildi.

Ana shunday qilib, men shofyorning o‘z taqdiri haqidagi hikoyasini eshitishga muyassar bo‘ldim. Lekin u hech kimga, ayniqsa, menga – jurnalistga o‘z hayoti to‘g‘risida batafsil gapirib bermasligiga qattiq ishonardim. Keyinroq bilishimcha, bu odam duch kelgan yo‘lovchiga yuragidagi sir-asrorini to‘kib soladigan odamlardan emas ekan. Ammo shofyorning boshidan kechirgan sarguzashtlari shunday ediki, uning xohish-istagidan qat‘i nazar, voqeani birma-bir aytib berishga majbur edi. Aks holda men hatto Tyanshan yo‘lida oramizda bo‘lib o‘tgan arzimmas hodisani ham tushunib yetmagan bo‘lardim.

Manzilga yetguncha hali vaqtimiz ko'p edi. Poyezd O'shgacha deyarli ikki kecha-kunduz yuradi. Men uni shoshirmasdim va turli savollar berib gapini ham bo'la-vermasdim. Kishi o'z kechirganlarini qayta boshidan kechirayotgandek his etib, goh so'zi og'zida qolib to'xtab, goh o'ylanib, entikib hikoya qilib bersa – juda maroqli bo'ladi. Ammo uni hikoyasiga qo'shilib ketmaslik uchun men o'zimni zo'r-bazo'r tutib turardim. Chunki men kutilmaganda shuni bilib qoldimki, sharoitga ko'rami yoki o'zimning har narsaga aralashib ketaveradigan jurnalistlik kasbimga ko'rami, har holda, shaxsan bu yigit haqida bo'lmasa ham taqdir unga uchratgan, ammo shofyorga uncha tanish bo'lmagan kishilar to'g'risida uncha-muncha narsa bilardim. Shuning uchun ham men uning hikoyasini davom ettirishim, ba'zi tafsilotlar bilan to'ldirishim, unga noma'lum bo'lgan ko'p narsalarni so'zlab berishim mumkin edi. (Darvoqe, qissaning ikkinchi hikoyasida xuddi mana shu tafsilotlar bayon etiladi.) Ammo men buni shofyorning hikoyasini oxirigacha tinglab bo'lganimdan keyin aytib berishga qaror qildim. So'ngra esa u fikrimdan ham qaytib, unga hech narsa gapirmadim. Shunday qilganim yaxshi bo'ldi, deb o'ylayman. Nega? Chunki bu tafsilotni keyinroq, qissaning eng oxirida so'zlab berishni lozim ko'rdim.

Modomiki, asosiy mavzudan chetlashib ketgan ekanman, shunga ko'ra bu o'rinda bir lirik chekinish qila qolay.

Ehtimol, o'quvchilar „Ikki hikoyadan iborat qissa“ degan g'alati sarlavhachaga e'tibor qilishgandir. Ha, darvoqe, shunday. Bu shunchaki muallifning xohishi bilan bo'lgan narsa emas. Ma'lumki, odatda, agar zarurat tug'ilsa, adabiy asarlarni bo'lim, bob va qismlarga ajratiladi. Hikoya esa o'z-o'zidan ma'lumki, alohida mustaqil adabiy asardir. Biroq bu yerda gap shakl haqida ketayotgani yo'q.

„Bu voqearning tarixi uzoq!“ – degan edi yoqilg'i quyish shoxobchasidagi ayol. Haqiqatan ham men so'zlab bermoqchi bo'lgan voqea juda uzoq va ehtimol, odatdagi hikoyalarga mutlaqo o'xshamas. Men bu haqda allaqachon muallif tilidan kichkinagina qissa ham yozgandim. Ya'ni,

tashqaridan kuzatib turib, voqea-hodisalar va kishilar xarakterlarini chizib bergandim. Shunday qilib, tasvirlanayotgan hayot qaynovida muallif sifatida o'zim ham qatnashgandim. Qissani o'qib chiqish uchun o'rtoqlarimga berarkanman, birdaniga ustimga do'lday ta'na va tanbehlar yog'ila boshladi. Aytilgan fikrlar hech bir-biriga to'g'ri kelmasdi: ba'zilar meni haq, muallif o'z qahramonlariga nisbatan shunday pozitsiyada bo'lishi kerak, deyishsa, ba'zilar meni koyishib, g'azablanib, muallif nohaq, asarni bunday emas, boshqacharoq yozish kerak edi, dedilar. Ayniqsa, qissaning xotima qismi ko'pchilikning achchig'ini keltirgandi. Xullas, ular har to'g'rida bahslashishardi. Axloq haqida, qahramonlarning xatti-harakatlari haqida tortishishib, yo ularni qoralashar, yo ma'qullashardi. Ammo kishilarning hayotga nisbatan bu shaxsiy qarashlari bilan bog'liq bo'lgan barcha e'tirozlari menga, muallifga qaratilgan bo'lib, go'yo bularning hammasi mening xohishim bilan ro'y bergandek edi.

O'rtoqlarimdan qaysi birining fikri qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini muhokama qilib o'tirishni o'z zimnamga olmayman, tahlil qilish niyatim ham yo'q. Biroq uzoq fikr yuritishlardan so'ng shunday xulosaga keldim, ya'ni qissani hayotda qay tarzda eshitgan bo'lsam, xuddi shu tarzda yozishim kerak. Men bu qissani ikki kishidan eshitganman, shuning uchun ham qissa ikki hikoyadan tashkil topgan. U ikki kishining boshidan kechirganlaridir. Men nimani eshitgan bo'lsam, shunigina yozyapman. Yaxshisi, qahramonlarning o'zlari hikoya qilib bera qolishsin.

SHOFYOR HIKOYASI

...Bularning hammasi hech kutilmaganda yuz berdi. O'sha kezlarda men motorlashtirilgan qismda harbiy xizmatni o'tab bo'lib, armiyadan endigina qaytib kelgan edim. Harbiy xizmatga borgunimcha o'n yillikni tamomlab, shofyorlik qilardim. O'zim bolalar uyida tarbiyalanganman. Do'stim Alibek Jonturin mendan bir yil oldin harbiy xizmatdan bo'shab kelib, Ribachedagi avtobazada ishlayotgan edi. Xizmatni o'tab bo'lgach, men ham to'ppa-to'g'ri o'sha avtobazaga keldim. Biz Alibek ikkimiz Tyanshanda yoki Pomirda ishlashni doim orzu qilib yurardik. Avtobazada meni yaxshi kutib olishdi. Yotoqxonaga joylashtirishdi. Hatto biror yeri ham lat yemagan yap-yangi „ZIL“ mashinasini berishdi. To'g'risini aytsam, mashinamni odamni sevgandek sevardim. Motori juda kuchli, ajoyib mashina edi. Shunday bo'lsa ham biz unchalik ortiqcha yuk bilan yurmasdik. Tyanshan yo'lini o'zingiz yaxshi bilasiz – bu avtotrassa dunyodagi eng baland tog'li yo'llardan biri, qanchadan qancha daralar, dovonlar bor. Tog'da suv istagancha topiladi, shunga qaramay, hamma vaqt ehtiyotdan suv olib yurishga to'g'ri kelardi. Ehtimol, kuzovning oldi burchagidagi ustunchaga osib qo'yilgan suvli kameraga ko'zingiz tushgan bo'lsa kerak. Yuk oz bo'lsa ham, olis va o'nqir-cho'nqir yo'llarda motor tez qizib, radiator erib ketishi hech gap emas. Shuning uchun doim suv olib yurish kerak. Dastlab men ham qanday bo'lmasin, mashinaga ko'proq yuk ortish choralarini ko'zlab uzoq vaqt bosh qotirdim. Biroq hech nima chiqmadi. Har qalay, tog' tog'ligini qiladi.

Shunday bo'lsa ham o'z ishimdan ko'nglim to'q edi. Bu yerning o'zi ham, tabiati ham menga yoqardi. Avtobazamiz shundaygina Issiqko'lning qirg'og'ida joylashgan edi. Bu yerga chet ellik turistlar ham kelib turishardi. Ular ko'l sohilida sehrlangandek bir necha soatlab tomosha qilib turib qolishardi, ana shunday paytlarda men o'zimcha: „Qarang, Issiqko'limiz qanday ajoyib! Bunchalik go'zal, bunchalik ko'rkam manzarani topa olish mumkinmi?..“ – deb faxrlanardim.

Dastlabki kunlarda negadir biroz siqilib yurdim. Bahor, ishlar qaynagan payt, sentabr Plenumidan keyin dastlabki kunlardanoq kolxozchilar qurilish ishlarini avj oldirib yuborishgan edi. Ular butun vujudi bilan ishga sho'ng'ib ketishdi-yu, ammo texnika yetishmasdi. Shuning uchun ham avtobazadagi mashinalarning bir qismini kolxozlarga yordamga yuborishardi. Ayniqsa, ishga yangi kirganlarni, shu jumladan, meni ham nuqul o'sha yoqqa yuborishardi. Trassaga o'tib, endi yo'lga ko'nikdim deganda, yana u yerdan olib ovullarga haydashardi. Ishning qanchalik muhim va zarur ekanligini tushunardim. Ammo men har holda shofyorman, mashinaga jonim achirdi-da. Mashina emas, balki men o'zim o'nqir-cho'nqirlardan sakrab otilib, qishloq bo'ylab loy kechib borayotgandek bo'lardim. Yo'llar shunaqangi rasvoki, bunaqasini hatto tushingizda ham ko'rmagansiz.

Kunlardan birida yangi molxona uchun kolxozga shifer olib borayotgandim. Bu ovul tog' etagida joylashgan bo'lib, unga boradigan yo'l ham xuddi ana shu tog' yonbag'ridagi dasht bo'ylab o'tardi. Mashina bemalol borayotgan edi, yo'l ham selgib qolgan ekan. Biroq ovulga yetay deb qolganimda, mashinam birdan qandaydir ariqqa tiqilib qoldi. Bu yo'l bahordan beri yurilaverib shunchalik ag'dar-to'ntar qilib tashlangan ediki, hatto tuya cho'kib ketsa ham topib olish qiyin edi. Unday qilib ko'rdim, bunday qilib ko'rdim, mashinani turli tomonga haydab ko'rdim – hech narsa chiqmadi. La'nati loy uni qa'riga shunchalik tortib ketgan ediki, xuddi qisqichda tutib turgandek, hech qayoqqa qo'zg'atmasdi. Buning ustiga rulni jahl bilan qattiq burib yuborgan ekanman, mashinaning qayeridir shilq etib chiqib ketdi. Yana uning ostiga kirishga to'g'ri keldi. Hamma yog'im loyga belanib qora terga tushib, yo'lni og'zimga kelgan so'zlar bilan so'kib yotgan edim, kimningdir shu tomon yurib kelayotgan oyoq sharpasini eshitib qoldim. Yotgan joyimdan menga faqat rezina etikkina ko'rinardi. Etiklar yaqinlashib kelib, qarshimda qimir etmay turaverdi. Jahlim chiqib ketdi. Nimani tomosha qiladi-ya, sirk bormi bu yerda!..

– Qani, tepamda turma, yo‘lingga ravona bo‘l! – deb qichqirdim mashina ostidan. Eskirib, go‘ng tegib iflos bo‘lib ketgan ko‘ylak etagiga ko‘zim tushib qoldi. Nazarimda, allaqanday kampirga o‘xshadi, ovulga olib borib qo‘yar, deb kutib turgan bo‘lsa kerak.

– Yo‘lingdan qolma, kampir! – dedim unga yana.– Bu yerda hali ancha vaqt aylanishib qolaman, kutaverib toqating toq bo‘ladi...

U bo‘lsa:

– Men kampir emasman! – dedi.

U bu so‘zlarni qandaydir ishonchsizlik bilan uyalinqirab aytgan edi.

– Kimsan bo‘lmasa? – dedim achchig‘im chiqib.

– Qiz bolaman.

– Qiz bolaman? – deb etiklariga yana ko‘z qirimni tashladim. Jerkib berganligim uchun xijolat tortib, bu yog‘ini hazilga burdim:

– Chiroylimisan? – deb so‘radim.

Etiklar ketishga hozirlanib, chetga qarab odimlay boshladi. Shunda men darrov mashina ostidan chiqdim. Qarasam, haqiqatan ham qoshlari jiddiy chimirilgan va kattakon, ko‘rinishidan otasiniki bo‘lsa kerak, kamzulini yelkasiga tashlab olgan qizil durrachali, nozikkina bir qiz turibdi. U menga jimgina termilib turardi. Men bo‘lsam yerda o‘tirganimni ham, loy va balchiqqa belanganimni ham unutib yuborib:

– Chakki emas! Chiroyli ekansan-ku! – deya uning boshidan oyog‘igacha nazar tashlab chiqar ekanman, iljayib qo‘ydim. U haqiqatan ham go‘zal edi.

– Shu oyoqlaringga tuflichalar bo‘lsami! – deb hazil-lashdim o‘rnimdan turarkanman.

Qiz to‘satdan shartta burildi-da, orqasiga qayrilib ham qaramay, jadallagancha keta boshladi.

Nima bo‘ldi unga? Xafa bo‘ldimi? Hazil-mutoyiba qilib o‘tirishning vaqti emas! Es-hushimni yig‘ib oldim, ortidan yugurib yetib olmoqchi bo‘ldim, keyin yana orqaga qaytib, asboblarni tezda yig‘ishtirib oldim-u kabinaga irg‘ib chiqdim va mashinani goh oldinga, goh orqaga zarb bi-

lan haydab tebrata boshladim. Faqat birgina narsani – unga yetib olishni o'ylardim, xolos. Motor esa zo'r berib tirillar, mashina silkinar edi. Biroq u joyidan bir qadam ham siljimasdi. Qiz bo'lsa borgan sari uzoqlashib borardi. Men loyga botib, turgan joyida dirillab aylanib yotgan g'ildiraklarning ostiga qarab:

– Qo'yib yubor! Qo'yib yubor deyapman! Eshityapsanmi? – deb baqirardim, kinga qichqirayotganimni o'zim ham bilmay.

Jonimning boricha akseleratorni siqdim. Mashina o'kirib sekin-asta olg'a siljiy boshladi va qandaydir bir mo'jiza bilan botqoqdan otilib chiqdi. O'zimda yo'q quvonib ketdim! Mashinani yo'lga chiqarib, ro'molcha bilan yuzimdagi loyni artdim va sochlarimni silab tartibga soldim. Qizga yonma-yon kelgach, mashinaga tormoz berdim, bunchalik jur'at qayerdan paydo bo'ldi menda, o'zim ham bilmayman, o'rindiqda o'tirgan yerimda yonboshlagan cha abjirlik bilan kabina eshigini shartta ochdim-da:

– Marhamat! – deb ehtirom bilan qo'l uzatdim.

Qiz to'xtamadi. „Ana xolos!“ – deya boshimni qashiy boshladim. Boyagi jasorat va ehtiromdan asar ham qolmangandi. Men unga yana yetib oldim. Bu gal uzr so'rab, iltimos qila boshladim:

– Xafa bo'lmang. Men, axir, shunchaki... O'tiring.

Ammo qiz lom-mim demadi.

Shunda men uni quvib o'tib, mashinamni yo'lga ko'ndalang qilib qo'ydim-da, kabinadan sakrab tushib, o'ng tomonga yugurib o'tdim, eshikni ochib, uni ushlab turaverdim. U, obbo, muncha yopishib oldi bu tentak, degandek hadiksirab menga yaqinlashdi. Men hech narsa demadim, nima ham qila olardim. Bosh egib kutib turaverdim. Menga rahmi keldimi yoki shunchakimi, haytovur, bir bosh chayqab qo'ydi-da, indamay kabinaga chiqib o'tirdi.

Biz yo'lga tushdik.

Men indamay o'tirardim, qanday gap boshlashni o'ylardim. Qizlar bilan birinchi marta uchrashayotganim yo'q, shunday bo'lsa ham hozir u bilan gaplashishga yuragim

dov bermay turardi. Nega shunday-a? Rul chambaragini aylantirar ekanman, unga zimdan qarab qo'yardim.

Qop-qora nozik va mayin sochlari qo'ng'iroq-qo'ng'iroq bo'lib bo'yniga tushib turardi. Kamzuli esa yelkasi bilan sirg'alib tushib ketdi, uni tirsagi bilan tutib turardi, o'zi bo'lsa menga tegib ketishdan qo'rqib, nariroq surilib o'tirdi. Qarashlari jiddiy bo'lsa ham, umuman, qiyofasidan mehribonlik va samimiylik sezilib turardi. Yuzlari oydek, rangi tiniq edi. Peshanasini tirishtirib, chimirilmoqchi bo'lardi-yu, biroq uddalay olmasdi va yo'l-yo'lakay ehtiyotkorlik bilan menga qarab-qarab qo'yardi. Ko'zimiz ko'zimizga tushib qoldi. U jilmayib qo'ydi. Ana shundan keyin men gap boshlashga qaror qildim.

– Siz u yoqda, mashina oldida nega to'xtagan edingiz?
– deb og'zimga kelganini so'rab qo'ya qoldim.

– Sizga yordamlashmoqchi edim.

– Yordamlashmoqchi? – deb kulib yubordim. – Darhaqiqat, yordamingiz tegdi! Agar siz bo'lmaganingizda, kechgacha o'sha yerda qolib ketgan bo'lardim... Siz doim shu yo'ldan yurasizmi?

– Ha. Fermada ishlayman.

– Juda yaxshi! – deb quvonib ketdim, ammo darrov o'zimni o'nqlab olib, so'zimni to'g'rilab qo'ydim. – Yo'l juda yaxshi!

Xuddi shu payt mashina chuqurlikka tushib qattiq silkingan edi, yelkalarimiz bir-biriga tegib ketdi. Men tomoq qirib qo'ydim, ko'zlarimni qayoqqa yashirishni bilmay, qip-qizarib ketdim. U esa kulib yubordi. Shunda men ham o'zimni tutib turolmay, xaxolab kulib yubordim.

– Men bo'lsam kolxozga bormayman deb yuribman-a, – dedim kulgi aralash. – Agar yo'lda sizga o'xshagan yordamchi uchrashini bilganimda edi, dispetcher bilan adi-badi aytishib o'tirmagan bo'lardim... Eh, Ilyos, Ilyos! – deya o'zimni o'zim koyidim. – Bu mening ismim, – deb tushuntirdim so'ng qizga.

– Mening ismim Asal...

Biz ovulga yaqinlasha boshladik. Endi yo'l ancha tekis edi. Men mashinani yana qichabroq haydadim. Shaba-

da kabina derazasiga urilib, Asalning boshidagi durrachasini yulqilar va sochlarini to'zitar edi. Biz churq etmasdik. Ikkimiz ham iliq hislar quchog'iga cho'mib borardik. Tirsagi tirsagingga tegay-tegay deb o'tirgan mana shu qiz haqida bundan bir soat ilgari sen hech narsa bilmasding, endi bo'lsa nima uchundir faqat uning to'g'risida o'ylaging keladi. Shunday paytlarda mashinani haydash ham juda oson, juda maroqli bo'lar ekan... Asalning ko'nglida nimalar kechayotganini bilmasdim, ammo uning ko'zlari tabassum bilan porlardi. Ehtimol, u ham menga o'xshab hech qachon ajralmaslik uchun uzoq va tinimsiz yurishni istayotgandir. Bu mening orzu-xayollarim, albatta. Shu chog' mashina ovul ko'chalaridan o'tib borayotgan edi. Shunda Asal mashinada ketayotgani to'satdan esiga tushib qolgandek:

– To'xtating, tushaman! – dedi cho'chinqirab.

Men mashinaga tormoz berdim.

– Yetib keldik shekilli? Shu yerda turasizmi?

– Yo'q, – dedi u negadir hayajonlanib, bezovtalanib. – Yaxshisi, shu yerda tushib qo'ya qolay.

– Nega endi? To'ppa-to'g'ri uyingizga olib borib qo'yaman! – deb uning e'tiroz bildirishiga imkon bermay, mashinani yana haydab ketdim.

– Shu yerda tushaman, – dedi Asal nihoyat. – Rahmat!

– Marhamat! – dedim arang, so'ng: – Agar ertaga mashinam yana boyagi yerda tiqilib qolsa, yordam berasizmi? – dedim hazil aralash jiddiylik bilan.

U javob berishga ulgur olmadim. Yaqindagi hovlining ko'cha eshigi ochilib, allanimadan tashvishlangan keksagina ayol yugurib chiqdi.

– Asal! – deb qichqirdi u nimadandir ogohlantirmoqchi bo'lgandek, qo'li bilan og'zini berkitib. – Qayoqlarda daydib yuribsan, Xudo ko'tarsin seni! Bor, tezroq kiyimlaringni almashtir, sovchilar kelishdi!

Asal uyalib ketdi. Yelkasidan kamzulini ham tushirib yubordi, so'ngra uni yerdan oldi-da, itoatkorona onasining orqasidan ketdi. U eshik oldiga borganda orqasiga bir qayrilib qaradi, ammo shu zahotiyoq eshik „taq“ etib yopildi.

Men ko'chadagi qoziqda bog'log'liq turgan egarlangan va uzoq yo'l yurib terga botib kelgan otlarni endigina payqabman. O'tirgan yerimdan turib, devor osha hovliga qaray boshladim. O'choqboshida xotin-xalaj uymalashib yurishardi. Katta rux samovardan burqsib tutun chiqib turardi. Ikki kishi ayvonda yangi so'yilgan qo'y terisini shilmoqda. Xullas, sovchilarni ko'ngildagidek kutib olishayotgan edilar. Mening bu yerda qiladigan ishim qolmagandi. Borib yuklarni tushirishim kerak edi.

Avtobazaga kech kirganda qaytdim. Mashinani yuvib, garajga kiritib qo'ydim. Bu yerda ancha vaqtgacha o'ralashib yurdim, mashinaning u yoq-bu yog'ini ko'zdan kechirib, tuzatgan bo'ldim. Bugungi voqeani ko'nglinga shunchalik yaqin olganimni negadir o'zim ham tushunmasdim. Butun yo'l bo'yi o'zimni o'zim dam koyirdim, dam yupatardim: „Xo'sh, senga nima? Qanaqa ahmoqsan o'zing? Axir u sening kimning bo'ladi o'zi? Qaylig'ingmi? Yo singlingmi? Tasodifan yo'lda uchrashib qolib, uyiga olib borib qo'yibsan, xo'sh, nima bo'пти? Go'yo ilgaridan bir-birlaringni sevib yurgandek kuyunishingni qara-yu! Ehtimol, u sening haqingda o'ylashni ham istamas. Senga juda ko'zi uchib turgani ham yo'qdir! Axir qizning aytirib qo'ygan kuyovi bo'lsa, sen uning kimi bo'lsan, hech kimi! Yo'lda uchragan begona shofyor bo'lsang, senga o'xshagan shofyorlar son-sanoqsiz-ku, axir... Yana birovlarning ishiga aralashishga nima haqqing bor: ular quda-anda bo'lishyapti, yaqinda to'y qilishadi, ularning ishiga tumshug'ingni suqib nima qilasan? Hammasiga tupur. Sening ishing nima? Yaxshisi, rulingni aylantirib yuraver!..“

Ammo butun balo shunda ediki, o'zimni har qancha avrasam ham u qizni yodimdan chiqara olmasdim.

Mashina oldida qiladigan ishim ham qolmadi. Yotoqxona borsam bo'lardi. U yerda shovqin-suronli, gavjum joy – qizil burchak ham bor. Mening u yoqqa borgim yo'q. Ko'nglim yolg'iz bo'lishni istardi. Qo'llarimni boshim ostiga qo'yib, mashina qanotiga chalqanchasiga yotdim.

Yonginamda, mashina ostida Jontoy degan shofyor ivirsib yurgan edi. U chuqurdan boshini chiqardi-da:

– Senga nima bo‘ldi, chiroyli yigit? Xayol suryapsanmi? – dedi masxaraomuz to‘ng‘illab.

– Ha, pul haqida! – deb shartta kesdim gapini. Men uni yoqtirmasdim, u uchiga chiqqan xasis, ayyor va hasadgo‘y yigit edi. U boshqalarga o‘xshab yotoqxonada turmasdi. Allaqanday bir ayolnikida ijaraga turardi. Aytishlaricha, unga uylanishga va‘da berganmish, nima bo‘lsa ham uy-joyli bo‘lib oladi-da.

Men teskari o‘g‘irilib oldim. Hovlida, mashinalar yuviladigan joyda yigitlarimiz qiy-chuv ko‘tarib, hazil-huzul qilishyapti. Kimdir kabinaga chiqib olib, navbat kutib turgan shofyorlar to‘dasiga qarata brandspoytdan vishillatib suv sepmoqda. Ular butun avtobazani boshlariga ko‘tarib qahqahlashardi. Otilib chiqayotgan suv shunchalik kuchli ediki, borib urilgan odamini bemalol gandraklatib yuborardi. Boyagi yigitni kabina ustidan tushirishmoqchi bo‘lishar edi-yu, ammo u turgan joyida irg‘ishlab, go‘yo avtomatdan o‘q yog‘dirayotgandek, kishilarning orqasiga suv bilan savalab, bosh kiyimlarini uchirib yuborar edi. Birdan otilib chiqayotgan suv osmonga ko‘tarildi-yu, quyosh nurlari ostida kamalakka o‘xshab egilib tusha boshladi. Qarasam, dispetcherimiz Xadicha turibdi. Suv esa uning ustidan uchib o‘tmoqda. Biroq u qimir etmasdi. Xadicha o‘z qadr-qimmatini bilardi, hammaning o‘ziga suqlanib qarashini ham sezardi. U o‘zini qanday tutishni yaxshi bilar, uncha-muncha odamni o‘ziga osonlikcha yaqin yo‘latmasdi. Hozir ham u ishonch bilan hech narsadan cho‘chimay, qani sepib ko‘r-chi, o‘jizlik qilasan, degandek, parvoyi falak turardi. Etikli oyoqlarini kerib, shpilkalarni og‘zida tishlab, kulimsiragancha uni sochlariga qadardi. Mayda, kumushsimon suv zarrachalari uning boshi uzra tushayotgan edi. Yigitlar qah-qahlashib, kabina ustidagi yigitni gijgijlashardi.

– Xadichani cho‘miltirib qo‘y!

– Bir bopla!

– Qo‘lidan kelmaydi!

– Qochib qol, Xadicha!

Yigit jur'at eta olmay, otilib chiqayotgan suv oqimini yuqorilatib-pastlatib o'ynardi. Uning o'rnida men bo'lganimdami, boshidan oyog'igacha suvga cho'mlirardim, shunda ham u menga hech narsa demagan bo'lardi, kulardi-qo'yardi, xolos. Men buni maqtanchoqlik qilib aytayotganim yo'q. Xadichaning boshqalarga qaraganda menga qandaydir boshqacha munosabatda ekanini doim sezib yurardim. U men bilan gaplashganda boshqacharoq: muloyim, sal tantiqroq bo'lib qolardi. Hazillashib tegajaklik qilsam ham, boshini silasam ham unga yoqib ketardi. Uning doim men bilan bahslashib, janjallashib qolib, yana darhol, hatto nohaq bo'lsam-da, taslim bo'lishini yaxshi ko'rardim. Ba'zan uni kinoga olib tushardim, uyi yotoqxona yo'lida bo'lgani uchun kuzatib ham qo'yardim. Uning oldiga, dispetcher xonasiga to'ppa-to'g'ri kirib boraverardim, boshqalar esa faqat tuynukcha orqali murojaat qilishardi.

Ammo hozir Xadicha ham ko'nglimga sig'masdi. Mayli, u erkalgini qilaversin.

Xadicha so'nggi shpilkasini qadab bo'ldi:

– Bas, yetar endi shuncha o'ynashganing! – dedi u amirona.

– Xo'p bo'ladi, o'rtoq dispetcher! – deb kabina ustidagi yigit qo'lini chakkasiga qo'yib chest berdi-yu, hukmni osonlik bilan bajo keltirdi. Atrofdagilar xaxolashganicha yigitni kabina ustidan sudrab tushirdilar.

Xadicha esa biz turgan garajga qarab kelaverdi. U Jontoyning mashinasi yonida to'xtab, kimnidir izlay boshladi. U xiyla paytgacha meni payqamadi. Oramizda garajni xona-xona qilib ajratib turuvchi sim to'rlar bor edi. Jontoy chuqurdan boshini chiqarib:

– Salom, suluv qiz! – deb salomlashdi.

– E, Jontoy...

U ko'zlarini lo'q qilib, Xadichaning oyoqlariga tikiilib turardi. Xadicha esa ensasi qotgandek yelkasini qimtib qo'ydi-da:

– Xo'sh, namuncha tikilasan? – deb etikchasining uchi bilan Jontoyning iyagiga sal turtib qo'ydi.

Boshqa odam bo'lganda, ehtimol uni so'kib bergan yoki ranjib qolgan bo'larmidi. Bu bo'lsa go'yo bo'sa olgandek og'zi qulog'iga yetib, chuqurga sho'ng'ib ketdi.

Xadicha to'siqqa yaqinlasharkan, menga ko'zi tushib qolib:

– Dam olyapsanmi, Ilyos? – dedi.

– Ha, par to'shakda yotgandek!

U yuzini sim to'rga qadab, menga tikilib qaradi va sekingina:

– Dispetcherxonaga kir, – dedi.

– Xo'p.

Xadicha ketdi. O'rnimdan turib, ketishga hozirlandim. Jontoy yana boshini chiqardi:

– Yaxshi narsa-ya! – dedi qo'llarini ishqalab, menga ko'z qisib.

– Ammo sening tenging emas! – deb gapning po'stkallasini aytdim-qo'ydim.

Men uning jahli chiqar, men bilan urishib ketar, deb o'ylagan edim. Urish-janjal ishqibozlaridan emasman-u, ammo yuragim shu daraja azob chekayotgan ediki, o'zimni qo'yarga joy topa olmay turgan edim. Biroq Jontoy xafa bo'lishni xayoliga ham ketirmadi:

– Hechqisi yo'q! – deb to'ng'illadi u. – Omon bo'lsak, ko'rarmiz...

Dispetcher xonasida hech kim yo'q edi. Nima balo? Qayoqqa yo'q bo'ldi u: ichkari kirishim bilan eshik yopildi. Orqaga o'girildim-u ko'kragim Xadichaning ko'kragiga qadolib, to'qnashib qoldik. U boshini orqaga tashlab, eshikka suyanib turardi. Ko'zlari kipriklari ostida chaqnardi. Qaynoq nafasi yuzimga urilardi. U mening quchoqlab olishimni, o'pishimni kutib turgandek edi. O'zimni tuta olmay qoldim. U tomon intildim-u, yana shu zahotiyoy orqaga tislandim. Bu gap qanchalik g'alati tuyulmasin, men o'sha daqiqada o'zimni Asalimga xiyonat qilayotgandek his etdim. Bunday fikrning juda kulgili ekanligi xayolimga ham kelmadi.

– Nega chaqirding? – deb so'radim norozi ohangda.

Xadicha hamon menga jimgina boqib turardi.

– Gapir, nima? – dedim toqatim toq bo‘lib.

– Nahotki nimagaligini bilmasang? – dedi u dili og‘ri-gandek. – Negadir qiyo boqmaydigan bo‘lib qolding. Yoki boshqa birontasi topilib qoldimi?

Men dovdirab qoldim. Nega mendan o‘pkalayapti? Qa-yoqdan bila qoldiykin?

Shu paytda tuynukchanning zulfini shiqillab qoldi.

Jontoy boshini tiqib mo‘raladi. U qisiq ko‘zlari-ni o‘ynatib tirjayib turardi. Poylamoqchi bo‘libdi-da! Eh, ko‘nglimda nimalar borligini bilganda edi, bunday qilma-gan bo‘lard!

– Marhamat, o‘rtoq dispetcher! – dedi u ichiqoralik bi-lan Xadichaga qandaydir qog‘ozni uzatarkan.

Xadicha jahl bilan unga xo‘mrayib qaradi-yu, qog‘ozni olmadi. Alam bilan yuzimga to‘rsillatib gapira ketdi:

– Sen uchun yo‘llanmani kim oladi? Alohida taklif qilishlarini kutib yuribsanmi?

Xadicha qo‘li bilan meni chetlatib, stol tomon tez o‘tdi.

– Ma! – deb yo‘llanmani uzatdi.

Men uni oldim. Ertalik yo‘llanma yana o‘sha kolxozga berilgan edi. Yuragim muz bo‘lib ketdi: Asalning qay ahvoldaligini ko‘ra-bila turib, yana o‘sha yoqqa bo-ramanmi... Nega o‘zi doim meni kolxozma-kolxoz hay-dashgani haydashgan?

G‘azabim qaynab, qizishib ketdim.

– Yana kolxozgami? Yana go‘ng-u g‘isht tashishgami? Bormayman! – deb yo‘llanmani stolga uloqtirdim. – Bas, shuncha loy kechganim yetar. Boshqalarni ham yuborishsin!

– Baqirma! Naryading bir haftalik! Lozim bo‘lsa tag‘in yuborishadi! – dedi Xadicha menga.

Men esa xotirjamlik bilan:

– Bormayman! – dedim qat‘iy.

Har galgidek hozir ham Xadicha birdan shashtidan tu-shib qoldi.

– Xo‘p, mayli. Men boshliqlar bilan gaplashib ko‘ra-man, – dedi.

U stoldan yo‘llanmani oldi.

„Demak, bormaydigan bo‘ldimmi? – deya o‘yladim

men. – Endi Asalni ham hech qachon ko'rmaymanmi?" Battarroq qiynala boshladim. Negadir tezda o'z hukmimdan qaytdim-da, yana u yoqqa borishga ahd qildim. Agar shunday qilmasam, keyin umr bo'yi afsuslanib yurishim menga ayon bo'ldi. „Mayli, nima bo'lsa bo'lsin, ammo boraman!..“

– Mayli, bu yoqqa ber! – deb yo'llanmani tortib oldim.

Tuynukchadan mo'ralab turgan Jontoy piqillab kulib yubordi-da:

– Ovuldagi buvimga salom aytib qo'y! – dedi.

Men hech narsa demadim. Tumshug'iga boplab tushirsang! Eshikni taraqlatib yopdim-da, yotoqqa ketdim.

Ertasi yo'lda ketayotib chor tarafga nazar tashlab, ko'zlarim to'rt bo'ldi. Qani u? Qani endi, uning sarvinoz qomati ko'rina qolsa. Qizil durrachali sarviqomatim! Ehtimol, rezina etik, otasining kamzulini kiyib olgan dersiz! Bekor gap! Men uning qanaqa ekanligini o'z ko'zim bilan ko'rganman! Uning nimasi meni rom etdi, qalbimni nega bunchalik o'rtayapti?

Tevarak-atrofga nazar tashlab bormoqdaman. Yo'q, hech qayerda ko'rinmaydi. Bu safar emas, turgan-bitganini azob bo'ldi. Qani u, uni qanday topsam ekan? Ovulga yetdim, so'ngra qishloq ko'chasi bo'ylab haydadim, uning hovlisiga yaqinlasharkanman, mashinani sekinlatib, oxiri to'xtadim. Ehtimol, u uyidadir? Qanday chaqiraman, unga nima deyman? U bilan yana uchrashish menga nasib etmas ekan-da. Yukni olib borib tashlash uchun mashinaga gaz berdim. Yukni tushirishyapti-yu, ko'nglimda hamon umid uchqunlari yonmoqda. Balki qaytishda uchratib qolarman? Biroq qaytishda ham uchratmadim. Shundan keyin mashinani ferma tomon burdim. Ularning ko'hna fermasi anchagina chekkada, ovuldan uzoqda ekan. U yerga yetib kelib, bir qizdan so'radim. U, Asal yo'q, bugun ishga chiqmadi, dedi. „Demak, yo'lda men bilan uchrashmaslik uchun atayin ishga chiqmagan“, – deb o'yladim-da, juda xafa bo'lib ketdim. Avtobazaga g'amgin bo'lib qaytdim.

Ikkinchi kuni yana yo'lga chiqdim. Ammo endi uni uchratishni xayolimga ham keltirmasdim. Darvoqe, mening

unga nima keragim bor? Agar qiz unashtirilgan bo'lsa, uni bezovta qilishdan nima foyda? Ammo negadir bunday bo'lishiga sira ishongim kelmasdi. Axir ovullarimizda hanuzgacha qiz bilan yigitni bir-biriga ko'rsatmay, orqavorotdan fotiha qilib yuboraveradilar-ku! Bu haqda necha marta gazetalarda ham o'qidim. Biroq yozgan bilan foydasi qancha? To'ydan keyin nog'ora chalishning foydasi yo'q, fotihani buzib bo'lmaydi. Unashtirilgandan keyin gap tamom. Fotihani buzish – xayrli ish emas, ikki yoshning turmushi buzildi, degan gap... Mana shunday o'y-xayollar miyamda chuvalashib ketgandi...

O'sha kezlar ayni bahor chog'i edi. Tog' etaklarida lolalar tovlanardi. Bolaligimdanoq men bu cho'g'dek qip-qizil gullarni sevardim, yalangoyoq chopqillab yurib quchoquchoq lola tersang-u, unga keltirib bersang! Ammo qani endi u, topib ko'r-chi...

Bir mahal, qarasam, Asal. Ko'zlarimga ishongim kelmaydi! O'tgan gal mashinam tiqilib qolgan joyning naq o'zginasida bir chetda, xarsang tosh ustida o'tiribdi. Birovni kutib o'tirganga o'xshaydi. U cho'chib o'rnidan turdi va sarosimaga tushib, boshidan durrasini yulqib oldi-yu, qo'lida g'ijimlay boshladi. Asal bu safar chiroyli ko'ylak va tufli kiyib olgan edi. Yo'l shunchalik olis bo'lsa ham u poshnali tufli kiyib olibdi. Mashinani to'xtatishga shoshildim. Yuragim esa taka-puka bo'lib o'ynardi.

– Salom, Asal!

– Salom, – dedi u sekingina.

Men kabinaga o'tirishga yordamlashmoqchi bo'ldim, u burilib, yo'l bo'ylab asta yurib ketdi. Demak, kabinaga chiqishni xohlamayapti. Mashinaning eshigini ochganimcha u bilan yonma-yon sekin haydab ketaverdim. Shu zaylda, u yo'l chekkasida, men esa rulda jimgina borardik. Men nima haqda gapirishni ham bilmasdim, bir payt u:

– Kecha fermaga kelgan sizmidingiz? – deb so'rab qoldi.

– Ha, nima edi?

– Shunchaki o'zim. U yerga bormang.

– Sizni ko'rmoqchi edim.

U hech narsa demadi.

Miyamdan esa o'sha la'nati unashish sira nari ketmasdi. Nima bo'lganini bilgim kelardi. Ammo so'rashga tilim bormasdi. Yuragim dov bermasdi. Uning nima deb javob berishidan cho'chirdim.

Asal menga qarab qo'ydi.

– O'sha gap rostmi?

U bosh irg'adi. Rul qo'limdan chiqib ketayozdi.

– To'y qachon? – deb so'radim.

– Yaqinda, – dedi u ohista.

Mashinani g'izillatib, boshim oqqan tomonga ketib qolishimga sal qoldi. Tezlikni oshirish o'rniga aksincha qilib qo'yibman. Motor bekorga gurullab aylanardi. Asal cho'chib o'zini chetga oldi. Men esa hatto undan uzr ham so'ramabman, o'sha mahal uzr so'rash esga kelarmidi.

– Endi boshqa uchrashmas ekanmiz-da? – dedim.

– Bilmadim. Uchrashmaganimiz ma'qulroq.

– Men esa, men baribir... Istasangiz-istamasangiz doim sizni izlayman!

Biz yana jim qoldik. Ehtimol, ikkimiz ham bir narsa haqida o'ylayotgandirmiz, ammo ikkimiz ikki yo'ldan ketayotgandek, go'yo o'rtamizda mening unga yaqinlashishimga, uning esa mening kabinamga o'tirishiga imkon bermaydigan qandaydir devor turgandek edi.

– Asal! – dedim. – Mendan o'zingizni tortmang. Sizga hech ham xalal bermayman. Sizni uzoqdan ko'rib yuraman. Maylimi?

– Bilmadim, balki...

– O'tiring, Asal.

– Yo'q, mayli, ketavering. Ovulga yaqinlashib qoldik.

Shundan keyin ham biz uchrashib turdik, har safar uchrashganimizda go'yo tasodifan to'qnashib qolgandek bo'lardik. Yurishimiz ham avvalgidek. U yo'l chetidan, men esa kabinada borardim. Juda alam qilardi, ammo nima qila olardim, birovni zo'rlab kabinaga chiqarib bo'lmaydi-ku, axir.

Kuyov haqida og'iz ochmasdim. Noqulay ahvolda qolishi mumkin, qolaversa, so'rashni ham istamasdim. Ammo so'zlaridan tushunishimcha, Asal uni yaxshi bilmas ekan.

U ona tomondan biroz chatishgan ekan, o'zi esa uzoqda, tog'dagi o'rmon xo'jaligida yasharmish. Bu oilalar qadimdan bir-birlari bilan qiz berishib, qiz olishib, shu bilan avlodma-avlod qarindosh-urug'chilik aloqalarini saqlab keltirishgan. Bizda esa bunday urug'-aymoqchilik juda hurmat qilinadi. Asalning ota-onasi uni begonaga berishni xayollariga ham keltirmasdi. Men haqimda so'z ham bo'lishi mumkin emasdi. Men kim bo'libman? Allaqanday kelgindi, tag-zotining tayini yo'q bir shofyorman-da. Ochig'ini aytganda, o'zim ham qizdan umidvor bo'lib og'iz ocholmagan bo'lardim.

O'sha kunlari Asal kamgap bo'lib qoldi. G'am-g'ussa chekib, doim allanimalar haqida o'ylab yurardi. Mening esa butun umid va ishonchlarim sovurilgan edi. Uning taqdiri hal bo'lmoqda, uchrashish ham befoyda edi. Biroq biz xuddi yosh bolalardek, gapirishganda bu haqda so'z ochmay, chetlab o'tardik va u bilan shu taxlitda uchrashaverdik, chunki uchrashmasdan turolmas edik. Ikkalamizga ham busiz yashash mumkin emasdek tuyulardi. Ammo bizni oldinda nimalar kutayotganini tasavvur ham qila olmasdik.

Oradan besh kun o'tdi. Shu kuni ertalab avtobazada yo'lga tayyorgarlik ko'rayotgan edim. Bir o'rtog'im kelib, seni dispetcherxonaga chaqirishyapti, dedi. Chopib ketdim.

– Suyunchi ber! – dedi quvonch bilan Xadicha. – Seni Sinszyan yo'liga o'tkazishdi!

Men turgan yerimda qotib qoldim. Sinszyanga meni birinchi marta yuborayotganlari yo'q edi. Shunday bo'lishi turgan gap edi, ammo keyingi kunlarda menga umrbod kolxozga qatnashim shartdek bo'lib qolgandi.

Xitoyga qatnash ko'p kunlik yo'l, kim bilsin, Asalni ko'rishga vaqt topa olarmikinman. Uni xabardor qilmasdan to'satdan g'oyib bo'lib ketamanmi?

– Senga ma'qul tushmadi deyman-a? – dedi Xadicha.

– Kolxoz nima bo'ladi? – dedim hayajonlanib. – U yerdagi ishlar hali tamom bo'lgani yo'q-ku.

Xadicha yelkasini qisib qo'ydi:

– U yoqqa borishni ilgari o‘zing istamagan eding-ku. „Obbo, qo‘lga tushirdi-yu!“ – deb o‘yladim men va jahlim chiqib:

– Ilgari istamagan bo‘lsam istamagandirman-da! – dedim.

Stulga o‘tirdim, nima qilishimni bilmay qoldim.

Jontoy yugurib kirib keldi. Ma‘lum bo‘lishicha, mening o‘rnimga uni kolxozga yuborishayotgan ekan. Men sergaklanib turdim. Jontoy bosh tortsa kerak, chunki qishloqqa qatnaganda norma kamayib ketar edi. Bu esa qo‘lga oz pul tegadi degan so‘z. Ammo u, bilmadim, nima uchundir, yo‘llanmani oldi, yana buning ustiga mamnun bo‘lib:

– Xohlagan tomoningga yuboraver, Xadicha, dunyoning narigi chekkasiga bo‘lsa ham mayli! Hozir ovulda qo‘ylarning ayni qo‘zilayotgan payti, senga ham olib kelaymi? – dedi. Keyin bu yoqda men o‘tirganimni ko‘rib: – Kechirasan, xalaqit berdim shekilli, – deb qo‘ydi.

– Yo‘qol bu yerdan! – deb o‘shqirdim boshimni ko‘tarmasdan.

– Xo‘sh, nega o‘tiribsan, Ilyos! – deb yelkamga turtdi Xadicha.

– Kolxozga men borishim kerak, meni yubor, Xadicha! – deb iltimos qildim undan.

– Aqling joyidami o‘zi, ilojim yo‘q, naryad tamom bo‘lgan, – dedi-da, menga tashvishlanib tikildi. – Namuncha kolxozga qatnaging kelib qoldi?

Men hech narsa demay, chiqib ketdim. Garajga keldim. Jontoy meni masxara qilgandek yonimdan mashinasini g‘izillatib o‘tib ketdi, qanoti bilan urib ketishiga sal qoldi.

Mashina yonida allamahalgacha ivirsib yurdim, ammo biron iloj topa olmasdim. Yuk ortiladigan stansiyaga bordim. U yerda bir to‘da shofyorlar navbat kutib turishgan edi.

O‘rtoqlarim papiros chekishamiz, deb chaqirishdi, ammo men kabinadan chiqmay o‘tiraverdim. Ko‘zimni yumdim-u, Asalning yo‘lda meni behuda kutib o‘tirganimni ko‘z o‘ngimga keltirdim. Bir kun kutar, ikki kun, uch kun... So‘ng mening haqimda nima deb o‘ylashi mumkin? Qo‘rqoq, qochib qoldi, deb o‘ylasa-ya!

Mening navbatim esa yaqinlashmoqda edi. Oldimdagi mashinaga yuk orta boshlashdi. Kran qandaydir katta-katta yashiklarni kuzovga tushirmoqda. Yana birozdan keyin kran ostiga mening mashinam turishi kerak. „Kechir meni, Asal! – deb o‘yladim men. – Kechir, meni, go‘zalim, sarviqomatim! Seni ogohlantirolmadim!“ Ammo shu payt to‘satdan miyamga oddiygina bir fikr kelib qoldi: axir men u yoqqa allaqachonoq borib unga aytib qaytishim mumkin edi-ku. Yo‘lga bir necha soat kechikib chiqsam, osmon qulab yerga tushmas? Avtobaza boshlig‘iga keyinchalik tushuntirarman, balki tushunar, tushunmasa biroz koyir, hayfsan e‘lon qila qolar yoki juda zo‘r kelsa ishini olar. Allaqachon shunday qilishim kerak edi! Ketdim!

Mashinamni orqaga yurgizmoqchi bo‘lib, darhol motorni yurgizdim. Ammo ortimda mashinalar tirband edi. Bu orada oldimdagi yuk ortilgan mashina o‘z joyini bo‘shatdi. Navbat menga keldi. Men sal hayallab qoldim.

– Mashinangni keltir! Hey, sen! – deb baqirdi kranchi menga qarab.

Yuk olish uchun mashinamni oldinga siljitdim. Kraning xartumi tepamga yaqinlashib kelmoqda. Bo‘ldi, ish tamom! Eksport yuki bilan biron yoqqa jilib ko‘r-chi. Nega axir shuni ilgariroq o‘ylab ko‘rmabman-a? Safarga jo‘natuvchi kishi kelib, hujjatlarga belgi qila boshladi. Men kabinaning orqa derazachasiga qaradim. Tepadan kuzovga konteyner tebranib tushmoqda edi. U borgan sari kuzovga yaqinlashib kelaverdi.

Ana shunda men:

– Po‘sh! – deb qichqirdim-da, mashinani shiddat bilan konteyner ostidan olib qochdim. Xayriyatki, motor o‘chirilmagan edi. Orqadan qichqiriq, hushtak va so‘kish ovozlari eshitildi. Biroq men e‘tibor bermasdan mashinani omborlar, taxlab qo‘yilgan yog‘ochlar va ko‘mir uyumlari yonidan g‘izillatib borardim. Pastqam yo‘llar bilan shahardan chiqib oldim va tog‘ etagiga, kimsasiz yo‘lga yetib kelgach, rulga mahkam yopishib oldim. Mashina yelib borardi, „ZIL“ goh u tomon, goh bu tomon chayqalib ketardi. Ammo biz bunga ko‘nikib qolgan edik.

Ko'p o'tmay Jontoyni quvib yetdim. Oldinga o'tib ketmoqchi bo'lib signal berdim. U kabinadan boshini chiqarib xo'mrayib qaradi. Dovdirab qolib, ko'zlari qinidan chiqib ketayozdi: meni tanidi. Ablahni qarang! Birovning shoshilayotganini ko'rib turgandan keyin unga yo'l berish kerak-da. Ammo u-chi, yo'l bergisi kelmaydi, boshimni aylantirmoqchi. Shunda men mashinani chetga burdim-da, uni to'g'ri paykal bilan quvib boraverdim. Jontoy ham mashinasini qistay boshladi. Endi u yo'lga chiqib olishga imkon bermasdi. Biladiki, atrofda harakat qoidalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortadigan biron kimsa yo'q. Buning ustiga, hozir uni hech nima qila olmasligimni biladi. Shu zaylda uchib borardik: u yo'lda, men paykal ichi bilan. Ikkalamiz ham rulga yopishib olganmiz, yirtqichlardek bir-birimizga ko'z olaytiramiz, so'kinamiz.

– Sen qayoqqa? Nega? – deb baqirdi u menga. Men unga musht o'qtalib do'q qilardim. Har holda mening mashinam yuksiz edi. Uni quvib o'tdim, orqamga qayrilib qaragam, u endi shoshmay, tinchgina kelardi. Ha, iblis, menga desa battar bo'l.

Asalni hech qayerda uchratolmadim. Ovulga kelib, mashinani ularning hovlisi oldida to'xtatdim. Xuddi piyoda chopib kelgandek nafasim bo'g'zimga tiqila boshladi. Hovlida ham, ko'chada ham hech kim ko'rinmasdi. Faqat egarlangan otgina qoziqqa bog'log'li turardi, xolos. Nima qilسام ekan? Kutishga ahd qildim. Mashinani ko'rib ko'chaga chiqar, deb o'yladim o'zimcha. Go'yo bir narsani tuzatayotgandek motorni ochib, u yoq-bu yog'ini qaray boshladim, ammo o'zim eshikdan ko'zimni uzmasdim. Unchalik uzoq kutmadim: eshik ochilib, ichkaridan Asalning onasi va to'ladan kelgan, qora soqolli, ikki qavat to'n kiygan chol chiqdi. Qo'lida ajoyib qamchi. Aftidan, u hozirgina choy ichgan bo'lsa kerak, terlab-pishib, bo'rsib ketgandi. Ular ot bog'langan qoziqqa yaqinlashdilar. Asalning onasi mehmonga yordamlashdi. Bilsam u sovchini kuzatayotgan ekan.

– Biz sizdan xursandmiz, quda! – dedi u. – Ammo bizdan ham ko'nglingiz to'q bo'lsin. O'z qizimiz uchun hech narsani ayamaymiz. Xudoga shukur, qo'limiz quruq emas.

– E-e, boyvuchcha, xafa bo‘lmaymiz, – dedi u egarga tuzukroq o‘rnasha turib. – Olloh taolo yoshlarga umr bersin. Yaxshilik qilsak begonaga emas, o‘z farzandlarimizga qilamiz. Xudoga shukur, birinchi marta qudalashayotganimiz yo‘q. Xo‘p, omon bo‘l, boyvuchcha. Shunday qilib, juma kuniga kelishdik-a!

– Ha, juma kuni kutamiz. Juma – ulug‘ kun. Oq yo‘l sizga. Qudamga salom ayting!

„Nega ular juma kuni haqida gapirib qolishdi?“ – deb o‘yladim men. „Bugun qanaqa kun? Chorshanba... Nahotki juma kuni olib ketishsa? Eh, qachongacha eski urf-odatlar biz yoshlarning hayotimizni poymol etadi?“

Chol otini tog‘ tomon yo‘rttirib ketdi. Asalning onasi otliq uzoqlashib ketguncha kutib turdi, so‘ngra menga tomon o‘girilib, xo‘mrayib qaradi.

– Nega bu yerda pashshaxo‘rda bo‘lib qolding, ho takasaltang? – dedi u. – Bu yer senga karvonsaroy emas! Tuyog‘ingni shiqillatib qol! Qani jo‘na, eshityapsanmi? Senga aytyapman.

Demak, allaqachon sezib qolibdi.

– Mashinam buzilib qoldi! – dedim o‘jarlik bilan po‘ng‘illab va belimgacha kapotning ostiga sho‘ng‘ib ketdim. Yo‘q, uni ko‘rmagunimcha hech qayoqqa ketmayman, derdim o‘zimcha.

Kampir javrab-javrab kirib ketdi.

Men kapotning ostidan chiqdim-da, mashina zinasiga o‘tirib olib, cheka boshladim. Qayoqdandir kichkinagina qizcha paydo bo‘lib qoldi. U bir oyoqlab hakkalab mashina atrofida gir aylana boshladi. Qizcha sal Asalga o‘xshardi. Uning singlisi emasmikin?

– Asal ketib qoldi, – dedi u, o‘zi esa hamon sakrab-sakrab o‘ynardi.

– Qayoqqa? – deb ushlab oldim uni. – Qayoqqa ketdi?

– Men qayoqdan bilay! Qo‘yvor! – deb qo‘limdan yulqinib chiqdi-da, qochib ketayotib tilini ko‘rsatib qo‘ydi.

Kapotni taq etib yopib, rulga o‘tirdim. Qayoqqa boray, uni qayerdan izlay? Vaqt o‘tib ketyapti, qaytishim kerak. Men orqaga qaytdim, dashtga yetib kelib, ariqdan o‘tish

joyida mashinani to'xtatdim. Nima qilish kerakligiga sira aqlim yetmasdi. Kabinadan tushdim-da, yerga ag'anab yotdim. Yuragim siqila boshladi. Asalni ham topa olmadim, safarni ham barbod qildim. Orqaga qaytishning foydasi yo'q. Bo'lar ish bo'ldi. Nima bo'lsa bo'lar. O'yg'a botdim, ko'zimga hech narsa ko'rinmas, qulog'imga hech narsa eshitilmasdi. Shu ko'yda qancha vaqt yotdim, bilmayman. Har qalay, anchagina yotgan bo'lsam kerak. Keyin, nima uchunligini hali ham bilmayman: bir mahal boshimni ko'tardim. Mashinaning narigi tomonida tuflicha kiygan oyoqlar to'xtadi. O'sha! Darrov tanidim. Shunday quvonib ketdimki, o'rnimdan turolmay, cho'kkalagancha o'tirib qoldim. Bu safar ham biz o'sha joyda – birinchi marta uch-rashgan yerda ko'rishdik.

– Yo'lingdan qolma, kampir! – dedim mashina ostidan „tuflichalardan“ ko'z uzmay.

– Hech ham kampir emasman-da! – deb hazilga hazil bilan javob qaytardi Asal.

– Kimsan bo'lmasa?

– Qiz bolaman?

– Qiz bolaman? Chiroylimisan?

– Qarab ko'ring-chi!

Ikkalamiz ham baravariga kulib yubordik. Men sakrab turib, unga tomon otildim. U ham menga qarab yugurdi. Yuzma-yuz to'xtadik. Baxtiyor bolalardek quvnab kulardik.

– Go'zallarning go'zali! – dedim men. Qo'ltig'ida ikkita kitob, egnida kalta yengli ko'ylak, yuzlari gul-gul yonib, shabadada tebranib turgan nozikkina sarv daraxtiga o'xshardi u.

– Mening bu yerdaligimni qayoqdan bilding?

– Kutubxonadan kelayotgan edim, qaragam, yo'lda sizning mashinangizning izlari!

– Rostdanmi?

Men uchun bu „sevaman“ so'zidan ham azizroq, qimmatliroq edi. U ham mening haqimda o'ylar ekan, hatto mashinamning izini ham tanirkan, demak, meni sevar ekan-da. Orqadagi chap g'ildirakning pokrishkasi ikki xil edi, qiz ana shundan xabardor ekan.

– Men izga ko‘zim tushishi bilanoq bu yoqqa yugurdim, ko‘nglimda siz xuddi shu yerda kutib turgandek bo‘la-verdingiz!

Men uning qo‘lidan ushladim:

– Bu yoqqa chiq, Asal, biroz aylanamiz.

U jon deb rozi bo‘ldi. Endi u ham, men ham go‘yo butunlay boshqa odam edik. Barcha tashvish-u g‘am-g‘ussalar unutilib, ulardan asar ham qolmagan edi. Ko‘zimizga samo-yu yer va ikkimizdan boshqa hech narsa ko‘rinmasdi, biz baxtiyor edik. Kabina eshigini ochib, uni o‘tqazdim, o‘zim esa rulni tutdim.

Yo‘lga tushdik. Yo‘l bo‘ylab boraverdik, qayoqqa va nega – o‘zimiz ham bilmasdik. Ammo biz uchun buning ahamiyati yo‘q edi. Yonma-yon o‘tirsak, bir-birimizga kulib qarajak, qo‘lga qo‘l tegib tursa, buning o‘zgacha gashti bor-da. Asal mening soldatcha shapkamni to‘g‘rilab qo‘ydi. Men uni ikki yildan beri kiyib yurgan edim.

– Shunday kiysangiz yarasharkan! – dedi u va erkalanib yelkamga suykala boshladi.

Mashina dashtda qushdek uchib borardi. Butun borliq harakatga kelgandek edi. Tog‘lar, daralar, dov-daraxtlar – hamma-hammasi bizni qarshi olishga oshiqardi. Qarshimizdan shamol urilar – biz olg‘a qarab yelib borardik, quyosh bizga tabassum bilan boqardi, chunki biz quvnab-kulib borardik. Havo yovshan va gullolalarning xushbo‘y hidini taratardi, chunki biz to‘yib-to‘yib nafas olayotgan edik.

Yakka-yu yolg‘iz qabr ustidagi ko‘hna gumbaz xarobalarida o‘tirgan cho‘l kalxati ko‘tarilib, qanotlarini silkib-silkib mashina bilan birgama-birga yo‘l bo‘ylab yer bag‘irlab uchib borardi.

Yo‘lda ketayotgan ikki chavandoz cho‘chib ketib, o‘zlarini chetga oldi. Keyin dag‘dag‘a bilan qiyqirib, orqamizdan ot qo‘ydi.

– Hey, to‘xta! To‘xta, – deb qiyqirib, yer o‘pib chopib kelayotgan otlarini qamchilashardi. Ularning kim ekanligini bilmasdim. Balki Asalning ovulidandir. Ammo biz ularni tez chang-to‘zonda qoldirib ketdik.

Oldinda qandaydir arava yo‘l chetiga burildi. Arava-

da o'tirgan yigit bilan qiz o'rinlaridan qo'zg'alib cho'k-kalashdi-da, qo'llarini bir-birovlarining yelkasiga tashlagancha ikkinchi qo'llarini silkib qolishdi.

– Rahmat! – deya kabinadan qichqirdim ularga.

Dasht tamom bo'lib, katta yo'lga chiqib oldik. G'ildiraklar ostida asfalt g'uvullay boshladi.

Mashina bizni ko'l tomon eltardi. Men uni shartta yo'ldan chetga burdim-da, to'ppa-to'g'ri qo'riq yerga soldim, o't-o'lanlarni bosib-yanchib qirg'oqqa tomon haydadim. Tepalikda, naq suv tepasida to'xtadik.

O', Issiqko'l, qirg'iz diyorining so'nmas qo'shig'i! Bu dengiz oshiq-ma'shuqlar haqidagi afsona va qo'shiqlar diyori ekanligiga ishonmay bo'ladimi, axir. U shu damda mavjlanib, qatra g'uborsiz, rang-barang tovlanib turardi.

Ko'kimtir to'lqinlar o'rkach-o'rkach bo'lib, go'yo qo'l ushlab olishgandek, sarg'imgir qirg'oqlar sari yelib-yugurardi. Tog'lar ortida quyosh botmoqda, suvning etaklari ko'zni qamashtirib, pushti rang kasb etgan edi. Uzoqlarda osmon gumbaziga bosh urgan qorli tog'larning och binafsharang tizmalari ko'zga chalinadi. Bu tizmalar ustida kulrang bulutlar suzib yurardi.

– Uni qara, Asal! Oqqushlar! – deb qichqirib yubordim men. Oqqushlar Issiqko'lga faqat kuzda uchib kelishib, shu yerda qishlashadi. Bahorda esa bu yerga juda kamdan kam kelishadi. Odamlarning aytishicha, bular shimolga ko'chib ketayotgan janub oqqushlari emish. Ularning kelishi yaxshilikdan, baxtdan darak berar emish...

Oqqushlar galasi oqshomgi ko'l uzra uchib yurishardi. Qushlar goh yuqoriga ko'tarilar, goh qanotlarini yoyib pastga suzishardi. Ular suvga qo'nar, qanotlari bilan shaloplatib urib, ko'pirib turgan suv tomchilarini uzoqlarga sachratardilar-da, yana osmonga ko'tarilardi. So'ngra ular turnaqator tizilib, bir tekisda qanot qoqishib, tunamoq uchun ko'rfazning qumloq sohillari tomon uchib ketishardi.

Biz kabinada o'tirib, ko'lni jimgina tomosha qilardik. Go'yo hamma narsani hal qilib qo'ygandek, shunday dedim:

– Huuv anovi qirg'oqdagi tunuka tomlarni ko'ryap-

sanmi, u bizning avtobazamiz bo'ldi. Mana bu bo'lsa, – deb kabinani ko'rsatdim, – bizning uyimiz! – dedim-da, birdan kulib yubordim. Uni qayoqqa ham olib borardim.

Asal ko'zlarimga tikilib, o'zini ko'ksimga tashladi. U mening pinjimga tiqilarkan, ham yig'lar, ham kulardi.

– Jonginam, azizim! Menga hovli-joyning kera-gi yo'q! Faqat ota-onam, keyinchalik bo'lsa ham, qachon bo'lmasin, meni tushunib, gunohimni kechirishsa bo'lgani. Ular mendan umrbod xafa bo'lishadi, buni yaxshi bila-man... Ammo ayb mendami axir...

Tezda qosh qoraya boshladi. Ko'kni bulutlar qoplab ol-di – ko'lga sokinlik cho'kib, endi qorayib ko'rinardi. Tog' tizmalariga go'yo elektr payvandchi o'tirib olgandek, birdan o't chaqnab, ko'zlarni qamashtirar va yana o'char edi. Momaqaldiraq bosib kelayotgan edi. Oqqushlarning yo'l-larini o'zgartganlari ham bejiz emas. Tog'da yog'ingarchi-likka duch kelishlarini oldindan sezganlar.

Mana, momaqaldiraq gumburladi. Yomg'ir sharros quya boshladi. Ko'l chayqalib-to'lqinlanib qirg'oqlarga uri-la ketdi. Bu birinchi bahor momaqaldirog'i edi.

Bu – bizning birga o'tkazgan birinchi tunimiz edi. Kabina ustidan, oynalardan yomg'ir paqirlab suv quy-gandek oqib, sizib tushardi. Olis-olislarga cho'zilgan och yashil yashinlar qop-qora ko'lga suzib tushardi. Biz esa bir-birimizning pinjimizga kirib, shivirlashib gaplashardik. Asalning cho'chiganidanmi yo sovuq qotganidanmi, sal titrayotganini sezib turardim. Uni kamzulim bilan o'rab, qattiqroq quchoqladim. Shunda o'zimga o'zim juda kuchli, ulkan odamdek bo'lib ko'rindim. O'zimda shunchalik mehr va muhabbat borligini hech qachon sezmagani edim, bi-rovga mehribonlik va g'amxo'rlik qilish shunchalik zavqli ekanini ham bilmasdim. Uning qulog'iga: „Hech kimga, hech qachon seni xafa qildirib qo'ymayman, qizil durra-chali sarviqomatim!“ – deb pichirladim.

Ana-mana deguncha yomg'ir ham ancha shashtidan tu-shib qoldi. Ammo chayqalib yotgan ko'l hamon beshik-be-shik bo'lib to'lqinlanar, yomg'ir shivalab yog'ardi.

Men kabina tokchasidagi safarda olib yuriladigan ra-

diopriyomnikni oldim. O'sha kezlardagi mening topgan-tutganim shu edi. Musiqa tinglashni juda yaxshi ko'raman, shuning uchun ham priyomnikni doim o'zim bilan birga olib yurardim. Uning u yoq-bu yog'ini sozlab, kerakli to'lqinni tutdim. Hozirgidek esimda: o'sha kecha teatrdan „Cho'lpon“ baletini olib eshittirishmoqda edi. Baletda kuylanayotgan yoqimli va kishini o'ziga tortuvchi qudratli musiqa sadolari xuddi o'sha ashulada kuylangan chin sevgi kabi toshlar osha, cho'qqilar osha kabinaga oqib kelayotgan edi. Butun zal hayajonga kelgan, gulduros qar-saklar bilan artistlarni olqishlar, tomoshabinlar ularning nomlarini aytib qichqirishar edi, ehtimol raqqos va raqqosalarning oyoqlari ostiga gullar otishayotgandir. Ammo, menimcha, teatrdan o'tirganlardan birontasi ham biz kabi – to'lqinlar mavjlanib, shiddat bilan qirg'oqqa urilayotgan ko'l sohilida, sharros yomg'ir ostida kabinada o'tirgan oshiq-ma'shuqlar singari zavq-shavqqa to'lib hayajonlanayotgan bo'lmasa kerak. Bu bizning baletimiz, birinchi kechamizdagi ilk baletimiz edi. O'z baxtini izlab ketgan qiz – Cho'lponning taqdiri bizning qalbimizga naqadar yaqin edi. Mening Cho'lponim – tong yulduzim men bilan birga, yonginamda o'tiribdi. Yarim kechaga borib u yelkamga boshini qo'yganicha uxlab qoladi, men esa allamahalgacha o'zimni bosa olmay, shirin xayollar og'ushiga cho'mdim. Uning yuz-ko'zini, betlarini asta-sekin silar, tinib-tinchimmas Issiqko'lning qanday to'lg'anayotganini, xo'rsinib chuqur nafas olayotganini tinglar, kuzatar edim.

Ertalab biz avtobazaga yetib keldik. Yaxshigina dakki yedim. Ammo bunday quvonchli voqea munosabati bilan kechirdilar. Keyinchalik mening yuk ortuvchi kran ostidan qanday qochib qolganimni eslashib, anchagacha kulib yurdik.

Men safarga – Xitoyga jo'nashim kerak edi. Asalni ham o'zim bilan birga olvoldim. Uni yo'lda do'stim Alibek Jonturinning uyida qoldirmoqchi bo'ldim. U oilasi bilan birga dovondagi bazada, Norinning shunday yonginasida yashardi. Bu joy chegaradan uncha uzoq emas edi. Bu yo'ldan yurganda doim unikiga tushib o'tardim. Alibekning xotini yaxshi ayol edi, uni juda hurmat qilardim.

Biz yo'lga chiqdik. Birinchi navbatda yo'l yoqasidagi magazindan Asalga uncha-muncha kiyim-kechak oldik. Uning egnida birgina ko'ylagi-yu, qo'lida kutubxonadan olgan ikki dona kitobidan bo'lak hech narsasi yo'q edi. Bulardan tashqari, kattakon, guldor shol ro'mol ham sotib oldik. Bu ishimiz juda yaxshi bo'lgan ekan. Yo'lda birinchi uchragan kishimiz keksa shofyor, oqsoqolimiz O'rmat aka bo'ldi. U olisdanoq menga to'xta, deb ishora qildi. Mashinaga tormoz berib to'xtatdim. Kabinadan tushib salomlashdik:

– Assalomu alaykum, O'rmat aka!

– Vaalaykum assalom, Ilyos! Ilyos! Qo'lingga baxt qushi qo'nibdi, Xudoyim baxt bersin, uvali-juvali bo'linglar! – deb fotiha bergan bo'ldi menga.

– Rahmat! Qayoqdan bila qoldingiz, O'rmat aka? – deb taajjublandim men.

– E, o'g'lim, xushxabarning sadag'asi ketay. Butun trassa bo'ylab og'izma-og'iz ko'chib yuribdi.

– Yo'g'-e! – deb battarroq taajjublandim.

Yo'l ustida turib gaplashardik, O'rmat aka hatto mashinaga yaqin ham kelmadi. Asalga ko'z qirini ham tashlamadi. Yaxshiyamki, buni Asalning o'zi fahmlab qolib, boshiga ro'molini tashlab, yuzini berkitdi. Shunda O'rmat aka mamnunlik bilan jilmaydi-da:

– Mana bu ishing joyida! – dedi u va kabinaga yaqinlashib kelib, Asalga boqdi. – Rahmat, qizim, hurmat qilganing uchun rahmat. Bundan buyon sen bizning kelimizsan, avtobazadagi hamma oqsoqollar kelinisan, qizim. Hali ular yo'lda uchrab qolishadi. Mana, Ilyos, ko'rmana. Kelinni quruqdan quruqqa ko'rsatmaydilar, – deb u pul uzatdi. Men qo'lini qaytara olmadim, yo'qsa, xafa qilib qo'yardim.

Biz xayrlashdik. Asal hamon boshidan ro'molini olmasdi. Odatdagicha tagli-taxtli qirg'iz oilasiga tushgan kelindek, u odamlar bilan uchrashganda uyatchanlik bilan yuzini berkitardi. O'zimiz yolg'iz qolganimizda esa o'zaro kuli-shardik, boshiga ro'mol tashlab olgan Asal menga yanada go'zalroq bo'lib ko'rinardi.

– Jonginam, qani, boshingni ko'tar, meni bir o'pib qo'y-chi, – dedim unga.

– Mumkin emas, oqsoqollar ko'rib qolishadi, – dedi-yu, shu zahotiy oq kulgi aralash, go'yo birov ko'rib qolmasin deyayotgandek, ehtiyotlik bilan chakkamdan o'pib oldi.

Yo'lda borarkanmiz, yana ham qiziqroq hodisalarga duch keldik. Avtobazaning trassadagi hamma shofyorlari uchrashganda bizni qayta-qayta to'xtatishib tabriklashardi, baxt-saodat tilashardi. Ularning ko'pchiligi yo'l-yo'lakay gul terib, guldasta yasabgina qolmay, hatto sovg'alar tayyorlab qo'yishga ham ulgurishibdi. Bilmadim, kimning aqliga keldi ekan bu. Bu fikrni hoynahoy rus yigitlarimiz o'ylab topishgan bo'lsa kerak. Ular qishloqda to'y bo'lib qolsa, mashinani boplab bezatadilar. Hozir ham ular mashinamizga qizil, ko'k, yashil lentalar taqib, shoyi durralar, guldastalar ila boshladilar. Mashinamiz turli-tuman ranglarga g'arq bo'lib, cho'g'dek tovlanardiki, ehtimol u o'nlab kilometr naridan ko'zga tashlanib turgan bo'lsa kerak. Asal ikkimiz g'oyatda baxtiyor edik, men do'stlarimning bu iltifotidan qalbdan faxrlanardim. Do'st kulfatda sinaladi, deydilar. Menimcha, ular baxtli damlarda ham sinaladilar.

Yo'lda eng yaqin do'stim Alibek Jonturin ham uchradi. U mendan ikki yosh katta. U – kallasi katta, norg'ul yigit edi, o'zi ancha yosh bo'lsa ham sermulohaza, og'ir-vazmin yigit bo'lib, ajoyib shofyor edi. Bazada uni juda hurmat qilishardi. Alibekni profkom qilib ham saylashgandi. Qani, u nima derkin, deb o'ylab turibman.

Alibek mashinamizga jimgina qaradi-da, bosh tebratib qo'ydi, so'ngra Asalga yaqin kelib, qo'l berib salomlashdi va uni tabrikлади.

– Qani, yo'llanmangni bu yoqqa ber-chi! – dedi u. Men bunday kutib olar deb o'ylamagan edim. Hech narsaga tushunmay, qog'ozni jimgina uzatdim. U avtoruchkasini oldi-da, yo'llanmaga ko'ndalangiga to'ldirib, burchakma-burchak qilib yirik harflar bilan yoza boshladi: „To'y safari, □ 167!“

– Nima qilyapsan? – deb dovdirab qoldim. – Axir bu hujjat-ku!

– Tarixiy bo‘lib saqlanib qoladi! – deb kulimsiradi u. – Nima, buxgalteriyada o‘tirganlarni odam emas deb o‘ylayapsanmi? Endi qo‘lingni ber! – deb meni mahkam quchoqlab o‘pdi. Biz xaxolab kulib yubordik. Keyin mashinalarimizga qarab yura boshladik, ammo Alibek meni to‘xtatib:

– Qayerda turadigan bo‘ldinglar? – deb so‘rab qoldi.

Men yelkamni qisib qo‘ydim.

– Mana bizning uyimiz! – deb mashinani ko‘rsatdim.

– Kabinadami? Ehtimol, bolalaringizni ham o‘sha yerda boqarsizlar?.. Menga qara, dovondagi uyimizga joylashaveringlar, baza boshliqlari bilan o‘zim gaplashaman. Biz o‘z uyimizga ko‘chib o‘tarmiz.

– Uying hali bitmagan-ku?

Alibek Ribacheda, avtobaza yaqinida uy qurmoqda edi. Bo‘sh vaqtlarimda men ham unga yordamlashib turardim.

– Hechqisi yo‘q! Ozgina ishi qolgan, ammo undan ortiqrog‘ini umid qilmay qo‘ya qol, o‘zing bilasan, uy-joy masalasi ancha chatoq.

– Xo‘p, rahmat! Bizga shuning o‘zi ham kifoya.

– Xullas, biznikiga tushinglar, qaytishda esa meni kutib tura tur. Men yetib kelaman, keyin xotinlarimiz bilan hamma narsani hal etib olamiz! – deb Asal tomonga qarab ko‘z qisib qo‘ydi. – Ha, endi tuzliq to‘rva bo‘yinga ilindi.

– To‘y safaringiz xayrli bo‘lsin! – deb qichqirib qoldi Alibek orqamizdan. Obbo xumpar-ey! Safarimiz to‘y sayohati ekaniga o‘zimizning ham fahmimiz yetmabdi-ya.

Hamma ishimiz o‘ngidan kelayotganiga biz xursand edik. Faqat bir uchrashuvgina kayfiyatimni biroz buzdi.

Yo‘lda, muyulishlardan birida to‘satdan oldimizda Jontoyning mashinasi chiqib qoldi. U qayoqdandir kelayotgan edi. U yolg‘iz emas edi. Kabinada Xadicha o‘tirardi. U menga qo‘l silkib qo‘ydi. Men mashinaga shartta tormoz berdim. Mashinalar borti bortiga yaqinlab to‘xtadi. Jontoy derazadan kallasini chiqarib:

– Namuncha yasan-tusan qilib olibsan, to‘ymi deyman? – dedi.

– To‘y bo‘lganda qandoq! – dedim men.

– Yo‘g‘-e? – deb ishonqiramay so‘radi u cho‘zib va Xadichaga qarab qo‘ydi.

– Biz bo‘lsak seni izlab yuribmiz! – degan so‘z og‘zidan chiqib ketdi uning.

Xadicha qanday o‘tirgan bo‘lsa, shundayicha hang-u mang bo‘lib, rangi o‘chib, qotib qolgandi.

– Salom, Xadicha! – dedim unga xushmuomalalik bilan. U jimgina bosh irg‘ab qo‘ydi.

– Hali yonimdagi qallig‘im degin? – nima gapligini endigina anglagan edi Jontoy.

– Yo‘q, xotimim, – deb e‘tiroz bildirdim-da, Asalning yelkalaridan quchoqladim.

– E, hali shunaqa de? – deb Jontoy ko‘zlarini battarroq olaytirdi. U xursand bo‘lishini ham, xafa bo‘lishini ham bilmasdi. – Ee, tabriklayman, chin qalbimdan tabriklayman...

– Rahmat!

Jontoy razilona tirjayib:

– Juda uchar ekansan! Qalinsiz qo‘lga tushirgandirsan-a? – dedi.

– Ahmoq! – deb so‘kdim uni mashinani haydayotib. Ablahni qarang-a! Shunaqa odamlar ham bo‘ladi-da dunyoda. Yana ham boplab so‘kmoqchi bo‘ldim. Kabinadan bosh chiqarib qaradim: oldinda yo‘l so‘l tomonga keskin buriladi-da, tepalikka ko‘tariladi. Shunday qaragam, Jontoy mashina yonida turib, chakkasini qashlab, Xadichaga allanimalar deb qichqirib, musht o‘qtalib do‘q urardi. Xadicha bo‘lsa yo‘ldan chetga, dala tomonga yugurib ketyapti. Chopib-chopib borib, gup etib yiqildi-da, boshini qo‘llari bilan berkitdi. Oralarida nima gap bo‘lganini bilmasam ham ko‘nglim g‘ash bo‘ldi, go‘yo bunga men ham aybdordek, unga rahmim keldi, ichim achidi. Asalga hech narsa demadim. Uning kayfiyatini buzgim kelmadi.

Bir haftadan keyin Alibek xotini bilan yashagan dovondagi uyga joylashib oldik.

Uychamiz uncha katta emas edi: ikki xona va bir dahliz. Bunday uylardan u yerda bir nechta edi. Ularda shofyorlar oilalari bilan hamda yonilg‘i punktining ishchilari yashar-

di. Uyimiz tor bo'lishiga qaramay, yaxshi joy edi, yo'lning shunday yoqasida, Norin daryosi ham juda yaqin edi. Har qalay, viloyat markazida. Kinoga, magazinga borib kelish juda o'ng'ay, kasalxona ham bor... Yana shu jihatdan ham qulay ediki, dovondagi bu baza yo'lning qoq o'rtasida edi. Biz, asosan, Ribache bilan Sinszyan o'rtasida qatnardik. U tomonga o'tganda ham, bu tomonga o'tganda ham yo'l-yo'lakay uyga tushib dam olish, hatto tunab qolish ham mumkin edi. Men deyarli har kuni uyga kirib o'tardim. Mabodo yo'lda tutilib qolsam-da, baribir yarim tunda bo'lsa ham uyga yetib kelardim. Asal doim meni kutib o'tirardi, xavotirlanardi, to kelgunimcha mijja qoqmasdi.

Biz endi uy-ro'zg'or uchun zarur uncha-muncha buyumlarni sotib ola boshladik. Xullas, turmushimiz asta-sekin yaxshilanib bormoqda edi. Asal ham ishlashi kerak, degan qarorga keldik. Uning o'zi qattiq turib oldi: ovulda tug'ilib o'sgan emasmi, ish jon-dili edi. Ammo kutilmaganida yangi baxtga erishdik: Asalning ona bo'lishiga oz qolgan edi. Negadir, biz buni hadeganda payqamabmiz. Asalning ko'zi yorigan kuni men Xitoydan qaytib kelayotgan edim. Juda shoshilib, hayajonlanib ketyapman. Asal Norindagi tug'uruqxonada yotgan edi. Kelsam, o'g'il tug'ibdi.

Uning oldiga kirmoqchi bo'ldim, biroq har qancha tushuntirsam ham qo'yishmadi. Lekin baribir xursand edim. Mashinaga o'tirdim-da, tog'ma-tog' g'izillatib haydab ketdim. O'zimni tuta olmay, mashinani tobora qattiqroq quvardim. Bu qishda bo'lgan edi. Tevarak-atrofdan faqat qorli qoyalar. Atrofidan oq, qora rang g'irillab o'taverganidan ko'zlarim jimirlashib ketardi. Do'lan dovonining tepasiga yeldek uchib chiqdim. Osmono'par ulkan balandlik, bulutlar yerbag'irlab suzib yurgandek edi, pastdagi azamat tog'lar ham uning qarshisida pak-pakana bo'lib ko'rinardi. Men kabinadan sakrab tushib, dara yoqasiga chopib bordim va sof havodan o'pkamni to'ldirib nafas oldim-da, butun olam eshitgudek qilib qichqirdim:

– Ey, tog'lar! Men o'g'il ko'rdim!

Nazarimda, tog'lar ham larzaga kelgandek bo'ldi. Ular

mening soʻzlarimni takrorladi va daradan daraga taralib, uzoq vaqtgacha aks sado berib yangrab turdi.

Oʻgʻilchamizni Samad deb atadik. Unga men shunday deb nom qoʻydim. Samad bizning ermagimiz boʻlib qoldi: Samad, bizning Samad jilmaydi, uning tishchalari chiqib qoldi. Xullas, hamma yosh ota-onalardek biz ham uni sevib ardoqlar edik. Biz bir-birimizni sevardik, ahil va inoq yashardik, soʻngra esa... Soʻngra baxtsizlik yuz berdi...

* * *

Bu baxtsizlikka qanday yoʻliqib qolganimni hozir qaytadan bayon etish ancha mushkul. Hammasi aralash-quralash boʻlib, chigallashib ketdi... Oʻzim-ku, bilaman-a, ammo bundan nima foyda...

Bu odam bilan hech qachon uchrashmagan edik. Uning bu ishlarga hech qanday aloqasi ham yoʻq edi. Men buni shuning uchun gapiryapmanki, haqiqatan ham na u, na men bir-birimizning bu yorugʻ dunyoda shunday yashayotganimizni bilmas edik. Bir kuni yoʻlda tasodifan uchrashib qoldik va bu bizning soʻnggi uchrashuvimiz emasligiga oʻzimiz ham shubha qilmay ajralishgan edik. Bor gap shu...

Kech kuzda safarga ketmoqda edim. Havo kishini zerkiradigan tund edi. Osmondan qormi, yomgʻirmi, qandaydir mayda zarrachalar yogʻardi. Tuman xuddi sumalak singari togʻ yonbagʻirlari boʻylab chizilib ketgan edi. Butun yoʻl boʻyi kabina oynasini artib turadigan choʻtkani muttasil ishlatib qoʻyishga toʻgʻri keldi. Men togʻ oralab xiyla ichkariga kirib borib, Doʻlan dovoniga yaqinlashib qolgan edim.

Eh, Doʻlan, Doʻlan, Tyanshanning bahaybat beli! Umrimning qanchadan qancha sahifalari u bilan bogʻliq! Qatnov yoʻlimizning eng ogʻir, eng xavfli qismi ham shu yer edi. Yoʻl ilonizi boʻlib, goh u yoqqa buriladi, goh bu yoqqa. Charxpalakda uchgandek tobora qiyalab yuqoriga koʻtarilib, bulutlarni gʻildirak bilan yanchib oʻtayotgandek boʻlasan. Goh seni oʻtirgʻichga siqib, orqaga jipslab qoʻyadi,

goh rulga yopishganingcha mashina seni pastga olib qochadi. Buning ustiga quturgan tuyadek havosini aytmaysanmi. Yozmi-qishmi, Do'landa, baribir. Bir zumda do'lmi, yomg'irmi savalab ketadi yoki bo'lmasa, shunaqayam qor bo'roni turib beradiki, bir qadam naridagi narsani ham ko'ra olmaysan. Mana shunday bizning oq sochli Do'lan!.. Ammo biz tyanshanliklar unga ko'nikib qolganmiz, ko'pincha, tunda qatnardik... Men bularni hozir hikoya qilib beryapman, u yerdan qatnab yurgan paytlarda esa bu haqda o'ylashga ham vaqting bo'lmasdi.

Do'lan yaqinidagi daralardan birida yuk mashinasini quvib yetib oldim. Bu „GAZ-51“ mashinasi ekanligi aniq yodimda. To'g'rirog'i, quvib yetganim yo'q, uning o'zi to'xtab turgan ekan. Ikki kishi motorni tekshirish bilan ovora edi. Ulardan biri yo'l o'rtasiga bamaylixotir chiqdida, qo'lini ko'tardi. Yo'lni to'sib qo'ymaslik uchun ulardan o'tibroq to'xtadim. Oldimga jiqqa ho'l brezent plash kiygan, boshiga kapyushon yopingan kishi keldi. Yoshi qirqlarga borib qolgan, qo'ng'ir mo'ylovi soldatchasiga cho'tkasimon qilib qirqilgan, qovog'i soliqroq, ko'zlari esa muloyim tikilardi.

– Yo'l uchastkasiga eltib qo'y, yigit, – dedi u menga. – Motor ishlamay qoldi, traktor keltiramiz.

– Qaysi uchastkaga? – deb so'radim. Chunki yo'l tuzatish uchastkalari ko'p edi, bunday uchastkalar deyarli har o'n besh-yigirma kilometrda bo'lardi.

– Do'landagi meteostansiyaga yetmasdan biroz beriroqdagisiga.

Meteostansiya dovonning eng baland yerida, yo'l tuzatish uchastkasi esa yetti kilometrlar chamasi pastda, yo'ldan sal chetroqda, burilishda joylashgan edi.

– O'tiring, – dedim, – olib borib qo'yaman. Balki o'zimiz biror ilojini toparmiz? – deb kabinadan chiqdim. Ular traktor deb to'kech kirguncha sarson bo'lmasin uchun bir amallab yordam bergim keldi. Yo'l tuzatuvchilarga azbaroyi hurmatim tufayli shunday qilgim kelardi: axir ular albatta biz uchun zahmat chekyaptilar-da.

– Nima ham qila olarding, olov olmayotibdi, – de-

di shofyor ochiq turgan kapotni bekitarkan, ma'yuslik bilan. Bechora sovuq yeb, junjikib, ko'karib ketibdi. Bu yerlik shofyorlardan emasligi ko'rinib turibdi, poytaxtdan kelayotgan bo'lsa kerak. U dovdirab atrofga alanglardi. Ular uchastkaga Frunzedan nimadir olib kelishayotgan edi. Nima qilish kerak? Miyamga bir qiziq fikr kelib qoldi. Avval dovonga bir qarab qo'ydim. U yoqda havoning avzoyi buzuq, bulutlar pastlab suzardi. Nihoyat bir qarorga keldim. O'ylagan fikrim juda zo'r bo'lmasa ham men uchun o'sha paytda g'oyat katta revolutsion voqea bo'lib ko'ringan edi.

- Tormozing joyidami? - deb so'radim shofyordan.

- Ana xolos... tormozsiz yurib bo'ladimi! Motor ishlaymayapti deyapmiz-ku senga!..

- Trossing bormi?

- Xo'sh, bo'lsa-chi!

- Bu yoqqa keltir, mashinamga ula.

Ikkalasi ham joylaridan jilmay, ishonqiramagandek menga tikilib turishardi.

- Nima balo, aqlingdan ozdingmi? - dedi shofyor sekingina.

Xarakterim shunaqa, bilmadim, bu yaxshimi, yomonmi. Biroq bundan qat'i nazar, miyamga bir fikr keldimi, bo'ldi, kuyib-yonib ketsam ham baribir uni amalga oshirmaguncha qo'ymayman.

Men shofyorga yalinib-yolvora boshladim.

- Jon do'stim, kel, ulay qolaylik? Xudo ursin, yetkazib qo'yaman.

- Qo'ysang-chi! - deb qo'l siltadi u. - Nima, bu yerda shatakka olish mumkin emasligini bilmaysanmi. Buni o'ylamay ham qo'ya qol. Bor, yo'qol, yo'lingdan qolma!..

U go'yo eng muhim va eng katta iltimosimni rad qilgandek, shunaqayam alam qildiki menga.

- Eh, eshshak, qo'rqq! - deb mashinamga qarab yurdim. - Qani, yuring, ketdik! - deb chaqirdim mo'ylovli kishini. Keyinroq bilsam, u yo'l tuzatadigan ustalardan ekan.

- Tura tur! - deb to'xtatdi meni yo'l tuzatuvchi va yuzimga bir tikildi-da, shofyorga qarab:

– Trossni keltir, – dedi.

U kalovlab qolib:

– O‘zingiz javob berasiz, – dedi yo‘l tuzatuvchiga.–
Mashina sizning ixtiyoringizda, Boytemir aka.

– Hammamiz javobgarmiz! – dedi u qisqa qilib.

Menga bu gap yoqib qoldi. Bunday kishilarga tezda hurmating ortadi.

Biz haligi mashinani shatakka olib yo‘lga tushdik. Dastlab durustgina yurib boraverdik. So‘ngra Do‘langa yaqinlashaverganimiz sari yo‘l ham tobora yuqoriga – tog‘ga tomon ko‘tarilib, goh yonbag‘irlar bo‘ylab, goh tik qiyalik bo‘ylab pastlab borardi. Yurish qiyinlashdi. Motor ingrab, quloq ostida faqat guvullagan ovozgina eshitilardi. Yo‘q, qanchalik nolish qilib ingrama, baribir bor quvva-tingni ishga solaman. Do‘landa yurish qanchalik mushkul bo‘lmasin, baribir mashinalarda ozmi-ko‘pmi ortiqcha quvvat saqlanib qolishini ilgaridan payqab yurardim. Yo‘lning yomonligini nazarga olib, hamma vaqt normadagi yukning yetmish foizini yuklashar edi. Ko‘rsatma shunday edi. Lekin o‘sha payt men bu haqda o‘ylamagandim, albatta. O‘ylab o‘tirishning vaqti ham emasdi-da. Kurash oldidan sportchilarda g‘alabaga zo‘r ishonch kuchi paydo bo‘lganidek, menda ham hozir xuddi shuningdek mo‘jizakor kuch jo‘sh urardi. O‘ylagan fikrimni sinab ko‘rish, maqsadga erishish, mashinani manzilga yetkazishda ularga yordamlashishdan bo‘lak maqsadni ko‘zlamasdim. Ammo buni amalga oshirish oson ish emas ekan.

Ostimdagi mashina qalt-qalt titrab, zo‘riqib, so‘nggi kuchlarini sarflamoqda edi. Nam havo kabina oynalariga urilib, uni xiralashtirar, tozalov cho‘tkasi zo‘rg‘a artib ulgurardi. Qayoqdandir bulutlar yopirilib kelib, naq g‘ildiraklar ostida o‘rimalashib, yo‘l uzra suza boshladi. Yo‘l ham muyulishlarda tikka ko‘tarilib, keskin burilib ketardi. Qayoqdagi ishni boshlab qo‘yganim uchun o‘zimni o‘zim koyiy boshladim: odamlarga shikast yetkazib qo‘ymasam edi. Mashinadan ko‘ra o‘zim ko‘proq qiyanalib ketdim. Ust-boshimni: shapka, fufayka, kamzul, to‘r ko‘ylagimni – hammasini yechib tashladim. Birgina ko‘ylak-

da o'tiribman-u, hamma yog'imdan xuddi hammomda o'tirgandek bug' ko'tarilardi. Hazil ishmi: shatakdagi mashinaning o'zi qancha-yu, ustiga-ustak yana ozmuncha yuki bormi, yaxshiyamki, Boytemir zinada turgandi. Menga ovoz bilan, orqadagiga imo-ishora qilib, harakatni boshqarib borardi. Qing'ir-qiyshiq, past-baland yo'llar bo'ylab tirmashib, o'rmalab borarkanmiz, hoynahoy falokatdan o'zini saqlab qolish uchun sabr-toqati chidamay, oxiri sakrab tushib qolsa kerak, deb o'ylagan edim. Aksincha, u qimir ham etmadi. Tog' tepasiga qo'ngan burgutdek mahkam o'mashib olib, kabinaga yopishib turardi. Unga qaradim: yuzlari go'yo toshdan yo'nilgandek osoyishta, suv tomchilari betlaridan, mo'ylovidan sirqib tushib, ko'ngli yengil tortayotgandek edi.

Biz yana bir katta qiyalikdan oshsak, marraga yetardik. Shu payt Boytemir derazaga engashib:

– Ehtiyot bo'l, oldinda mashina kelyapti! O'ngroqqa ol, – dedi.

Men mashinani o'ngroqqa oldim. Tog' tepasidan yuk mashinasi tushib kelayotgan edi. Jontoyniki! Endi tamom, xavfsizlik injeneri rosa boplaydigan bo'ldi: Jontoy chaqib beradi. U borgan sari yaqinlashib kelmoqda edi. Rulga yopishib olgan, xo'mraygancha pastga tomon tushib kelardi.

Biz yonma-yon kelib qoldik. Kabina derazalari ro'baro' kelganda Jontoy o'zini orqaga oldi va mallarang tulki tumoqli boshini ta'naomuz tebratib qo'ydi. „He, iblis! Tiling qichigan bo'lsa, og'zingga sig'guncha gapiraver!“ – deb o'yladim ichimda.

Tepalikka ham chiqib oldik, yo'l pastga tomon juda qiyalab ketardi, dovondagi ana shu so'nggi marrani ham qo'lga kiritsak, yo'l tuzatish uchastka hovlisiga burilamiz. Mashinani o'sha tomonga burdim. Har holda sudrab olib keldim-ku! Motorni o'chirdim, qulog'imga hech narsa kirmasdi. Qulog'im bitib qolibdi. Nazarimda, men emas, balki butun borliq chuqur uyquga cho'mgandek bo'ldi. Churq etgan ovoz yo'q, Boytemir yerga sakrab tushgandagina qulog'im eshita boshladi. Kabinadan arang sudralib chiqdim va shu zahotiyog zinaga o'tirib qoldim. Nafasim

qisilardi, madordan ketgan edim, buning ustiga dovonning havosi siyrak edi. Boytemir yugurib keldi-da, yelkamga fu-faykani tashlab, boshimga shapkani bostirib kiygizdi. Nari-gi mashinadan rangi oqarib, dami ichiga tushib ketgan haligi shofyor ham sekingina oqsoqlanib kelaverdi. U ol-dimda cho'qqayib o'tirdi-da, sigareta uzatdi. Qo'llarim qal-tirab, sigaretani oldim. Hammamiz chekib olganimizdan so'ng o'zimizga keldik. Menda yana o'sha la'nati yovvoyi kuch jo'sh urib ketdi.

– Hey, qalay! – dedim men. – Ko'rdingmi!

Shofyorning yelkasiga bir tushirgandim, u o'tirib qoldi. So'ng uchovimiz ham o'rnimizdan sakrab turdik-da, bir-birimizning orqamizga, yelkamizga tushira ketdik. O'zi-miz esa qah-qahlab kulib, allanimalar deb quvonch bilan qichqirib, baqirishib to'polon ko'tardik... Nihoyat tinchla-nib, yana cheka boshladik. Men kiyimlarimni kiyib, soatinga qaradim-u, ketishim kerakligi „lop“ etib esimga tushib qoldi.

– Xo'p, men borayin! – dedim.

Boytemirning qovog'i osildi:

– Yo'q, uyga kiramiz, mehmonimiz bo'lasan! – dedi.

Mening esa biron daqiqa ham vaqtim yo'q edi.

– Rahmat! – deb minnatdorchilik bildirdim. – Ilo-jim yo'q. Uyimga kirib o'tmoqchiman, xotinim kutib o'tirgandir.

– Qola qolsang nima bo'lardi? Bir shishani qoqib tash-lardik, – dedi ko'ndirmoqchi bo'lib yangi do'stim shofyor yigit.

– Qo'y, zo'rlama! – deb uning so'zini bo'ldi Boytemir. – Xotini kutayotgan ekan. Isming nima seni?

– Ilyos.

– Mayli, boraver, Ilyos. Rahmat senga, bizni qutqarga-ning uchun.

Boytemir mashina zinasida turib meni to yo'lgacha ku-zatib qo'ydi. U indamay qo'limni qisdi-da, mashinadan sak-rab tushib qoldi.

Tog' tepasiga ko'tarilayotib, kabinadan boshimni chiqarib qaradim. Boytemir hamon yo'lda turardi. Qo'lida shapkasi g'ijimlab, kallasini quyi solganicha allanimalar haqida o'ylardi.

Bor gap shu, ana shunday qilib biz ajrashdik.

Ammo o'sha kecha tuni bilan qiynalib chiqdim. Shamollab qolgan ekanman. Uyga kelganimda hech narsani sezmagani edim. Tezda ovqatlanib oldim. Asalga voqeani batafsil gapirib o'tirmadim. Lekin yo'lda odamlarga yordamlashganim uchun kechikib qolganimni aytdim, xolos. Men o'z hayotimni qallig'imdan yashirmasdim. Ammo, menimcha, bunday narsalarning hammasini aytaverish ham zarur emas edi. U busiz ham mendan doim xavotir olib o'tirardi. Bundan tashqari, men bunday nojo'ya ishlarni takrorlash niyatida ham emas edim. Hayotimda bunday voqea bir bo'ldi, dovon bilan kuch sinashib ko'rdim, bas. Ehtimol, yo'ldan og'rib qaytmaganimda, buni ertasigayoq unutgan bo'lar edim. Uyga bir amallab yetib keldim-u, holdan toyib yiqildim. Nima bo'ldi, qanday bo'ldi, bilmayman. Hadeb alahlardim, go'yo mashinani shatakka olib, Do'landa kelayotgandek bo'laverdim. Kuchli qor bo'roni yuzimga urilar, nafas ololmay qiynalardim, baranka xuddi paxtadan yasalgandek, aylantirsam qo'llarimga yopishib qolardi. Oldinda esa cheki-chegarasini yo'q dovon. Mashina radiatorini tinmay guvullab ko'kka qarab tirmashib borar va yana balandlikdan pastga tomon shuvullab tushib ketar edi... Aftidan, bu kasallik dovonni bo'lsa kerak. Uni men uchinchi kuni yengib, yengil torta boshladim. Yana ikki kun yotdim. O'zimni yaxshi his etardim, o'rnimdan turmoqchi ham bo'ldim, ammo Asal hech ko'nimadi. To'shakda yana ikki kun yotishga majbur qildi. Unga qararkanman, hayratda qoldim. Men kasal bo'ldimmi yoki umi? Shunchalik qiynalib tashvish tortibdiki, kishi tanib bo'lmaydi, ko'zlarining osti ko'kimtir halqahalqa bo'lib, ozib ketibdi, qattiqroq puflasang yiqilib ketayotgandek, uning ustiga, qo'lida bolasi. Yo'q, bunaqasi ketmaydi, degan qarorga keldim. Taltayib yotishga haqim yo'q. U dam olishi kerak. O'rnimdan turib, kiyina boshladim.

– Asal! – deb chaqirdim sekin. O'g'ilcham uxlab yotardi. – Qo'shnilar bilan gaplashib ko'r, ko'nishsa Samadni qoldirib, kinoga borib kelamiz!

U karavot yoniga chopib keldi-da, meni yana yotqizib qo'ydi. Xuddi birinchi marta ko'rayotgandek mendan ko'zini uzmasdi. Ko'z yoshlarini tutishga urinardi-yu, ammo ular kipriklari ostida yiltirab, lablari titrardi. Asal ko'ksimga yuzini qo'yib, yig'lab yubordi.

– Senga nima bo'ldi, Asal? Nima bo'ldi? – deb dovdirab qoldim men.

– Sizning sog'ayib ketganingizdan o'zimda yo'q xursandman.

– O'zim ham xursandman, ammo yig'lashning nima keragi bor. Sal mazam qochsa qochibdi-da. Qaytaga uyda sen bilan bir necha kun birga bo'ldim, Samad bilan ham o'ynab xumordan chiqdik. – O'g'limning allaqachon emaklay boshlagan, endi esa yurishga shaylanayotgan eng yaxshi, eng shirin chog'lari edi. – Rostini aytsam, yana bir shunday kasal bo'lsam qaniydi! – dedim hazillashib.

– Qo'ysangiz-chi shunaqa gapni, keragi yo'q! – deb jerkib berdi Asal.

Shu payt karavotchada uxlab yotgan o'g'ilcham uyg'onib qoldi. Asal uni iliqqinaligicha ko'tarib keldi. Uchovimiz karavotga ag'anab, to'polon qilib hazillashardik, Samad esa ayiqchadek u yoqdan bu yoqqa o'rmalab, bizni tepkilar edi.

– Mana ko'ryapsanmi, qanday yaxshi! – dedim unga. – Sen bo'lsang... Tura tur hali, yaqinda ota-onangning oldiga – ovulga boramiz. Qani gunohimizni kechirmay ko'rishsinchi. Samadni ko'riboq zavqlanib ketib, hammasini unutib yuborishadi...

Ha, ovulga kechirim so'rab borish niyatida edik. Ammo avvalo ta'til olish, so'ngra Asalning ota-onasidan tortib barcha qarindosh-urug'larigacha sovg'a-salomlar tayyorlash lozim edi. U yoqqa quruqdan quruq borishni istamasdim.

Bu orada qish ham kirib qoldi. Tyanshanning qishi qattiq bo'ladi. Kuchli dovul, qor bo'ronlari va tog'dan qor ko'chish hodisalari tez-tez bo'lib turardi. Bunday paytlarda shofyorlarga tashvish yana ortardi, yo'l tuzatuvchilarga esa yana ham qiyinroq bo'lardi. Ular tog'lardan ko'chib turadi-

gan qor uyumlariga qarshi kurash olib borar va qor o'pirilib tushishi mumkin bo'lgan xavfli yerlarni oldindanoq portlatishib, darhol yo'lni tozalab qo'yishar edi. To'g'ri, o'sha yilgi qish biroz tinchroq o'tgan edi. Yoki menga shunday ko'ringandir, chunki ish shunchalik ko'p ediki, unchamuncha narsalarga e'tibor bermasdik. O'sha yili bizning avtobazaga kutilmaganda katta qo'shimcha topshiriq berishdi. Aniqrog'i, bunday katta topshiriqni olishga biz shofyorlar o'zimiz sababchi bo'lgan edik, shaxsan men uning tashabbuskori edim. Men bunga hozir ham afsuslanmayman va ma'qul ish qilganman, deb hisoblayman. Ammo, nazarimda, mening barcha musibatlarim xuddi shundan boshlangandek tuyuladi. Voqea bunday bo'lgan edi.

Bir kuni kechqurun avtobazaga qaytib kelayotgan edim. Asal mendan Alibek Jonturinning xotiniga kichik bir tuguncha berib yubordi. Men mashinani ularning uyi tomon burib, signal berdim. Alibekning xotini chiqdi. Unga haligi tugunchani berayotib:

– Alibek uydami? – deb so'radim.

– Yo'q, hali kelganicha yo'q.

– Qayoqda u, yo'ldami?

– Yo'g'-a, bugun yo'lga chiqqani yo'q, keyinroq bo'rarmish. Nimagadir u yoqdan bu yoqqa zir yugurib yuribdi. Aytishicha, xitoylik ishchilar avtobazaga telegramma yuborishgan emish.

– U yoqda nima gap bo'libdi?

– Zavod uchun asbob-uskunalarni tezroq yetkazib berishni iltimos qilishibdi.

– Qanaqa asbob-uskuna? Sinszyanda qurilayotgan qishloq xo'jaligi mashinalari zavodi uchunmi?

– Bilmadim, Ilyos. O'zing eshitib qolarsan.

– Hozir Alibek qayerdaykin?

– Qayerda bo'lardi. Yuk tushirish stansiyasida-da, hamma o'sha yerda. Eshelonlar kelganmish.

Men ham mashinani o'sha yoqqa tomon haydadim. Nima gap o'zi, aniqlab olay dedim-da. Mana, yetib ham keldim. Bizning yuk tushirish stansiyamiz darada, ko'ldan

sal berida joylashgan bo'lib, temiryo'lining so'nggi stansiyasi edi. U yerda g'ala-g'ovur, g'ira-shira qorong'i, hech narsani payqab bo'lmasdi. Dara tomondan esayotgan kuchli shamol simyog'ochlardagi chiroqlarni tebratar, shuvullab shpallarni yalab o'tardi. Vagonlarni bir-biriga tirkab yurgan parovozlar u yoqdan bu yoqqa qatnab turardi. Eng chekkadagi yo'lda turgan kran ilgaklarini ko'tarib, tebranganicha, vagonlardagi sim va tunuka tasmachalar bilan tang'ib, mixlab tashlangan yashiklarni tushirayotgan edi. Yanglishmabman. Bu Sinszyandagi mashinasozlik zavodiga yuboriladigan tranzit yuklar edi. U yerda yirik inshoot qurilayotgandi. Avvallari ham biz u yoqqa ba'zi asbob-uskunalarni olib borgan edik.

Avtobazamiz mashinalaridan talayginasi shu yerda ekan. Biroq hali ularning biron-tasi ham yuk ortmay turardi. Hamma shofyorlar nimanidir kutishayotgandek edi. Ular kabinalarda, mashina zinalarida o'tirishardi. Ba'zilar shamoldan panalanib, yashiklarga suyanib olishgandi. Men ular bilan salomlashdim. Biron kimsa menga e'tibor ham bermadi. Papiroslarini tutatishib, sukut saqlab turishardi. Chet-roqda o'tirgan Alibekni ko'rib qoldim. Uning oldiga bordim.

– Salom, Alibek!

– Salom!

– Nima qilyapsizlar? Telegramma olibsizlarmi?

– Ha. Zavodni muddatidan ilgari ishga tushirishmoqchi.

– Xo'sh, nima bo'пти?

– Endi gap bizda qoldi.

– Rostdanmi?

– Ko'ryapsanmi, butun yo'l yoqalari yukka to'lib ketibdi. Hali yana keladi. Bularni qachon tashib ulguramiz? Bu haqda o'ylayapsanmi? Odamlar bizga ishonib, u yoqda kutishmoqda!.. Ularga har bir kun g'animat.

– Sen bularni nega menga gapiryapsan? Mening bu ishlarga nima daxlim bor?

– Nima daxlim bor?! Bu nima deganing, yo boshqa

mamlakatdan kelganmisan? Yoki bizga naqadar muhim ish topshirilganini tushunmaysanmi?

– Azbaroyi Xudo, aqldan ozibsani! – deb ajablanib, o‘zimni chetga oldim.

Shu payt yashiklar orqasidan ovozlari eshitilib qoldi. Avtobazamiz boshlig‘i Omonjo‘lov ko‘rindi. U kamzuli-ning etagi bilan shamolni to‘shib, pana qilib papiros tutatdi-da, so‘ngra indamay hammamizga bir-bir nazar tashlab chiqdi.

– Gap mana bunday, o‘rtoqlar, – dedi u, – ministrlikka telefon qilib ko‘raman, balki yordam berishar. Ammo bunga orqa qilish kerak emas. Nima qilish kerakligini hozircha o‘zim ham bilmay turibman.

– Buni uddalash qiyin, o‘rtoq Omonjo‘lov! – dedi kimdir. – Yuklar juda og‘ir, qo‘pol, ortishga ham, joylashtirishga ham noqulay. Kuzovga ikki-uchtadan ortig‘i sig‘maydi. Mabodo kecha-yu kunduz ishlaganimizda ham, Xudoga shukur, ko‘klamgacha yetadigan ish bor.

– Hamma gap shunda-da, – dedi Omonjo‘lov. – Ammo ilojini topishimiz kerak. Xo‘p, hozircha uy-uyimizga tarqalaylik. Sizlar ham o‘zlaringizcha o‘ylab ko‘ring!

U „Gazik“ka o‘tirib jo‘nab ketdi. Shofyorlardan birontasi ham joyidan qo‘zg‘almadi. Ular negadir shoshilmasdilar. Qorong‘i burchakda o‘tirgan allaqanday kishi, hech kimga murojaat qilmay, o‘zicha do‘rillab gapirdi:

– Bo‘lmag‘ur ish! Ikki oyoqni bir etikka tiqib bo‘lmaydi! Bu haqda ilgariroq o‘ylash kerak edi! – deb o‘rnidan turib, papiros qoldig‘ini o‘chirdi-da, mashinasi tomon ketdi.

Uni boshqa shofyor quvvatladi:

– Bizda doim shu ahvol, ish qistalang keldimi, bo‘ldi, qutqaringlar, jon og‘aynilar, deb darhol shofyorlarga osilishgani-osilishgan.

Odamlar unga o‘shqirib berishdi:

– Bu xalqaro ish-ku, Ismoil, sen bo‘lsang bozorchi shal-laqi xotinlarga o‘xshab vaysayapsan-a!

Men munozara-tortishuvlarga qo‘shilmay turardim. Ammo birdan miyamga bir fikr kelib qoldi: dovonda ma-

shinani qanday shatakka olganim yodimga tushdi. Chidab tura olmadim-da, har vaqtdagidek qizishib ketib:

– O‘ylab o‘tirishning nima keragi bor! – deb o‘rtaga otilib chiqdim. – Mashinalarga tirkama ulash kerak!

Hech kim qimir etmasdi. Ba‘zilar hatto menga qayri- lib qaramadi ham. Bunday fikrni faqat telbalargina aytishi mumkin edi.

Jontoy sekingina hushtak chalib qo‘ydi:

– Ko‘rdinglarmi!

Men uning ovoizidan tanidim. Turgan yerimda har to- munga alanglayman, bo‘lgan ishni birma-bir so‘zlab ber- gim kelyapti. Ammo qandaydir so‘loqmonday yigit yashik ustidan tushib, qo‘lqopini yonidagi sherigiga berdi-da, ol- dimga yaqin kelib, yoqamdan ushlab, o‘zi tomon tortib:

– Qani, „uff“ de-chi! – dedi.

– Uff! – deb pufladim men.

– Kayfi yo‘q! – dedi u yoqamni bo‘shatarkan, hayron bo‘lib.

– Bo‘lmasa, jinni-minni bo‘lgandir-da, – dedi haligi yi- gitning sherigi uni quvvatlagandek va ikkalasi ham mashi- nalariga o‘tirishib, jo‘nab ketishdi. Boshqalar ham ketishga hozirlanib, o‘rinlaridan jimgina qo‘zg‘alishdi. Hech qachon bunchalik kulgi, bunchalik mulzam bo‘lmagan edim! Yer yorilmadi-yu, yerga kirmadim.

– To‘xtanglar! Qayoqqa ketyapsizlar! – deb shofyorlar orasida alanglab, u yoqdan bu yoqqa yugura boshladim. – Men hazil qilayotganim yo‘q, haqiqatan ham tirkamalar ulash mumkin...

Keksa, oqsoqol shofyorlardan biri jahli chiqib, oldimga keldi-da:

– Men bu yerda shofyorlik qila boshlagan paytlarimda sen hali ishtonchang yurgan go‘dak eding. Tyanshan tansa maydoni emas, senga juda rahmim kelyapti, xalq o‘rtasida masxarabozlik qilma! – dedi.

Odamlar meni masxara qilishib, mashinalariga tarqala boshladilar. Shunda men butun stansiyani boshimga ko‘ta- rib baqirdim:

– Sizlar shofyor emas, xotinchalishlarsiz!

Buni bekor qilgan ekanman, boshimga balo orttirib oldim.

Hamma to'xtab, baravariga menga qarab yopirilib kela boshladi:

– Nima deding, ablah! Ko'pchilikning hayoti bilan o'ynashmoqchimisan!

– Novator! Mukofot olmoqchi! – deb shovqin soldi Jontoy. G'ala-g'ovur zo'rayib ketdi, odamlar meni iskanjaga olib, yashiklarga qisib qo'yishdi.

– Masxara qilyapsanmi hali!

– Sol tumshug'iga!

– Mishig'ingni artib olsang-chi!

Do'pposlab, dabdala qilib tashlashsa kerak, deb o'ylab, yerda yotgan taxtani qo'limga oldim.

– Qani, chetroq tur, yo'l ber! – deb hushtak chalib, kimdir hammani itarib-surib kela boshladi.

Bu Alibek edi.

– Jim! – deb baqirdi u. – Sen, Ilyos, tushuntirib gapir! Tezroq so'zlay qol!

– E, nimani gapiraman! – dedim men nafasim bo'g'zimga tiqilib. Chunki hali og'iz ochishga ulgurmasdan oq yulib-tortqilashib, tugmamdand birontasini ham qoldirishmay uzib yuborishgandi. – Men dovonda bir mashinani yuki bilan shatakka olib, yo'l tuzatuvchilar uchastkasigacha oborib qo'rganman. Bor gap shu.

Yigitlar ishonmagandek jim bo'lib qolishdi.

– Xo'sh, torta oldingmi? – deb so'radi kimdir shubhanib.

– Ha, butun Do'landan to uchastka hovlisigacha tortib bordim.

– Ho, juda zo'r-u! – dedi kimdir ajablanib.

– O'zicha valdirayapti-da! – deb e'tiroz bildirdi ikkinchi biri.

– Faqat muttahamlargina valdiraydi. Buni Jontoy ham ko'rgan. Hoy, Jontoy, qayoqdasan? Ayt! Qanday uchrashganimiz esingdami?..

Ammo Jontoyning ovozi chiqmasdi. U yer yorilib, yerga kirib ketgandek, g'oyib bo'ldi-qo'ydi. U ablahdan nafratla-

nib yurganim bejiz emas edi. Hozir buni o'ylab turadigan vaqt emasdi. Odamlar bahslashib ketdi. Meni quvvatlagan odamlar ham bo'lishdi. Biroq qandaydir bir shakkok chiqib, birdaniga ularni fikrlaridan qaytardi-qo'ydi:

– Bekorchi gap sotishning nima keragi bor! – deya to'ng'illay boshladi u. – Birov bir ishni bir marta qilsa qilibdi-da! Bunday hodisalar ozmi! Biz yosh bola emasmiz. Trassamizda tirkamalar ulab yurish man etilgan. Bunga hech kim ruxsat ham bermaydi. Mehnat xavfsizligi injenerlariga shunday deb ko'r-chi, nima derkin: shunaqayam boplasinki, dodingni Xudoga aytgin. Sizlarni deb javobgarlikka tortilishni xohlamasa kerak... Gapning o'g'il bolasi shu.

– E, qo'ysang-chi! – deb gapga aralashdi boshqa birov. – Ruxsat bermaydi deganing nimasi! Mana, Ivan Stepanovich o'ttizinchi yillarda polutorka mashinada dovonni birinchi bo'lib ochgan. Unga ham hech kim ruxsat bermagan edi. U o'z bilgicha qilgandi bu ishni. Mana o'zi, hali o'lganicha yo'q...

– Ha, darvoqe, shunday bo'lgan edi, – deb tasdiqladi Ivan Stepanovich. – Ammo hozir shubhalanib turibman: axir bu yerdan hatto yozda ham hech kim tirkama bilan o'tgan emas, hozir esa qish...

Shu paytgacha indamay o'tirgan Alibek gapga aralashdi:

– Yetar shuncha tortishganimiz. Ilyosning taklifi hali sinab ko'rilmagan narsa bo'lsa ham o'ylab ko'rish kerak. Lekin sen aytgancha emas, Ilyos, tirkamani ulaymiz-u ketavermaymiz. Bunday qilish yaramaydi, oldin bunga hozirlik ko'rish, hammasini jiddiy o'ylab chiqish, maslahatlashish va sinab ko'rish kerak. Quruq so'z bilan hech narsani isbotlay olmaysan...

– Isbotlayman! – dedim men unga. – Sizlar o'ylab, fol ochib bo'lgunlaringizcha, men isbotlab beraman! Ana o'shanda ishonch hosil qilaszlar! – deb burilib mashina tomon yurdim va avtobazaga jo'nab ketdim.

Har kimning o'z xulqi, fe'l-atvori bor. Ularni boshqarib turish kerak, albatta, biroq bunga hamma vaqt ham muyassar bo'lavermaydi kishi. Rul boshqarib borayotgan

bo'lsam ham na ostimdagi mashinani, na yo'lni his etardim. Dard-alam, xafagarchilik va asabiylik butun vujudimni egallab olgandi. Boyagi so'zlar borgan sari izzat-nafsimga qattiq tegib, yurakni o'rtaq tutaqtirayotgan edi. Yo'q, men sizlarga isbotlab berganim bo'lsin! Odamning so'ziga ishonish kerakligini isbotlab beraman, uning ustidan kulish qandayligini ko'rsatib qo'yay, ehtiyotkorlik bilan orqa-oldingga qarab ish ko'rish qanaqa bo'lishini bir isbotlab beray! Alibekka ham qoyilman: o'ylab ko'rish, tayyorlanish, sinab ko'rish kerakmish! U hamisha shunaqa aqlli, ehtiyotkor! Ammo men uchun bular bir pul! Men bu ishni xamirdan qil sug'urgandek bajarib, kimligimni ko'rsatib qo'yaman!

Mashinani garaiga qo'yganimdan keyin ham uning atrofida ancha vaqtgacha o'ralashib yurdim. Sirtidan qaraganda tinchlanib qolganga o'xshasam ham ko'nglim bezovta edi. Men faqat bir narsa haqida – o'zimning haq ekanligimni qanday qilib ertagayoq isbotlasam ekan, deb o'ylardim. Fikrimni isbotlash, so'zlab berish uchun boshliqlar oldiga borishni, ularning e'tirozlarini tinglashni endi xohlamas edim. Yo'l bitta: tirkama bilan dovonga qarab jo'nash. Men buni qanday bo'lmasin, bajarishim kerak edi. Ammo tirkamani menga kim berardi, uni avtobazadan Tyanshan yo'lga olib chiqishga kim ruxsat etardi?

Shunday o'y-xayollar bilan garajdan chiqib, hovli bo'ylab sekin yura boshladim. Kech kirib qolgan edi. Faqat dispetcherxonada chiroq yonib turardi. Men to'xtab qoldim: e, dispetcher-chi. Dispetcher hammasini to'g'ri-lab berishi mumkin-ku! Hamma ish uning qo'lida. Men dispetcherxona tomon shoshildim. Chamamda, bugun Xadicha navbatchilik qilayotgan bo'lsa kerak. Shunday bo'lsa yana ham yaxshi. U mening iltimosimni rad etmaydi. Rad etishi ham mumkin emas. Rad etgan taqdirda ham axir men jinoyat qilmoqchi emasman-ku. Aksincha, u hamma uchun foydali, hamma uchun muhim bo'lgan ishni amalga oshirishda menga yordam beradi, xolos.

Dispetcherxonaga yaqinlashar ekanman, anchadan beri ilgariildagidek eshikdan to'g'ri kirib boravermayotganli-

gim va tuynukcha orqali murojaat qilayotganligim esimga tushib, ikkilanib qoldim. Shu payt eshik ochildi. Ostonada Xadicha turardi.

– Sening oldingga kelayotgan edim, Xadicha. Yaxshiyamki, shu yerda ekansan!

– Men ketyapman.

– Xo‘p, yur, uyinggacha kuzatib qo‘yaman.

Xadicha taajjublanib, menga shubhalanib qaradi-da, jilmayib:

– Ketdik, – dedi.

Biz tashqariga chiqib, ko‘cha bo‘ylab keta boshladik. Ko‘cha zim-ziyo qorong‘i edi. Ko‘l tomondan to‘lqinlarning shovullagani eshitilib turar, izg‘irin shamol esardi. Xadicha qo‘ltig‘imdan ushlab, sovuq shabadadan panalab pinjimga tiqila boshladi.

– Sovqotyapsanmi? – deb so‘radim.

– Sen bilan birga bo‘lsam sovqotmayman! – dedi u.

Xadicha yana bir nima demoqchi bo‘lib og‘iz juftladi-yu, biroq jim qolib, yana kiftimga ishqalana boshladi. Bunga qadar hayajonlanib turgan edim, endi bo‘lsa negadir tinchlanib, o‘zimni erkin seza boshladim.

– Ertaga qay mahal navbatchilik qilasan, Xadicha?

– Ikkinchi smenada.

– Senda bir ishim bor. Juda muhim. Bari senga bog‘liq...

Yo‘lda unga hammasini aytib berdim. Avvaliga gapimga quloq solgisi ham kelmadi, biroq men uni hamon ishontirishga intilardim. Chiroq ostida, muyulishda to‘xtadik. Xadicha bir qarorga kelolmay turardi.

– Eh, Ilyos! – dedi u tashvish bilan ko‘zimga boqib. – Bekor shunday qilyapsan!

Ammo men nima desam ham uning bajarishini tushunib turardim. Uning qo‘ltig‘idan ushlab:

– Bekorga emas. Menga ishonaver! Hammasi joyida bo‘ladi. Xo‘sh, kelishdikmi? – dedim.

U xo‘rsinib qo‘ydi.

– Sen aytganingdan keyin, nima ham qila olardim! – dedi-da, xo‘p degandek bosh qimirlatdi.

Men beixtiyor uning yelkasidan quchoqlab oldim.

– Asli yigit bo‘lib tug‘ilishing kerak ekan-da, Xadicha! Xo‘p, ertagacha xayr! – deb qo‘lini qattiq qisdim. – Kechgacha hamma qog‘ozlarni to‘g‘rilab qo‘y, xo‘pmi?

– Namuncha shoshilmasang! – dedi u qo‘limni bo‘shatmay turib. So‘ngra birdan o‘zgarib qoldi. – Mayli, boraver... Yotoqxonagami?

– Ha, Xadicha.

– Xayrli tun, – dedi u.

Ertasiga bizda texnika ko‘rigi bo‘ldi. Avtobazadagi odamlar diqqinapas bo‘la boshladi: inspektorlar doim bemavrid tiqilinch qilishadi-da, nuqul biron narsadan ayb topib, akt tuzishgani tuzishgan. Qanchalik dahmaza, qanchalik tashvish. Ammo ularning o‘zlari esa juda og‘ir, sovuqqon odamlar. Rejaga muvofiq avtobazani texnika ko‘rigidan o‘tkazishlari kerak edi, shunga ko‘ra ular bamaylixotir o‘z ishlarini bajarayotgan edilar.

O‘z mashinamdan ko‘nglim to‘q edi, ammo remont qilayotgan kishidek o‘zimni chetga tortib turaverdim. Xadicha navbatchilikka o‘tguncha vaqtni cho‘zib turish kerak edi. Hech kim men bilan gaplashmas, hech kim kechagi hodisani eslatmas edi. Odamlar buni xayoliga ham keltirmasdi: hamma texnik ko‘rikdan tezroq o‘tib, yo‘lga tushishga va bekor ketgan vaqtning hissasini chiqarishga oshiqardi. Ammo baribir ko‘nglimdagi dog‘ yoddan ko‘tarilmasdi.

Texnika ko‘rigidan tushdan keyin o‘tdim. Inspektorlar ham ketishdi. Hamma yoq bo‘shab, huvullab qolgan edi. Hovlining ichkarisida ochiq havoda tirkamalar turardi. Ulardan ba‘zan tekis yo‘llarda, ichki qatnovda foydalani-lar edi. Men tirkamalarga qanday borish qulayroq ekanini ko‘zdan kechirib, ulardan birini – eng chetkisini mo‘ljallab qo‘ydim. U oddiygina to‘rt g‘ildirakli aravaga o‘xshardi. Uning hamma hikmati mana shu. Ammo shuni deb qanchalik hayajonga tushdim... O‘sha payt meni nima kutayotganini bilmas edim. Shuning uchun ham yaxshigina ovqatlanib, biror soat bo‘lsa ham mizg‘ib olish maqsadida xotirjamgina yotoqxonaga ketdim. Yo‘l juda xavfli edi. Baribir uxlay olmadim. Vaqtni ilondek to‘lg‘anib o‘tkazdim. Qosh qoraya boshlagach, avtobazaga bordim.

Xadicha bo'lsa allaqachon kelib turgan ekan. Hamma narsa taxt edi. Men uni behuda tashvishlantirmaslik uchun ortiqcha takalluf qilib o'tirmasdan yo'llanmani oldim-da, garajga shoshildim. Yugurib ketyapman-u xayolimdan: „Tamom! Endi bu yog'ini bir ko'rsatib qo'yay sizlarga!“ – degan fikrni o'tkazdim. Mashinani burdim va tislab bo'rib tirkamaga to'g'riladim, so'ngra motorni sekin yurgizib qo'ydim-da, tevarak-atrofni ko'zdan kechirish uchun kabinadan chiqdim. Biron kimsa ko'rinmaydi. Faqat remont us-taxonasidagi dastgohlarning taqir-tuquri-yu, ko'l to'lqin-larining qirg'oqqa urilishidan ko'tarilgan shalop-shulup ovozlari eshitilib turardi. Osmon sukunat ichida turgandek tuyulsa ham bironta yulduz ko'rinmasdi. Yonimda motor sekin tirillab turardi, mening yuragim ham gup-gup urardi. Chekmoqchi bo'ldim-u, lekin papirosni shu zahotiyoq chetga otib tashladim, keyin...

Darvoza oldida meni qorovul to'xtatdi:

– To'xta, qayoqqa! – dedi u.

– Yuk ortishga, oqsoqol, – dedim men o'zimni beparvo ko'rsatishga urinib. – Mana chiqishga ruxsatnoma.

Chol qog'ozga sinchiklab tikildi-yu, ammo fonus yorug'ida hech narsa o'qiyolmadi.

– Vaqtimni olma, oqsoqol! – dedim sabrim chidamay. – Ish qolib ketyapti!

Yuk ortish tinchgina o'tdi. Yaxshigina yuk ham olin-di: kuzovga ham ikki, tirkamaga ham ikki bo'lak yuk olib yo'lga chiqdim va faqat shundan keyingina ko'nglim joyi-ga tushib, cheka boshladim. So'ngra mashinaga qulayroq o'tirib oldim-da, chiroqni yoqib, to'la gaz berdim. Mashina chirog'idan taralayotgan yog'du atrofni qoplab olgan qorong'ilik chokini so'kib borardi. Yo'l bo'm-bo'sh edi. Mashinani eng yuqori tezlikka qo'yib haydashim mumkin edi. Orqada sharaqlab kelayotgan tirkama yengilgina va bir tekisda yelib borayotgan mashinaga deyarli xalal bermas-di. To'g'ri, burilishlarga kelganda mashina yo'l chekkasiga surilib ketardi va rulni boshqarish ham ancha qiyinlashar edi. Ammo bunga odatlanmaganlikdan, keyinchalik ko'ni-kib ketarman, deb o'ylardim. „Do'lanni zabt etaman, Sin-

szyanga ham boraman!“ – deb qichqirdim o‘zimga o‘zim va ot ustida enkayib chopib borayotgandek rul chambaragiga yopishib oldim. Yo‘l ravon kelgan yerlardan iloji boricha tezroq haydab o‘tish va tun yarmida Do‘larga hujum boshlash niyatida edim.

Ba‘zi vaqtlarda tezlikni mo‘ljalimdagidan ham oshirib haydardim. Ammo tog‘ boshlangandan keyin sekinroq va ehtiyotkorlik bilan yurishga to‘g‘ri keldi. Bu motorning quvvati yetmasligidan emas, albatta. Tepalikka chiqishga qaraganda, pastlikka tushish ancha qiyin edi. Tirkama nishablikdan o‘qday g‘izillab kelib, mashinaga zarb bilan urilar va uning tinchgina tushishiga xalaqit berar edi. Har qadamda tormoz berib, tezlikni kamaytirish va rulni ziyraklik bilan boshqarib turishga to‘g‘ri kelardi. Boshda o‘zimni dadil tutdim, uncha-muncha narsaga e‘tibor bermaslikka harakat qildim, lekin borgan sari xavotirlanib, asablarim buzila boshladi. Hali yo‘lda yana qanchadan qancha tepalik va nishabliklar uchraydi. Bularni sanab chiqish hech kimning xayoliga kelganmikin! Shunday bo‘lsa-da, ruhimni tushirmadim. Bu yerda holdan toyishdan boshqa hech narsa ko‘nglimga tahdid solmasdi. „Hechqisi yo‘q, – deb ovutardim o‘zimni o‘zim. – Dovonga chiqish oldidan nafasimni rostlab olaman. Dovondan albatta oshib o‘taman!“ Biroq men nega o‘sha kuzda mashinani shatakka olganimdagiga qaraganda hozir ko‘proq qiynalyapman, deb o‘ylab o‘tirmadim.

Do‘lan tobora yaqinlashib kelmoqda. Chiroq nurlari qop-qora tun qo‘yniga cho‘kkan ulkan daraning qoyalari siypalab o‘ta boshladi. Qorli qalpoqlarini bostirib kiyib olgan bu qoyalar yo‘l ustida osilib turardi. Chiroq nurlarida pag‘a-pag‘a qor parchalari yaltirab ko‘rina boshladi. „Yuqoridan shamol uchirib tushayotgan bo‘lsa kerak“, dedim o‘zimcha. Ammo qor parchalari kabina derazalariga yopishib, erib, pastga sirqib tushardi. Demak, qor yog‘yapti. U siyrak yog‘ayotgan bo‘lsa ham nam qor edi. „Bunisiga balo bormidi!..“ – dedim g‘ijinib. Oyna tozalaydigan cho‘tkalarni ishga soldim.

Dovonning dastlabki balandliklari boshlandi. Motor

odatdagidek o'zining mungli qo'shig'ini kuylay boshladi. Uning zo'riqib bir ohangda guvullashi qorong'ida o'rmalab borayotgan qo'ng'iz bolasini eslatardi. Nihoyat marra-ga yetib keldim. Endi oldinda pastga qarab qiyalab ket-gan olis yo'l. Motor ovozi pasayib, mashina quyiga qarab tusha boshladi. Mana endi u yon-bu yonga qarab tebra-nib bormoqda. Men tirkamaning orqada lapanglab, yo'l-yo'lakay mashinaga sharaqlab kelib urilayotganini se-zib, halqalarning tutashgan yeridan g'ijirlab chiqayotgan metall ovozlarni eshitib turardim. Bu g'ijirlash ovozi g'ashimni keltirib, belimni, bilaklarimni sirqiratib og'ri-tayotgandek bo'lardi. G'ildiraklar tormozga itoat qilmay, nam qor to'shamida sirg'alib boradi, mashina sirg'alib bir silkinib ketgan edi, ruli qo'limdan chiqib ketdi-da, shaqir-shuqur qilib, yo'l bo'ylab, qiyalab pastga tomon g'izilla-gancha tushib keta boshladi. Shunda men darhol rulni bu-rib, mashinani to'xtatdim. Bu yog'iga yurish amri mahol edi, oyoq-qo'limda jon qolmagandi. Mashina chirog'ini ham, motorini ham o'chirdim. Tayoqdek qotib qolgan qo'llarim xuddi yasama qo'ldek pastga shalop etib tushdi. Men o'rindiq suyanchig'iga o'zimni tashlab, toshday qotib o'tirar va xirillab nafas olayotganimni o'zim ham eshitib turardim. Shu taxlitda bir necha daqiqa o'tirib, nafasimni rostlab oldim-da, papiros cheka boshladim. Chor atrofim qop-qorong'i zimiston, dahshatli sukunat. Faqat kabina te-shikchalaridan shamol g'uvullab kirib turardi. Oldinda ni-malar kutayotganini tasavvur qilishdan yuragim vahima-ga tushardi. Bu yerdan yuqoriga qarab qiyalik bo'ylab ba-land-past, qing'ir-qiyshiq yo'llar davom etardi. Bu – motor va qo'llarning azobi. Bu tog' yonbag'irlari bo'ylab ilonizi yo'llar bilan yuqoriga tinimsiz o'rmalab chiqish demakdir. Oldinga – yuqoriga – orqaga, yana ilgariga – oldinga – orqaga, yana va yana... Ammo o'ylab o'tirishga vaqt yo'q, qor gupullab urib turibdi.

Motorni yurgizdim. Mashina qattiq o'kirib, balandlik sari qo'zg'aldi. Tishimni tishimga qo'yib, tinimsiz ravishda ilonizi yo'llarni asta-sekin bosib o'taverdim. Nihoyat, te-palikka ham chiqib oldim. Endi tik qiyalik, yo'l tuzatuvchi-

lar uchastkasiga burilib ketadigan muyulishga qadar bir tekis nishablik, undan keyin esa dovonga so'nggi hujum boshlandi. Bir amallab pastga tushib oldim va to'rt kilometrcha cho'zilib yotgan to'g'ri yo'ldan mashinani yeldek uchirib borib, yuqoriga ko'tarila boshladim. Mana, u olg'a intilib tobora yuqorilashib bormoqda... Ammo boyagi tezlab kelayotgani ko'pga bormadi, tezlik borgan sari pasaya bordi. Motorni ikkinchi, so'ngra birinchi tezlikka qo'yib haydadim. Rulni mahkam ushlagancha, o'zimni orqaga tashladim. Bulut parchalari orasidan yulduzlar mo'ralashib qarashardi. Mashina joyidan qimir etmas va u yog'iga tortolmasdi. G'ildiraklar bir yerda g'irillab aylanib, chetga surilardi, men akseleratorni jon-jahdim bilan bosdim.

– Qani, yana! Yana ozgina! Qimtib yubor! – deb qichqirib yubordim.

Cho'zib-cho'zib ingrayotgan motor titrab-qaltirab dirillay boshladi-da, birdaniga o'chdi-qoldi. Mashina sekingina orqaga keta boshladi. Jon holatda tormoz berdim, to'xtamadi. Tirkamaning og'irligi bilan borgan sari tezroq sirg'alib, pastga tomon g'ildirab tushaverdi, nihoyat, mashina qoyaga urilib, taqqa to'xtadi. Hamma yoq jimjit bo'lib qoldi. Kabina eshigini ochib, tashqariga qaradim. Xuddi o'ylaganimdek! Padariga la'nat! Tirkama yo'l yoqasidagi ariqqa tushib ketgan edi. Endi uni hech qanday kuch bilan chiqarib bo'lmasdi. O'zimni yo'qotib, dovdira-ganimcha, yana motorni yurgizdim, zo'r berib mashinani oldinga qarab hayday boshladim. G'ildiraklar o'z o'rnidan qo'zg'almay g'irillab aylanardi. Mashina bor kuchi bilan ilgari-ga qarab intildi, butun tanasi dirillab ketdi-yu, ammo joyidan siljimadi. Men mashinadan sakrab tushdim-da, tirkamaga tomon chopib bordim. Uning g'ildiraklari ariqqa chuqur botib ketgan edi. Nima qilish kerak? Boshim qotib qolgan edi, g'azab bilan tirkamaga otildim, uning g'ildiragini qo'llarim va butun gavdam bilan itara boshladim. So'ngra kuzovning ostiga kirib boshim sirqirab og'rib ketgunicha yirtqich hayvon singari bo'kirib, tirkamani yelkam bilan yo'lga surib chiqarishga urinib ko'rdim, ammo qayoqda deysiz! Holdan toyib, yo'lga yuztuban yiqildim va

qor aralash loyni quchoqlab alamimdan yig'lab yubordim. Keyin o'rnimdan turdim-da, gandraklaganimcha mashina zinasiga kelib o'tirdim.

Yiroqdan motorning guvullagan ovozi eshitildi. Ikki chiroqcha balandlikdan pastdagi tekis yo'lga yog'du sochib tushayotgan edi. Bu shofyorning kimligini va yarim tunda taqdir uni qayoqqa va nima uchun haydayotganini bilmasdim, ammo bu chiroqlar go'yo meni quvlab yetib, ushlab oladigandek seskanib ketdim. Qaroqchi singari tirkama ilgagiga qarab yugurdim, uni mashina bilan ulab turgan metall o'qni sug'urib olib, chetga uloqtirdim va kabinaga irg'ib chiqib, tirkamani ariqda qoldirganimcha, mashinani yuqoriga qarab yeldek uchirib ketdim.

Qandaydir tushunib bo'lmaydigan dahshatli qo'rquv ta'qib etardi meni. Orqamdan kelayotgan mashina nazarimda xuddi izma-iz quvib yetib kelayotgandek tuyulardi. Mashinani shunchalik tez haydardimki, azbaroyi yo'lni yod bilganimdan biron yerga urib ham olmadim. Agar ko'zlarimni bog'lab qo'rganlarida ham xuddi shunday qilgan bo'lardim.

Tongotarda dovondagi bazaga yetib keldim. Nima qilayotganimni o'zim ham anglamay, aqldan ozgan kishidek, eshikni musht bilan qoqa boshladim. Eshik lang ochildi. Asalga qaramay, boshdan oyoq loyga belanganimcha uyga kirdim. Entikkanimcha allaqanday bir nam narsaning ustiga o'tirdim. Bu kursi ustiga uyib qo'yilgan kir uyumi ekan. Papiros olish uchun qo'limni cho'ntagimga tiqqan edim, qo'limga mashina kalitlari ilindi. Men uni jahl ustida kuchim boricha chetga uloqtirdim va boshim „shilq“ etib tushdi, urib po'la qilib tashlangandek, tinka-madorim qurib, shalpayganimcha o'tirardim. Ko'zlarim polda. Stol yonida Asal o'z og'irligini yalang oyoqlarining dam unisiga, dam bunisiga solib turardi. Unga nima ham deya olardim? Asal polda yotgan kalitlarni olib, stol ustiga qo'ydi.

– Yuvinib olasizmi? Kechqurun suv isitib qo'rganman, – dedi u sekingina.

Men boshimni sekin ko'tardim. Sovqotgan Asal nozikkina qo'llarini ko'ksiga qo'yib, tungi ko'ylakda qar-

shimda turar edi. Uning qo'rquv bosgan ko'zlari tashvish va achinish bilan menga boqardi.

– Dovonda tirkamani ag'darib yubordim, – dedim begona tovush bilan.

– Qanaqa tirkama? – deb so'radi u tushunmasdan.

– Temirdan yasalgan, yashil rangli, „02-38“ nomerli! Qanaqa bo'lsa ham baribir emasmi! – deb qichqirdim jahl bilan. – O'g'irlab olgandim uni, tushunasanmi? O'g'irlab olgandim.

Asal sekingina „Voy!“ deb yubordi-da, karavotga o'tirib qoldi.

– Nega?

– Nega bo'lardi? – uning hadeganda gapga tushunavermagani mening jig'imga tegardi. – Dovondan tirkama bilan o'tmoqchi edim! Tushundingmi? O'z fikrimni amalda isbotlamoqchi edim... Mana endi uyim kuydi!

Men yuzimni kaftlarim orasiga olgancha o'tirardim. Ikkalamizdan ham birmuncha vaqt sado chiqmadi. Asal shartta irg'ib turdi-da, kiyina boshladi.

– Nega o'tiribsiz endi? – dedi u jiddiy qiyofada.

– Nima qilishim kerak? – deb g'o'ldiradim men.

– Avtobazaga qaytib boring!

– Qanday boraman! Tirkamasiz-a?

– U yerda hammasini tushuntirib berasiz!

– Esingni yedingmi! – Tars yorilib ketishimga sal qoldi.

Xona bo'ylab u yoqdan bu yoqqa tez-tez yura boshladim. – Qaysi yuz bilan tirkamani u yerga sudrab boraman? Kechirasizlar meni, xato qilib qo'ydim, deymanmi?! Oyoqlariga bosh urib yalinib-yolvorgani boramanmi? Yo'q, bormayman! Bilganlarini qilishsin! Hammasiga tupurdim!

Mening baqiriq-chaqirig'imdan karavotda yotgan o'g'ilcham uyg'onib ketib, yig'lab yubordi. Asal uni qo'lga olgan edi, bola battarroq qichqira boshladi.

– Qo'rqoqsiz, – dedi Asal sekingina, lekin qat'iy qilib.

– Nimaa! – deya g'azabdan o'zimni tutolmay musht o'qtalgancha unga tashlandim, qo'l ko'tarishga ko'tardim-u, ammo urishga jur'at etolmadim. Uning hayratlanib boqib turgan shahlo ko'zlari meni tang qoldirdi. Men uning

chaq nab turgan ko'z qorachiqlarida o'zimning dahshatli va burishib-tirishib ketgan turqimni ko'rib turardim.

Uni qo'pollik bilan bir chetga siltab yuborib, eshik tomon shiddat bilan borib, uni taraqlatib yopganimcha tashqariga chiqib ketdim.

Tashqari allaqachon yorishib qolgan edi. Kunning yorishib ketgani menga qattiq ta'sir qildi; kecha bo'lib o'tgan hamma qilmish-qidirmishlarim menga yanada mudhish, yanada xunuk bo'lib ko'rinar, o'zimni bir umr tuzatib bo'lmaydigan xato qilib qo'ygandek his qilardim. Hozircha birgina najot yo'li bor bo'lib, bu ham bo'lsa loaqal mashinadagi yukni joyiga eltib qo'ymoq zarur edi. U yog'iga nima qilishni bilmayman...

Orqaga qaytishda uyga kirib o'tmadim. Asal bilan janjallashib qolganimdan emas. Usiz ham mulzam edim. Hech kimga ko'rinmaslikka va hech kimni ko'rmaslikka urinardim. Boshqalarni bilmayman-u, bunday holalarda yolg'iz bo'lishni va boshimga tushgan tashvishni boshqalarga sezdirmaslikni istardim. Kimga keragi bor buning? Agar qo'lingdan kelsa, hamma kulfatlaring ado bo'lguncha sabr-toqat qil, chida...

Kechasi yo'lovchilar tunaydigan uyda tunab qoldim. Tuni bilan uxlay olmay alahsirab chiqdim. Tushimda dovonda tirkamani qidirib yurgan emishman. Uning izlari bormish-u o'zi yo'q emish. Har tomonga zir yugurib, tirkama qayoqqa g'oyib bo'ldi, kim olib ketdi, deb so'rab-suriishtirib yurganmishman. Men qaytayotganimda u haqiqatan ham o'sha bexosiyat yerda – turgan joyida yo'q edi. Faqat izlari bor edi, xolos. Qaytarib olib ketishibdi. Keyin bilsam, tirkamani avtobazaga Alibek sudrab kelgan ekan.

Tirkama orqasidan o'zim ham ertalab avtobazaga yetib keldim. Shu kunlar ichida qorayib ketibman, kabina yoniga qadab qo'yilgan kuzatuv oynachasiga qarab o'zimni o'zim tanimay qoldim.

Avtobazada hayot odatdagicha edi. Faqat mengina, go'yo begona kishilardek, mashinani darvoza tomon iymanibgina haydab kelib, sekingina hovliga kirib bordim va mashinani garajdan nariroqda, bir chekkada to'xtatdim-da,

kabinadan chiqmay o'tiraverdim. Atrofga ko'z yugurtirib chiqdim. Odamlar ishlarini yig'ishtirib qo'yishib, har tomondan menga qarab tikilib turishardi. Eh, qani endi lip etib qayrilsang-u, boshing oqqan tomonga qochib qolsang. Biroq hech yoqqa qochishning iloji yo'q edi. Kabinadan chiqishga to'g'ri keldi. Bor jasoratimni to'plab, hovlidan yurib, dispetcherxona tomon yo'l oldim. O'zimni xotirjam tutishga, shaxdam qadam tashlashga urinardim, ammo aslida esa saf tortib turgan kishilar oldidan o'tayotgan gunohkor askardek yurib borardim. Hammaning meni xo'mrayib kuzatib turganini sezib turardim. Hech kim meni chaqirmadi ham, men bilan salomlashmadi ham. Ularning o'rnida bo'lganimda, ehtimol men ham shunday qilgan bo'lardim.

Ostonaga qoqilib ketdim. Go'yo yuragim ham qoqilib ketgandek bo'ldi: eh, Xadicha haqida o'ylamabman, uni sharmanda qildim! Endi nima deyman unga?

Koridorda nafasimni rostlab, peshanamdagi terni art-dim. Boshimni ko'tarib, u yoq-bu yoqqa qarasam, ro'paramda devoriy gazetamiz „Chaqmoq“ sahifasidagi plakat menga tikilib turardi. „Uyat senga!“ deb yirik harflar bilan yozib qo'yilgan so'zlar ostida tog' orasida qoldirib ketilgan tirkama tasvirlangan edi...

Men teskari o'girildim. Yuzlarim shapaloq yegandek lovullab yonardi. Dispetcherxonaga kirdim. Xadicha telefonda nimanidir gaplashayotgan edi. Meni ko'rib gapidan to'xtab, go'shakni joyiga osib qo'ydi.

– Ma! – deb badbaxt yo'llanmani stolga otdim. Xadicha achingan qiyofada menga qaradi. Faqat shallaqilik qilib yig'lab yubormasa bo'lgani deb o'yladim. „Hozir emas, keyin, bo'lak biror yerda!“ – deb yolvordim ichimda. U ham meni tushundi, hech narsa demadi.

– Shovqin ko'tarishdimi? – deb so'radim sekin.

Xadicha bosh irg'ib qo'ydi.

– Hechqisi yo'q! – dedim g'ijinib, uning ruhini ko'tarish uchun.

– Seni katta yo'ldan olishdi, – dedi u.

– Olishdi? Butunlaymi? – dedim kulimsiragan bo'lib.

– Butunlay olishmoqchi edilar – remontga... Ammo yigitlarimiz sening yoningni olishdi. Hozircha ichki reyslarga o'tkazishdi. Boshliqqa uchra, seni chaqirtirishgan edi.

– Bormayman! Mensiz o'zlari hal qilishaversin. Pushaymon qilmayman...

Men xonadan chiqdim. Boshimni quyi solganimcha, koridordan arang chiqib ketdim. Kimdir menga peshvoz kelardi. Men unga yo'l berib, o'zimni chetga oldim. Bu Alibek edi. U moyga belangan qo'llarini ham artmay garajdan kelayotgan ekan. Men uning yonboshidan o'tib ketmoqchi edim, ammo Alibek yo'limni to'sdi.

– Yo'q, shoshma! – deb meni burchakka qisdi. Ko'zlarimga tikilib, g'azab bilan shivirladi: – Xo'sh, ishlar qalay, azamat? Isbotladingmi? Itfe'lligingni ko'rsatding!

– Ishimiz jo'nashib ketsin devdim-da, – deb po'ng'illadim men.

– Yolg'on!

– Nima yolg'on?

– Yolg'iz o'zing shuhrat qozonmoqchi bo'lding! O'zing uchun tirishding! Biroq muhim ishni barbod qilding. Mana endi, shulardan keyin ham tirkama bilan yurish mumkinligini isbotlab ko'r-chi! Ahmoq! Shuhratparast!

Ehtimol, bu so'zlar mening o'rnimda boshqa odam bo'lganida aqlini yig'ib olishga majbur etarmidi, ammo menga endi baribir edi: o'z fikrimni hali ham isbotlab, maqsadga erishishim mumkinmi-yo'qmi, bunga befarq qarardim. Agar men shu paytgacha o'zimcha ichetimni yeb yurgan bo'lsam, endi shu daqiqadan boshlab kishilarning achchiq tazyiqlarini va menga nafrat bilan qarashlarini butun vujudim bilan his qila boshladim. Men go'yo ularning ko'ziga o'zimning shon-shuhratimni orttirishga urinuvchi shuhratparast bir kimsa bo'lib ko'rinyotgan edim. Haqiqatda esa bu mutlaqo bunday emasdi. Ammo fakt faktligicha qoladi.

– Chetroq tur! – deb nariga itardim Alibekni. – Sensiz ham yuragim siqilib turibdi!

Eshikka chiqdim. Sovuq, izg'irin shamol hovli sahnidagi qorni uchirib o'ynardi. Odamlar men tomonga ko'z

qirini tashlashib, yonimdan jimgina o'tib ketishardi. Nima qilish kerak? Mahkam tugilgan mushtlarimni cho'ntagimga tiqib, darvoza tomon yurdim. Muzlab qolgan ko'lmakchalar oyoq ostida oyna singari chirsillab sinardi. Oyog'imga tavot moyidan bo'shagan bankacha to'g'ri kelib qoldi. Jonim boricha uni darvozadan ko'cha tomon tepib yubordim-da, o'zim ham ortidan boraverdim.

Kun bo'yi shaharcha ko'chalari bo'ylab daydib yurdim, kimsasiz huvullab yotgan pristanda tentiradim. Issiqko'lda po'rtana quturib, qirg'oqqa bog'lab qo'yilgan barjalar suv betida chayqalib qalqib yotardi.

Bir mahal qaragam, suv transporti boshqarmasining choyxonasiga kelib qolibman. Yolg'iz o'zim deraza yoniga borib o'tirdim. Oldimda – stol ustida og'zi ochilgan bir shisha araq bilan tarelkada qandaydir gazak turardi. Birinchi stakanni ichishim bilanoq kayfim taraq bo'lib, oyog'im ostiga anqov kishilardek termilib o'tirardim. Mening ko'nglim ham zangori tutunga cho'mib, mast-alastlarning pala-partish gaplariga to'lgan shu choyxona singari xira va g'ash edi.

– Nega g'amgin ko'rinasan, yigit? – bexosdan boshim uzra kimningdir yoqimli va xiyol istehzoli ovozi eshitildi. Boshimni arang ko'tardim. Yonimda Xadicha turardi.

– Ha, bir o'zing icha olmayapsanmi? – deb iljayib yonimga o'tirdi u. – Qani, birga ichaylik bo'lmasa!

Xadicha stakanlarga araq quyib, bittasini menga surib qo'ydi.

– Ol! – dedi u, go'yo biz bu yerga anchayin o'tirish va ichish uchun kelgandek, g'urur bilan hayosizlarcha ko'z qisib.

– Sen nimaga suyunyapsan o'zi? – deb so'radim norozi ohangda.

– Nima, yig'laymi bo'lmasa? Sen turganda menga boshqa narsaning keragi yo'q, Ilyos! Men seni sabrli, chidamli deb o'ylagan edim. Kel, nima bo'lsa bo'lar! – deb sekingina kulib qo'ydi u va yonimga yaqinroq surildi, qopqora nozli ko'zlarini suzib, qo'lidagi stakanni cho'qishtirdi.

Biz ichdik. Men papiros tutatdim. Ko'nglim biroz

yorishgandek bo'ldi: kuni bo'yi birinchi marta jilmayishim edi.

– Qoyilman senga, Xadicha! – dedim va uning qo'lini qisdim.

Darvoqe, Xadicha o'sha kecha juda ochilib ketgan edi.

Keyin ko'chaga chiqdik. Qosh qorayib qolgan edi. Ko'l tarafdin esayotgan sho'x shamol daraxtlarni va chiroqlarni tebratib o'ynardi. Oyoq ostimizdagi yer ham unga taassuf qilgandek chayqalardi. Xadicha qo'ltig'imdand tutib, meni yetaklab borardi, u mehribonlik bilan yoqamni ko'tarib qo'ydi.

– Men sening oldingda aybliman, Xadicha! – dedim o'z gunohim va minnatdorchiligimni yashira olmay. – Ammo shuni bilib qo'y, men seni hech kimga xafa qildirib qo'ymayman... Hammasiga o'zim javob beraman...

– Bularni unutib yuborasan, jonginam! – dedi u. – O'zing ham tinib-tinchimagansan-da... Doim qayoqqadir yelib yugurganing-yugurgan. Men bo'lsam senga achinaman. O'zim ham ilgari shunaqa edim. Hayotdan ilgarilab keta olmayсан, undan nasib qilganini ol... Taqdir bilan o'ynashib nima qilasan...

– Bu har kimning tushunchasiga bog'liq! – deya e'tiroz bildirdim, so'ngra o'ylab ko'rib: – Ehtimol, sen haqdirsan... – deb qo'ydim.

Biz Xadicha yashaydigan uyning shamolga teskari tomonida to'xtadik.

– Mana, uyga ham yetib keldim! – dedi u.

Men ketmoqchi bo'lardim-u, biroq u yerdan sira jilolmasdim. Endi ikkimiz o'rtamizda bir-birimizni bog'lab turuvchi qandaydir bir narsa bor edi. Xadichaning samimiyliги, menga nisbatan hamdardligi va uning oldida o'zimni qarzdor kishidek sezayotganligim darhol ketishimga yo'l bermayotgan edi. Buning ustiga, hozir yolg'iz qolib, yotoqxonaga borishdan ham cho'chiyotgan edim. Haqiqatan u hozir juda ochilib ketgan bo'lsa ham ba'zida shunday zahar bo'lib qoladiki, undan o'zingni beixtiyor chetga tortishga harakat qilasan.

– Nega o'ylanib qolding, jonginam? – deb so'radi Xadicha. – Charchadingmi, yo'ling olislik qilyaptimi?

– Hechqisi yo‘q, bir amallab yetib olaman. Xayr.

U qo‘limni ushlab ko‘rib:

– Vuyy, muzlab qolibsana-u! To‘xta, isitib qo‘yay! – dedi-da, qo‘limni paltosi ostiga yashirib, qattiq ko‘ksiga bosdi. Men qo‘limni tortib olishga, qizning bu qaynoq mehr-muhabbatiga qarshilik ko‘rsatishga jur‘at eta olmadim. Qo‘lim ostida uning yuragi go‘yo ko‘pdan orziqib kutib yurgan o‘z ulushini talab qilayotgandek dukullab urardi. Ha, darvoqe, men mast edim, ammo hech narsani tushunmaydigan, sezmaydigan darajada o‘chib qolgan emasdim, albatta. Men sekingina qo‘limni tortib oldim.

– Ketdingmi? – deb so‘radi Xadicha.

– Ha.

– Xo‘p, xayr! – deb Xadicha xo‘rsindi-da, qayrilib, eshik tomon tez yurib ketdi. Qorong‘ida eshikning „taq“ etib yopilgani eshitildi. Men ham yo‘lga tushdim-u, biroq bir necha qadam yurganimdan so‘ng to‘xtadim. Bir mahal qararam, yana o‘sha eshikchaning oldiga kelib qolibman, buning qanday bo‘lganini o‘zim ham bilmayman. Eshikni itardim. Xadicha meni shu yerda kutib turgan ekan. U bo‘ynimga tashlandi, lablarimdan o‘pib, mahkam quchoqlab oldi.

– Oxiri qaytding-a! – deb pichirladi u, so‘ngra qo‘limdan ushlab, uyiga yetakladi.

Yarim tunda uyg‘ondim, ancha vaqtgacha qayerda ekanligimni bilolmay yotdim. Boshim qattiq og‘rirdi. Biz bir karavotda yonma-yon yotardik. Badani iliqqina, yarim yalang‘och Xadicha pinjimga kirib olgandi. U yelkam uzra bir maromda tinchgina nafas olardi. Men o‘rnimdan turib, darhol bu yerdan ketmoqchi bo‘ldim. Sal qimirlab qo‘ydim. Xadicha ko‘zlari yumuqligicha meni quchoqlab oldi. U silliq, yum-yumaloq tizzasini kaftimga qo‘ydi.

– Ketma! – deb shivirladi qulog‘imga. So‘ngra boshini ko‘tarib, qorong‘ida ko‘zlarimga tikildi-da, entikib-entikib pichirlay boshladi: – Endi sensiz yashay olmayman! Sen menikisan! Har vaqt ham meniki eding! Boshqa hech narsani bilmayman, bilishni ham istamayman! Meni sevsang bo‘lgani, Ilyos! Sendan boshqa narsa talab qilmayman... Ammo sendan voz kecha olmayman, tushun-

yapsanmi, o'z orzularimdan voz kecha olmayman! – deb yig'lab yubordi. Uning ko'z yoshlari yuzimga yumalab tusha boshladi.

Men qoldim. Tongga yaqin uyquga ketdik. Qarasak, rosa uxlabmiz. Tashqarida kun yorishib ketgan edi. Tez kiyindim, yoqimsiz, tashvishli bir his yuragimni siqib noxush qilardi. Yo'l-yo'lakay kalta po'stinimni kiyib, shoshilib hovliga chiqdim, po'stinimning tugmalarini qadar-kanman, o'zimni „lip“ etib ko'cha eshikka urdim. Tevarak-atrofga nazar tashladim, devorning muyulishidan mallarang tulki tumoq kiygan odam to'ppa-to'g'ri men tomonga kelaverdi. Eh, uni ko'rgani ko'zim, otgani o'qim yo'q-da! Jontoy ishga ketayotgan edi, u bu yerga yaqin joyda yashardi. Ikkovimiz ham bir lahza serrayib qoldik. Men o'zimni ko'rmaganlikka soldim. Shartta burildim-da, avtobazaga qarab ketaverdim. Jontoy orqamdan ma'nodor yo'talib qo'ydi. U orqamdan qorni g'arch-g'urch bosib kelmoqda edi. Uning bu shiddatli g'arch-g'urch odimlashida qanchalik zaharxandalik, birovning baxtsizligidan sevinish borligi ravshan anglashilib turardi. Biz to avtobazaga qadar shu taxlitda oldinma-keyin yurib keldik.

Men avtobazaga kiraverishdagi yo'lakka kelganda qadamimni tezashtirdim va garajga burilmay, to'g'ri idoraga qarab ketdim. Koridorning biror yerida to'xtab, sal nafasimni rostlab olishim kerak edi.

Bosh injenerning kabinetidan odamlarning gangir-gungur ovozlari xiyol eshitilib turardi. Bu yerda odatdagidek ertalabki qisqa yig'in o'tmoqda edi. Agar tirkama voqeasi odamlar xayolidan ko'tarilib ketgan bo'lsa edi, hozir bu yerga jon deb kirgan bo'lardim. Qani endi men ham kirib deraza tokchasigami, boshqa yergami chiqib olib, oyoqlarimni chalishtirgancha papirosimni chekib, huzur qilib o'tirsam, yonimda o'tirgan hamkasabalarim bilan u yoq-bu yoqdan gaplashsam, ertalabki naryadni eshitsam, shofyorlarning ish sohasidagi biror arzimagan narsa yuzasidan beg'araz so'kishlarini va tortishuvlarini tinglab o'tirsam... Shu paytgacha bular inson uchun shunchalik zarur, shunchalik aziz ekanini hech tasavvur etmagan ekan-

man. Garchi shunday bo'lsa-da, shofyorlarning ko'zlariga ko'rinishga jur'at eta olmasdim. Qo'rqqanligimdan emas, yo'q, qo'rqqoqlik qilganim yo'q. Meni ko'proq o'sha muvaffaqiyatsizlikdan g'azablanish, umidsizlikka tushish va ular oldida behayolarcha ko'rsatgan botirligim, ojiz qaysarligim tashvishlantirayotgan, yana bularning ustiga-ustak, Xadicha bilan tasodifan tunab qolganim meni iztirobga solayotgan edi. Odamlar ham mening qilmishimni hali-beri unutmaydiganga o'xshaydi. Ichkarida xuddi mening haqimda so'z borardi. Avval ichkaridan eshitilib turgan gaplarga e'tibor bermadim. Ammo birdan kimningdir g'azab bilan baqirib gapirayotgan tovushi eshitila boshladi:

– Bu qanday bemazagarchilik! Uni sudga berish kerak, sizlar bo'lsangiz uni xaspo'shlab o'tiribsizlar! Tag'in ba'zilar uyalmay-netmay, to'g'ri o'ylabdi, deb uni himoya qilishyapti! Axir tirkamani dovonga tashlab kelibdi-ku!..

Uni boshqa ovoz bo'ldi:

– To'g'ri! Bunaqalarning ko'pini ko'rganmiz. Aql o'rgatishga juda usta. Shuhrat orttirmoqchi bo'libdi, ko'ngli mukofot istab qolibdi. Qarang, avtobazaga yaxshilik qilmoqchi emish! Biroq hammasi chappasidan ketdi!

Odamlar tortisha boshladi. G'ovir-g'uvur zo'rayib, hech narsani anglab bo'lmay qoldi. Men nari ketdim, tirqishdan gap poylashni o'zimga ep ko'rmadim. Yo'llanma olish uchun dispetcherxonaga qarab yo'naldim.

– Men qayoqqa boraman? – deb so'radim o'sha kuni navbatchilik qilayotgan qizdan.

Hozircha meni avvalgi joyimda qoldirishibdi. Aftidan, hali mening masalam uzil-kesil hal etilmagan ko'rinadi.

Koridor bo'ylab orqaga qaytdim. Shofyorlarning xonadan gur etib tashqariga chiqayotganlarini eshitib, qadamimni tezlatdim. Ular hamon vag'ir-vug'ur gaplashishardi. Alibek yo'l-yo'lakay kimgadir qizishib uqtirardi.

– Tirkamaga tormozlarni o'zimizda o'rnatamiz. Kompressorda shlangni sug'urib tashlab, o'rniga kolodkani joylashtirish uncha qiyin ish emas-ku! Anovi Ilyosmi? Ilyos, to'xta! – deb chaqirdi u meni.

Men to'xtamay, garajga qarab ketaverdim. Alibek menga yetib oldi-da, yelkamdanda ushlab tortdi.

– Uh, seni qara-ya! Tushunyapsanmi, axir ishontirdimda! Tayyorgarlik qilaver, Ilyos! Sherik bo'lib borasanmi? Sinab ko'ramiz! Tirkama bilan!

Mening dilim ranjidi: meni yomonotliqdan qutqarmoqchi bo'libdi, omadsiz o'rtog'ini shatakka olar emish! Sherik emish! Men uning qo'lini yelkamdanda siltab tashladim:

– Tirkamangdan o'rgildim!

– Namuncha zarda qilasan. O'zingdan ko'r! Men senga shunchaki gapirayotganim yo'q – biz uncha-muncha narsalarni o'ylab qo'ydik, odamlar bilganlarini aytishdi, qolaversa, dovonda tashlab kelgan tirkamangni o'zim tortib kelganman... Biron ish chiqib qolsa kerak...

– Qilsang, o'zing qilaver, meni o'z holimga qo'y, bor.

– Qo'ysang-chi, shuncha jinnilik qilganing yetar. Ishni yarim yo'lda tashlab ketish yaxshi emas! Ha, rostdanam, unutayozibman. Volodka Shirayev senga hech narsa demadimi?

– Yo'q, uni ko'rganim yo'q. Nima edi?

– Iya, bu qanaqasi bo'ldi! Qayoqlarda yuribsan o'zing? Asal yo'lga chiqib, kim ko'ringandan seni so'raydi, xavotir olib o'tiribdi! Sen bo'lsang!..

Turgan yerimda oyoqlarim chalishib ketdi, yurak urishim xuddi to'xtab qolayozgandek o'zimni shu qadar og'ir sezdimki, hatto o'limimga ham ming marta rozi bo'ldim. Alibek bo'lsa yengimdan tortib, hamon tirkamalar uchun yasaladigan qandaydir moslamalar va yana allanimalar haqida tushuntirardi. Jontoy bir chekkada quloq solib turardi.

– O'z holimga qo'ysang-chi! – deb qo'limni tortib oldim. – Mendan nima kerak senlarga? Sudga bo'lsa sudga beringlar! Shu yog'i ham yetar! Hech qanday tirkamaning keragi yo'q menga! Hech kimga sherik ham bo'lmayman! Tushundingmi?

Alibekning qovog'i osildi, peshanasi tirishdi:

– O'zing boshlab, o'zing o't qalab, endi birinchi bo'lib dumingni xoda qilib qochmoqchimisani? Shunaqami?

– Qanday tushunsang, shunday tushunaver! – dedim-da, shartta burilib, garaj tomon ketdim.

Mashina oldiga keldim, qo'llarim qaltirardi, nima qilishni bilmasdim. Nima uchundir mashina ostidagi chugurga sakrab tushdim-da, sal o'zimni bosib olish uchun terib qo'yilgan g'ishtlarga yonboshladim.

– Menga qara, Ilyos! – tepamdan shivirlagan ovoz eshitildi.

Boshimni ko'tarib qaradim: bunisi yana kim bo'ldi! Tumoq kiyib olgan Jontoy menga ayyorona tikilgan cha chuqur tepasida xuddi qo'ziqorindek cho'nqayib o'tirardi.

– Uni juda boplading-da, Ilyos! – dedi u.

– Kimni?

– Alibekni-da, aktivistni! Naq nishonga urding! Darrov nafasi o'chdi-qoldi, bo'lmasa bu novator quloqni batangga keltirardi.

– Xo'sh, sening qanchalik ishing bor?

– Nima ishim borligini o'zing ham tushunib turgan bo'lsang kerak. Biz shofyorlarga tirkamaning keragi yo'q. Uning oqibati qanday bo'lishini bilamiz: birortasi ishlab chiqarish normasini oshiradi, yo'lni qisqartadi, keyin hammalarining o'sha ilg'or darajasiga ko'tarilinglar deyiladi-yu, biroq yuk tashish uchun to'lanadigan haqni kesib qoladilar. Xo'sh, kim o'z cho'ntagiga zarar keltirishni istaydi? Bir kunlik shuhrat, obro' kimga kerak? Biz sendan xafa bo'layotganimiz yo'q. Ha, ko'ngling to'q bo'lsin...

– Biz deganing kimlar? – deb so'radim undan bamayli-xotir bo'lishga intilib. Ammo birdan bosib kelgan g'azabdan yuragim siqilib ketdi: – Mashinani shatakka olib ketayotganimda nega nafasingni chiqarmay o'tib ketganingni endi angladim! Olisni ko'zlabсан-u, ammo tumshug'ing ostidan narini ko'rolmabsan, seningcha, boshqalar hech narsani tushunmaydi. O'zingcha meni ahmoq deb o'ylayapsan shekilli! Biz deganing senmi? – deb so'radim yana.

– Faqat mengina emas, – dedi Jontoy ko'zlarini pirpiratib.

– Yolg'on, mag'zay, bit! Seni deb qasddan tirkama bilan yurganim bo'lsin! Tanimda jonim bor ekan, aytganimni

qilaman. Sen bilan ana o'shanda gaplashaman. Qani, tuyog'ingni shiqillatib qol-chi!

– Hay-hay, haddingdan oshma! – deb o'dag'ayladi Jontoy. – Sening ham qanaqaligingni yaxshi bilamiz... Biroq o'ylab ko'r... Anoviga kelsak, davring kelganda yurib qol...

– He seni!.. – deb jahl ustida qichqirib yubordim-da, joni qahrim bilan jag'iga tushirdim.

U xandaq chekkasiga qanday o'tirgan bo'lsa, shundayicha orqasiga ag'anab tushdi. Tumog'i ham uchib ketdi. Men xandaqdan mushukdek sakrab chiqdim-u, unga tashlandim. Ammo Jontoy o'rnidan turib olgandi, u o'zini chekkaga olib qochib, butun hovlini boshiga ko'tarib dodlay boshladi:

– Bezori! Kazzob! Musht bilan qo'rqita olmaysan meni! Sening ham adabingni berib qo'yadigan kuch topilar! Haddingdan oshma, zararkunanda!..

Har tomondan odamlar yugurib kela boshladilar. Alibek ham chopib keldi.

– Nima gap? Nega urding uni?

– Haqiqat uchun! – deya battarroq baqira boshladi Jontoy. – Haq gapni yuziga aytganim uchun! Tirkamani o'g'irlagan ham o'zi, dovonda ag'darib tashlab ketib, ishni barbod qilgan ham o'zi, yana boshqalar vijdonan uning xatosini tuzatmoqchi bo'lishsa, u tumshuqqa soladi! Endi bu ishdan manfaatdor emas, chunki obro' va shon-shuhratni qo'ldan boy berib qo'ydi!..

Alibek men tomon yurdi. Rangida qoni yo'q, oppoq oqarib ketgan, g'azabdan tutilib-tutilib gapirardi.

– Ablah! – deb ko'kragimdan itarib yubordi u. – Alam qilganidan dovon uchun qasd olyapsanmi? O'ylama, sensiz, qahramonlarsiz ham ishlay olamiz!..

Men indamay turaverdim. Biron narsani tushuntirib beradigan holim yo'q edi hozir. Jontoyning haddan tashqari surbetlarcha aytgan yolg'on-yashiq so'zlaridan shunchalik iztirobga tushgan edimki, hatto biron og'iz so'z aytolmay qoldim. O'rtoqlarim menga o'qrayib turishardi. Jontoy bo'lsa labidagi qonni tumog'i bilan artib, hamon o'kirardi.

Men mashinaga sakrab chiqdim-da, avtobazadan tashqariga haydab ketdim.

Yo'lda ichib oldim. Ta'bim juda xira edi. O'zimga nisbatan bo'lgan qahr-u g'azabni bartaraf eta olmas va so'nggi kunlarda bo'lib o'tgan hamma qilmishlarimni unuta olmas edim. Asalni eslasam, vijdon azobida yana qiynalardim.

Dastlabki yo'l bo'yidagi magazinchalardan biriga kirib chiqdim, foydasi bo'lmadi, so'ngra yo'l-yo'lakay yana bir to'xtab, to'la stakanni paqqos urdim. Shundan keyingina sal yengillashdim. Ko'priklar, yo'l bo'yidagi belgilar va qarshidan kelayotgan mashinalargina ko'z o'ngimdan lip-lip o'tib borardi. Ko'nglim ancha yorishgandek bo'ldi. „Eh! – deya o'ylardim o'zimcha. – Bo'lganicha bo'lar. Senga nima yetishmaydi, mashinangni haydab yuribsan, bo'ldi-da, Xadichaning bu ishlarga nima daxli bor, senga u nima yomonlik qildi, boshqalardan uning qayeri kam? Yoshgina, chiroyli, dilbar ayol bo'lsa. Seni jon-dilidan yaxshi ko'radi. Sen uchun har narsaga tayyor, sen bo'lsang, u haqida bo'lmag'ur turli xayollarga borib yuribsan. Axir u bilan o'tkazgan tuning yomon bo'ldimi. Yaxshilikni bilmagan ahmoq!“

Kechqurun uyga qaytib keldim. Kalta po'stinimni bir kiftimga kiyib olganimcha, eshik oldida gandraklab turibman: men ba'zan rulni boshqarish oson bo'lsin uchun o'ng yengimni yechib olardim. Bu bolaligimdan odat bo'lib qolgan, bolalar bilan tosh otib, kimo'zar o'ynaganimizda ham shunday qilardim...

Asal ko'zi tushishi bilan menga otildi. Ammo qay ahvoldaligimni ko'rib qo'rqib, hayron bo'lib turib qoldi.

– Sizga nima bo'ldi, Ilyos? – So'ngra gap nimada ekanligini angladi shekilli: – Voy, nega turibsiz? Charchadingizmi, sovqotdingizmi? Qani, yechining! – dedi.

Asal yordamlashmoqchi bo'lib qo'lini cho'zdi, biroq churq etmasdan uning qo'lini o'zimdan nariga surib qo'ydim. Nomus qilayotganimni qo'pollik bilan berkitishga to'g'ri keldi. Qoqinib-surilib borarkanman, nimanidir taraqlatib tepib yubordim-da, o'zimni gurs etib stulga tashladim.

– Biror narsa bo‘ldimi, Ilyos? – dedi Asal menga yaqinlashib kelarkan, mast-alast ko‘zlarimga tashvish bilan tiki-lib.

– Nima, sen hali bilmaysanmi? – deb boshimni quyi soldim; yaxshisi, uning yuziga qaramayin. Men, Asal hozir o‘pkalab, taqdirdan noliy boshlaydi, deb kutib turardim. O‘zimni oqlamay, har qancha koyisa ham tinglashga tayyor edim. Ammo u go‘yo uyda yo‘qdek churq etmasdi. Men sekingina ko‘z qirimni tashladim. Asal orqasini o‘giringancha deraza yonida turardi. Garchand uning yuzini ko‘rmayotgan bo‘lsam ham iztirob chekayotganini va ko‘zlarida yosh miltillab turganini sezdim. Unga juda rahmim kelib ketdi, yuragim ezila boshladi.

– Bilasanmi, Asal, men senga bir narsani aytmochi edim, – deb gap boshladim jur‘atsizlik bilan. – Shuni aytmochimanki! – nafasim bo‘g‘zimga tiqilib ortiq so‘zlay olmadim. Qilgan gunohimga iqror bo‘lishga yuragim dov bermadi. Yo‘q, u mendan buni hech qachon kutmagan, ayta olmayman. Unga rahmim keldi, ammo bekor qilgan ekanman. O‘sha daqiqada o‘zimni o‘zim yenga olmadim. – Biz, ehtimol, bu yaqin orada sizlarnikiga, ovulga bora olmasak kerak, – deb gapni boshqa yoqqa burdim. – Keyinchalik vaqt-soati bilan borarmiz... Hozir bundan ko‘ra zarurroq ishlar bor...

– Xo‘p, mayli! Keyinroq borarmiz, shoshadigan joyi yo‘q! – dedi Asal va ko‘z yoshlarini artib, oldimga keldi. – Hozir bu haqda o‘ylamay qo‘ya qoling, Ilyos. Hammasi yaxshi bo‘lib ketadi. Yaxshisi, o‘zingizni o‘ylang. Juda o‘zgarib qoldingiz. Sizni hech tushuna olmay qoldim, Ilyos.

– Xo‘p, bo‘pti! – deb uning gapini bo‘ldim, yuraksizlik qilib qo‘yganimdan jahlim chiqib. – Charchaganman, uyqum kelyapti.

Men yolg‘on-yashiq so‘zlarni yanada ko‘proq gapirib qo‘ymaslik, oradagi sof sevgi ko‘zgusiga dog‘ tushirib qo‘ymaslik uchun tezroq yotib uxlashim kerak edi. Asal ham uni-buni so‘rab boshimni qotirib o‘tirmasdi. Men voqeani bir boshdan oqizmay-tomizmay aytib bermoqchi bo‘lib, bir necha bor hozirlandim-u, biroq oradan vaqt

o'tgan sari iqrор bo'lishdan uzoqlasha bordim. Bilsam, hammasining o'z mavridi – vaqt-soati bor ekan. Kayfim tarqalgach, bo'lib o'tgan voqealarni unga endi hech qachon ochiqchasiga gapirib bera olmasligimni tushundim. Nega bundayligini o'zim ham bilmasdim.

Oradan bir kun o'tgach, qaytishda dovonning narigi tomonida Alibekni uchratib qoldim. U tirkama bilan kelayotgan ekan. Do'lan ishg'ol etilgan edi.

Alibek meni ko'ra solib, yurib kelayotgan yerida kabinaning o'ng eshigidan sakrab tushdi-da, qo'l silkiy boshladi. Men tezlikni kamaytirdim. U yo'lda behad xursand va g'olibona turardi.

– Salom, Ilyos! Bu yoqqa chiq, chekishamiz! – deb qichqirdi u.

Men unga yaqinlashib tormoz berdim. Alibekning kabinasida yoshgina yigitcha – ikkinchi shofyor o'tirardi. Mashinaning g'ildiraklariga zanjirlar o'rab bog'langan. Tirkamalarda pnevmatik tormoz. Buni men darhol payqagan edim. Biroq to'xtamadim. Menga juda alam qilgan edi. „Uddasidan chiqibsан – qoyil! Lekin meni tinch qo'y“.

– To'xta, to'xta! – deb Alibek orqamdan yugura boshladi. – Ishim bor, to'xta, Ilyos! Eh, shayton, senga nima bo'ldi?.. Xo'p, mayli! O'zing bilasan...

Men mashinani tezlatdim. Qichqirma. Bizning bir-birimizda hech qanday ishimiz yo'q. Mening ishim allaqachon rasvo bo'lgan. Yaxshi qilmadim, eng yaqin do'stim Alibekdan ajraldim. Axir u haq edi, hamma narsada haq edi, buni endi tushunib yetdim. Ammo o'sha paytda mening qanchalik asablarimni buzgan, qanchalik umrimni sarflagan narsaga u alam qilarli darajada juda tez va juda oddiy yo'l bilan erishganligini kechira olmasdim.

Alibek chuqur mulohazali va jiddiy yigit edi. U hech qachon dovonga menga o'xshab partizanlik qilib bormasdi ham. Bunaqangi harakatlari uning tabiatiga yot edi. Uning kuch-quvvati, e'tibori ham xuddi mana shunda edi. U mashinani sherik bilan birga haydab to'g'ri qildi. Ular mashinani yo'lda navbatma-navbat haydashlari, dovonni yangi kuchlar bilan qo'lga kiritishlari mumkin edi. Dovonda hal

etuvchi narsa – motor, iroda va inson qo‘llari. Buning ustiga, Alibek bilan sherigining manzilga borib kelishda bekor ketadigan vaqti deyarli ikki marta qisqarar edi. Bularning hammasini u hisobga oldi, mashina kompressoridan tirkamaga bir vaqtda harakat qila oladigan tormoz o‘rnatdi. U eng oddiy narsani – zanjirlarni ham unutmadi, ular bilan oldingi g‘ildiraklarni tang‘ib qo‘ydi. Xullas, u faqat „ura“ qichqirig‘i bilan emas, balki shay bo‘lib, to‘la qurollangan holda dovonga hujum qildi. Ana shu yo‘sinda Do‘landan mashinalar tirkamalar bilan o‘tadigan bo‘lib qoldi.

Alibekdan keyin dovondan boshqalar ham tirkamalar bilan yurishga kirisha boshlashdi. Hammasi emas, albatta, ammo odatdagidek har bir ishda ham asosiy narsa uning boshlanishida-da, axir. Bu orada mashinalarning soni ham ortib qolgandi, qo‘shni avtobazadan yordam yuborishgandi. Bir yarim hafta davomida kecha-yu kunduz Tyanshan traktida mashinalarning guvullashi tinmadi. Xullas, qanchalik og‘ir, qanchalik mashaqqatli bo‘lmasin, biznikilar xitoylik ishchilarning iltimosini belgilangan muddatda ado etishdi, ularni uyaltirib qo‘yishmadi. Men ham ko‘pchilik qatori ishladim. Bularni, endi hamma ishlar iziga tushib, oradan shuncha yillar o‘tib ketgandan keyingina aytyapman. O‘sha qizg‘in kunlarda esa men egarda hali mustahkam o‘tira olmas va hayot otini ham unchalik boshqara olmasdim...

Dovon ortida Alibek bilan uchrashganimizdan so‘ng avtobazaga kelganimda, kech kirib qolgan edi. Yotoqxonaga qarab yo‘l oldim, ammo yo‘l-yo‘lakay markaziy ko‘cha tomon burildim. Yana choyxonaga. O‘sha kunlarda mening hushdan ketguncha ichib, o‘lgudek mast bo‘lgim, loqal bir lahza bo‘lsa ham hamma-hammasini unutib, toshdek qotib uxlagim kelardi. Men o‘zimni zo‘rlab bo‘lsa ham juda ko‘p ichdim, ammo araq menga deyarli ta‘sir etmadi. Men choyxonadan battar xafa bo‘lib, g‘azabim qaynab chiqdim. Tun yarmida shaharchada daydib yurdim va nima qilayotganimni o‘ylab-po‘ylab o‘tirmasdan Beregovaya ko‘chasiga, Xadichaning uyiga qarab qayrildim. U ham meni kutib o‘tirgan ekan.

Keyin ham ahvol ana shunday davom etaverdi. Men ikki olov o'rtasida qolgandim. Kunduzlari ishda, avtobazada qolgan kechalarim esa darrov Xadichanikiga yugurib qolarдим. Oyog'im unikiga tortib turardi, u bilan o'zimni xotirjam va erkinroq his qilardim. U yerda go'yo o'zimdandan, odamlardan va haqiqatdan yashiringandek bo'lardim. Nazarimda yolg'iz Xadichagina meni tushunadigandek va sevadigandek tuyulardi. Uyimga kelganimda esa iloji boricha tezroq jo'nab qolishga harakat qilardim. Asal, aziz Asalginam! Agar u o'zining oqko'ngilligi va sofdilligi bilan meni uydan tobora uzoqlashtirayotganini bilsa edi. U shu fazilatlari bilan meni tezroq ketish uchun bahona topishga majbur qilardi, chunki unga munosib emasligimni, men uchun u qilgan barcha narsalarga o'zinning sazovor emasligimni ko'ra, bila turib, bu yerda ortiq tura olmasdim. Men uyga bir necha bor mast bo'lib keldim. Ammo u biror marta ham ta'na qilmasdi. Hali-haligacha uning menga nisbatan shunday munosabatda bo'lganini tushuna olmayman: bo'shligi, irodasizligidanmi yoki aksincha, o'ta bardoshlilik va insonga nisbatan ishonchi tufaylimi? Ha, u albatta mening o'zimni qo'lga olishimni, muvaffaqiyatsizliklar ustidan g'olib kelishimni va yana avvalgi holimga qaytishimni kutar, bunga ishonar edi. Ammo undan ko'ra meni koyigani, bor haqiqatni vijdonan aytib berishga majbur etgani yaxshiroq edi. Ehtimol, Asal mening yuragimni o'rtab tirnayotgan narsalar faqat ishdagi ko'ngilsizliklarga emasligini bilganida, mendan javob talab qilgan bo'larmidi?.. U shu kecha-kunduzda mening hayotimda nimalar sodir bo'layotganini tasavvur eta olmasdi. Men esa unga juda achinardim, yurak sirlarimni ochishni doim galga solardim. Natijada, shu taxlitda ish ko'rib, uning oldida, muhabbatimiz oldida, oilamiz oldida bajarishim lozim bo'lgan burchimni ado etishga ulgura olmay qoldim.

So'nggi marta uchrashuvimizda Asal meni quvonch bilan, shavq-zavq bilan kutib oldi. Yuzlari gulgun ochilib, ko'zlari tabassumdan porlar edi. U kalta po'stinim va etigimni yechdirmasdanoq to'g'ri ichkariga sudradi.

– Buni qarang, Ilyos! Samad endi tippa-tik turyapti!
– Rostdanmi? Qani u?
– Huv ana – stol tagida!
– Polda emaklab yuribdi-ku!
– Mana hozir ko'rasiz! Qani, o'g'lim, qanday turishing-
ni dadangga bir ko'rsatib qo'y! Qani tur, tura qol, Samad!

Samad undan nima istayotganliklarini tushungandek bo'ldi. U stol ostidan quvonib emaklab chiqdi-da, karavot yonida to'xtadi, uni ushlab, zo'rg'a tikka turdi. U jilmayib, nozik oyoqlarida biroz kalovlanib turdi-da, keyin o'shanday jilmayganicha „gup“ etib polga o'tirib qoldi. Chopib borib, uni quchoqlab oldim-da, badanidan yoqimli sut hidi anqib turgan go'dakni bag'ringa bosdim. Xuddi Asal kabi naqadar qadrdon va aziz edi bu hid.

– Sekinroq, Ilyos, nafasi qaytib ketadi! – deb Asal quchog'imdan Samadni tortib oldi. – Xo'sh, endi nima deysiz? Qani, endi yechining. U tez kunda kattakon bo'lib qoladi, shunda oyisi ham ishga boradi. Hammasi o'rniga tushadi, hammasi yaxshi bo'lib ketadi, shundaymasmi, o'g'ilcham? Siz-chi, – deb Asal kulimsirab, ma'yus ko'zlari bilan menga boqdi. Men stulga o'tirdim. U o'zining mana shu bir og'iz so'zi bilan so'nggi kunlar ichi aytmoqchi bo'lib yurgan, lekin aytolmay yuragida saqlab kelayotgan barcha gaplarini bayon etganini payqadim. Bu so'zlarda iltijo ham, ta'na ham, umid ham mujassamlashgan edi. Men o'sha ondayoq unga bor gapni so'zlab berishim yoki tezroq bu yerdan chiqib ketishim zarur edi. Yaxshisi, keta qolay. U behad baxtiyor edi va hech narsadan shubhalanmasdi. Men o'rnimdan turdim.

– Men ketdim, – dedim.

– Qayoqqa? – deya seskanib ketdi Asal. – Bugun ham qolmaysizmi? Loaqal choy ichib olsangiz-chi.

– Ilojim yo'q. Ketishim kerak, – deb to'ng'illadim men.
– O'zing bilasan, hozir ish juda qistov...

Yo'q, meni uydan haydayotgan narsa aslo ish emas edi. Vaholanki, yo'lga ertalab chiqishim kerak edi.

Qorong'ida mashina yoniga kelib, kabina o'rindig'iga o'zimni gurs etib tashladim va alamimdan ingrab yubor-

dim, motorni yurgizish uchun kalitni o'z o'rniga tushira olmay, ancha vaqtgacha timirskilab o'tirdim. So'ngra yo'lga chiqdim, derazalarda miltillab turgan chiroqlar orqada qolib, to ko'zdan g'oyib bo'lguncha haydab bordim. Darada, ko'prikdan o'tishim bilanoq mashinani yo'ldan chetga burib, butazorda to'xtatib, chiroqlarini o'chirdim. Shu yerda tunashga ahd qildim. Cho'ntagimdan papiros oldim. Gugurt qutisida bittagina gugurt cho'pi qolgan ekan. U lov etib yondi-yu, o'chib qoldi. Papirosni ham qutichaga qo'shib kabina oynasidan uloqtirib yubordim, boshimga kalta po'stinni tortib, oyoqlarimni yig'ishtirganimcha o'rindiqlarda bukchayib yotib qoldim.

Qop-qorong'i va bahaybat tog'lar ustida oy xiragina nur sochib turardi. Darada shamol hazin guvullar, ochilib turgan kabina eshigini u yoqdan bu yoqqa tebratar edi. U shamolda ohistagina g'ijirlardi. Kabinada yotar ekanman, o'zimning butunlay yakka-yu yolg'izligimni, odamlardan, oilamdan va avtobazadagi o'rtoqlarimdan ajralib qolganligimni hali hech qachon hozirgidek chuqurroq sezmagandim. Bundan buyon bu taxlitda hayot kechirish mumkin emas edi. O'zimga o'zim so'z berdim: safardan avtobazaga qaytib kelishim bilanoq, Xadicha bilan gaplashaman, undan meni kechirishini, ikkovimiz o'rtamizda bo'lib o'tgan hamma narsalarni unutishini iltimos qilaman. Shunday qilsam, vijdonan haqqoniy va to'g'ri ish tutgan bo'laman.

Biroq hayot bu fikrimni boshqachasiga hal etdi. Men shunday bo'lishini hech qachon o'ylamagan va kutmagandim. Oradan bir kun o'tgach, ertalab dovondagi bazaga yetib kelganimda, uyda hech kim yo'q edi. Eshik lang ochilib yotardi. Dastlab Asal biron yoqqa: suvgami, o'tingami chiqqan bo'lsa kerak, deb o'yladim. U yoq-bu yoqqa qaradim. Xonada hamma narsa ivirsib yotardi. Olov yoqilmagan, qora pechkadan qandaydir yoqimsiz sovuq urib turar, uy huvullab yotardi. Samadning karavoti yoniga bordim – bo'm-bo'sh.

– Asal! – deb shivirladim dahshat aralash.

„Asal!“ – deb shivirlab aks sado berdi devorlar.

Men eshikka o'qdek otilib chiqdim.

– Asal! – deb qichqirdim hovlida turib. Hech kim javob qilmadi. Qo‘ni-qo‘shnilarimiznikiga yugurdim, yoqilg‘i quyish shoxobchasiga chopib bordim, hech kimdan aniqroq javob ololmadim. Odamlarning aytishicha, kecha bolasini tanishlarinikida qoldirib, o‘zi kun bo‘yi qayoqqadir ketibdi va tunda qaytib kelibdi. „U voqeadan xabar topib ketib qolgan!“ – degan dahshatli xayoldan cho‘chib ketdim.

Umrimda hali hech qachon Tyanshan tog‘laridan mashinani o‘sha, men uchun baxtsiz bo‘lgan kundagidek tez haydamagan bo‘lsam kerak. Men nuqul qayerdadir anovi muyulishdan keyin yoki anovi darada, yoki yana qayerdadir yo‘lda unga yetib oladigandek bo‘laverdim. Go‘yo burgutdek parvoz qilib, ketib borayotgan mashinalarni quvib yetardim va ularga yonma-yon kelib mashinaga tormoz berardim-da, kabina va kuzovlarga ko‘z yugurtirib chiqib, shofyorlarning so‘kish-koyishlari ostida mashinani yana ilgarilab yeldirib borardim. Men shu vaziyatda radiatordagi suv qaynab ketmaguncha uch soatlar chamasi mashinani beto‘xtov yeldek uchirib haydadim. Kabinadan sakrab tushdim-da, radiator ustiga qor socha boshladim, so‘ngra yo‘l yoqasidagi pastlikdan suv olib chiqqani yugurdim. Suvni darhol quydim. Radiatordan bug‘ ko‘tarilar, mashina esa poygadan chiqqan otdak ufurardi. Rulga endi o‘tirmoqchi ham edimki, Alibekning qarshidan kelayotgan avtotirkamaga ko‘zim tushib qoldi. Quvonib ketdim. Garchand biz gaplashmay, salomlashmay yurgan bo‘lsak ham, mabodo Asal ularnikida bo‘lsa, baribir u buni menga aytishi kerak-ku. Men yo‘lga yugurib chiqib, qo‘limni ko‘tardim-da:

– To‘xta, to‘xta, Alibek! To‘xta! – deb qichqirdim.

Rulni boshqarib borayotgan navbatchi yigit Alibekka savol nazari bilan qaradi. Alibek esa xo‘mrayganicha teskari burilib oldi. Mashina to‘xtamasdan o‘tib ketdi. Mashina g‘ildiraklaridan ko‘tarilgan qor to‘zoni orasida qolib, ancha vaqtgacha qo‘limni ko‘targanicha turib qoldim. So‘ngra yuzimni artdim. Mayli, olmoqning bermog‘i bor-ku, axir! Biroq hozir undan xafa bo‘ladigan darajada emas edim.

Demak, Asal ularnikiga bormapti. Bu ko'nglimni battarroq g'ash qila boshladi. U o'z ovuliga ketgan bo'lsa kerak, boshqa boradigan joyi yo'q. U ota-onasi oldiga qaysi yuz bilan bordiykin va nima dedi ekan ularga?

Tezda ovulga jo'nashim kerak.

Yukni tushirgach, avtobaza hovlisiga kirib o'tirmadim. Mashinani ko'chada qoldirib, hujjatlarni topshirish uchun dispetcherxonaga yugurib ketdim. Borayotib yo'lakda Jontoy bilan to'qnashib qoldim. Uning yonidan o'tib ketdim, u bo'lsa ortimdan jirkanch va hayosizlarcha tirjayib qoldi.

Halloslab dispetcherxonaning tuynukchasiga boshimni suqdim-da, Xadichaning oldiga yo'llanmani tashladim. U menga g'alati qilib bir qarab qo'ydi. Uning ko'zlaridan qandaydir bezovtalik va o'zini gunohkordek sezayotganligi no-goh sezilib ketdi.

– Tezroq olsang-chi! – dedim men.

– Biron nima bo'ldimi?

– Asal... uyda yo'q, ketib qolibdi!

– Rostdanmi? – dedi ranglari oppoq oqarib ketgan Xadicha va o'rnidan turdi-da, lablarini tishlab: – Kechir, kechir meni, Ilyos! Hammasiga men, men... – deya boshladi.

– Nimaga men-menlab qolding! Tushuntiribroq gapirsang-chi, qani, ayt barini! – deb despetcherxonaning eshigiga qarab otildim.

– Bularning hammasi qanday bo'lganini o'zim ham bilmay qoldim, gaplarim rost, Ilyos. Kecha yo'lakda turuvchi qorovul tuynuk eshikchasini taqillatib, bir qiz kelib, seni so'rayapti, dedi. Qorovul uni bu yerga chaqirdi-da, o'zi chiqib ketdi. Men uni darhol tanidim. U „jimgina menga tikilib qaradi: „Shular hammasi rostmi?“ – deb so'radi. Men, men esa dovdirab qolib, qo'qqisdan: „Ha, rost. Hammasi rost. U men bilan birga!“ – deb yuboribman. U cho'chib ketib, tuynukchadan boshini shartta tortib oldi. Men esa boshimni stolga shilq etib tashlaganimcha, jinnilarga o'xshab: „Meniki u! Meniki!“ – deb ho'ngrab yig'lab yubordim. U koridordan yugurib chiqib ketdi, keyin uni ko'rmadim... Kechir meni...

– Shoshma-shoshma. U qayoqdan bildiykin?

– Jontoy aytgan. O'sha, u menga ham do'q qilib yurardi. Uning ablahligini bilmaysanmi axir!

– Bilaman. Biroq u bu gal haqiqatni aytibdi.

– Sen, Ilyos, bor, uni qidirib top. Men endi sizlarga xalaqit bermayman. Biron yoqqa bosh olib ketaman...

Mashina meni qishki cho'i bag'ridan olib borardi. Yo'lni qalin, ko'kimtir muz qoplab yotardi. Shamol qor uyumlarining yo'llarini tarab, ariq bo'ylaridagi qorlarni quyun qilib uchirib, o'zi bilan olis-olislarga olib ketardi. Uzoqdagi tog' etaklarida shamolda nuragan devorlar va yaproqlari to'kilib ship-shiydam bo'lib qolgan ovul bog'lari elas-elas qorayib turardi.

Kolxozga kechqurun yetib keldim. Mashinani menga tanish bo'lgan xonadon oldiga kelib to'xtatdim, nafasimni rostlab olish uchun papiros tutatdim so'ng uning qoldig'ini o'chirib tashladim-da, signal bera boshladim. Ammo Asal o'rniga yelkasiga po'stin tashlab olgan onasi chiqdi. Men kabina eshigini ochib, zinaga tushdim va sekingina:

– Salom, opa! – dedim.

– Haa, senmiding! – deb g'azab bilan javob qildi u. – Qilar ishni qilib qo'yib, tag'in meni opa deyishga qanday tiling bordi? Yo'qol bu yerdan, basharang qursin. Sayoq, muttaham, lo'li! Bolamning bosh-ko'zini aylantirib olib qochibdi-da, yana uyalmay-netmay burnini tortib kelgani-ni qara-ya! Benomus! El-yurt oldida sharmandayi sharmisor qilding...

Kampir og'iz ochirgani qo'ymasdi. U meni og'ziga kelgan achchiq so'zlar bilan tinmay qarg'ar edi. Uning baqirig'ini eshitib, qo'shni hovlilardan erkak-ayollar va bolalar to'plana boshladilar.

– Xaloyiqni chaqirmasimdan, bu yerdan tuyog'ingni shiqillatib qol! Basharang qursin, turqingni sira ko'rmayin! – g'azabga to'lgan ona po'stinini yerga uloqtirib tashladida, menga tomon xezlab kela boshladi.

– Hoy, yaxshilikcha jo'nab qol bu yerdan! – dedi allaqanday bir kishi yo'lga tomon qo'lini ishora qilib dag'dag'a bilan.

Yo'lga tushishdan boshqa iloj qolmagan edi. Axir meni Asal hatto ko'rishni ham istamagandan keyin ketish kerak edi-da. Mashinamga tosh va tayoqlar otila boshladi. Bolalar meni ovuldan ana shunday haydab qolishdi. Nega shunday qilishdi ekan? Ehtimol, ular meni bu kampirni haqorat qilib, xafa qilgan deb o'ylashdimikin? Yoki biron kallakesar deb o'ylashgan bo'lsa kerak...

O'sha tuni ko'l bo'yida uzoq daydib yurdim. Oy nuri-da jilolanayotgan ko'l to'lqin urib, o'zini qo'yishga joy topa olmasdi. O', Issiqko'l, mangu qaynoq ko'l! O'sha tun muzdek sovuq eding, iltifotsizlik bilan qarshi olgan eding. Men to'ntarilib yotgan qayiq ustida o'tirardim. Qirg'oqdagi sayozliklar sari o'rkach-o'rkach bo'lib yopirilib kelayotgan to'lqinlar zarb bilan etiklarimning qo'njiga urilar va pishqirib yana orqaga qaytar edilar.

So'ng allakim menga yaqinlashib keldi-da, yelkamga sekingina qo'lini qo'ydi. Bu Xadicha edi.

* * *

Bir necha kundan keyin biz birga Frunze shahriga jo'nab ketdik. Anorxoy dashti yaylovlarini o'zlashtirish bo'yicha qidiruv ishlari olib borayotgan ekspeditsiyaga men shofyor, Xadicha ishchi bo'lib o'rnashdik. Mana shunday qilib yangi hayot boshlandi.

Ekspeditsiya bilan birgalikda Anorxoy cho'lining ichkarisiga, naq Balxash bo'ylarigacha yetib bordik. Agarda undan ham olislarga borib qolganimizda ham baribir, orqaga qaytmagan bo'lardim. O'tmish bilan aloqani uzadigan bo'lgandan keyin bir umrga uzmoq kerak.

Dastlabki paytlarda dard-alamimni ish bilan yengdim. Ish esa istagancha topilardi. Uch yildan ortiqroq vaqt ichida butun Anorxoy dashtini kezib chiqdik, quduqlar qazidik, yo'llar o'tkazdik, yo'l ustida bazalar qurdik. Xullas, hozirgi Anorxoy baland-past adirlardan iborat bo'lib, yovshan bilan qoplanib yotgan va hatto kishi kuppa-kunduzi adashib, boshi va oyog'i qayoqda ekanligini topa olmay haftalab, oylab tentirab yuradigan ilgarigi yovvoyi dasht

emas. Hozir u yerlar madaniy dam olish joylari, uylar va qo'sharlari bo'lgan chorvadorlar o'lkasiga aylangan. Don ekishadi, hatto chorva uchun pichan tayyorlashadi. To'g'ri, hali Anorxoyda qo'l urilmagan ishlar ko'p, biz shofyorlarni bo'lsa qo'yavering, ularning ishi hamma vaqt boshidan ortib yotadi. Biroq men u yerdan qaytib keldim. Hali ko'p yerlari noobod, odamlar kam yashaydigan dashtda yashash og'irligidan yoki bo'ronli qishda, yo'lsiz cho'lda tentirab yurish qiyin bo'lganligi uchun emas. Bu qiyinchiliklarning bari vaqtinchalik narsa, albatta. Agar inson mustahkam o'rnashib olsa, cho'lni o'ziga bo'ysundira oladi, u yerga o'zi ham ko'nikib qoladi, cho'lni ham o'ziga moslashtira oladi. Xadicha ikkimiz qiyinchiliklardan qo'rqqmasdik, turmushimiz ham yomon emas edi, bir-birimizni hurmat qildik. Ammo hurmat boshqa-yu, muhabbat boshqa. Agar biri sevib, ikkinchisi sevmasa, unda bu ham, menimcha, ko'ngildagidek haqiqiy turmush bo'lolmaydi. Yo inson o'zi shunday tuzilganmi, yo faqat men tabiatan shunaqamanmi, bilolmadim, har qalay, menga doimo bir narsa yetishmasdi, uning o'rnini ish bilan ham, do'stlik bilan ham, seni sevguvchi ayolga nisbatan e'tibor va g'amxo'rliging bilan ham almashtirib yoki o'rnini to'ldirib bo'lmasdi. Men Asalning oldiga borishga yana bir bor urinib ko'rmay, shoshma-shosharlik qilib ketib qolganim uchun ko'pdan beri ich-ichimdan o'kinib yurardim. Anorxoyda o'tkazgan keyingi yarim yil mobaynida bo'lsa Asal va o'g'ilchamni sog'inib yurak-bag'rim ezilib ketdi. Tunlari uxlay olmay chiqardim. Samadning kulib, nozik oyoqchalarida zo'rg'a tik turgani ko'zimga ko'rinaverardi. Uning iliq tafti va go'daklarga xos mayin hidini go'yo butun umrga singdirib olgandayman. Qadrdon Tyanshan tog'lari, mavjlanib yotgan moviy Issiqko'l, ilk va so'nggi muhabbatimni topgan tog' etaklaridagi jonajon dashtlar meni o'ziga tortardi. Xadicha bularning hammasini bilardi, biroq men uni hech narsada ayblamaganimdek, u ham meni biron narsada ayblamas edi. Nega ham ayblardik? Biz birga yashay olmasligimizni nihoyat tushungan edik.

O'sha yili Anorxoyga bahor erta keldi. Adirlarni qoplab yotgan qorlar tezda erib, kunlar isib, o't-o'lanlar ko'ka-

ra boshladi. Dashtga jon kira bordi, u issiqlik va namlikni emib bug'lanib yotardi. Tunlari havo shishadek musaffo bo'lar, osmonda yulduzlar charaqlardi.

Biz parmalash vishkasi yonidagi chodirda yotgan edik. Har vaqtdagidek uyqu kelmasdi. Kutilmaganda allaqayoqlardan parovozning qichqirgan ovozi zo'r-bazo'r eshilib, cho'l sukunatini buzdi. Uning bu tomonlarga qay tarzda yetib kelganini aytish qiyin. Qozoq temiryo'li bizdan dasht bo'ylab yarim kunlik yo'l narida. Yoki menga bu tovush shunchaki eshiltgandek bo'ldimi, bilolmayman. Biroq yuragim „jiz“ etib ketdi. U meni yo'lga chorlardi. Shunda men:

– Bu yerdan ketaman, Xadicha, – dedim.

– To'g'ri, Ilyos. Ajralishimiz kerak, – dedi u.

Biz ajralishdik. Xadicha Shimoliy Qozog'istonga, qo'riq yerlarga jo'nab ketdi. Eh, Xudo, uning baxtiyor bo'lishini chin yurakdan istardim. Men Xadichaning ko'nglidagi odamini topishiga, balki o'zi ham sezmay-bilmay turib uni izlab yurgan yigit bilan uchrashishiga ishongim kelardi. U birinchi eridan yolchimadi. Unga ko'ngilsiz bo'lib, ajralishib ketdi. Shuningdek, men bilan ham o'z baxtini topolmadi. Agar men haqiqiy, chinakam sevgi nima ekanligini, sevis va sevilishning ma'nosini to'la anglab yetmaganimda, ehtimol, u bilan turmush qurib ketgan bo'lar edimmi?.. Darvoqe bu shunaqangi narsaki, uning nega bunday bo'lishi kerag-u, unga o'zgacha bo'lishi mumkin emasligini izohlashga ojizlik qilib qolasan kishi.

Xadichani stansiyagacha olib borib, poyezdga o'tqazib yubordim va to orqada qolib ketmagunimcha vagon bilan yonma-yon chopib boraverdim. „Safaring xayrli bo'lsin. Xadicha, oramizda o'tgan yaxshi-yomonni unut!“ – deb shivirlab qoldim so'nggi marta.

Turnalar Anorxoy osmonidan janubga tomon uchib borardi, men esa shimolga, Tyanshan tomon borardim...

* * *

Manzilga yetib keldim-u, hech qayerda to'xtamasdan, to'ppa-to'g'ri ovulga jo'nadim. Chamadonimni tuman mehmonxonasida qoldirdim. Yo'lovchi mashina ham juda qulay kelib qoldi: u tog'ga, geolograzvedkachilar huzuriga ketayotgan ekan. Men kuzovda borar ekanman, hech narsa haqida o'ylamaslikka urindim, butun vujudimni bir vaqtda ham qo'rqinch, ham quvonch chulg'ab olgan edi. Biz tog' etagidagi dasht yo'ldan, Asal bilan uchrashgan o'sha qadrdon yo'ldan ketayotgan edik. Ammo u endi ilgarigi torgina qishloq yo'li emas, balki shag'al yotqizilgan, beton ko'priklari va yo'l belgilariga ega bo'lgan keng va tep-tekis ko'cha bo'lib ketibdi. Men hatto avvalgi oddiy yo'ldan asar qolmaganiga biroz achingandek bo'ldim. Mashinam tiqilib qolgan ariqni, Asal o'tirgan o'sha xarsang toshni ham tanibolmay qoldim.

Ovulga yetmasdanoq kabina tepasini qoqa boshladim.

– Nima gap? – deb boshini chiqarib so'radi shofyor.

– To'xtat, tushaman.

– O'rta yo'lda-ya? Hozir yetamiz-ku.

– Rahmat! Yaqin qoldi, – deb mashinadan yerga sakrab tushdim. – Bu yog'iga piyoda bora qolarman. – U mening qayoqqa va nega kelayotganimni qayoqdan bilsin. Pul uzatdim.

– Qo'y! – dedi u. – Shofyorlardan, hamkasabalardan olmaymiz.

– Ushla buni, shofyorligim peshanamga yozib qo'yilgani yo'q-ku.

– Yurish-turishingdan sezib turibman.

– Xo'p, mayli, ketaver bo'lmasa, salomat bo'l!

Mashina yo'lga tushdi, u hovlilar ortidagi ko'chaga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Men esa es-hushimni yig'ishtirib olmay hamon yo'l ustida turardim. Shamolga chap berib sigareta tutatdim. Sigaretani labimga keltirar ekanman, barmoqlarim dir-dir titrardi. Bir necha bor bosib-bosib, ichimga tortdim-da, so'ngra g'ildirak iziga tashlab toptab, yo'lga ravona bo'ldim. „Mana, yetib ham keldim“, deb g'o'ldiradim o'z-o'zimga. Boshqa aytadigan gapim ham

yo'q edi. Yuragim fikr-xayollarimni bosib ketmoqchidek gurs-gurs urar, go'yo bir narsani bolg'alayotgandek qulog'im shang'illardi.

Ovul ajabtovur o'zgarib, xiyla kengayib qolibdi, yangidan solingan ko'pgina shifer tomli binolar paydo bo'libdi. Ko'chalarga simyog'ochlar o'rnatilib, simlar tortilibdi, kolxoz boshqarmasi binosi oldidagi simyog'ochda radio gapirardi. Bolalar maktabga chopqillab ketishyapti. Ulardan sal kattaroq bolalar esa universitetni bitirgan yosh o'qituvchilari bilan (bu ko'krigidagi nishonidan ko'rinib turardi) bir gala bo'lishib, allanimalar haqida o'zaro gaplashib borishardi. Ehtimol, ularning orasida menga tosh va tayoqlar otib qolgan bolalar ham bordir. Mayli, hechqisi yo'q, o'sha kezlarda hali ular yosh bola emasmidi.

Garchand meni bu yerda hech kim tanimasa ham, birov sezib qolmasin deb ko'chaning bir chekkasidan shoshib bordim.

Mana o'sha sambittolli va paxsa devorli hovli. To'xtab, nafasimni rostladim. Qo'rquv va tashvishdan badanim muzlab, ko'cha eshigi tomon qat'iyatsizlik bilan yurib boraverdim. Taqillatdim. Qo'lida portfel ko'targan qiz chopib chiqdi. Bu – menga tilini ko'rsatib qochgan o'sha qizcha edi. Endi u maktabga boradigan bo'lib qolibdi. Qiz shoshilib turardi. U menga hayron bo'lib qaradi-da:

– Uyimizda hech kim yo'q! – dedi.

– Hech kim yo'q?

– Ha, oyim lesxozga mehmon bo'lib ketdi... Dadam traktorlarga suv tashiyapti.

– Asal-chi, qayerda u? – deb qo'rqa-pisa so'radim-u shu zahotiyog' og'zim qaqrab ketayotganini sezdim.

– Asal? – deb ajablandi qiz. – Asal allaqachon ketib qolgan...

– Keyin hech kelmadimi?

– Har yili pochcham bilan birga keladi. Oyim uni juda yaxshi kishi deb maqtaydi.

Qizdan bo'lak hech narsa haqida surishtirib o'tirmadim. U maktabiga chopib ketdi, men esa orqaga qaytdim.

Bu yangilik meni shu qadar dovdiratib qo'ydiki, uning

kimga va qachon turmushga chiqqani endi menga bari-bir edi. Bilib nima ham qildim? Biroq o'tgan yillar orasida nima uchundir Asal boshqa birovga turmushga chiqib ketgandir, degan fikr hech qachon xayolimga ham kelmagan edi. Axir shunday bo'lishi ham mumkin edi-ku. Hech qanday dom-daraksiz bir necha yillar qoramni ko'rsatmay ketganimdan keyin, hammani qo'yib meni kutib o'tirarmidi...

Ovuldan chiqiboq, hech qanday mashinani kutib o'tirmasdan, to'g'ri yo'l yoqalab ketaverdim. Agar biror mashina quvib yetganida ham uni to'xtatmas edim. Har qalay, biron yoqqa yurishim kerak edi, qayoqqa bo'lsa ham – dunyoning narigi chekkasiga bo'lsa ham menga baribir edi endi.

Men bir vaqtlar Asalni olib ketgan yo'ldan borardim. Ammo yo'l burungicha emas – yaxshilab shibbalanib, shag'al yotqizilgandi. Faqat dashtgina ilgarigicha: atrofda qop-qora shudgor-u, o'rib olingandan keyin qolgan sarg'ish poyalar ko'zga tashlanardi. Bepoyon dasht Issiqko'lning nurli hoshiyadek ajralib turgan uzoq qirg'oqlarini yorib kirib, tog' yonbag'irlaridan tortib to ufqqa qadar yastanib yotardi. Qorlar erib, yalang'ochlanib qolgan yer namga to'yib ko'pchib yotardi. Allaqayoqlarda traktorlar tarillab, bahorgi shudgorlash boshlab yuborilganidan darak berardi.

Rosa xuftonda tumanga yetib keldim, tunni mehmonxonada bir amallab o'tkazdim-da, ertalab avtobazaga borishga ahd qildim.

Qayoqqadir, o'zga o'lkalarga ketishdan endi foyda yo'q edi. Hamma orzu-istaklarim barbod bo'lib, hammasidan mahrum bo'lgan edim. Endi shunchaki yashash-u ishlashdan o'zga iloj qolmagan edi – u yog'i nima bo'lishini kim bilsin.

Tyanshan traktidan mashinalar odatdagidek turnaqa-tor tizilishib u yoqdan bu yoqqa qatnab turardi, biroq men o'zimizning avtobaza mashinalaridan birontasida ketishni ma'qul ko'rdim. Mana, tanish mashinalardan biri yaqinlashib kelmoqda. Qo'l ko'tardim.

Kabinada o'tirgan shofyor hadeganda meni payqamay qoldi. Katta tezlik bilan kelayotgan mashina g'izillab o'tib ketdi-yu, biroq shu zahotiyiq taqqa to'xtadi. Men chamadonimni qo'lga oldim. Shofyor kabinadan chiqdi. Bunday qaragam, polkdoshim Ermak, u stajirovkani armiyada mening qo'limda o'tagan edi. Ermak o'sha kezlarda hali yoshgina yigitcha edi. U menga qarab jimgina jilmayib turardi.

– Tanimayapsanmi?

– Serjant... Ilyos! Ilyos Aliboyev! – Nihoyat esladi u.

– Xuddi o'zi! – deb iljaydim-u, ammo o'zimga juda alam qilib ketdi, odamlar zo'r-bazo'r tanigandan keyin, juda o'zgarib ketibman-da.

Biz yo'lga tushdik. U yoq-bu yoqdan gaplashib bordik, armiyada xizmat qilgan yillarimizni esladik. Ishqilib, mening turmushim haqida gap ochib, surishtirib qolmasa bo'lgani, deb cho'chib turardim. Ammo Ermak, aftidan, hech narsadan xabarsizdek ko'rinardi. Men biroz tinchlandim.

– Uyga qachon qaytding? – deb so'radim men.

– Ishlayotganimga mana ikki yil bo'ldi.

– Alibek Jonturin qayerda?

– Bilmadim. Men kelsam, u ketib qolgan ekan. Aytishlaricha, Pomirning allaqayeridagi avtobazada bosh mexanik bo'lib ishlayotgan emish.

„Qoyilman, Alibek! Qoyilman senga, do'stim! Puxta yigitsan!“ – deb undan behad xursand bo'ldim. Demak, oxiri o'z maqsadiga erishibdi-da, u armiyada xizmat qilib yurgan kezaridayoq avtomobil va yo'l texnikumida sirdan o'qib yurgan edi. U institutni ham sirdan tugatishni orzu qilib yurardi.

– Boshliqlaring Omonjo'lovmi?

– Yo'q, yangi odam. Omonjo'lov vazirlikka ko'tarilib ketdi.

– Seningcha, qalay, meni ishga olisharmikin?

– Nega endi olishmasakan, olishadi, albatta. Birinchi klass shofyorsan, axir armiyada ham yaxshilar qatorida eding-ku.

– Qachonlardir shunday edim, – deb to'ng'illadim men.

– Jontoyni-chi, bilasanmi uni?

– Bizda unaqa odam yo‘q. Hech qachon eshitmaganman ham.

„Ha, avtobazada ozmuncha o‘zgarishlar bo‘lmapti...“ – deb xayolimdan o‘tkazdim. Keyin so‘radim:

– Tirkamalar bilan ishlash qalay? Dovondan olib o‘t-yapsizlarmi?

– Ha, bermalol o‘tib yuribmiz, – dedi u e‘tiborsizgina. – Yukning qanaqaligiga bog‘liq. Zarur bo‘lsa tirkab olishadiyu, ketishaveradi. Hozir mashinalar juda baquvvat emasmi...

Bu tirkamalar menga naqadar qimmatga tushganini u bilmasdi. Anorxoy dashtida ishlab yurgan kezlarimda ham bu hodisa haqida ko‘p bosh qotirardim. Bu ishda birgina men aybdormanmi yoki yana qandaydir bo‘lak sabablar ham bormikin? Agar bunday o‘ylab qaralsa, bu juda oddiy, uncha bosh qotirib o‘tiradigan ish emas edi. Qanchalik og‘ir va qanchalik qiyin bo‘lmasin, Do‘landan tirkama ulab o‘tish mumkin ekanligi oxiri isbotlandi-ku, endilikda, agar zaruriyat tug‘ilib qolsa, bermalol olib o‘tilyapti-ku. Ammo bari balo shundaki, biror yangilik o‘zining ishda qo‘llanilishini talab etayotgandek, eshigingni qoqib turgan taqdirda ham o‘z vaqtida sezib ololmaymiz. Nega odamlar mening taklifimga shunchalik ishonchsizlik bilan qarashdi? Bu taklifni tog‘ sharoitida amalga oshirish haqiqatan ham qiyinligidan tashqari, yana bizning trassada mashinalardan foydalanish va yuk tashish qonun-qoidalari instruksiyasi ham bor edi, unda dovondan tirkama ulab o‘tish man etilgandi. Xudo biladi, bu instruksiya qachon ishlab chiqilgan ekan. Ehtimol urushdan avval polutorkalarga moslab tuzilgandir. Bu bechora polutorka tirkama u yoqda tursin, hatto o‘zi tep-tekis yo‘ldan arang yurardi. Endilikda hech qanday instruksiyaning hojati yo‘q edi. Yangi markali, juda baquvvat zamonaviy yuk mashinalari vujudga keldi-yu, ammo qog‘ozdagi narsalar esa to hayotning o‘zi o‘chirib tashlamaguncha eskiligicha saqlanib kelaverdi. Mayli, bu kichkina va alohida bir masala, deylik, biroq shunga o‘xshash narsalar boshqa, yanada muhimroq va yanada kattaroq ishlarda yuz berib qolishi mumkin-ku, axir. Endi-

ku, o'rtloqlarimning yuk ortish stansiyasidagi beodobligim uchun salkam do'pposlamochi bo'lganlaridan xafa emasman-a. Lekin o'sha vaqtda xuddi ana shu narsa mening jahlim chiqib ketishiga va qiziq ustida hech narsani o'ylab o'tirmay, tirkamani dovonga olib ketishimga sabab bo'lgan edi-da...

Xullas, o'zimning qadrdon avtobazamga qaytdim. Birinchi kuni Ermak o'z uyiga taklif qildi. Yaxshigina kutib oldi. Uchrashganligimiz sharafiga biroz ichamiz, dedi. Ammo men ichmadim, ko'pdan beri ichmasdim, ichish niyatim ham yo'q edi.

Avtobazada ham yaxshigina kutib olishdi. Ishga qabul qilishdi, yotoqxonada yashay boshladim. Meni taniydigan oshna-og'aynilarimning jig'imga tegib, uni-buni so'rab-surishtiravermaganlaridan juda xursand bo'ldim. Ko'rib turibdilarki, bir kimsa qayoqlardadir tentirab yurib, yana o'z o'rtloqlari huzuriga qaytib kelib, vijdonan halol ishlayapti – juda yaxshi. O'tgan ishni qo'zg'ashning nima hojati bor? O'zim ham hammasini unutishga, bir umrga unutilishga harakat qilardim. Men bir vaqtlar oilam bilan yashab turgan o'sha dovondagi baza oldidan o'tib borayotib, atrofga nazar tashlamay, hatto yoqilg'i quyish shoxobchasi-dan benzin ham olmay, g'izillaganimcha o'tib ketardim. U yerda bir daqiqa bo'lsa ham ushlanib qolmaslik uchun to'xtamasdan chetlab o'tardim. Ammo baribir meni hech narsa qutqara olmadi, o'zimni o'zim alday olmadim.

Avtobazaga qaytganimga ham ancha vaqt bo'ldi. Trassa meni o'ziga jalb etib oldi, unga yana ko'nikib qoldim. Mashinani har ohangga solib haydardim, motorni barcha tezliklarda va balandliklarga chiqishda sinab ko'rdim. Qisqasi, o'z ishimni bilardim va unga sho'ng'ib ketdim.

O'sha kuni Xitoydan qaytib kelayotgan edim. Bamaylixotir, hech narsani o'ylamay papiros chekib, rul chambaragini aylantirgancha, har tomonga nazar tashlab kelardim. Ayni bahor, tevarak-atrof kishini o'ziga maftun etardi. U yer-bu yerga o'tovlar tikilayotgan edi: chorvadorlar bahorgi yaylovlarga chiqishayotgan edilar. O'tovlar uzra ko'tarilgan ko'kish tutunlar ko'kka bo'y cho'zishardi. Shamol bezovtalanib, kishnayotgan ot ovozi olib keldi. Qo'y-

qo'zilar yo'l yoqasida o'tlab yurishardi. Bolalik chog'larim esimga tushib ketdi, ko'nglim xiyol g'ash tortdi... Ko'lga yaqinlashib qolganimni bilaman, birdan cho'chib, seskanib ketdim: oqqushlar!

Shu bilan hayotimda ikkinchi marta Issiqko'l da bahorgi oqqushlarni ko'rishim edi. Ko'm-ko'k Issiqko'l uzra oppoq qushlar gir aylanishib parvoz qilishardi. To'g'ri borayotib, nimagaligini o'zim ham bilmay, mashinani yo'ldan keskin burdim-da, xuddi o'tgan safargidek, qo'riq yerni kesib, ko'lga tomon hayday boshladim.

O', Issiqko'l, Issiqko'l, qirg'iz diyorining so'nmas qo'shig'i! Nega men yana o'sha kunni, Asal bilan suv bo'yida, tepalikda to'xtagan kunni esladim-a! Ha, hozir ham hammasi avvalgidek: oq-ko'kish to'lqinlar go'yo qo'l ushlab olganday saf tortishib o'rkach-o'rkach bo'lib, sarg'ish qirg'oqlarga mingashar edilar. Yotog'iga yo'l olgan quyosh tog'lar ortiga asta-sekin botib bormoqda, etakdagi suvlar esa qontalashgandek qizg'ish tusda tovlardidi. Oqqushlar tantanavor chag'illashib charx urishardi. Ular birdan qanot qoqib yuqoriga parvoz qilardilar-u, yana qanotlarini yozib chuvullab pastga suzib tushar, suvga to'sh urib, qat-qat halqachalar hosil qilardilar. Ha, hamma-hammasi ayni o'sha manzaraning o'zi-yu, ammo yonimda Asal yo'q edi, xolos.

Hozir qayerlarda yuribsan, qizil durrachali sarviqomatim?

Ko'l bo'yida allamahalgacha qolib ketdim. Keyin avto-bazaga qaytib keldim, undan chiqib sabr-toqatim tugab, kayfiyatim tag'in buzila boshladi. Yuragimda qo'zg'algan dard-alamlarni bosish uchun yana choyxonaga bordim. Choyxonadan juda kech qaytdim. Atrof qop-qorong'i, osmonni bulut qoplagan edi. Quvurdan otilib chiqayotgandek daradan guvullab esayotgan kuchli shamol quturib daraxtlar qaddini egib-bukar, simyog'ochlardagi simlarga urilib chuvullar va mayda toshlarni kishi yuziga keltirib urar edi. Ko'l esa chayqalib to'lg'anardi. Men yotoqxonaga zo'r-bazo'r yetib oldim-u, yechinib o'tirmasdan o'zimni karavotga tashladim.

Ertalab boshimni ko'tara olmasdim, sirqirab og'rirdi. Tashqarida yurakni siquvchi qor aralash yomg'ir shivalab yog'ardi. Ishga borishga hafsalam kelmay, uch soatlar chamasini ag'anab yotdim. Bunday hodisa, ya'ni hattoki, ishning ham ko'nglimga xush kelmayotganligi hayotimda birinchi marta sodir bo'layotgan edi. Ammo keyin o'zimdanda o'zim uyalib ketdim-u, yo'lga chiqdim.

Mashina majoli qurigandek imillab borardi, to'g'rirog'i, o'zimning tabiatim xira edi. Buning ustiga, havo ham aynigan edi. Qarshimdan kabinalari va bortlari qoraga botgan mashinalar chiqib turardi. Demak, dovonda qor yog'ayotgan ekan. Mayli, yog'sa yog'avaksin, menga nima, bo'ron turib bermaydimi, menga baribir, nimadanda qo'rqaman, nima bo'lsa bo'lar...

Avzoyim juda buzuq edi. Tepamda turgan ko'zguchaga qarab ko'nglim aynib ketdi: soqol-mo'ylovim o'sib ketgan, xuddi kasaldan turgandek yuzlarim so'lg'in, qovog'im shishgan edi. Yo'lda biroz tamaddi qilib olsam bo'lardi, ertalabdan beri tuz totganim yo'q, ammo ovqatga ishtaham yo'q bo'lsa ham ichishdan qochmasdim. O'zingga bir marta erk berdingmi, bas, keyin to'xtatib olish qiyin. Birinchi stakandan so'ng ancha tetiklanib, o'zimga keldim. Mashina ham yengil yurib borayotgandek bo'ldi. Keyin yana yo'lda yugurib kirib yuz gramm ichib chiqdim, keyinroq buning ustiga yana ozroq otib oldim. Yo'l g'irillab ortda qolib borar, oyna tozalovchi cho'tkalar u yoqdan bu yoqqa borib kelardi. Mashina bilan jangga kirib borayotgandek egilib olib, og'zimdagi sigaretani chaynardim. Qarshidan kelib, kabina oynalariga ko'lmak suvlarni sachratib, g'izillab o'tib ketayotgan mashinalarnigina ko'rardim, xolos. Men ham tezlikni oshira bordim, kech kirib qolgan, tog'ga kelganimda zim-ziyo tun edi. Mana shu yerga kelganimda araq o'z kuchini ko'rsata boshladi. Madorim qurib, ko'zim tinib, yo'lni ko'rish tobora qiyinlasha bordi. Kabina ichida dimiqib ketdim, ko'nglim ayniy boshladi. Hali hech qachon bunchalik mast bo'lmagan edim. Yuzimdanda sharros ter quyilardi. O'zimni mashinada emas, go'yo olg'a tomon shiddat bilan tun bag'rini yorib borayotgan ikkala chiroq

nurlari o'rtasida o'tirib ketayotgandek his qilardim. Nurlar bilan birgama-birga men ham goh yorug'lik tushib turgan chuqurlikka zarb bilan otilib tushar, goh titrab-qaltirab qoyalar ustida o'rmalovchi nurlarga tirmashib yuqoriga ko'tarilar, goh nurlar ketidan quvlab u yoqdan bu yoqqa yugurayotgandek bo'lardim. Har daqiqa sayin holdan toyib boraverdim. Biroq har qancha og'ir bo'lsa ham to'xtamasdim, chunki ruldani qo'limni uzdimmi, bas, mashinani endi boshqara olmasligimga aqlim yetib turardi. O'sha paytda dovonning qayerida borayotganimni aniq eslayolmayman. Oh, Do'lan, Do'lan, Tyanshanning haybatli beli! Senda yurish bunchalar mushkul! Ayniqsa tunda, yana men singari kayfi oshgan shofyor uchun!

Mashina allaqanday balandlikka zo'r-bazo'r ko'tarildi-yu, birdaniga pastlikka, tog' etagiga qarab sho'ng'idi. Ko'z o'ngimda tun gir-gir aylanib, hamma yoq ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Qo'llarim endi menga itoat qilmay qo'ygandi, rul chambaragidan sirg'alib tushar, tezlik richagini tuta olmas edi. Borgan sari mashinaning tezligi oshib, pastga tomon uchib borardi. So'ng allanimaga urildi shekilli, taraqa-turuq, sharaqlagan ovozlar eshitildi. Chiroqlar o'chib, ko'z o'ngimni zim-ziyo qorong'ilik bosdi. Qalbimning allaqayerida: „Mana, avariya ham uchradig!“ – degan fikr yalt etib ketdi.

Shu ko'yda qancha vaqt yotganligimni bilmayman. Bir payt qulog'imga paxta tiqib qo'yilgandek bir ovoz arang eshitildi. „Qani, yorit-chi!“ Kimningdir qo'llari yelkamni, boshimni va ko'kragimni paypaslab ko'rdi. „Tirik, ammo o'lardek mast“, – dedi o'sha ovoz. Boshqasi esa: „Yo'lni bo'shatish kerak“, – dedi unga.

– Qani, do'stim, sal suril-chi, rulni menga ber, mashinani chetga olaylik! – haligi qo'l yelkamga sekingina turtardi.

Men ingrab, ruldani zo'rg'a boshimni ko'tardim. Peshanamdan qon oqardi. Ko'kragim ezilib shikastlangan ekan, qaddimni ko'tarishga yo'l qo'ymasdi. Tepamdagi kishi gugurt chaqib, yuzimga qaradi. So'ngra yana ikkinchi marta gugurt chaqib, yana tikildi-da, qo'ng'ir mo'ylovlari ostidan hayratlanib jilmaydi.

– Do‘stim, senga nima bo‘ldi! Bu qanaqasi? – derdi u xafalanib g‘amgin ohangda qorong‘ilik orasidan.

– Mashina... qattiq shikastlanibdimi? – dedim xirillab qon aralash tuplab.

– Yo‘q, unchalik emas. Faqat borayotib zarb bilan surilib ketgan-u, ko‘ndalang bo‘lib qolgan, xolos.

– Unday bo‘lsa hozir jo‘nab ketaman, yo‘lda turmayman! – deb o‘zimga itoat qilmay qo‘ygan qaltiroq qo‘llarim bilan motorni yurgizmoqchi bo‘lib, startyorni bosishga urindim.

– To‘xta! – deb u meni mahkam quchoqlab oldi. – Maynabozchilik yetar. Chiq bu yoqqa. Tong otguncha uxlab olchi, ertaga u yog‘ini yana ko‘rarmiz...

U meni kabinadan tortib chiqardi.

– Kamol, sen yo‘l tirband bo‘lib qolmasdan mashinani chekkaga chiqarib qo‘y, keyin nima bo‘lganini aniqlarmiz! – dedi u hamrohiga, o‘zi bo‘lsa qo‘llarimni bo‘yniga solib, qorong‘ida qayoqqadir yetakladi. Biz uzoq yurdik, u odam meni jimgina yetaklab borardi, men iloji boricha o‘zim yurishga harakat qilardim, biroq tezda toliqib qolaverdim, shunda u odam yana qo‘ltig‘imga kirib yetaklashda davom etardi. Shu yo‘sinda biz allaqanday xonadonga yetib keldik. Boyagi kishi qo‘ltig‘imdan tutib turib, uyga kirishimga yordamlashdi. Kiraverishdagi xonada kerosin chiroq yonib turardi. U kishi meni taburetkaga o‘tqazib, ustimdan kalta po‘stinimni yecha boshladi. Shundagina men uning yuziga qaradim. Uni tanidim. Bu yo‘l tuzatuvchi usta, dovonda mashinani shatakka olganimda uchrashgan o‘sha Boytemir edi. Men juda uyalib ketdim, lekin shunga qaramay, sevindim ham, endi uzr so‘rab, tashakkur izhor etmoqchi bo‘lib og‘iz juftlagan ham edimki, shu payt polga bir nima taraqlab tushdi. Men qayrilib qaradim va yelkalarimdan ulkan tosh bosib turgandek o‘rnimdan xiyol ko‘tarildim. Ostonada, sochilib yotgan o‘tinlar oldida toshdek serrayib qotib qolgan Asal turardi.

– Bu nimasi? – deb pichirladi u. „Asal!“ – deb qichqirib yuborishimga sal qoldi, ammo uning yaqinlashmay, begona qiyofada tikilib turganidan og‘iz ocholmay qoldim.

Uyat va nomusdan o't bo'lib yonib, boshimni quyi soldim. Xonaga bir zum yurakni yorib yuborgudek og'ir sukunat cho'kdi. Agar Boytemir bo'lmaganida, bilmadim, nima bo'lardi. U hech narsa bo'lmagandek bamaylixotir meni o'rnimga o'tqazdi.

– Hech narsa bo'lgani yo'q, Asal, – dedi u xotirjamgina.
– Shofyor bir ozgina shikastlanibdi, tuzalib ketadi... Sen, yaxshisi, yod bersang bo'lardi bizga...

– Yod? – endi uning ovozi o'z holiga qaytgan, mayinlashgan va tashvishli edi. – Yodni qo'shnilar olib ketishgan edi... Hozir olib chiqaman! – deya Asal es-hushini yig'ib oldi-da, yugurib tashqariga chiqib ketdi.

Men qimir etmay, lablarimni tishlaganimcha o'tirardim. Kayfim tarqab, bir zumda hushimga kelib qoldim... Endi chakka tomirlarim lo'qillab ura boshladi.

– Avval yuvish kerak, – dedi Boytemir peshanamdagi shilingan joylarni ko'zdan kechirarkan, keyin chelakni ko'tarib tashqariga chiqib ketdi. Qo'shni xonadan ko'ylakchan, yalangoyoq, besh yoshlar chamasidagi bir bola mo'ralab qarardi. U yotgan joyidan turib kelgan bo'lsa kerak, katta-katta sinchkov ko'zlari bilan menga termilib boqardi. Men uni darhol tanidim. Qanday taniganimni o'zim ham bilmayman, har qalay, o'g'lim ekanini sezdim, qalxim sezdi buni.

– Samad! – deb shivirladim kutilmagan uchrashuvdan ovozim bo'g'ilib va unga qarab intildim. Shu payt ostonada Boytemir paydo bo'ldi, men uni ko'rib, negadir bir cho'chib tushdim. Chamasi, o'g'limning otini atab chaqirganimni eshitib qolgan bo'lsa kerak. Xuddi o'g'irlik ustida qo'lga tushgandek, o'zimni juda noqulay seza boshladim. Xijolat tortayotganimni sezdirmaslikka intilib, peshanamdagi shilingan yerni qo'lim bilan berkitganimcha:

– Bu sizning o'g'lingizmi? – deb so'radim. Nega shunaqa deb savol berdim-a? Bu xatoyim uchun o'zimni hozirgacha kechira olmayman.

– Mening o'g'lim! – dedi mezbonga xos xushmuomalalik bilan Boytemir. U qo'lidagi chelakni polga qo'ydi-da, Samadni ko'tarib oldi. – Mening o'g'lim, albatta, o'z

o'g'lim, shunday emasmi, Samad! – derdi u o'g'lini o'pib va mo'ylovi bilan uning bo'ynilarini qitiqlab erkalab. Boytemirning ovozida va o'zini tutishida soxtalikdan asar ham yo'q edi. Uning barcha xatti-harakatlari shunchalik tabiiy ediki, go'yo mening o'rnimda mening rolimni ado etayotgandek edi. – Ha, toychog'im, nega uxlamayapsan? Hamma narsadan xabardor bo'lsang-a, qani, o'rningga chopqilla-chi!

– Oyim qani? – deb so'radi Samad.

– Hozir keladi. Ana kelyapti. Bor endi, o'g'lim, uxla.

Asal jimgina yugurib kirdi va bizga sergaklik bilan tezgina nazar tashlab chiqdi-da, yodli shishachani Boytemirga berib, o'g'lini olib ketdi.

Boytemir namlangan sochiq bilan yuzimdagi qonni artdi.

– Birpas chidaysan endi! – deb hazillashdi u shilingan joylaringa yod surtarkan va jiddiy suratda: – Bu ishing uchun seni o'tda kuydirsa ham bo'lardi-yu, mayli, endi, mehmonimizsan-da... Mana tamom, qutulding, bitib ketadi. Asal, bizga choy qo'yib yuborsang bo'lardi.

– Hozir! – dedi Asal o'g'lini allalay turib.

Boytemir polga yoyilgan kigiz ustiga ikki qavat ko'rpacha solib, yostiq qo'ydi.

– Bu yoqqa o'tib o'tir, – dedi u menga. – Yonboshla, biroz damingni ol...

– Hechqisi yo'q, rahmat! – deb g'oldiradim men.

– O'tir, o'tiraver, o'z uyingdek bemalol o'tiraver!– deb qattiq turib oldi u.

Bularning hammasi go'yo tushimda bo'layotgandek edi. Mana hozir hammasi oshkor bo'ladi, qani endi yer yorilsa-yu, yerga kirib ketsang, degan qo'rquv va tashvishdan yuragim tars yorilib ketayotgandek edi. Chunki men bu yerga naqadar ayanchli ahvolda: mast, iflos va qonga bo'yalgan holda kelganimni payqagan edim. Uf, onam nega tug'gan ekan meni-ya!

Asal bizga qaramaslikka harakat qilib, samovarni oldida, tashqariga olib chiqib ketdi.

– Men hozir senga yordamlashib yuboraman, Asal! – dedi Boytemir uning orqasidan. U Asalning ketidan endi

chiqmoqchi bo'lib turgan edi, Samad yana o'rnidan irg'ib turdi. Uning mutlaqo uxlagisi yo'q edi.

– Senga nima bo'ldi, Samad! – deb mehribonlik bilan bosh chayqadi Boytemir.

– Amaki, siz to'ppa-to'g'ri kinodan chiqdingizmi? – deb so'radi o'g'lim jiddiy, oldinga yaqinroq kelib.

Men uning nima haqda gapirayotganini tushunmadim, Boytemir bo'lsa xaxolab kulib yubordi.

– Voy, tentak-ey, – deb kulardi Boytemir bolaning yoniga cho'kkalab o'tirganicha. – Toza ichaklarni uzdingku. Biz kongra kino ko'rgani borib turamiz! – dedi u menga murojaat qilib. – U ham biz bilan birga boradi.

– Ha, men kinodan chiqdim! – deb umumiy kulgiga qo'shildim.

Ammo Samad qovog'ini solib oldi-da:

– Yolg'on! – dedi.

– Nega endi yolg'on bo'larkan?

– Bo'lmasa, anov urishadigan qilichingiz qani?

– Uyga tashlab keldim...

– Menga ko'rsatasizmi, amaki? Ertaga ko'rsatasizmi?

– Xo'p, xo'p, ko'rsataman. Qani, bu yoqqa kel-chi, sening oting nima, Samad-a, to'g'rimi?

– Samad. Sizning otingiz nima, amaki?

– Menikimi... – deya nafasim ichimga tushib ketdi. – Mening otim Ilyos amaki, – dedim zo'r-bazo'r.

Boytemir shoshib qoldi:

– Sizlar bu yerda gaplashib o'tira turinglar, biz hozir choy qaynatib kelamiz. – U ostonada to'xtadi. – Sen, Samad, borib yot, kech bo'lib qoldi.

– Dada, yana ozgina o'tira qolay! – deb yolvordi Samad.

– Ha, mayli! – deb rozi bo'ldi Boytemir.

Samad oldinga keldi. Men uning qo'llarini siladim: u menga o'xshardi, juda o'xshardi. Hatto qo'llari ham, kulgisi ham xuddi menikiga o'xshardi.

– Katta bo'lganingda kim bo'lasan? – deb so'radim men qanday bo'lmasin, o'g'limni gapga solmoqchi bolib.

– Shofyor bo'laman.

– Mashinada yurishni yaxshi ko'rasanmi?

– Judayam... Qo‘l ko‘tarsam, hech kim meni mashinasiga chiqarmaydi...

– Ertaga men seni o‘ynatib kelaman. Bo‘ptimi?

– Bo‘pti. Men sizga o‘zimning oshiqlarimni beraman!

– U oshiqlarni olib kelish uchun narigi xonaga chopib kirib ketdi.

Deraza ortida samovar karnayidan o‘t chiqib turardi. Asal bilan Boytemir allanimalar haqida gaplashishardi. „Samadimizning nima deganini eshitganingdami, ichaging uzilardi“, – dedi Boytemir quvonch bilan tarasha yorayotib. Qiziq, Asal ham aytarli biron narsa bo‘lmagandek xotirjamgina javob berdi: „Ha! U shunaqa, nimani ko‘rsa, shuni gapiraveradi!“

Samad arxar terisidan yasalgan xaltachadagi oshiqlarini pishillab ko‘tarib keldi-da, oldimga sohib tashladi:

– Tanlab oling, amaki! – deb u rang-barang bo‘yoqlarga bo‘yalgan o‘z boyligini namoyish qila boshladi.

Men esdalik uchun bittasini olmoqchi bo‘ldim-u, ammo jur‘at eta olmadim. Eshik ochilib, qaynagan samovarni ko‘tarib Boytemir kirdi. Uning ketidan Asal ko‘rindi. U choy damlaguncha, Boytemir bizning oldimizga yumaloq xontaxtani keltirib qo‘ydi-da, dasturxon yozdi. Biz Samad bilan oshiqlarni yig‘ishtirib, ularni yana xaltachaga solib qo‘ydik.

– O‘z bisotini ko‘z-ko‘z qilayapti, ah, maqtanchoq! – deb sevib tortqiladi Boytemir Samadning qulog‘idan.

Oradan sal o‘tmay biz samovar atrofida o‘tirib choy icha boshladik. Biz bir-birimizni go‘yo hech qachon ko‘rmagandek va bilmaydigandek o‘tirardik. Shuning uchun bo‘lsa kerak, o‘zimizni xotirjam tutishga, kamroq gaplashishga tirishardik. Faqat Samadgina o‘zini erkin tutardi. U Boytemirning tizzasiga chiqib olib, pinjiga tiqilganicha boshini sarak-sarak qilib o‘ynardi.

– Uuh, doim mo‘ylovingiz odamni qitiqlaydi-ya, dada! – deb tipirchilardi u va o‘zi unga yopishib chakkasini mo‘yloviga tegizar edi.

– Ehtiyot bo‘l, choyga kuyib qolasan! – deb ogohlantirdi Boytemir.

Hali bu go‘dak atrofida o‘tirgan biz kattalarning har bi-

rimiz hozir o'z o'y-xayollarimiz bilan band ekanligimizni fahmlamas edi. Bizning taqdirimiz bugun favqulodda to'qnashib qolishi kimning xayoliga kelibdi deysiz. Bularning hammasi nima bilan tugallanarkan?..

Boshqa odamni „dada“ deb erkalanayotgan o'z o'g'lim bilan yonma-yon o'tirish menga oson deysizmi? Visolida qanchalar azob va izzat chekkanim Asal, mening aziz Asolim ro'paramda o'tirgan bo'lsa-yu, ko'zlariga tik qarashga jur'at eta olmasam. Qanday qilib bu yerga kelib qoldiykin u. Sevib qolib turmushga chiqdimikin? Go'yo men unga mutlaqo begona, mutlaqo notanish kishidek, u o'zini tanimaslikka solayotgan bo'lsa, men buni qayoqdan bilayin axir? Nahotki u mendan shu qadar nafratlangan bo'lsa? Boytemir-chi? Nahotki u mening aslida kim ekanligimni payqamayotgan bo'lsa? Samad ikkimiz bir-birimizga o'xshashimizni nahotki sezmayotgan bo'lsa? Nega u dovonda mashinani shatakka olganimizdagi uchrashuvimizni hatto eslamadi ham? Yo unutmadingin?..

Uyquga yotganimizda men o'zimni yanada og'irroq sezdim. Menga shu yerning o'ziga, kigiz ustiga o'rin solib berishdi. Men devorga qarab yotardim, chiroq piligi xiyol pasaytirilgan. Asal bo'lsa idish-tovoqlarni yig'ishtirmoqda edi.

– Asal! – deb chaqirdi Boytemir sekingina qo'shni xonaning qiya ochiq turgan eshigidan.

Asal uning oldiga bordi.

– Ko'ylagini yuvib qo'ysang bo'lardi, – dedi u.

Asal stuldan qonga belangan katak-katak ko'ylagimni oldi-da, yuva boshladi. Biroq shu zahotiyoq yuvishdan to'xtadi. Boytemir tomonga o'tgani eshitildi.

– Radiatorning suvini to'kib qo'ydinglaringmi? – deb so'radi u shivirlab. – Tag'in muzlab qolmasin...

– To'kilgan, Kamol to'kib tashladi! – dedi Boytemir ham shivirlab. – Mashina deyarli lat yemagan... Ertalab yordamlashamiz...

Men esa mashina haqida o'ylamabman ham: na radiator va na motor ko'rinardi ko'zimga.

Asal ko'ylakni yuvib bo'lib, uni pechka tepasiga yoyar

ekan, chuqur xo'rsinib qo'ydi va chiroqni o'chirib, chiqib ketdi.

Uyni qorong'ilik qopladi. Hammamizning ham uxlamay yotganimizni sezib yotardim. Har birimiz o'zimizcha yolg'iz o'y-xayollarimiz bilan edik. Boytemir o'g'li bilan bir karavotda yotibdi. U nimalardir deb Samadni erkalar, uyqusida tipirchilab tepkilansa, ko'rpani ustiga tortib yopib qo'yardi; Asal goho-goho og'ir xo'rsinib qo'yardi. Uning qorong'ida xuddi yomg'irda qolgan toshdek yiltirayotgan ko'zlari menga ko'rinib turardi... Ular balki yosh bilan to'ladir. Nima haqda, kim haqida o'ylayotganikin? Endi u bir emas, uch kishi haqida qayg'urishi kerak edi... Ehtimol, u ham xuddi men singari bir-birimizni bog'lab turuvchi o'sha o'tmish kunlarni, lazzatli va iztirobli damlarni xotiridan bir-bir o'tkazayotgandir. Ammo endi uning visoliga yetolmayman, shuningdek, uning o'y-fikrlarini ham bilolmayman. Keyingi yillar ichida Asalning o'zi ham, ko'zlari ham o'zgarib ketgan edi... Endi bu ko'zlar avvalgi, ishonch bilan boqib, mehr, soddadillik bilan porlab turuvchi g'uborsiz ko'zlar emas edi. Ular vazmin va jiddiylashgan edi. Biroq Asal men uchun hamon o'sha dasht quchog'ida yayrab o'sgan sarviqomatligicha qolgan edi. Uning har bir xislat, xususiyat va xatti-harakatlari men uchun tanish va qadrdon edi. Bu esa bir alamimni ikki qilib, qalbimni o'rtab tirnardi. Alamimdan yostiq burchagini tishlaganimcha g'ing demay yotardim. Tonggacha mijja qoqmadim.

Derazadan ko'kda suzib yurgan oy bulutlar orasidan yog'du sochar, dam-badam o'z jamolini ko'rsatib qo'yardi.

Erta tongda Asal bilan Boytemir xo'jalik ishlari bilan hovliga chiqib ketganlarida men ham o'rnimdan turdim. Jo'nash kerak edi. Sekin odimlab borib Samadni o'pdim-da, tezda xonadan chiqib ketdim.

Asal hovlida tosh o'choqqa o'rnatilgan katta qozonda suv isitmoqda edi. Boytemir o'tin yorardi. Biz u bilan birga mashina tomon ketdik. Jimgina papiros chekishib borardik.

Mashina kechasi yo'l chekkasidagi betonli ustunchalarga urilgan ekan. Ulardan ikkitasi tag-tugi bilan qo'porilib yotardi. Mashinaning chirog'i singan, qanoti va oldingi

qismi pachaqlangan, g'ildiragi bir tomonga xiyol qiyshayib ketgandi. Biz bularning hammasini lom va bolg'a bilan ozmi-ko'pmi tuzatdik. So'ng motorni yurgizolmay uzoq vaqt azob chekdik. Motor dovonda muzlab qolgan edi. Karterni mash'al yoqib qizdirdik, keyin ikki kishilashib ruchkani aylantira boshladik. Yelkalarimiz to'qnashib, kaftimiz ruchka dastasini aylantiraverib qizib ketdi, bir-birimizning yuzimizga iliq nafasimiz urilardi, ikkalamiz ham bir ishni bajarar edik, ehtimol, o'y-xayollarimiz ham bir yerdan chiqar.

Motorning o't olishi juda qiyin bo'ldi. Ikkalamiz ham hansiray boshladik. Shu orada Asal ikki chelak issiq suv keltirdi va ularni jimgina oldimga qo'ydi-da, o'zini chetga olib turdi. Suvni radiatorga quydin. So'ngra yana Boytemir bilan birgalikda ruchkani bir-ikki aylantirib yuborgan edik, nihoyat motor ishlab ketdi. Men kabinaga o'tirdim. Motor notekis, uzilib-uzilib ishlardi. Svechalarni tekshirish uchun Boytemir kapot ostiga kirdi. Shu chog' paltachasining tugmalari qadalmagan Samad hansiraganicha chopqillab kelib qoldi va mashinaning atrofidan g'izillab chopa boshladi. Chunki u mashinaga minib sayr qilish ishtiyoqida edi. Asal uni tutib oldi-da, qo'lidan mahkam ushlab olgancha, kabinaning yoniga o'tib turdi. U menga ta'na qilgandek, shunaqa ham alam va achinish bilan termildiki, o'z gunohimni yuvish va ularni yana o'zimga qaytarish uchun shu damda lozim bo'lsa har narsa qilishga tayyor edim. Men kabinaning ochiq eshigidan engashib qaradim:

– Asal! O'g'limizni olib o'tir! O'tgan galgidek mashinaga o'tqazib olib ketaman, bir umrga olib ketaman! O'tir! – deb motor shovqini ostida yolvorardim unga.

Asal hech nima demadi, jiqqa yoshga to'lgan ko'zlarini jimgina chetga burib, „yo'q“, degandek bosh chayqadi.

– O'tiraylik, oyi! – deya uning qo'lidan tortqiladi Samad. – O'ynab kelamiz!

U o'g'lini siltab tashladi va uni qo'lidan qo'ymay nariga yetaklab ketdi. U boshini quyi solgancha atrofga nazar tashlamay borardi. Samad esa orqaga tortqilar, ketgisi kelmasdi.

– Tayyor! – deb qichqirdi Boytemir kapotni yopib, keyin, asbob-uskunalarni menga uzatdi.

Yo'lga tushdim. Yana qo'lim rulda, yana yo'l, tog'-toshlar, mashina meni uchirib olib ketmoqda, uning men bilan qanchalik ishi bor...

Asal bilan o'g'limni dovonda ana shu yo'sinda topdim, biz shu xilda uchrashdik va ajrashdik. Chegaraga bora-borguncha va qaytishda butun yo'l bo'ylab o'ylab o'yimga yeta olmadim. Cheki-chegarasi yo'q o'y-xayollardan charchab ketdim... Endi bu yerlardan boshim oqqan tomonga qarab bosh olib ketishim kerak edi, bu yerda qolishim mumkin emas edi.

Bunga men qat'iy qaror qildim, shu xayollar bilan orqaga qaytdim. Dovondan oshib o'tdim va yo'l uchastkasidan o'tib keta turib Samadni ko'rib qoldim. U yo'l yoqasida bir o'g'il bola va o'zidan biroz kattaroq bir qiz bola bilan o'ynab yurgan edi. Ular toshqo'rg'on o'ynashardi, ya'ni toshlardan hovlichalar va mollar uchun qo'ralar qurishmoqda edi. Ehtimol, ilgarilari ham ularni yo'l yoqasida ko'rgandirman-u, ammo taniy olmagandirman. Demak, deyarli har kuni o'g'ilchamning yonginasidan o'tib-qaytib yurganimni o'zim payqamay yurgan ekanman. Mashinani to'xtatdim.

– Samad! – deb chaqirdim men toychog'imni. Ko'rgim kelib ketdi. Bolalar menga qarab chopqillab kelishdi.

– Amaki, bizni mashinada o'ynatgani keldingizmi? – deb oldimga chopib keldi Samad.

– Ha, ozgina sayr qildirmoqchiman sizlarni! – dedim men.

Bolalar chuvullashib, hammasi birdaniga kabinaga chiqishdi.

– Bu bizning tanish amakimiz, – deb maqtanardi Samad o'rtoqlariga.

Men ularni biroz sayr qildirgandek bo'ldim. Ammo shu bilan o'zimni shu qadar quvnoq va shu qadar baxtiyor his qilar edimki, bolalarning o'zlari ham bunchalik huzur qilmagan bo'lsalar kerak. So'ngra ularni mashinadan tushirdim.

– Qani endi uylaringga chopinglar! – Bolalar chopqillab ketishdi. Men o‘g‘limni to‘xtatdim:

– Shoshmay tur, Samad, senga ozroq gapim bor! – deb uni qo‘limga olib, boshim uzra yuqoriga ko‘tardim, yuziga uzoq tikilib turdim so‘ngra ko‘ksimga bosib, o‘pib-o‘pib oldim-da, pastga tushirdim.

– Qilich qani, olib keldingizmi, amaki? – dedi Samad esiga tushib qolib.

– E, yodimdan ko‘tarilib ketibdi-ku, o‘g‘lim, endi kelasi safar olib kelaman! – deb va‘da berdim unga.

– Endi esingizdan chiqarmaysiz-a, amaki? Biz boyagi joyda o‘ynab yuramiz.

– Yaxshi, qani endi tezroq chop!

Avtobazada duradgorlik ustaxonasida yog‘ochdan uchta o‘yinchoq qilich yasab, o‘zim bilan birga olib yurdim.

Bolalar haqiqatan ham meni kutib turishgan ekan. Men ularni mashinada yana biroz aylantirdim. O‘g‘lim va uning o‘rtoqlari bilan do‘stligimiz ana shunday boshlandi. Ular menga tez ko‘nikib qolishdi. Uzoqdan ko‘zlari tushishi bilananoq bir-biridan o‘zishib chopib qolishardi.

– Mashina, mashinamiz kelyapti! – deb qichqirishardi.

Menga yana jon kirib, odambashara bo‘lib qoldim. Yo‘lda ketayotib ruhim tetik, dimog‘im chog‘ ketar va o‘zim bilan birga qandaydir noyob his-tuyg‘ularni eltib borardim. Yo‘l yoqasida meni o‘g‘lim kutib turganini bilardim. Loqaqal bir-ikki daqiqa bo‘lsa-da, u bilan yonmayon o‘tirish men uchun katta baxt-ku. Endi butun fikr-uxayolim qanday bo‘lsa ham o‘g‘limning oldiga o‘z vaqtida yetib borish tashvishi bilan band edi. Men hamma vaqt dovondan kunduzi o‘tishni mo‘ljallardim. Iliq bahor kunlari edi, bolalar doim ochiq dalada o‘ynab yurishardi. Shuning uchun ham men ularni ko‘pincha yo‘l yoqasida uchratardim. Azbaroyi shu uchungina yashayotgandek va ishlayotgandek tuyulardi menga: o‘zimda yo‘q baxtiyor edim... Ammo ba‘zan yuragim qo‘rquvdan orqasiga tortib ketardi. U yoqda yo‘l uchastkasidagilar bolalarni mashinada o‘ynatib yurganligimni bilishadimi-yo‘qmi, bilmadim-u, ammo o‘g‘limning men bilan uchrashishini man etishlari,

uni yo'l yoqasiga chiqarmay qo'yishlari mumkin edi. Men bundan juda qo'rqardim. Asal bilan Boytemirdan bunday qilmasliklarini, loaqal mana shu oniy uchrashuvlardan meni mahrum etmasliklarini dilimdan yalinib-yolvorib so'rardim. Ammo bir kuni xuddi shunday bo'ldi...

Birinchi may bayrami yaqinlashib kelmoqda edi, o'g'limga sovg'a qilmoqchi bo'lib, unga o'ziyurar mashina – xuddi menikiga o'xshash yuk mashinachasi sotib oldim. O'sha kuni avtobazada o'ralashib qolib, yo'lga kechroq chiqqanim uchun juda shoshilardim. Ehtimol, shuning uchun hammi, ko'nglim allanarsani oldindan sezayotgandek g'ash tortayotgan edi, bekordan bekor haya-jonlanib, xavotirlanardim. Yo'l uchastkasiga yaqinlashib borar ekanman, Samadning qanchalik xursand bo'lishini ko'z oldimga keltirib, o'rog'liq o'yinchoq mashinani yonimga solib qo'ydim. Garchi uning bundan ko'ra yaxshiroq o'yinchoqlari bo'lsa ham, bu alohida sovg'a – shofyor bo'lishni orzu qilib yurgan jajjigina bolaga yo'lovchi tanish shofyorning sovg'asi edi. Ammo bu gal Samadni uchratolmadim. Bolalar usiz chopib kelishdi... Men kabinadan chiqdim:

– Samad qani?

– Uyda, kasal bo'lib qoldi, – dedi bir bola.

– Kasal bo'lib qoldi? Boshi og'riyaptimi yoki boshqa yerimi?

– Yo'q, u kasal emas! – dedi bilag'onlik bilan qizcha. – Oyisi bu yoqqa yubormayapti!

– Nega?

– Bilmayman. Borma, deyapti.

Tarvuzim qo'ltig'imdanda tushib, kayfiyatim buzildi. Mana shu bilan tamom, vassalom!

– Ma, olib borib ber, – deb o'rog'liq o'yinchoqni haligi bolaga uzatdim, biroq shu zahotiyiq fikrimdan qaytdim. – Yo'q, qo'ya qol, – o'yinchoqni qaytib olib, boshimni quyi solganimcha mashina tomon ketdim.

– Nega amakimiz bizni mashinaga chiqarmadi? – deb so'radi bola opasidan.

– Kasal bo'lib qoldi, – dedi opasi qovog'ini solib.

Ha, qizcha to'g'ri topgandi. Bu xabar men uchun har

qanday kasallikdan ham ortiq edi. Butun yo'l davomida o'ylanib bordim... Nahotki Asal mendan shu daraja ko'ngli qolgan bo'lsa, nahotki u menga nisbatan shu qadar bag'ritoshlik qilsa? Men qanchalik yomon bo'lmay, nahotki uning zarracha ichi achimasa! Yo'q, ishongim kelmasdi... Asalning shu darajaga borishi mumkin emas, bu yerda boshqa bir gap bor... Xo'sh, nima bor? Men qayoqdan bilay... Shu chog', o'rtog'i aytganidek, o'g'limning biroz tobi qochib qolgan bo'lsa kerak, deb o'zimni o'zim ishontirishga urindim. Nega unga ishonmasligim kerak ekan? Axir haqiqatan ham shunday bo'lishi mumkin-ku. Men bunga o'zimni shu darajada ishontirib qo'ygan edimki, keyin bu fikrimdan o'zim ham cho'chib ketdim. O'g'limning isitmalab va alahsirab, ilondek to'lg'anib yotgani bir-bir ko'z oldimdan o'taverdi... Balki biron yordam zarur bo'lib qolar, dori-darmon keltirish yoki kasalxonaga olib borish kerak bo'lib qolar. Axir ular shaharda emas, dovonda yashashadi! Juda qiynalib ketdim. Orqaga qaytishga shoshildim, qanday tadbir-chora qo'llash mumkin ekanligini tasavvur eta olmasdim-u, biroq xayolimdan birgina narsa o'tardi: tezroq yetib borish-u, agar, o'g'lim sog'-salomat bo'lsa, ko'rib ko'ngilni joyiga tushirish. Men uni uchratishimga ishonardim, buni qalbim aytib turgan edi. Xuddi qasddan qilgandek, bakda yonilg'i tamom bo'lib qoldi, mashinani dovondagi yoqilg'i quyish shoxobchasi oldida to'xtatishga to'g'ri keldi.

* * *

Hikoyasining shu yeriga kelganda hamrohim Ilyos jimib qoldi. Qizib ketgan yuzlarini kafti bilan ishqalab, chuqur xo'rsinib qo'ydi-da, qiya ochilib turgan vagon derazasini oxirigacha surib, bilmadim, nechanchi marta ekan, yana cheka boshladi.

Vaqt yarim kechadan oshgan edi. Bizdan boshqa yo'lovchilarning hammasi uxlab qolishgan bo'lsa kerak. G'ildiraklar relslarga „taq-taq“ urilib, o'zlarining tunganmas qo'shig'ini kuylab borardi. Derazalar ortidan yozgi tun

pardasi g'izillab o'tib turar, stansiyalarning yer bag'irlab yonib turgan chiroqlari milt-milt etib o'tardi. Parovoz yelib borayotib qattiq chinqirdi.

– Xuddi mana shu paytda siz menga uchragan edingiz, og'a, men esa sizning iltimosingizni bajo keltirolmagan edim. Endi sizga hammasi ayon bo'lgan bo'lsa kerak, – deb hikoyasini davom ettirarkan, xomushgina jilmayib qo'ydi qo'shnim. – Siz yoqilg'i quyish shoxobchasi oldida qolgan edingiz, so'ng „Pobeda“da mendan o'zib ketdinglar. Buni ko'rgan edim. Ayni shu payt dovon etagiga yomg'ir yog'ib o'tgandi...

Ha, mashinani qattiq hayajon ichida haydab borardim. Nihoyat qalb sezgilarim meni aldamagan edi. Samad yo'l yoqasida kutib turardi. U mashinani ko'rishi bilanoq yo'lni kesib chopqillab qoldi:

– Amaki! Shofyor amaki!..

Demak, o'g'ilcham sog'-salomat! Eh, o'zimda yo'q suyunib ketdim, quvonchim ichimga sig'masdi!

Men mashinani shartta to'xtatib, kabinadan sakrab tushib, o'g'linga peshvoz yugurdim.

– Nima bo'ldi, og'ayni, kasal bo'lib qoldingmi?

– Yo'q, oyim yubormadi. Uning mashinasiga chiqmagin, deydi. Men yig'ladim, – deb arz qilardi Samad.

– Xo'sh, hozir qanday qilib kelding?

– Dadam, agar birov bolalarni mashinada o'ynataman desa, qo'yaver, o'ynataversin, dedi.

– Rostdanmi?

– Men shofyor bo'laman, dedim...

– Albatta shofyor bo'lasan, bo'lganda ham qanday de! Bilasanmi, men senga nima olib keldim? – Men o'yinchoq mashinani oldim. – Bunga qara, o'ziyurar „ZIL“cha, kichkintoy shofyorlarga juda bop mashina-da bu!

Bola og'zi qulog'iga yetib jilmaydi.

– Men doim, har doim siz bilan birga mashinada yuraman-a, amaki? – deb yolvoruvchi ko'zlari bilan termildi menga. Ko'nglim buzilib ketdi.

– Albatta, har doim! – deb ishontirdim uni. – Istasang, Birinchi may bayramida shaharga birga boramiz, mashi-

nani bayroqchalar bilan yasatamiz, keyin seni yana olib kelib qo'yaman. – Nega men unga bu so'zlarni aytganligimni, bunga qanchalik haqqim borligini va ayniqsa, o'z so'zlarimga nega birdan o'zim ham ishonib qolganligimni hozir tushuntirish qiyin edi. Bu ham yetmagandek, yana so'zlarimga erk berib gapiraverdim. – Agar yoqsa butunlay menikida qolasan!– dedim o'g'limga juda jiddiy suratda. – Biz kabinada yashaymiz, men seni doim o'zim bilan birga olib yuraman. Bo'ptimi?

– Bo'pti! – jon-jon deb rozi bo'ldi Samad. – Mashinada yashaymiz! Ketdik, amaki, hozir ketamiz!..

Ba'zan kattalar ham bolalik qilib qo'yadi. Biz kabinaga o'tirdik. Men ishonqiramay motorni yurgizdim, startyorini bosdim. Samad juda xursand edi: meni tortqilar, erkalanar, o'rindiqda irg'ishlardi. Mashina qo'zg'aldi. Samadning quvonchi ichiga sig'masdi, tinmay kulardi, rulni, qarshisidagi knopkalarni ko'rsatib, allanimalar deb bijirlab gapirardi. Unga qo'shilib men ham xursand bo'lib ketdim. Ammo birdan es-hushimni yig'ib oldim. Butun vujudimni issiq alanga qoplab oldi; nima qilyapman o'zi?! Mashinaga tormoz berdim. Ammo Samad to'xtatishga ko'nmadi:

– Tezroq, amaki, tezroq haydang! – derdi u. Bolaning iltijo bilan baxtiyor boqishlarini qanday qilib rad eta olardim. Tezlikni yanada oshirdim. Endigina g'izillab uchib borayotgan edikki, yo'lga gudron yotqizib yurgan greyder ko'rinib qoldi. Greyder burildi-da, smolali suyuqlikni yo'lga yotqizganicha bizga tomon kelaverdi, uning ketidan esa suyuqliklar solingan ulkan qozonlar orqasida Boytemir turgan ekan. U grabarka bilan yo'lga yotqizilgan gudronni tekislamoqda edi. Men dovdirab qoldim. Mashinani to'xtatmoqchi bo'ldim-u, ammo kechikkan edim: Samad bilan allaqancha yerga kelib qolgan edik. Men boshimni pastroq egdim-da, jon-jahdim bilan gazni bosdim. Boytemir hech narsani sezmay qoldi. U boshini ko'tarmay ishlab yotgan edi: bu yerdan o'tib turgan mashinalar kam deysizmi? Qaysi biriga ham qarardi! Biroq Samad uni ko'rib qoldi:

– Ana dadam! Amaki, keling, dadamni ham chiqarib olamiz, maylimi? To'xtating, dadamni chaqiraman!

Men indamasdim. Endi to'xtatishning iloji yo'q edi, un-

ga nima deyman axir? Samad birdan orqasiga qayrilib qaradi, qo'rqib ketdi-da, qichqirib yig'lab yubordi:

– Dadamga boraman! To'xtat, dadamga boraman! To'xtat, tushaman! Ooyii!..

Muyulishdagi qoya orqasiga o'tib mashinani to'xtatdim. O'g'limni ovutishga urina boshladim:

– Yig'lama, Samad, yig'lama, qo'y! Hozir olib borib qo'yaman. Lekin yig'lama!

Ammo qo'rqib ketgan bola hech narsaga quloq solmasdi.

– Yo'q, tushaman! Dadamga boraman! Och! – deb kabina eshigiga yopishib taqillata boshladi. – Och, dadamga boraman hozir! Och!

Ana xolos, juda g'alati ish bo'ldi-ku.

– Yig'lamagin-da, axir! – deb yalinib-yolvorib, uni ko'ndirishga urinardim. – Hozir ochaman, yig'lamasang bo'lgani! Dadangning oldiga o'zim olib borib qo'yaman! Qani, tush-chi, ketdik!

Samad yerga sakrab tushdi-da, yig'lagancha orqaga chopib ketdi. Men uni ushlab qoldim:

– Shoshma! Ko'zingni art. Yig'lama. Jon o'g'lim, yig'lamagin! Mashinang qoldi-ku, olmaysanmi? Mana qara! – Men shoshib o'yinchoqni oldim-da, qaltiroq qo'llarim bilan murvatini buradim. – Qara, senga qarab chopib ket-yapti, qani tutib ol-chi! – Mashinacha yo'lda g'izillab yurib ketdi va toshga urildi-da, yo'l yoqasidagi ariqqa chirpirak bo'lib uchib tushdi.

– Kerak emas! – dedi u va yana battarroq yig'lab, orqasiga qaramay qochib ketdi.

Men bo'lsam dong qotib qoldim. Tomog'imga qaynoq dumaloq bir narsa qadalgandek bo'ldi. Men o'g'limga yetib olish uchun yana orqasidan chopdim:

– To'xtab tur, yig'lama, Samad! To'xta, men sening... men, men sening, o'zing bilasan-ku! – Biroq davomini aytishga tilim kelmasdi...

Samad orqasiga qayrilib qaramay chopib borardi, u muyulishdan o'tib ko'zdan yo'qoldi. Men qoyagacha chopib borib, qochib ketayotgan o'g'limning orqasidan qarab qoldim.

Uning yo'lda ishlayotgan Boytemir oldiga yugurib bo-

rib, unga o'zini tashlaganini kuzatib turdim. Boytemir Samadning oldida cho'qqayib o'tirdi-da, uni quchoqlab bag'riga bosdi. Bola ham men tomonga qo'rqib, xavfsirab qarab, uning bo'ynidan quchoqlab oldi.

Boytemir grabarkasini yelkasiga tashlab, Samadning qo'lidan ushladi. Ular yo'l bo'ylab uzun-qisqa yetaklashib ketishardi.

Men qoyaga suyanganimcha uzoq turdim, so'ngra orqaga qaytdim. O'yinchoq mashinacha oldida to'xtadim. U ariqda to'ntarilib yotardi. Ko'z yoshlarim yuzimdan oqib tusha boshladi. „Mana, ishning pachavasi chiqdi!“ – dedim mashinamga, uning kapotini siypalab. Motorning issiq tafti yuzimga gup etib urildi... Endi o'g'lim bilan so'nggi uchrashuvimizning shohidi bo'lgan mashinamga nisbatan ham qandaydir mehr-muhabbatim oshib ketgan edi...

* * *

Ilyos o'rnidan turib, eshikka tomon yurdi.

– Biroz sof havodan nafas olay, – dedi u.

Men kupeda qoldim. Yorishib kelayotgan sahar osmonining bir parchasi deraza ortidan oqarib, tebranib o'tib borardi. G'ira-shirada simyog'ochlar lip-lip o'tib turardi. Chiroqni o'chirsa ham bo'lardi.

Men Ilyos bilmagan, ammo menga ayon bo'lgan narsalarni unga aytib bersammikin, yo'qmikin, deb chalqancha o'ylab yotardim. Ammo u hadeganda kupega qaytib kela-
vermadi. „Mayli, dam olvolsin, ertaga aytarman“, degan qarorga keldim. Aytmay yaxshi qilgan ekanman, chunki ertasiga yana o'ylab ko'rib, bu fikrimdan qaytdim.

Men yo'l masteri Boytemir bilan deyarli o'sha kezlarda – Ilyos Asal bilan o'g'lining dovonda yashayotganligidan xabar topgan chog'larda tanishgan edim. Pomirda Qirg'iziston yo'l ishchilarining o'zaro tekshirish va tajriba almashish bo'yicha delegatsiyasini kutishayotgan edi. Shu munosabat bilan Tojikiston respublika gazetasi qirg'izistonlik tog' yo'li ishchilari haqida ocherk yozib berishimizni iltimos qilgan edi.

Delegatsiya orasida eng yaxshi yo'l masterlaridan biri Boytemir Qulov ham bor edi.

Men Boytemir bilan tanishish maqsadida Do'langa keldim.

Biz u bilan qo'qqisdan uchrashib qoldik va bu uchra-shuv men uchun juda muvaffaqiyatli bo'ldi. Dovonga yetay-yetay deb qolganimizda avtobusimizni qo'lida qizil bayroqcha tutgan ishchi to'xtatdi. Bilsak, yo'lda hozir-gina tog' o'pirilishi yuz berib, yo'l tuzatuvchilar uni to-zalayotgan ekan. Men avtobusdan chiqib, o'pirilish yuz bergan joyga qarab ketdim. Tog' tepasida pastga qarab tosh aralash yer ko'chib, yo'lga qulab tushibdi-da, o'zi bi-lan birga yo'lning bir chekkasini to'sib qo'yilgan beton us-tunchalarni ham qo'shib tik qiyalik bo'ylab jarlikka qarab o'pirib ketibdi. Yo'lning bu qismi taxta qoliplar yordamida qaytadan tiklanayotgan edi. Buldozer uyilib qolgan tuproqni pastlikka surib tushirardi. Buldozer yurolmaydigan joylarni esa ishchilar belkuraklar bilan tozalab, shibbalashardi. Bre-zentplash va kirza etik kiyib olgan kishi buldozer bilan yon-ma-yon yurib, traktorhiga yo'l-yo'riq ko'rsatmoqchi edi:

– Xiyol chaproqqa bur! Yana biroz ichkariga! Taxta qoliplar ustidan hayda! Ha, shunday! To'xta! Orqaga!..

Yo'l deyarli tozalab bo'lingan edi. Shofyorlar ikkala to-mondan tinmay signal berishib, soqchi ishchilarni so'kib, yo'lni ochishni talab qilishardi, ammoplashli kishi bularga parvo qilmasdi. U buldozerni mo'ljallangan yerdan yurish-ga va qoliplar ichidagi tuproqni yaxshilab shibbalashga qayta-qayta majbur etardi. „Boytemir deganlari shu bo'lsa kerak. U o'z ishining ko'zini bilarkan!“ – degan qarorga keldim men. Ha, yanglishmabman, bu ayni shu kishining o'zi ekan. Nihoyat, yo'l ochilib, mashinalar harakatga tu-shib qolishdi.

– Siz nima qilib turibsiz, avtobusingiz ketib qoldi-ku? – dedi menga Boytemir.

– Men siz bilan uchrashgani keldim.

Boytemir taajjublanmadi ham. Men bilan oddiygina qo'limni mahkam qisib ko'rishdi.

– Mehmondan qochmaymiz, xursand bo'lamiz.

– Sizda ishim bor edi, bake, – dedim uni hurmatlab. O‘zimni ham tanitdim. – Yo‘l tuzatuvchilarimizning Tojikistonga borishidan sizning xabaringiz bormi?

– Ha, eshituvdim.

– Gap bunday. Pomirga ketishingiz oldidan siz bilan gaplashib olmoqchi edim.

Men kelishdan maqsadimni asta-sekin tushuntirar ekanman, borgan sayin Boytemirning qovog‘i osilib, dag‘al va qo‘ng‘ir mo‘ylovini o‘ychan silay boshladi.

– Kelganingiz-ku juda yaxshi bo‘libdi, – dedi u menga, – lekin Pomirga men bormayman, mening xususimda yozib o‘tirishingizning hojati ham yo‘q.

– Sababini bilsak bo‘ladimi? Ishlar ko‘pmi? Yoki uyda biron kori hol bo‘ldimi?

– Ish ham yetarli, har qalay yo‘l-da, o‘zingiz ko‘rib turibsiz. Uyda deysizmi? – u papiros ola turib biroz jimib qoldi. – Uyda ham... albatta, hamma oilalarda bo‘ladiganidek ozmi-ko‘pmi ishlar bor... Ammo Pomirga bormayman.

Men unga o‘xshagan yo‘l tuzatuvchilarning delegatsiya tarkibida borishining qanchalik muhim ekanligini tushuntirishga va ko‘ndirishga kirishdim. Ammo Boytemir ko‘proq hurmat yuzasidangina menga quloq solar edi, men uni har qancha tashviqot qilsam ham baribir ko‘ndira olmadim.

Men juda xafa bo‘ldim va birinchi galda o‘zimdan o‘pkaladim. Jurnalistlik sezgirligim bu safar ish bermadi, chunki men unga to‘g‘ri yondasholmagandim. Men do-vondan tahririyatning topshirig‘ini ham, qo‘shni respublika gazetasining iltimosini ham bajara olmay quppa-quruq ketadiganga o‘xshab qoldim.

– Xo‘p, mayli, bake, kechirasiz, endi men ketay. Hozir biror yo‘lovchi mashina kelib qolar.

Boytemir menga osoyishta va sergak ko‘zlarini qadab, diqqat bilan tikildi-da, miyig‘ida kulib qo‘ydi.

– Shaharlik qirg‘izlar urf-odatlarimizni unutib qo‘y-yaptilar-da. Mening uyim, oilam, dasturxonim va tunaydigan joyim bor. Meni deb kelgan ekansiz, yo‘ldan qaytmasdan, bugun uyimga tushib, ertaga ketarsiz. Yuring,

men sizni xotinim va o'g'limning oldiga qoldirib qaytay: ko'nglingizga olmaysiz, albatta. Qorong'i tushmasdan yo'lni bir aylanib chiqishim kerak. Tezda qaytaman. Ishimiz shunaqa...

– Bake! – deb to'xtatdim uni. – Men siz bilan birga yo'lni aylanib chiqa qolay.

Boytemir mening shaharlik qiyofamga bir nazar tashlab oldi-da, ayyorona ko'z qisib qo'ydi:

– Qalay bo'larkan, men bilan birga kezib yurishingiz sizga noqulay bo'lasmikin? Masofa uzoq, buning ustiga yo'l ham yaxshi emas.

– Mayli, hechqisi yo'q, – deb qat'iy turib oldim men.

Shunday qilib, biz yo'lga tushdik, har bir ko'prik va muyulish oldida, o'pirilgan joylar va osilib turgan qoyalardan qarshisida yo'l-yo'lakay to'xtab, ularni ko'zdan kechirib borardik. Bularning hammasi yo'l masterining ziyrak va o'tkir nazaridan o'tardi. Biz o'z-o'zidan gapga kirishib ketdik, albatta. Hali-haligacha nima uchun, qaysi so'zim bilan, nimam bilan va qay yo'sinda Boytemirning ishonchini qozonganligimni o'zim ham bilolmayman. Azbaroyi shu ishonchi tufayli u menga o'z taqdiri haqida va oilasining taqdiri haqidagi qissani so'zlab berdi.

Faqat endigina, Ilyosning hikoyasini oxiriga qadar tinglab bo'lgach, jurnalist sifatida omadim juda o'ngidan kelganini tushundim. Zohiran xotirjam va osoyishta ko'ringan Boytemir o'sha kunlari o'zi bilan g'am-g'ussa, tashvish va o'y-xayollarning ulkan yukini ko'tarib yurar edi. Qandaydir, tasodifan, ko'nglini yozish uchundir, Boytemir bir-ikki og'iz aytib yubordi-yu, keyin gapini to'xtata olmay, qalbidagi dard-hasratlari qo'zg'alib, daryo kabi oshib-toshib ketdi...

YO'L MASTERINING HIKOYASI

Mana siz, nega Pomirga borgingiz yo'q, deb so'radingiz. O'zim pomirlik qirg'izman. Tug'ilgan elim Pomir bo'lsa ham men bu yoqlarda, Tyanshanda yuribman.

Juda yoshlik chog'larimdan Pomir yo'l qurilishida ishlay boshladim. U yoqqa komsomol chaqirig'i bilan borgan edim. Qurilish xalq qurilishi edi, mexanizmlar yetishmasdi, ish qanchalik og'ir bo'lmasin, biz, ayniqsa yoshlar, ishtiyoq bilan, g'ayrat va shijoat bilan ishlardik. G'ayrat ko'rsatmay bo'larmidi: asrlar bo'yi inson qadami yetmagan Pomirga yo'l solinyapti-ya! Men zarbdorlar qatoriga o'tib oldim, dam-badam mukofot va in'omlar olib turardim. Buni maqtanib emas, shunchaki kezi kelgani uchun aytyapman.

U yerda, qurilishda men bir qizni uchratib, uni jon-dilimdan sevib qoldim. O'zi ham juda chiroyli, aqlli qiz bo'lib, qurilishga ovuldan kelgan edi; bu esa o'sha paytlarda oddiy qirg'iz qizi uchun katta qahramonlik edi. U yog'ini surishtirganda, o'zingizdan qolar gap yo'q, hatto hozir ham qizlarning ishlab chiqarishga borib ishlashlari unchalik oson emas – bunga urf-odatlarimiz to'sqinlik qiladi. Gulbara bilan tanishganimizga bir yilcha bo'ldi. Yo'l qurilishi oxirlab qolgan edi. Yo'lni ishga solib yuborish uchun o'z kadrlarimiz bo'lishi zarur edi. Yo'l qurilishi ishning bir tomoni, uni birgalashib, umumiy kuch bilan bajara olish mumkin, shuning bilan birga, unga ko'z-quloq bo'lib, nazorat ham qilib turish kerak-da. Bizda Husainov degan bir yosh injener bor edi, u hozir ham yo'l sohasida ishlaydi, ministr bo'lib xizmat qilmoqda. Biz u bilan do'stlashib qoldik. Menga yo'l ishlari kurslariga borib o'qishga maslahat bergan ham shu kishi bo'ldi. Men o'qishni bitirib kelgunimcha Gulbara kutib turolmas, uni ovulga olib ketib qolishar, deb o'ylagan edim, yo'q, u qaytishimni kutdi. Nihoyat birga turmush qurib, o'sha yerda, yo'l uchastkasida qolib ishlay boshladik. Biz juda ahil va bir-birimizga mehribon edik... Shuni ham aytish kerakki, ayniqsa tog' va dovonlarda yashovchi yo'l tuzatuvchilar uchun mustahkam oila – yaxshi xotin osh-nondek zarur. Men buni keyinroq o'z hayotimda sinab ko'rdim. Agar men o'z ishimni bir umrga jon-dilimdan sevib qolgan ekanman, bunda xotinimning xizmati ham oz emas. Biz qiz ko'rdik, keyin ikkinchisi dunyoga keldi, xuddi shu kezlarda to'satdan urush boshlanib qoldi.

Pomir yo'li sharros quyib bergan jaladan keyingi daryo kabi chayqalib, to'liqinlanib ketdi. Butun xalq ana shu daryo singari pastga tomon oqa boshladi – ular armiyaga ketayotgan edi.

Nihoyat menga ham navbat keldi. Ertalab hammamiz boshlashib uydan yo'l yoqasiga chiqdik. Kichkina qizchamni qo'limda ko'tarib borardim, kattasi esa barimdan ushlab olgancha yonma-yon borardi. Gulbaram, bechora Gulbaram! Uning qo'lida mening safar xaltam, o'zini dadil tutishga va meni ham ovutib, tinchitishga urinardi. Ammo kimsasiz tog'-u toshlardagi yo'l uchastkasida ikki yosh bola-yu, yana xuddi o'ziga o'xshash ikki qo'shni ayol bilan qolish unga naqadar og'ir ekanligini butun qalbidan sezib turardim. Men ularni ovulga: qarindosh-urug'larim oldiga jo'natmoqchi bo'ldim, ammo Gulbara istamadi. Kunimizni bir amallab o'tkazarmiz, seni kutamiz, yo'lni ham qarovsiz qoldirib bo'lmaydi-ku, axir, derdi u. Men rafiqam va farzandlarim bilan so'nggi marta yo'l yoqasida turib xayrlashdim. Biz Gulbara bilan u vaqtda hali juda yosh, hayotga endigina qadam qo'ygan edik...

Men sapyorlar batalyoniga tushdim. Moskva ostonalaridagi ko'pgina tankka qarshi qurilgan to'siqlarga mening ham qo'lim tekkan. Keyin esa Don va Visla daryolarini kechib o'tib, Dunayga qarab ketdik. Urush maydonlarida biz qanchadan qancha yo'llar, kechuv joylari, ko'priklar barpo etdik. Qilgan ishlarimizni sanab sanog'iga yetib bo'lmaydi! Ba'zan shunday paytlar ham bo'lardiki, goh muzday suvda titrab-qaltiraysan, goh tutun va olov ichida yonasan, atrofigda snaryadlar betinim portlaydi, kechuv joylarni ostin-ustun qiladi, qanchadan qancha odamlar qiriladi, tinkamading qurib, o'lishingga ham ming marta rozi bo'lasan. Biroq shunday paytlarda tog'-toshlarda yashab, xuddi Xizrni yo'qlagandek meni intizorlik bilan kutayotgan bola-chaqamni eslasam va Pomirdek joydan bu yerda, ko'pri ostida bekordan bekorga o'lib ketgani kelmaganimni o'ylasam, kuch-qudratim shu qadar ortib ketardiki, bir-biridan ajralib ketayotgan simlarni hatto tishlarim bilan bu-

rardim, hayotdan voz kechgim, taslim bo'lgim kelmasdi. Ana shu kuch bilan Berlin ostonalarigacha yetib bordim.

Xotinim tez-tez xat yozib turardi, yaxshiyamki, pochta ularning yonginasidagi yo'ldan o'tardi. U hamma narsa haqida, shu jumladan, yo'l haqida ham batafsil yozardi – u mening o'rnimga master bo'lib qolgan edi. Unga juda og'ir ekanligini bilardim: yo'l ham uncha-muncha yo'llardan emas, Pomirda-ya! Buning ustiga, qo'shnilar ham duch kelgan tomonga qarab ko'chib ketishibdi.

Qirq beshinchi yilning bahoriga kelib to'satdan xat kelmay qo'ydi. Front pochtasida har xil hodisalar bo'lishi mumkin-ku, deb o'ylab, o'zimni o'zim ovutardim. Kunlardan birida meni polk shtabiga chaqirib qolishdi. Xo'sh, gap shunaqa, starshina, urushib bo'lding, yaxshi jang qilding, tashakkur va mukofotlar ham olding. Endi uyingga qaytasan, u yerda sen hozir ko'proq keraksan. Ammo, birinchi navbatda harbiy komissariatga kir, hujjatlaringni topshir, keyin uyingga jo'na... Men kutilmagan bu xabardan quvonib ketdim, albatta. Hatto uyga telegramma ham yubordim.

Men qadrdon joylarimga yetib keldim. Harbiy komissariatga esa kirib o'tirmadim, ulguraman hali, qayoqqa qochib ketardim! Uyga! Tezroq uyga yetib boray! Yo'lovchi polutorka mashina uchrab qoldi, men unda Pomir yo'li bo'ylab jo'nab ketdim.

Qani endi qanotim bo'lsa-yu, uchib borsam, frontdagi „Studebeker“larda yurib o'rganib qolibman, kabinaga engashib shofyorga qichqirardim:

– Tezroq hayda, oshna, shaldiraq aravangni muncha ayamasang! Uyimga ketyapman!

Mana, yaqinlashib ham qoldim. Muyulishdan o'tish bilan mening uchastkam. Sabr-toqatim chidamadi. Mashinaning yurib ketayotganiga qaramay, sakrab tushdim-da, safar xaltamni yelkamga tashlab, yugurib ketdim. Shunday qilsam tezroq yetib boraman, deb o'yladim. Chopyapman, chopyapman, muyulishdan ham o'tdim... O'tdim-u, hech narsani taniyolmadim. Go'yo hamma-hammasi o'z joy-joyida turgandek: tog'lar ham o'z o'rnida, yo'li ham o'sha, am-

mo na uy-joy, na hovli va na biron tirik jon zoti ko'rinardi. Faqat tosh uyumlarigina qalashib yotardi. Bizning hovlimiz xiyol chetroqda, naq tog'ning tagginasida edi. Tog' etagidagi joylar juda tor edi. Tog'ga ko'zim tushdi-yu, darhol dong qotib angrayib qoldim. Balandlikdan qor qatlari ko'chib, o'zi bilan birga yo'lda uchragan hamma narsani tep-tekis qilib supurib ketgan, go'yo o'tkir tirnoqli temir panjalari bilan tog' yonbag'irlarini qo'porib, pastlikka ag'angatib uloqtirgan-u, chuqur va ulkan jarlikning sahnini qo'sh qo'shgan-dek ag'dar-to'ntar qilib tashlagan edi. Xotinim o'zining so'nggi xatida juda qalin qor tushganini, so'ngra kutilmagan-da yomg'ir yog'a boshlaganini yozgan edi. Demak, qor uyumini qulamasidan ertaroq portlatib, pastga qulatib yuborish zarur edi, biroq bu ayol kishining qo'lidan kelarmidi.

Ana shunday qilib, oilam bilan ham uchrashdim. Ming bor o'lim bilan yuzma-yuz kelib, tiriklayin do'zaxga tushib qaytsam-u, bu yerda bola-chaqamdan nom-nishon bo'lmasa. Tinka-madorim qurib, qotib turardim. Tog'-toshlarni larzaga keltirib hayqirgim, dod degim kelardi-yu, nafasim bo'g'zimga tiqilib, ovozim chiqmasdi. Go'yo butun vujudim toshga aylanib qotib qolgandek edi. Faqat yelkamdagi safar xaltamning sirg'alib oyog'im ostiga tushib borayotganini sezib turardim, xolos. Men uni o'sha yerga tashlab ketdim, unda qizlarimga, xotinimga sovg'alar olib kelgan edim, yo'lda gimnastorkamni novvotga ayirboshlab oluvdim. Men turgan yerimda go'yo biror mo'jizani kutayotgandek uzoq turib qoldim. Keyin orqamga qayrildim-da, yo'ldan ketaverdim. Bir zum to'xtab, ortimga qayrilib qaradim, tog'lar sarak-sarak bo'lib tebranib, butun og'irliklari bilan ustimga bostirib kelayotgandek bo'ldi. Yuragim qinidan chiqayozgandek qichqirib yubordim-da, qocha boshladim. Qoch! Bu la'nati joylardan qoch! Ana shunda dahshatli ovoz bilan ho'ngrab yig'lab yuborgan edim.

Qayoqqa va qay tarzda borayotganligimni eslayolmayman, uchinchi kuni stansiyaga kelib qolibman. G'ala-g'ovur xalq to'lqini ichida adashgan kishidek daydib yurardim. Nomimni atab bir ofitser meni chaqirib qoldi. Qarasam – injener Husainov. Harbiy xizmatdan bo'shab, uyiga qay-

tayotgan ekan. Men boshimga tushgan kulfat haqida unga ikki og'izgina so'zlab berdim. Endi qayoqqa bormoqchisan, deb so'radi u. „O'zim ham bilmayman“, deb javob berdim. Yo'q, dedi u, bunday qilish yaramaydi, chidash kerak. Bir o'zingning sandiroqlab yurishingga yo'l qo'ymayman. Qani, yur, Tyanshanga ketdik, yo'lni qurib tugallash kerak. U yog'ini yana ko'rarmiz.

Men bu yerga ana shunday qilib kelib qolganman. Dastlab yo'lda ko'priklar qurib yurdim. Vaqt o'tib borardi, bi-ror ishning boshini tutish kerak edi. O'sha kezlarda injener Husainov vazirlikda ishlayotgandi. U mening oldimga tez-tez kelib turar va har kelganida avvalgi ishimga, uchastka yo'l masteri bo'lib o'tishga maslahat berardi. Bunga yuragim dov bermasdi. Eslasam, yuragim orqaga tortib ketardi. Qurilishda yakka o'zim emasman, ko'pchilik bilan ishlash oson bo'ladi. U yoqda-chi, kim biladi, yolg'izlikdan yuragim yorilib ketsa kerak. Oradan necha yillar o'tib ketdi. Biroq men hamon o'zimni o'nglolmas, boshimga tushgan tashvishlarni unutilmasdim. Go'yo shu bilan hayotim tamom bo'lgan-u, bundan bu yog'iga hech narsadan umidim yo'qdek edi. Uylanishni xayolimga ham keltirmasdim. Gulbaram va bolalarimni haddan tashqari sevar edim. Hech kim, hech qachon ularning o'rmini bosa olmaydigandek tuyulardi menga. Faqat kun kechirish uchungina va shuncha-ki uylanish esa – ish emas. Bundan ko'ra so'qqabosh bo'lib yurgan ma'qulroq.

Nihoyat, uchastkaga master bo'lib borishga qaror qildim, ishlab ko'raman, agar yoqmasa, yana biron yoqqa ketaveraman-da, deb o'yladim. Menga bu yerda dovonning naq o'zidagi uchastkani berishdi. Yomon bo'lmadi, asta-sekin kirishib, ko'nikib ketdim. Ehtimol bunga uchastkani juda sertashvishlilik sabab bo'lgandir: dovonda har qancha desangiz ham ish topiladi. Ammo bu menga og'irlik qilmadi, aksincha, yaxshi bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan qalbimdagi dard-alamlar so'na boshladi, ularni asta-sekin unuta bordim. Ba'zi-ba'zida o'sha mudhish kun tushimga kirib chiqardi: o'sha yer yuzidan supurilib ketgan hovli qarshisida toshdek qotib, yelkamdagi safar xaltamning

sirg'alib oyog'im ostiga tushib borayotganini sezib tura-
man. Keyin qayrildim-da, orqamga qarab qaytib ke-
tardim. Uyg'onib ketib qaragam, ko'zimda g'ilt-g'ilt yosh
bo'ladi. Bunday paytlarda sahardayoq o'rnimdan turib ish-
ga jo'nardim, shu ketganimcha to tunga qadar uyga qayt-
masdim. Shu tariqa men so'qqabosh bo'lib qolgandim.
To'g'ri, ahyon-ahyonda: „Ehtimol, hali yana baxtli kunlar-
ga erisharman“, degan hazin o'y xayolimga kelib qoldi.

Nihoyat juda og'ir, iztirobli va cheksiz mashaqqatli bu
baxt men kutmagan bir paytda kelib qoldi.

Bundan to'rt yilcha muqaddam tugab borayotgan qish
kunlarining birida qo'shnimning bemor onasini viloyat ka-
salxonasiga olib borgan edim. Qo'shnimning o'zi bo'lsa uy-
dan bo'shab chiqa olmasdi. Bir yoqda ish, oila, bir yoqda
bolalari... Kampirning ahvoli esa kun sayin og'irlashib bor-
moqda edi. Men uni shifokorlarga ko'rsatishga ahd qildim.
Shu kun uchastkamizga yo'l boshqarmasidan mashina ke-
lib qoldi. Unda nimadir keltirishgan edi. Biz ana o'sha ma-
shinada viloyat markaziga bordik. Kampirni shifokorlarga
ko'rsatdim. Shifokorlar kampirni kasalxonaga yotqizish ke-
rak, yotqizilmasa bo'lmaydi, deb maslahat berishdi. Kam-
pir kasalxonaga birinchi marta tushganidan, yotmayman,
deb qaysarlik qilib turib oldi, o'lsam o'lamanki, ammo ka-
salxonada qolmayman, derdi u. Qaytarib olib ket, bo'lmasa
qarg'ishimga qolasan. Shuncha qilsam ham uni ko'ndira ol-
madim. Yana qaytarib olib ketishga to'g'ri keldi. Turli-tu-
man dori-darmonlar olib, orqaga qaytdik. Vaqt allamahall
bo'lib qolgan edi. Avtobazaning dovondagi bazasidan o'tib ket-
dik. Bir payt shofyor mashinasini shartta to'xtatdi, men uning:

– Qayoqqa borasiz? – deb so'rayotganini eshitdim.

Allanima deb mujmalgina javob qaytargan ayol kishi-
ning ovozi quloqqa chalindi va uning nari ketayotgan odim
sharpasi eshitildi.

– Chiqa qoling! – dedi shofyor unga. – Nega unday
qilasiz? – deb mashinani unga yaqinroq haydab bordi.

Qo'lida bola, tuguncha ko'tarib olgan yoshgina ayol
mashina bortiga yaqinlashdi. Men ayolning kuzovga
chiqib olishiga yordamlashdim, kabina orqasidagi shamol

tegmaydigan pana joyni unga bo'shatib berib, o'zim burchakka o'rnashib oldim.

Biz yo'lga tushdik. Kun sovuq, rutubatli shamol esardi. Bola yig'lay boshladi. Ayol bolani ovutishga har qancha urinmasin, u sira tinchlanadiganga o'xshamasdi. Toza chatoq bo'ldi-ku! Kabinaga o'tqazay desak, u yerda chalajon kampir o'tirardi. Shunda men ayolning yelkasidan sekingina turtdim:

– Qani, menga bering-chi, ehtimol, tinchib qolar, o'zingiz sal egilibroq o'tiring, shamol tegmasin.

Men bolani kalta po'stinim bilan o'rab oldim-da, bag'ringa bosdim. U tinchib, pishillab nafas ola boshladi. Juda do'mboq, o'ziyam o'n oylik chamasi jajjigina bola ekan. Men uni chap bag'ringa olib o'tirardim. Birdan yuragim gupullab, xuddi otib tushirilgan qush kabi tipirchilay boshladi. Nega ekanligini o'zim ham bilmayman. Qalbm ham qayg'u, ham quvonchli tuyg'ularga to'lgan edi. „Eh, nahotki hech qachon otalik baxtiga muyassar bo'lolmasam-a“, deb o'ylardim men. Bola esa bag'rimda issiqqina yotardi. Unga boshqa hech narsaning keragi ham yo'q edi.

– O'g'ilmi? – deb so'radim.

Ayol bosh irg'ab qo'ydi. Ko'rib turibman, bechora sovqotib qolgan, egnida yupqa palto. Men bo'lsam qishda ham kalta po'stin ustidanplash kiyib yuraman: bizning ish sharoitimizda busiz mumkin emas. Bolani bir qo'linda ushlab turib, unga ikkinchi yengimni cho'zdim.

– Plashimni yeching. Bunaqada shamollab qolasiz.

– Yo'g'-e, qo'ying, ovora bo'lmang, – deb ko'nmadi u.

– Torting, tortavering! – deb turib oldim men. – Yopinib oling.

U plashga o'ralib oldi, shamol kirmasin deb etaklarini oyog'i ostiga qistirib qo'ydim.

– Biroz isidingizmi? – deb so'radim men.

– Ha, isidim.

– Yo'lga namuncha kech chiqdingiz?

– Shunday bo'lib qoldi, – dedi u ohistagina.

Shu payt biz daradan ketayotgan edik. Bu yerda konchilar shaharchasi joylashgan edi. Hamma uy-

quga ketgan, derazalarda bironta chiroq ko'rinmasdi. Itlar vovullab mashina ketidan chopishardi. Shunda birdan, bu ayol qayoqqa borarkin, degan fikr xayolimga keldi. Men, nima uchundir, u konga ketayotgan bo'lsa kerak, chunki u yoqda boradigan joy yo'q, dovon, undan keyin esa bizning uchastka, deb o'ylardim o'zimcha.

– Siz yetgan bo'lsangiz kerak? – dedim unga va kabini taqillatdim. – Biz ham yetay deb qoldik, dovonga kel-yapmiz. Mashina nariga bormaydi.

– Bu yer qanaqa joy? – deb so'radi u.

– Kon. Siz bu yerga kelayotganingiz yo'qmi?

– Men... men shu yerga kelayotgandim, – dedi u qimtinib. Keyin „dik“ etib turdi-da, menga plashni berib, qo'liga bolani oldi. Bola hiqillay boshladi. Men bortga yaqinroq kelib, unga yordamlashish uchun yerga sakramoqchi bo'ldim. Biroq bu bechoraga bir gap bo'lgan, boshiga biron musibat tushgan ko'rinadi, deb o'ylab qoldim. Sovuq tunda yolg'iz o'zini tashlab ketsak qanday bo'larkin?

– Sizning boradigan joyingiz yo'q! – dedim men unga ro'yirost. – Yomon xayollarga bormang, tag'in. Bolani bu yoqqa bering! – deb qo'lidan go'dakni shartta oldim. – So'zimni qaytarmang. Tunni biznikida o'tkazasiz, keyin ixtiyor o'zingizda. Ketdik! – qichqirdim shofyorga.

Mashina qo'zg'aldi. U boshini quyi solib, jimgina o'tirardi, bilmadim, ehtimol yig'layotgandir.

– Xavotir olmang! – deb tinchlantirdim uni. – Men sizga hech qanaqa yomonlikni ravo ko'rmayman. Men yo'l masteri Boytemir Qulov bo'laman. Menga bermalol ishonavering.

Ularni o'z xonamga joylashtirdim. O'zim unga taqab qurilgan bo'sh uy-chamizga kirib, yog'och karavotga yotdim.

Allamahalgacha uxlay olmadim. O'ylar girdobida qoldim. Tinchimni yo'qotdim. So'rab-surishtirib o'tirish juda noqulay edi. O'zim ham buni yoqtirmayman, ammo baribir ayrim narsalarni so'rashga to'g'ri keldi. Ehtimol u bechoraga mening yordamim kerakdir. U savollarimga istar-istamas qisqa-qisqa javob qaytarardi. Biroq men aytilmay, uning yuragida qolib ketayotgan gaplarni ham anglab tu-

rardim. Agar insonning boshiga musibat tushsa, uning har bir soʻzining tagida yana aytilmay qolgan oʻnlab soʻz yotadi. U erini tashlab, uyidan chiqib ketibdi. Takabburroq boʻlsa kerak, azob chekayotgani, kuyunayotgani sezilib turibdi-yu, ammo hech taslim boʻlmoqchi emasdi. Nima ham deyish mumkin, har kimning ixtiyori oʻzida. Nima qilsa oʻzi biladi. Shunday boʻlsa ham bu yoshgina ayolga juda rahmim kelardi. U hali oʻn gulidan bir guli ochilmagan qizchaga oʻxshardi, qad-qomati kelishgan, chehrasidan nur balqib turardi. Odatda, u mehribon, shirinsoʻz edi, ehtimol, samimiy ayoldir. Shunday juvonne hamma narsadan mahrum etib, bosh olib ketishga majbur etgan qanaqa inson ekan-a? Bunga sira tushunolmasdim. Keling, menga nima, bu ularning ishi. Ertaga biror mashinaga oʻtkazib qoʻyarkan.

Oʻsha kuni oʻylayverib charchab ketdim, koʻzim ilinishi bilan oʻzimni mashinada ketayotgandek his qildim. Kalta poʻstinim ostiga jajji bolani oʻrab olganmishman. Goʻdakning badaniga issiq yugurib, koʻksimda maza qilib yotganmish.

Tongotarda oʻrnimdan turdim. Yoʻllarni koʻzdan kechirib kelgani ketdim, ammo tez orada qaytdim. Mehmonlarim nima qilishayotgan ekan, degan oʻy miyamdan ketmasdi. Ularning uyqusini buzmaslik uchun ehtiyotlik bilan old xonadagi pechkaga oʻt yoqib, samovar qoʻydim. Ammo u allaqachon uygʻonib, ketishga hozirlik koʻrayotgan ekan. U menga minnatdorchilik bildirdi. Ularni choy ichirmay joʻnatmadim, biroz kutib oʻtirishga majbur qildim. Tungi kichkintoy hamrohim ajoyib bola ekan, odamga sira tortinmay kelaveradi, hech narsa bilan ishi yoʻq. U bilan oʻynashib huzur qildim, xumordan chiqdim: u bilan darhol koʻnikishib, apoq-chapoq boʻlib ketdim. Choy ustida ayoldan soʻradim:

– Qayoqqa borishingiz kerak? Yoʻlovchi mashina toʻxtataymi?

U biroz oʻylanib turdi-da:

– Ribachega, – dedi.

– U yerda qarindoshlaringiz bormi?

– Yo‘q. Qarindosh-urug‘larim ovulda, To‘so‘rning nari-gi yog‘ida.

– Ee, unda siz ana o‘sha tomonga boradigan boshqa mashinaga o‘tirishingiz kerak. Bo‘lmasa qiynalib qolasiz.

– Men baribir u yoqqa bormayman. Borishimiz ham mumkin emas, – dedi u o‘g‘liga o‘ychan boqib. – O‘zimiz aybdormiz...

Men uni ota-onasining roziligisiz turmushga chiqqan bo‘lsa kerak, deb o‘zimcha taxmin qilardim. Keyin bilsam, haqiqatan ham shunday ekan.

U ketishga tayyorlana boshladi, biroq men uni bolasi bilan shamolda turib qolmasin deb biroz uyga kirib kutib turishga ko‘ndirdim. Mashinani bir o‘zim to‘xtatsam ham bo‘ladi-ku, axir.

Yuragim ezilib, yo‘lga chiqdim. Ularning ketishini, o‘zimning esa yolg‘iz qolishimni o‘ylasam negadir yana qayg‘um oshib, xayolim parishon bo‘lardi.

Avval yo‘lovchi mashinalar kelavermadi. Keyinchalik bo‘lsa bittasini ko‘ra turib atayin o‘tkazib yubordim, qo‘l ko‘tarmadim. Ammo bu qilmishimdan o‘zim cho‘chib ketdim. Nega bunday qilyapman? Ana shundan boshlab meni dard-alamlarim iztirobga solib qiynay boshladi. Mashinalar birin-ketin o‘tib borardi, men esa ularning birortasini ham to‘xtatmay, g‘ayriixtiyoriy ravishda vaqtni cho‘zardim. Endi kelganini to‘xtataman, derdim-u, ammo qo‘lim yana ko‘tarilmasdi. Uyatdan yuzlarim laxcha cho‘g‘ bo‘lib yonib, terlab ketdim. Bu nima qilganim: birovni aldash, yo‘li-dan qoldiryapman-ku! Qanday haqqim bor bunga? Uyda u menga ishonib umid bilan kutib o‘tiribdi. Yo‘l bo‘ylab u yoqdan bu yoqqa yura boshladim. O‘zimdan o‘zim cho‘chirdim. Menga bir balo bo‘layotgandek edi. Qandaydir bahona-yu sabablar qidirib topardim. Goh oynasi siniq ekan, kabina sovuq bo‘ladi, deyman; goh mashina ko‘ngildagidek bo‘lmasdi; goh shofyori yoqmasdi – olatasirchi ko‘rinardi, ehtimol, ichib ham olgandir. Kabinasi band mashinalar o‘tganda esa xuddi yosh bolalardek quvonib ketardim. Ishqilib, ular hozir ketmasaydi, yana bir oz, yana besh-o‘n daqiqa uyimda o‘tira turishsa yaxshi

bo'lardi. „Axir u qayoqqa ham boradi?– deb o'ylardim men. – O'zi aytdi, ovulga borishi mumkin emas. Boshqa joylarda ularning hech kimi yo'q. Ribache yo'l ustidagi serqatnov shaharcha, u yerda har xil odam yashaydi. Bolasi bilan qayerga boradi? Durustroq joy topguncha, qish paytida o'g'lidan ajralib qoladi! Yaxshisi, shu yerda biroz yashab turishsin, yana u yoq-bu yoqni o'ylab ko'rsin, ehtimol, erinikiga qaytib borar. Yo u xotinini izlab kelib qolar...“

E, sho'rpehana, yaxshisi, tentirab yurmasdan uning o'zini yo'l yoqasiga boshlab kelib, jo'nata qolsam bo'lmasmidi! Uch soatlar chamasi yer deqsab vaqtni bekor o'tkazdim. O'zimdan o'zim nafratlandim: nega, nima uchun bunday qilyapman-a? Yo'q, hozir uni bu yerga boshlab kelaman-da, o'zining oldida mashina to'xtataman. Bo'lmasa, hech narsa qilolmay turaveraman. Men uyga qaytdim. U endi eshikdan chiqib kelayotgan ekan, kutaverib toqati toq bo'libdi. Men uyalib ketdim, xuddi biror gunoh qilib qo'yan yosh boladek unga javdirab qaradim.

– Kutib qoldingiz-a? – deb g'o'ldiradim men. – Yo'lovchi mashinalar uchramadi, to'g'rirog'i, uchradi-yu, ammo ko'ngildagidek emas ekan. Kechirasiz, tag'in yomon xayollarga borib yurmang. Xudo haqqi, uyga kirib biroz o'tira turing. O'tinib so'rayman!

U taajjublanib, menga ma'yusgina boqdi-da, indamay uyga qaytib kirib:

– Siz menga achinyapsizmi? – dedi.

– Yo'q, uning uchun emas. Bilasizmi... Siz uchun tashvishlanyapman. Qiynalib qolasiz. Qanday qilib kun kechirmoqchisiz?

– Ishlayman. Suyagim mehnatda qotgan.

– Qayerda ishlaysiz?

– Biror yerga joylasharman. Ammo uyga qaytmayman, ovulga ham bormayman. Mehnat qilib kun kechiraman.

Men indamadim. Hammasi tushunarli edi. U hozir hech narsa haqida o'ylamasdi, ko'ziga ham hech narsa ko'rinmasdi.

Alam, g'urur uni noma'lum tomonlarga haydamoqda edi. Ammo „mehnat qilib kun kechiraman“, deyish aytishgagina oson, axir. Ishlab kun kechirish to'g'ri-ku, lekin

hadeguncha unga erisha qolmaysan kishi. Insonni o'z erkiga, xohishiga qo'ymaslik ham yaxshi emas.

Bola menga qarab talpindi. Uni ko'tarib oldim. Uning yuzidan o'parkanman: „Eh, do'mbog'im, sendan ajralishga to'g'ri kelyapti-ku. Qaniydi sen bilan bir umrga ajrashmasak. O'z o'g'limdek qadrdon va aziz bo'lib qolgan eding menga“, deb o'tkazdim ko'nglimdan.

– Ha, mayli, yuring, – dedim keyin sekingina.

O'rnimizdan turdik. Men bolani ko'tarib oldim, biroq eshik oldiga borganda to'xtab:

– Ish bo'lsa bizda ham topiladi, – dedim yana unga. – Shu yerda ishlangiz ham bo'ladi. Kichikroq xona ham bor. Rost, qola qoling. Shoshilmang. Ketishga har vaqt ulgurasiz. Yana o'ylab ko'ring...

U avval indamay turdi. Ammo men hozircha bu yerda ishlab turishning afzalligini, so'ng nima qilish zarurligini hayot o'zi ko'rsatishini, ketgisi kelsa xohlagan vaqtida keta olishi mumkin ekanligini aytib, unda ishonch hosil qildim.

Shunday qilib, Asal va Samad, o'g'lining ismi shunday ekan, bizning yo'l uchastkamizda qolishdi.

Hovlidagi qo'shimcha qurilgan uycha sovuq edi, shuning uchun Asalni o'g'li bilan mening xonamda yashashga ko'ndirdim, o'zim bo'lsam o'sha hujraga ko'chib o'tdim. Menga shu uycha ham yetardi.

Shu paytdan boshlab mening hayotim o'zgarib ketdi. Bir qarashda-ku, hech narsa o'zgarmagandek ko'rinardi, hamon avvalgidek so'qqabosh edim, ammo men o'zimni yana inson his qila boshladim, uzoq yillik yolg'izlikda sovigan qalbim tag'in iliy boshladi. Men endi yakka o'zim yashamasdim... Odamlar bilan kishilar orasida yashash, ishlash, do'stlashish, umum ishini ado etish, yordamlashish va yordam olish naqadar yaxshi. Kuning bitib, vaqtsoating yetib o'lganingda ham boshqalardan kam qilib ko'mishmaydi... Ammo shunga qaramay, hayotning bir tomoni borki, uni sevgilingga bo'lgan mehr-muhabbatdan bo'lak hech narsa bilan almashtirib, to'ldirib bo'lmaydi... Men kichkintoyga juda o'rganib qoldim. Uchastkaga aylanib chiqqan paytlarda ham uni issiqqina qilib o'rab

olib, o'zim bilan birga ko'tarib yurardim. Xullas, bo'sh vaqtimning hammasini u bilan o'tkazardim. Shu paytgacha qanday qilib yashab kelganimni tasavvur eta olmayman. Qo'shnilarim ham ancha durust kishilar edi. Ular Asalga ham, Samadga ham mehribon edilar. Bolani kim sevmaydi deysiz. Asalning o'zini olsak dilkash, samimiy, ochiq ko'ngilli ayol, shuning uchun ham u uchastkadagilar bilan til topishib, aralashib-quralashib ketdi. Mening esa kichkintoyga ham, Asalga ham mehr-u muhabbatim yanada oshib ketdi. Bolaga mehrim onasiga bo'lgan mehr-muhabbat bilan payvasta edi. Rostini aytsam, har qancha urinsam ham his-hayajonlarimni o'zimdanda o'zim yashira olmadim. Asalni sevib qolgan edim. Bir umrga butun qalbim bilan yolg'izlikda o'tkazilgan hijronli yillar, barcha azob-uqubatlari evaziga uni behad sevib qoldim. Barcha judoliklarim, g'am-hasratlarim bu muhabbatga mujassamlashgan edi. Ammo buni unga oshkor etishga haqqim yo'q edi. Asal hamon erini kutardi. Kutishga uzoq kutardi-yu, biroq hech sir boy bermasdi. Biz yo'lda ishlayotgan kezlarda uning har bir yo'lovchi mashinani intizor va umidvor ko'zlari bilan kutib olishi va kuzatib qolishini ko'pincha sezardim. Ba'zan o'g'lini ko'tarib yo'l yoqasiga chiqar va u yerda necha soatlab o'tirar edi. U ko'rina qolmasdi. U kim va qanaqa odam ekanligini bilmayman, buni so'ramasdim ham, Asal ham buni hech kimga so'zlamasdi.

Vaqt o'tib borardi. Samad ham ulg'ayib qoldi. Oh, u juda sho'x, jajji toychoq ediki, bilmayman, birov o'rgatganmi yoki o'rganganmi, har holda u meni dada, deya boshladi. Ko'rdimi, bas: „Dada!“ „Dada!“ – deb bo'ynimga osiladi. Asal Samadga qarab o'ychan jilmayib qo'yardi. Men bo'lsam ham quvonardim, ham yuragim o'rtanib azob chekardim. Unga ota bo'lishga ming bor rozi edim-u, ammo nima ham qila olardim...

O'sha yili yoz kunlaridan birida biz yo'l tuzatayotgan edik. Mashinalar bizni chetlab o'tib borardi. Asal qo'qqisdan shofyorlardan biriga qarab qichqirdi:

– Hey, Jontoy, to'xta!

Mashina bizdan biroz o'tdi-yu, taqqa to'xtadi. Asal

shofyor tomon chopib ketdi. Ularning nima haqda gapirishganlarini bilmadim-u, ammo Asalning to'satdan kabinağa qarab qichqira boshlaganini eshitib qoldim:

– Aldayapsan! Yolg'on! Ishonmayman! Yo'qol bu yerdan! Hoziroq yo'qol!

Mashina yo'liga ravona bo'ldi. Asal esa yo'lni kesib o'tib, uyga qarab otildi. Aftidan, u yig'layotgan edi.

Lattadek bo'shshib, qo'lim ishga bormay qoldi. Kim bo'ldi u? Asalga nima dedi? Shunga o'xshagan shubha va taxminlar qamrab oldi meni. Chidab tura olmay, uyga yurdim. Asal o'g'li bilan uyda o'tirar edi. Axiri bo'lmadi, kechqurun uning oldiga kirdim.

– Samad qani? Uni juda sog'inib qoldim! – dedim men.

– Mana, bu yoqda, – dedi Asal ma'yusgina.

– Dada! – deb menga talpindi Samad. Uni qo'limga ko'tarib, erkalatdim. Onasi esa g'amga botib, indamay o'tirardi.

– Nima bo'ldi, Asal? – deb so'radim.

Asal chuqur xo'rsinib qo'ydi.

– Men ketaman, bake, – dedi u. – Bu yerda turmushim yomon bo'lganidan emas, albatta, sizdan ming marta minnatdorman. Biroq nega, qayoqqa ekanligini o'zim ham bilmayman-u, boshim oqqan tomonga ketaman...

U bu gaplarni shunchaki aytgani yo'q, buni ko'rib turibman, g'am-alam ichida ketib qolishi mumkin. Haqiqatni aytishdan bo'lak ilojim qolmagan edi.

– Nima ham derdim, Asal, seni bu yerda ushlab turishga haqqim yo'q. Ammo sen ketgach, bu yerda yashay olmayman, men ham bosh olib ketishim kerak. Vayron bo'lgan uy-joyimni bir marta tashlab ketganman. O'shandan buyon biroz ko'nikib qolgandek bo'luvdim... Tasodifmi bu yoki taqdirmi, faqat sen va o'g'ilchang bilan birga bo'lib, g'am-g'ussalarimni unuta boshlagan edim. Buni gapirib o'tirishning hojati ham yo'q, o'zing bilasan, Asal. Agar sen hozir ketadigan bo'lsang, bu yer ham Pomirda qolib ketgan uyim kabi men uchun haromga aylanadi. O'ylab ko'r, Asal... Mabodo u qaytib kelsa va qalbing unga undaydigan bo'lsa, sizlarga zarracha xalal bermayman, doim erking o'zingda, Asal...

Men shu so'zlarni aytib Samadni ko'tarib oldim-u, yo'lga chiqdim. U yerda Samadni anchagacha ko'tarib yurdim. Bu toychog'im hech narsani tushunmasdi.

Asal shu ko'yi vaqtincha yashab qolaverdi. Ammo uning nimalar haqida o'ylab yurgani, qanday qarorga kelgani menga qorong'i edi. Bu kunlar ichida men ozib-to'zib qorayib ketdim.

Bir kuni tush paytida allaqanday ish bilan hovliga kirib qoldim. Qarasam, Samad ajabtovur yurishga intilyapti. Asal uni, tag'in yiqilib tushib lat yemasin, deb qo'rqib, sal ushlab turardi. Men to'xtadim.

– Bake, qara, o'g'ling endi yuradigan bo'lib qoldi! – dedi quvonch bilan jilmayib.

Nima dedi u? O'g'ling! Men yelkamdagi belkurakni irg'itib yubordim-da, cho'nqayib o'tirib, toychog'imni chaqira boshladim:

– Toy-toy-toy, bo'talog'im! Qani, menga kel-chi, oyoqlaring bilan yerni tepkilab yur-chi, dadilroq bos!

Samad qulochini yozib yubordi.

– Dada! – deb oyoqchalarini entak-tentak bosib, menga qarab chopdi. Men uni ushlab oldim-da, boshim uzra baland ko'tarib, bag'ringa qattiq bosdim.

– Asal! – dedim men unga. – Ertaga bir bolalar bayramini o'tkazaylik-a. Sen oq va qora jundan to'qilgan chilvir tayyorlab qo'y.

– Xo'p, bake! – deb kulib yubordi u.

– Ha, ha, albatta oq va qora jundan to'qilgan bo'lsin.

Men otga mindim-u, chorvador do'stlarim oldiga jo'nadim, u yoqdan qimiz va yangi so'yilgan go'sht olib keldim. Ertasiga esa biz kichkina bayramimiz – „chilvir kesish“ bayramiga qo'shnilarimizni taklif etdik.

Men Samadni yerga o'tqazdim-da, oyoqlarini oq-qora chilvir bilan tushovladim, yoniga qaychini keltirib qo'ydim. So'ng hovlining narigi chekkasida turgan bolalarga qarab buyruq berdim:

– Kimki birinchi bo'lib chopib kelib chilvirni kessa, o'shanga birinchi bo'lib mukofot beriladi, qolganlarga esa navbat bilan ulashiladi. Qani, boshlanglar, bolalar! – deb qo'l siltadim.

Xuddi poygaga qo'yilgan arg'umoqlar singari bolalar bizning „hoy-huv“ va shovqin-suronimiz ostida qiyqirishib chopa ketishdi.

Chilvir kesilib bo'lgandan keyin Samadga qarab:

– Qani, o'g'lim, chopqillayver endi! – dedim. – Uni qo'lidan ushlab olib yuringlar, bolalar!

Ular Samadning qo'lidan tutishdi, u ham bolalar bilan chopib ketdi. Men esa ularning orqasidan, hech kimga murojaat qilmasdan, beixtiyor gapirib yuboribman:

– Odamlar! Mening toychog'im chopqillab yurib ketdi! U tulpordek ildam bo'lsin!

Samad bolalar ketidan chopqillab bora turib, orqaga qayrilib: „Dada!“ dedi-da, dumalab tushdi. Biz Asal bilan ikkimiz baravariga unga tomon tashlandik. Men Samadni yerdan ko'tarib olganimda, Asal birinchi marta menga:

– Jonim! – dedi.

Shu kundan boshlab biz er-xotin bo'lib qovushdik.

Qishda o'g'ilchamizni olib ovulga, chol-kampirlar oldiga borib keldik. Ular bizdan juda xafa edi, biroq keyinchalik kechirishdi, duo qilishib fotiha berishdi.

Kunlar birin-ketin sezilmay o'tib borardi. Samad besh yoshga to'ldi. Biz Asal bilan juda ahil, juda inoq yashardik, faqat birgina narsa haqida og'iz ochmas va eslamas edik. Asal u haqda o'ylarmidi, yolg'iz qolganda uni eslab o'y-xayollarga berilarmidi, buni bilmayman, biroq biz go'yo gap-so'zsiz dilimizda o'zaro shartlashib qo'ygandek edik: biz uni tanimaymiz, biz uchun u odam yo'q va bo'lmaydi ham...

Ammo inson ko'ngli nimalarni istamaydi deysiz. Buning ustiga yana shunday narsalar ham borki, ulardan qochib qutula olmaysan. U yaqindagina bu yerlarda paydo bo'lib qoldi.

Bir kuni kechasi yo'lda avariya bo'lib qoldi. Yordamchim bilan ikkovimiz nima bo'lganini bilish uchun yugurdik. Ehtimol, biror baxtsizlik yuz bergandir. Yetib keldik. Allaqanday yuk mashinasi yo'l chekkasidagi ustunlarga tumshug'i bilan kelib urilibdi. G'irt mast shofyor hushidan ketib taxtadek qotib yotardi. Men uni tanidim-u, ammo ismini eslay olmadim. U bir kuni bizni falokatdan qutqar-

gan va mashinamizni shatakka olib, dovonga olib chiqib qo'ygan edi. Do'landa esa mashinani shatakka olib yurish hazilakam ish emasdi. Ilgarilari bu yerda bunday ish qilish u yoqda tursin, hatto hech kimning xayoliga ham kelmasdi. Bu shofyor bo'lsa, tirishqoq, dovyurak yigit ekan, har qancha og'ir bo'lsa ham mashinamizni uchastkagacha sudrab olib keldi. U menga juda yoqib qoldi, ko'nglimdagidek yigit ekan. O'sha voqeadan keyin allakim birinchi bo'lib dovondan tirkama bilan o'tmoqchi bo'libdi, maqsadiga erishishiga oz qolgan ekan-u, ammo uddalay olmabdi. Tirkamani yo'l yoqasidagi ariqqa tushirib yuboribdi-da, tashlab ketib qolibdi. Men o'shanda o'sha dovyurak yigitning ishi emasmikin, deb xayoldan o'tkazgan edim. Mard kishining o'z maqsadiga erisha olmaganiga juda achingan edim. Ammo o'sha voqeadan keyin dovondan tirkama bilan o'tadigan bo'lishdi. Yigitlar mashina va tirkamalarni sharoitga moslashtirib juda to'g'ri ish qilgan edilar.

Vijdonan aytsam, bu yigit Asal tashlab ketgan kishi ekanini bilmasdim. Agar bilganimda ham baribir shunday qilgan bo'lardim. Men uni uyga sudrab olib keldim, shunda hammasi oydinlashdi qo'ydi. Eshikdan o'tin ko'tarib kirib kelgan Asalning ko'zi unga tushdi-yu, qo'lidagi o'tinlari polga sochilib ketdi. Ammo go'yo birinchi marta uchrashayotgandek, birortamiz ham sir boy bermadik. Ayniqsa men o'zimni qo'lga olishim kerak edi, chunki ehtiyotsizlik qilib biron noo'rin so'z aytib yoki nojo'ya harakatim bilan ularning ko'ngliga tegib ketmaslikka intilardim va ularning bir-birovlarini tushunib olishlariga xalal bermaslik uchun o'zimni tutishga harakat qilardim. Endi men hech narsani hal eta olmasdim. Endi hamma gap ularning o'zlarida qolgandi: ular orasida o'tmish kechmishlari, men bag'rimga bosib va erkalab karavotda olib yotgan o'g'illari bor edi.

O'sha tuni birortamiz ham mijja qoqmadik, har kim o'z o'ylari bilan band edi. Shu jumladan, men ham.

Asal o'g'li bilan ketib qolishi ham mumkin edi. Bu al batta ularning ishi. Mayli, ular yurak amri va aql-idroklari buyurganini qilishsin. Men, men esa... nima ham derdim,

bunga mening nima daxlim bor, masalani hal etish menga bog'liq emas, ularga xalaqit bermasligim kerak...

U hozir ham shu yerda, mana shu yo'ldan qatnaydi. Shuncha yillar davomida qayerlarda bo'lganiykin u, nima bilan shug'ullandiykin? Ammo buning ahamiyati yo'q... Bu ularning ishi...

Biz Boytemir bilan yo'lni aylanib chiqib, orqaga qaytdik. Qosh qorayib qolgan edi. Tyanshanning muzli cho'qqilari ustidagi osmon-u falak bahor oqshomining binafsharang tusiga kirib borayotgandi. Mashinalar yo'ldan ikki tomonga qarab g'iz-g'iz o'tib turardi.

– Mana, hayot qanchalik murakkab, – dedi Boytemir biroz sukutdan so'ng o'ychan. – Men hozir uydan ketishim kerak emas. Mabodo Asal ketish xayolida bo'lsa, mayli. Faqat menga ketayotganini bir og'iz aytsa bo'lgani, o'g'li bilan so'nggi bor xayr-xo'shlashib, oq yo'l tilab qolaman. Axir Samad men uchun o'z o'g'limday bo'lib qolgan-ku. Biroq uni o'z otasidan zo'rlab tortib ololmayman. Shuning uchun men ham hech qayoqqa bormayman. Ayniqsa Pomirga... Men buni sizga gazeta uchun hikoya qilib berayotganim yo'q, albatta. Shunchaki, inson insonga o'z dardini aytib berayotgandek gapirib beryapman-da...



MUNDARIJA

YUZMA-YUZ.....	3
JAMILA.....	87
SARVIQOMAT DILBARIM.....	148

XOTIMA O'RNIDA

Biz Ilyos bilan O'shda ajralishdik. U Pomirga jo'nadi, men bo'lsam o'z ishlarim bilan ketdim.

– Borib Alibekni topaman. Yangicha hayot boshlayman! – dedi u yo'l-yo'lakay.

– Meni endi tuzalmas, tamom bo'lgan odam deb o'ylamang. Kelajagim, hayotim hali oldinda. Kunlar o'tar, men ham uylanarman, boshqalarga o'xshab bola-chaqali, uy-joyli bo'larman. Ishlayman, do'st, yor-birodarlar orttiraman. Lekin faqat birgina narsa: umrbod, manguga yo'qotgan narsamni qaytara olmasam kerak... O'tgan ishni hech qachon qaytarib bo'lmaydi... Ammo hayotimning so'nggi kunlariga qadar, to so'nggi nafasimgacha Asalni va oramizda bo'lib o'tgan hamma shirin damlarni saqlab o'taman.

Yo'lga chiqish oldidan ko'lga, o'sha tik tepalikka bordim. U yerda men Tyanshan bilan vidolashdim, Issiqko'l bilan xayrlashdim. Xayr, Issiqko'l, tugallanmay qolgan orombaxsh kuylarim! Moviy to'lqinlaring va oltin qirg'oqlaring bilan birga qo'shib seni o'zim bilan birga olib ketardim-u, ammo sevgilimning sevgisini olib keta olmaganimdek, seni ham olib ketish qo'limdan kelmaydi. Alvido, Asal! Alvido, qizil durrachali sarviqomatim! Alvido, sevgilim! Baxtiyor bo'lgil...

Men Boytemirdan eshitganlarimni Ilyosga so'zlab bermadim. Axir bu odamlarning ko'rkamligi va qadr-qimmatini ham ularning bir-biri haqida hech narsa bilmasdan turib, bir-biriga shu qadar oliyjanoblik qilishida, insoniy munosabatda bo'lishida emasmi! Shunday ekan, bu gaplarni unga so'zlab nima ham qilardim...

„Jahon adabiyoti oltin fondi“ turkumi

Chingiz Aytmatov

QISSALAR

Yuzma-yuz

•

Jamila

•

Sarviqomat dilbarim

„QALDIRG‘OCH NASHRIYOTI“

Toshkent – 2019

Muharrir *Rustam Mirzayev*

Badiiy muharrir va

kompyuterda sahifalovchi *Oygul Fozilova*

Musahhah *Zulfiya G‘ulomova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 210, 26.03.2012.

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 1.07.2019.

Bichimi 84x108^{1/32}. „PT-Serif“ garniturasida.

Kegli 11,5. Ofset bosma usulida bosildi

Nashr tabog‘i 17,5. Adadi 5000 nusxa.

120-19-sonli buyurtma.

„Yangiyul Poligraph Service,“ MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent viloyati, Yangiyo‘l shahri, Samarqand ko‘chasi, 44.

18960

8415 Kup

Chingiz

AYTMATOV

YUZMA-YUZ

«QALDIRG'UCH
NASHRIYOTI»

ISBN: 978-9943-5946-0-9



9 789943 594609